


**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA MAXSUS
TA'LIM VAZIRLIGI**

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI



"MENEJMENT" FAFULTETI

"MENEJMENT VA MARKETING" KAFEDRASI

**"BIRJA VA YARMARKA FAOLIYATINI BOSHQARISH"
fanidan**

O'QUV-USLUBIY

MAJMUA

Toshkent-2018

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI OLIY VA O'RTA

MAXSUS TA'LIM VAZIRLIGI

TOSHKENT MOLIYA INSTITUTI

MENEJMENT FAFULTETI

"MENEJMENT VA MARKETING" KAFEDRASI

"BIRJA VA YARMARKA FAOLIYATINI BOSHQARISH"
fanidan
O'QUV-USLUBIY
MAJMUA

Bilim sohalari: 200 000 – Ijtimoiy soha, iqtisod va huquq

Ta'lism sohalari: 230 000 – Iqtisod

Ta'lism yo'nalishi: 5230200 – **Menejment (tarmoqlar va sohalar)**

Toshkent -2018

Ushbu o`quv uslubiy majmua Toshkent moliya instituti Kengashining 201__ yil“__” __dagi__ -sonli qarori bilan tasdiqlangan “Birja va yarmarka faoliyatini boshqarish” fani dasturi asosida ishlab chiqilgan.

Tuzuvchilar:

- | | |
|---------------|---|
| Ermatov T.Sh. | – “Menejment va marketing” kafedrasi dotsenti |
| Mamurov S.I. | – “Menejment va marketing” kafedrasi o’qituvchisi |

Taqrizchilar:

- | | |
|-----------------|---|
| Yo’ldoshev N.Q. | – TDIU, “ Menejment” kafedrasi mudiri, i.f.d.
professor (<i>turdosh OTMdan.</i>) |
| Yuldashev A.E. | – Respublika Toshkent fond birjasи boshqaruв raisi
(<i>kadrlar buyurtmachisi</i>). |

“Menejment va marketing”

kafedrasi mudiri:

prof. E.G’.Nabiyev

Fanning o`quv uslubiy majmuasi “Menejment” fakultetining Kengashi muhokamasidan o’tkazilgan va institut Kengashida ko’rib chiqish uchun tavsiya etilgan (2018 yil“__” __dagi__ “__” sonli qaror).

“Menejment” fakultet dekani:

dots. L.Zoirov

Kelishildi:

O’quv-uslubiy bo`lim boshlig`i

dots. T.Baymuradov

O’quv ishlari bo’yicha prorektor

i.f.d.,dots. I.Qo’ziev

Fanning o`quv uslubiy majmuasi institut o’quv-uslubiy Kengashining 2018 yil“__” __dagi__ “__” sonli yig’ilishida ko’rib chiqilgan va tasdiqlash uchun tavsiya qilingan.

Fanning o`quv uslubiy majmuasi institut Kengashining 2018 yil“__” __dagi__ “__” sonli majlisi bayoni bilan ma’qullangan.

MUNDARIJA

I. O'QUV MATERIALLARI	5
1. <i>Ma'ruza bo'yicha o'quv materiallari</i>	6
2. <i>Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha o'quv materiallari</i>	230
II. MUSTAQIL TA'LIM MASHG'ULOTLARI	253
III. GLOSSARIY	264
IV. ILOVALAR	276
1. <i>Fan dasturi</i>	277
2. <i>Ishchi fan dasturi</i>	287
3. <i>Tarqatma materiallar</i>	305
4. <i>Keyslar</i>	336
5. <i>Testlar</i>	344
6. <i>Baholash mezoni bo'yicha uslubiy ko'rsatma</i>	360
7. <i>O'quv-uslubiy majmuaning elektron varianti</i>	

Kirish

Ushbu o'quv-uslubiy majmuada "Birja va yarmarka faoliyatini boshqarish" fanida birja va yarmarkalar va uni rivojlanishining asosiy bosqichlari, birja va yarmarkalarning vazifalari, funktsiyalari va turlari, tovar birjalari-zamonaviy bozor ishslashining muhim omili, birjalar va yarmarkalar faoliyatining boshqaruv organlari va huquqiy asoslari, birja savdosini tashkil etish, birja bitimlari va brokerlik faoliyati, Fyuchers birjalarining roli va ahamiyati, Fond birjalari faoliyati, Valyuta birjalari, FOREKS birjası, bozor tizimida savdo uylari, birja va yarmarkalarning moddiy-texnik bazasi, yarmarka faoliyatini tashkil etish, yarmarka faoliyatini tashkil etish tarixi va rivojlanishi tamoyillari, yarmarka va xalqaro savdoni tashkil etish kabi mavzularni qamrab olgan.

Zamonaviy bozor tizimiga kiruvchi birja va yarmarkalar kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligi va ijtimoiy mahsulot aylanmasi tezlashishini ta'minlaydi. Birja va yarmarkalar faoliyati evaziga tovarlar muomala vaqt qisqaradi, asosiy fondlar, mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi oshadi, aylanma mablag‘ va bank kreditiga bo‘lgan talabning qisqarishi hisobiga boshqa sohalarga yo’naltiriladigan resurslar zaxiralari o‘sishi bilan e’tiborga molikdir.

"Birja va yarmarka faoliyatini boshqarish" fanining asosiy maqsadi-talabalarga bozor iqtisodiyotiga o'tish davrida muomala sohasining asosiy elementi bo'lgan birja va yarmarka faoliyatini chuqr o'rganish, uni tashkil etish, qo'llash masalalari bo'yicha nazariy-amaliy bilimlarni shakllantirish va rivojlanishi qonuniyatlarini o'rgatishdan iborat.

Faning vazifasi- birja va yarmarkalarning tarixi, faolitlarini tashkil etish tamoyillari, taraqqiyoti istiqbollari masalalarini bo'lajak mutaxassislarning bakalavr bosqichda o'rgatishdan iborat.

I.O'QUV
MATERIALLARI

1. MA’RUZA BO’YICHA O’QUV MATERIALLARI

1-mavzu. "Birja va yarmarka faoliyatini boshqarish" fanining predmeti va vazifalari

Reja:

- 1.1. Fanning predmeti, maqsadi va vaziflari.
- 1.2. Birjalar va yarmarkalar rivojlanishi tarixi.
- 1.3. Tovar birjasi-zamonaviy bozor faoliyati omili.
- 1.4. Tovar birjasining huquqiy asoslari.

1.1. Fanning predmeti, maqsadi va vaziflari.

Bozor iqtisodiyoti jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan bir sharoitda birja va yarmakalarning rivojlanish holati va tendensiyalarini, birja faoliyatidagi operatsiyalarni amalga oshirish va uning o'ziga xos xususiyatlarini, yarmarka va birja tovarlarining maxsus qirralarini, birja va yarmakalarni boshqarishning huquqiy asoslarini, brokerlik faoliyati xususiyatlarini bilish kabilarni qamrab olishni o'rgatish - "Birja va yarmarka faoliyatini boshqarish" fanining **maqsadi** hisoblanadi.

Fanning **predmeti** bo'lib, iqtisodiy, moliyaviy boshqarish munosabatlarin, birja va yarmarka tovarlarini sotib olish va sotishga tayyorlash jarayonlarini, birja va yarmarka vositachilari yordmida vujudga keladigan iqtisodiy va boshqaruva munosabatlarini o'rganish hisoblanadi.

"Birja va yarmarka faoliyatini boshqarish" fanining **vazifalariga** quyidagilar kiradi:

- Birjalar va yarmarkalar faoliyatini, bozorlar va ularning asosiy turlari bilan tanishtirish;
- Birja va yarmarka savdolarining rivojlanish tarixini, O'zbekiston va xorij mamlakatlardagi uning asosiy tendensiyalari tadqiqotlari bilan

tanishtirish;

- Birja faoliyatini muvofiqlashtirish mexanizmini o'rganish;
- Birja tovarlari savdosi tahlili va ularning iqtisodiy rolini aniqlash;
- Birjada sotuvchi va xaridor o'rtasidagi byurtmalar shakllanishi texnologiyasi zanjirini o'zlashtirish;
- Birja vositachilarini vazifa va funksiyalari bilan tanishtirish.

“Birja va yarmarka faoliyatini boshqarish” kursining maqsad va vazifalaridan kelib chiqqan holda ushbu kursni o'zlashtirish darajasiga qo'yiladigan talablar quyidagilardan iborat:

- Tashkillashtirilgan bozorning bir shakli sifatida birja xususiyatlarini;
- Birjalarning turlari va ularning asosiy belgilari tasnifini;
- Birja faoliyatida tuziladigan bitimlar mohiyati, real tovar bitimi va real tovarsiz bitimlar farqini;
- Qimmatli qog'ozlar bozorida broker firmalarini tijorat faoliyati mexanizmini tashkillashtirish;
- Tovar birjalarining tashkiliy va boshqaruvi strukturalarini;
- Birja tovarlari va ularning asosiy tasnifiga qo'yiladigan talablar;
- Birja savdolaridagi qimmatli qog'ozlarning tashkiliy mexanizmini;
- Valyuta bozorlaridagi operatsiyalar turlarini bilishlari talab qilinadi.

Bozorda tovar birjalari faoliyatini o'zlashtirishda talaba:

- Birja savdolari rivojlnishi tarixi va ularning tendensiyalari;
- O'zbekistonda va chet mamlakatlarda birja faoliyatini muvofiqlashtirish mexanizmi;
- Tovar birjalarida moddiy-texnik ta'minot haqida tasavvurga ega bo'lishi talab etiladi.

Kursni o'rganish jarayonida talaba :

- Birjalardagi oldi-sotdi shartnomalarini tuzish bilimiga;
- Narxlarni va valyuta kurslarini xeydjerlash operatsiyalarini amalga oshirish, sug'urta imkoniyatlaridan samarali foydalanish bilimiga;
- Valyuta birjalari bozorida mavjud bo'lgan vaziyatlarni baholash va

nazariy jihatdan tahlil qilish imkoniyatiga ega bo'ladi. Shu bilan birga talaba:

- Birja bitimlari tizimida bog'liq bo'lgan risklarni oldini olish;
- Birja bitimlari natijalari va ularning samaradorligini aniqlash, tahlil qilish qobiliyatiga ega bo'lishi ko'zda tutiladi.

1.2. Birjalar va yarmarkalar rivojlanishi tarixi

O'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan birjaning tug'ilishi Yaponiyada I asrga, Qadimgi Rimda I asrning oxiriga, Florentsiyada esa XIII asr ga to'g'ri keladi. XVI -XVII asrlarda Yevropa mamlakatlarida birjalarning paydo bo'lishi ulgurji bozor faoliyati boshlanishiga olib keldi.

«Birja» so'zi lotincha «Bursa» - hamyon so'zidan kelib chiqqan deb hisoblanadi. Flandriyaning eng katta savdo shaxri bo'lmish Bryuggedagi savdo yig'ini maydoni yaqinida joylashgan «Burse» mehmonxonasi ham shu yerlik mashxur zodagon Van der Burse zoti nomi bilan atalgan. Ushbu uchta hamyon tasviri tushurilgan tamg'a bilan bezalgan mexmonxonada savdogarlar boshpana topishar, tijorat xabarlaridan voqif bo'lishar va turli oldi - sotdi bitimlarini tuzishar edilar.

Dastavval, manufaktura ishlab chiqarishigacha bo'lган ulgurji savdoning shakli real - mavjud tovar birjası paydo bo'ldi. Uni boshqalardan, avvaldan o'rnatilagan qoidalarga bo'yso'ngan holda ma'lum bir joyda, muntazam kelishilgan vaqt va sharoitlar asosida savdolashib savdoni takrorlanib turilishi boshqa savdo turlaridan ajratib turar edi. Ko'pchilik xarid operatsiyalar mavjud tovarlar bo'yicha bitimlardan iborat bo'lar edi.

XV—XVI asrlarda birjalar yirik tovar partiyalari bilan tashqi savdo operatsiyalarini riovjlantiish zaruratining namoyon bo'lishi sifatida Italiya va Gollandiyada manufakturalar paydo bo'lgan joylarda vujudga kela boshladi. Antverpen birjasiga qarab Lion (1545), London Qirollik birjası (1566) va boshqa birjalar vujudga kelib, ular, asosan, tovar va veksellar bilan savdo qilgan. 1602-yilda tashkil qilingan Amsterdam birjası XVII asrda jahon savdosida bosh rolni o'ynagan,

unda endi paydo bo'la boshlagan aksiyadorlik kompaniyalarining aksiyalari ilk bor birja bitimlari predmetiga aylandi. AQShda tovar bozorlari 1752-yildan beri mavjud, ularda mahalliy ishlab chiqarilgan tovarlar, uy xo'jaligi mahsulotlari, to'qimachilik mahsulotlari, teri va jun, metal va yog'och bilan savdo qilingan.

Dastlab real tovar birjasi, ya'ni manufaktura ishlab chiqarishiga mos keladigan ulgurji savdo shakli vujudga kelgan. Uning zamonaviy birjalarga ham xos bo'lgan ajratib turuvchi jihatlari savdoni muntazamligi, savdoning oldindan o'rnatilgan qoidalarga va belgilangan joyga bog'lab qo'yilganligidir. Birja operatsiyalarining eng xarakterli turi naqd tovar bilan operatsiyalar hisoblanadi. Birja savdosining bu bosqichida faqat xaridor va ishlab chiqaruvchi yoki iste'molchi o'rtasida aloqa o'rnatilgan. Birjalarni ta'sis etish juda sekin borgan va asosan, xalqaro savdo bandargohlari uchun yetakchi birjalar bilan cheklangan.

Sanoat inqilobi xom-ashyo va oziq-ovqatga talabning kengayishi, savdo hajmi va nomenklaturasining o'sishiga olib keldi, tovarlar sifatining bir xilligi va ta'minotning muntazamligiga talablarni kuchaytirdi. Ishlab chiqarishning bu talablarini qondirish zarurati bиринчи turdagи birjalarning o'zgarishini, ularning yangi sharoitlarga moslashuvini asoslab berdi. Xususan, bozordan o'ren ajratish, birja savdosini tashkil qilish va savdo odatlarini qayd etish bilan birga birjalarning asosiy funksiyalari qatoriga tovar standartlarini belgilash, namunaviy shartnomalar ishlab chiqish, narxlarni kotirovkalash, muammolarni tartibga solish (arbitraj) va axborot faoliyati ham qo'shildi. Birjalar asta-sekinlik bilan xalqaro savdo markazlariga aylandi.

Savdo aylanmasi o'sish sur'atining tezligi, jahon bozorining vujudga kelishi naqd tovar partiyalari asosida savdo yuritishni qiyinlashtirdi. Ommaviy ishlab chiqarish ularning narxi o'zgarib turadigan xom-ashyo yetkazib berilishiga ishonchdan tashqari kapitalga, jumladan, tovar shaklida sotish bosqichida turgan mahsulot chiqarishga sarflangan kapitalga foyda olishni ham talab qiladi. Narxlarning keskin o'zgarishi riskni sezilarli oshirib, foyda olishdan ishonchi komil bo'lishni pasaytiradi. Natijada birja operatsiyalarida tadbirkorlarga talab qilingan sifatli tovarni kerakli paytda foyda olish imkoniyatini ta'minlaydigan narxda yetkazib berishni kafolatlaydigan real tovar bilan muddatli bitimlar yetakchi rol o'ynay

boshladi. Birja savdosi rivojlanishining keyingi bosqichida fyuchers (ulgurji sirtqi, naqdsiz) savdosi vujudga keldi. Zamonaviy fyuchers savdosi tarixi AQShning O'rta Sharqida 1800-yillarning boshida boshlangan. U Chikagoda tijorat faoliyati va O'rta G'arbda don savdosining rivojlanishi bilan uzviy bog'liq.

Talab va taklif sohasidagi betartiblik, yuk tashish va saqlash muammolari fermerlar va savdogarlarni tovarlarni keyin yetkazib berish sharti bilan shartnomalar tuzishga majbur qildi. Makkajo'xori yetkazib berishga oldindan shartnomalar ilk bor daryo orqali savdo qiluvchi savdogarlar tomonidan tuzilgan bo'lib, ular fermeriardan donni kech kuzda va qishning boshida olganlar, biroq uni makkajo'xori kemaga yuklash uchun yaroqli holatga kelgunga, daryoda muz erib ketgunga qadar saqlashlari lozim bo'lgan. Qishki saqlash paytida narxning tushib ketishi riskini kamaytirish uchun bu savdogarlar Chikagoga borib, u yerda donni qayta ishlaydigan korxonalarga bahorda don yetkazib berish bo'yicha shartnomalar tuzganlar. Shunday qilib, ular o'zlariga xaridorlar va don narxini kafolatlaganlar. Masalan, 1851-yilning 13-martida iyun oyida yetkazib berish sharti bilan 3 ming bushel (75 tonna atrofida) makkajo'xori yetkazib berishga shartnoma imzolangan.

XIX asrning oxirlariga kelib, fyuchers savdosi shunchalik tezlasha boshladiki, savdo amaliyotini rasmiylashtirish, shartnomalarni standartlashtirish, hisob-kitob va xulq-atvor qoidalari, muammolarni hal qilish tartibini belgilash zarurati vujudga keladi. XX asrning boshlarida esa yangi tovar birjalarining vujudga kelishi bilan fyuchers savdosi yana va yana rivojiana boshladi.

XVIII asrning oxirlari XIX asrning boshlarida Yevropada sodir bo'lgan sanoat inqilobi oziq-ovqat va xom ashyoga bo'lgan talabni tez ortishiga, Jahon savdosi ham hajmi, ham tovar xillarini o'sishi, o'xshash xususiyatli tovarga qo'yiladigan talab ko'rsatkichlarining ortishiga olib keldi. Tovar birjalari savdoni tashkil etish, birjadan joy berish va odatdagি savdo xarid qoidalarini o'matish bilan cheklanmay asosiy faoliyat doirasiga tovarlarga standartlarini o'rnatish, shartnomalarning shakl - nuxxalarini ishlab chiqish, baho kodi, anglashilmovchiliklar echimi (Arbitraj) hamda axborot yig'ish va tarqatish kabi ishlarni kiritdilar. Barcha birjalar borgan sari xalqaro savdo markazlariga aylanib bordi. Real tovarlar bo'yicha muddatli, talab qilingan tovarni ma'lum narx va

muddatda yetkazib berish kafolatini beruvchi, foyda olish imkonini beruvchi bitimlar asosiy ahamiyat kasb etadigan bo'ldi. Bu o'z navbatida firmalar uchun o'z ishlab chiqarish harajatlarini oldindan aniqlash imkonini berdi. Natijada ishlab chiqarish jarayonida qatnashmagan va faqat kafolat sarmoyasi bo'lmish sarmoyaning bir qismi bo'shab - ortib qoldi. Erkin raqobatli juda ko'p sotuvchilari va xaridorlari mavjud bozor sharoitida birja ko'payib borayotgan turli xildagi tovar massasini ishlab chiqaruvchidan iste'molchiga eng kam ijtimoiy zarur mehnat va sarmoya sarf-harajatlari evaziga yetkazib berishiga imkon yaratdi.

XIX asr oxiri XX asrni boshlarida real tovar birjalari ahamiyati tushib ketdi. Shu bilan birga butunlay yangi xil tovar birjalari - fyuchers birjalari paydo bo'la boshladi. Bu jarayon har bir mamlakatda turlicha shaklda bo'sada, vaqt bobida ancha cho'zilib ketdi, hatto cho'yan, ko'mir, spirt, beda, solod (qizil miya - dorivor o'simlik)lar bo'yicha birja savdolari umuman to'xtab qoldi.

Hozirgi vaqtida mavjud real tovarlar birjalari bir nechta mamlakatlardagina saqlanib qolgan bo'lib, ulardagi ayirboshlash xajmi uncha katta emas. Ular odatda maxalliy ahamiyatga ega bo'lган, kam talab qilinadigan iste'moli, sotilishi va xarid qilinishi sust bo'lган tovarlar ulgurji savdosi bo'lib xizmat qiladi. Ba'zan ma'lum muhim tovarlar eksportida mamlakat sanoati manfaatlari himoyasini tashkil etadi. Ulardan eng kattasi Xindiston, Indoneziya, Malayziyada faoliyat ko'rsatmoqdalar.

Binobarin tovar birjasi instituta o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q, balki xuquqlar – tovar bozoriga aylandi yoki fyuchers birja deb ataluvchi birja ko'rinishini oldi. Aynan shu birjalar g'arb mamlakatlari tijoratining asosi hisoblanadi. Bozor munosabatlariga asoslangan iqtisodiyot muomala soxasining asosiy elementlaridan biri bo'lган birja va yarmarka faoliyatini mavjudligi hamda taraqqiyoti bilan harakterlidir.

Kichik biznesni rivojlantirish uchun imkon qadar qulay ishbilarmonlik muhitini shakllantirish va tadbirkorlikka keng erkinlik berishga doir chora-tadbirlarni amalgalash oshirish doirasida joriy yilning birinchi yarmida tadbirkorlik sub'ektlariga er uchastkalarini ajratish, ularni elektr ta'minoti tarmoqlariga ularash mexanizmlarini

yanada takomillashtirish, tadbirkorlarni huquqiy himoya qilishni kuchaytirishga qaratilgan qator qonunchilik va me'yoriy-huquqiy hujjatlar qabul qilindi.

Jahon moliyaviy inqirozining har bir mamlakatga ta'siri, undan ko'rildigan zararning darajasi va ko'lami, birinchi navbatda, shu davlatning moliyaviy-iqtisodiy va bank tizimlarining nechog'liq barqaror va ishonchli ekaniga, ularning himoya mexanizmlari qanchalik kuchli ekaniga bog'liqligini isbotlashga hojat yo'q, deb o'layman.


O'zbekistonda qabul qilingan o'ziga xos islohot va modernizatsiya modeh orqali biz o'z oldimizga uzoq va davomli milliy manfaat-larimizni amalga oshirish vazifasini qo'yar ekanmiz, eng avvalo, «shok terapiyasi» deb atalgan usullarni bizga chetdan turib joriy etishga qaratilgan urinishlardan, bozor iqtisodiyoti o'zini o'zi tartibga soladi, degan o'ta jo'n va aldamchi tasavvurlardan voz kechdik¹.

Mamlakatimizda 1990—1991-yillardagi iqtisodiy va siyosiy shart-sharoitlar o'ziga xos birja jarayoniga va birjalarning keyingi rivojlanishiga olib keldi. Real tovar bilan birja savdosi hozirda bozor kollapsini boshidan kechirmoqda. Bozorning rivojlanishi bilan birjalar o'z rivojlanishida qator bosqichlarni bosib o'tdi: dunyoga kelish, tez o'sish, pasayish, birja faolligi, birjalarni qayta tashkil qilish. Ularni bozor iqtisodiyoti sharoitlarida hali ko'p qiyinchiliklar kutib turibdi. Birja faoliyati bo'yicha boy tajriba to'plangan, birja kadrlari tayyorlangan, davlat qonunchiligi ishlab chiqilgan, birja ishi nazariyasi rivojlanmoqda. Bularning barchasi birja sohasida keyingi yangi sifat qadamlarini qo'yish uchun shart-sharoitlar yaratilgan, deb xulosa chiqarishga imkon beradi.

Bozor sifatida birja xo'jaliklarning mikro va makro darajalarini, ya'ni erkin xo'jalik faoliyati yurituvchi tadbirkorlarni ishlab chiqarish bilan bog'laydi. Birja eng muhim bozor mexanizmlari: raqobat, talab, taklif, narx shakllanishini o'zida mujassamlaydi. Narx shakllanishi mexanizmi vositasida birja xo'jalik agentlarini bozor o'zgarishlari, yangi sharoitlar va yangi tovar turlarining paydo bo'lishi haqidagi axborot bilan uzlusiz ta'minlaydi.

¹Karimov I. A Jahon moliyaviy-iqtisodiy inqirozi, O'zbekiston sharoitida uni bartaraf etishning yo'llari va choralar. — T.: «O'zbekiston», 2009. — 7-b.

Birja, bir tomondan, foyda olish maqsadida o'z mahsulotlarini sotish uchun, boshqa tomondan, o'z talabini qondirish uchun mustaqil xo'jalik subyektlari uchrashadigan bozor elementi hisoblanadi (1-chizma). Birjada xaridor va sotuvchi bir-biri bilan bog'liq emas. Oldi-sotdi jarayoni vositachilar (brokerlar, dilerlar, treyderlar) orqali amalga oshiriladi. Narx talab va taklifga bog'liq bo'ladi. Agar ishlab chiqaruvchi birjada sifati yaxshilangan yangi tovar taklif etadigan bo'lsa, u oshirilgan narx qo'yishga haqli. Iste'molchilarning bunga javobi ijobiy bo'lgan holatda ishlab chiqaruvchi tarmoq bo'yicha o'rtacha darajadan yuqori foyda oladi. Bu boshqa tadbirkorlarni ishlab chiqarishni qayta yo'naltirish va o'zini yaxshi ko'rsatgan tovar ishlab chiqarishga majbur qiladi.



1-chizma. Birjada mustaqil xo'jalik sub'yektlarining o'zaro munosabatlari.²

Bunda tadbirkorlar xaridorlarni jalb qilish uchun uni arzonroq narxda taklif iladi. Vaqt o'tishi bilan ushbu mahsulot turining taklifi talabni oshiradi, bozor to'yinadi, narx esa belgilangan o'rtacha darajada barqarorlashadi. Agar yangi

² K. Z. Xomitov, F. A. Hamidova . BIRJA ISHI.T.2013 y.

mahsulot turi ishlab chiqaruvchi birjada muvaffaqiyatsizlikka uchrasa, ya'ni uning tovariga talab bo'lmasa, narx pasayadi va ushbu tovar partiyasi sotib bo'lingunga qadar tushib boradi.

Talab va taklif muvozanatsizligi natijasida real tovar xaridorlari yoki sotuvchilari oldi-sotdiga tayyor bo'lmaydilar.

Shunda talab va taklifni vositachilar vaqtinchalik qo'llab-quvvatlaydilar, xedjlash mexanizmi orqali riskni narxning keyingi pasayishi yoki o'sishigacha pasaytiradilar va yetarli foydani ta'minlaydilar.

Birja bozori sub'yektlarining munosabatlari. Tovar birjasini bozor narxlari, bozorning holati va hokazolar haqida tijorat axboroti shakllantiriladigan joy bo'lib xizmat qiladi. Birjalar narx haqidagi axborotlarning yagona manbasi bo'lib, narx shakllanishi jarayoniga tobora katta ta'sir ko'rsatmoqda. Birja axboroti e'lon qilinadi, oldi-sotdi natijalari esa tijorat siri hisoblanadi. Ta'kidlash joizki, tovar birjasining o'zi savdo-vositachilik faoliyatini amalga oshirmasdan, faqat uning uchun sharoitlar yaratadi, xolos. Savdoni brokerlik idoralari va brokerlar (dilerlar, treyderlar) amalga oshiradilar. Mamlakat qonunchiligiga ko'ra, agar bu korxonalar o'z oldiga bevosita birja savdosini tashkil qilish va tartibga solish bilan bog'liq faoliyatni amalga oshirishni maqsad qilib qo'ymasa, birja korxonalarning aksiyalarini xarid qilish, qo'yilmalarni amalga oshirish huquqiga ega emas. Tovar birjalari Rossiyada hozirgi paytda jahon bozori bilan bog'liq emas, ularning vazifalaridan biri — mamlakat ichkarisida ishlab chiqaruvchidan yakuniy iste'molchiga savdo aylanmasini tashkil qihsh. Bu birjalar faoliyatida alohida iz qoldiradi. Shunday qilib, birjaga bozorda tashkil etuvchi rol yuklatiladi.

Bozorning tabiiy qonunlari, talab va taklif qonunlarini bartaraf qilmay, tovar birjasini mamlakatning bozor tizimiga sog'lomlashtirish, tartibga solish va rejelashtirish elementlarini kiritadi. Birja orqali tovar ishlab chiqarish sohasidan iste'mol sohasiga tez harakatlanish amalga oshiriladi, chunki birja savdosini differensial foya olgan holdagina bo'lishi mumkin. Birjalar bizda tadbirkorlarni iqtisodiy tashkil qilish rolini ham bajaradi.

Birja tovarni o'zida jamlashi tufayli zaxiralarni vaqt va makon bo'yicha taqsimlash joyi bo'lib xizmat qiladi. Zaxiralarni makon bo'yicha taqsimlash shu

tarzda ro'y beradiki, bu tovarga eng katta ehtiyoj va eng yuqori narx boiishi aniqlanmagan holda muddatli savdo tovarni «havoda» ushlab turadi. Vaqt bo'yicha taqsimlashning vazifasi zaxiralarni bozorga darhol, arzon narxda chiqarmasdan, ishlab chiqaruvchi yaratadigan imkoniyatlar doirasida yil davomida bir tekisda taqsimlashdan iborat.

Bozor elementlari sifatida birjalar mohiyatini tushunish uchun ularning ajratib turadigan belgilarini sanab o'tish lozim:

- bozorning tartibliligi va savdoni tiklashning muntazamligi; oldindan belgilangan ma'lum bir qoidalarga bo'ysunish; belgilangan joyga bog'liqlik; tovarlarga standartlarning belgilanishi; namunaviy shartnomalar ishlab chiqish; narxlarni kotirovkalash;
- arbitraj — mojarolarni tartibga solish, birjaning axborot faoliyati, tovarning o'zi yo'qligida bitim tuzish;
- bitimlarning o'ziga xos xarakteri: javob tariqasidagi, xaridor va sotuvchi o'rtasida ikkiyoqlama kimoshdi savdo tamoyili bo'yicha;
- sifat jihatidan taqqoslasa bo'ladigan, alohida partiyalari bir-birini almashtira oladigan, bir xil tovarlar bilan ommaviy savdo qilish, bitimlarning chayqov xarakteri, savdo qatnashchilarining maksimal tijorat natijasiga intilishi — birja savdosini harakatlantiruvchi iqtisodiy kuchdir.

Bundan tashqari, fyuchers birja savdosi qo'shimcha jihatlarga ega bo'ladi:

- maqsadi tovarning iste'mol qiymati emas, balki almashtirish qiymati hisoblangan bitimlarning soxta xarakteri, real tovar bozori bilan bilvosita aloqa (xedjlash orqali); uning vakili birja shartnomasi bo'lgan tovarning iste'mol qiymatini to'liq bir xillashtirish;
- bitim shartlarining katta qismini to'liq bir xillashtirish (tovar miqdori, yetkazib berish muddati);
- bitimlarning ta'minlanganligi va ular bo'yicha kontragentlarning almashtiriluvchanligi.

Fyuchers birjasi bir vaqtning o'zida mos keluvchi tovarlar narxi bozorini ifodalaydi va birja kotirovkalarining shakllanishiga ham, xedjlash mexanizmi orqali

real tovar bilan muayyan bitmilarning amaldagi narxlariga ham, yakuniy hisobda tovar ishlab chiqaruvchi flrmalarning raqobatbardoshligiga jiddiy ta'sir ko'rsatadi.

Birja mexanizmi tadbirkorlar o'rtasida eng yaxshi xo'jalik yuritish sharoitlari uchun, mahsulot ishlab chiqarish va sotishning eng yaxshi sharoitlari uchun va maksimal daromad olish uchun iqtisodiy kurashni qo'llab-quvvatlaydi. Raqobat birja bozorida samarali faoliyat ko'rsatadigan mexanizmni ifodalaydi.

AQSh birja tizimining asosiy bo'g'ini Nyu-York fond birjasi hisoblanadi. Biroq ushbu birjaning yetakchi pozitsiyalarini Amerika fond birjasini tashkil qilish turi bo'yicha monosentrik qilib qo'ymaydi. Unda kattaligi bo'yicha ikkinchi birja - Nyu-Yorkda joylashgan Amerika fond birjasi, mintaqaviy birjalar va so'nggi o'n yillikda Chikago opsonilar birjasi sezilarli rol o'ynamoqda.

Nyu-York fond birjasi o'z tarixini 1792-yildan boshlab yuritadi va tashkil etish shakli bo'yicha uning a'zolari mulkida bo'lgan korporatsiya hisoblanadi. Nyu-York fond birjasining ishini uning a'zolari tayinlaydigan direktorlar kengashi boshqaradi. Birja a'zolari soni 1988 yildan beri o'zgarmagan va 1469 kishini tashkil qiladi. Har yili bir necha o'nlab joy o'z egalarini almashtiradi, biroq Nyu-York fond birjasi a'zolar kontingenti yuqori barqarorlik bilan tavsiflanadi, bu birjani zamonaviy Amerikaning eng nufuzli institutlari qatoriga kiritadi.

Birjada yetakchi rolni Nyu-York fond birjasining ikki toifa a'zolari: brokerlar va mutaxassislar o'ynaydi. Mutaxassislar Nyu-York fond birjasining kamchiligini iashkil etadi (1992-yil o'rtalarida ularning soni 412 kishiga teng bo'lgan), biroq ular uzoq vaqt birjachilarining yetakchilik qilgan guruhi bo'lib kelgan, ularning ta'siri hozirda ham katta. Mutaxassislarning kuchi shundaki, ular bevosita bitimlar tuzishni monopoliyalashtirganlar - brokerlar operatsiyalarni o'z hisobidan yuritish huquqiga ega emas va faqat mutaxassislarga mijozlarning aksiyalar oldi-sotdisi bo'yicha topsluriqlarini yetkazadilar, xolos. Mutaxassislar o'rtasida raqobat yo'q va ularning har bin operatsiyalarni qat'iy belgilangan qimmatli qog'ozlar chiqaruvi bo'yicha yuritadi. Mutaxassis operatsiyalarni o'z hisobidan yuritadi, u bevosita birja mijozlari bilan savdo qilish huquqiga ega emas. Uning bitimlarida kontragentlar bo'lib faqat birjachttarning o'zi qatnashjshi murnkin. Mutaxassislar faoliyatining mohiyati

shundaki, u Amerika birja atamashunosligidan so'zma-so'z tarjima qilganda «narxlardagi uzilishni yopgan holda bozorni tashkil qiladi».

Quyidagi shartli misolda keltirilgan ma'lumotlar bu faoliyatni tasvirlaydi (dollarda): sotuvchi sifatida ishtirok etayotgan investoriar (birja mijozlari) va xaridorlar taklif etayotgan narxlar o'rtasidagi farq katta bo'lib, 1 dollarni tashkil etadi. Bunday sharoitda bitim tuzishning ehtimoli kam. Mutaxassisning vazifasi eng yuqori narx taklif qilayotgan xaridor va eng past narx taklif qilayotgan sotuvchi sifatida ishtirok etishdan iborat. Bu holatda narx o'rtasidagi farq 0,5 dollargacha, ya'ni ikki baravar qisqaradi. Buning natijasida bitim tuzish ehtimoli ortadi.

Fond operatsiyalari qatnashchilari: taklif, sotuvchi va xaridor narxi o'rtasidagi farq (doll.), kurs bo'yicha sotib olish, kurs bo'yicha sotish:

104,50 105,51 Mijozlar

104,75 105,25 0,5 Mutaxassislar

Aytilganlar mutaxassislarga yuklatilgan asosiy funksiya asoslanadigan tamoyil - aksiyalar likvidligini ta'minlashni namoyish etadi. Bundan tashqari, mutaxassislar konyunkturaning barqarorlashuvini ta'minlashi va narxlaraing keskin sakrashining oldini olishi lozim.

Mutaxassislar juda faol savdo qiladi. Ularning soni nisbatan kam ekanligiga qaramay, so'nggi yillarda Nyu-York fond birjasi operatsiyalarining 1 1% aynan ularga to'g'ri keldi, 90-yillar boshida esa mutaxassislar ulushi 13%ga teng bo'lgan.

Bevosita aksiyadorlar bilan munosabatlarga aksiyalar oldi-sotdisi bo'yicha topshiriqlarni qabul qiladigan brokerlar kirishadi (Nyu-York fond birjasida ularinng soni 611 kishi). Standart topshiriqlar aksiyalar soniga 100 karrada beriladi (aksiyalar soni kichikroq operatsiyalar kamdan-kam: ularning umumiyl operatsiyalar hajmidagi ulushi 1991-yilda 0,5 - 1% atrofida bo'lgan). Bitimni tuzganlik uchun broker mijozdan komission mukofot oladi: 1975yilgacha ularning miqdori qat'iy belgilangan va bitim hajmiga bog'liq bo'lgan.

Nyu-York fond birjasining qolgan a'zolari ikkinchi darajali rol o'ynaydi. Ular operatsiyalarni o'z hisobidan amalga oshirib, birja mexanizmidagi o'rni bo'yicha mutaxassislarga yaqin turadi, qolganlar brokerlik funksiyalari, faqat investorlar

uchun emas, balki ularda yig'ilib qolgan investorlar topshiriqlarining bir qismini beradigan brokerlar uchun bajaradi.

Nyu-York fond birjasida a'zolik huquqiga ayrim shaxslar ega, biroq agar birja a'zosi firmaning egalaridan biri hisoblansa, butun firma Nyu-York fond birjasining a'zosi hisoblanadi. Nyu-York fond birjasiga a'zo bo'lgan firmalar orasida Anierika fond birjasida asosiy pozitsiyalarni egallagan o'nlab investitsion banklar yetakchilik qiladi.

Qimmatli qog'ozlarni Nyu-York fond birjasida kotirovkaga qabul qilish uchun ular quyidagi talablarga javob berishi kerak: joylashtirilgan aksiyalar bozor qiymati 16 mln. dollardan kam bo'lmasligi; muomalada kamida 1 mln. oddiy aksiyalar bo'lishi; «to'liq lotlar» egalari, ya'ni 100 ta va undan ortiq aksiyalar egalari kamida 2 ming kishini tashkil etishi; oxirgi moliya yili uchun soliqlar toianmasdan oldingi korporatsiya daromadlari kamida 2,5 mln. dollar va bundan oldingi ikki yilning har biri uchun kamida 2 mln. dollar bo'lishi lozim. Birjaning direktorlar kengashi ham korporatsiyaning mamlakat miqyosidagi mashhurlik darajasini, kompaniyaning tarmoqdagi o'rnini, umumiy holati va rivojlanish istiqbollarini baholaydi. Fond birjasida korporatsiya qimmatli qog'ozlarini ro'yxatga olishning muhim sharti uning faoliyati haqida investorlarga vaqt-vaqt bilan axborot taqdim etish majburiyati hisoblanadi.

Kompaniya aksiyalari kotirovkasini to'xtatish (to'xtatib turish) yoki kompaniyani kotirovka qilinadiganlar qatoridan chiqarishga ikki holatda yo'l qo'yiladi: birja direktorlar kengashining qarori bo'yicha va kompaniyaning o'z talabi bo'yicha. Birjaning direktorlar kengashi kompaniya yuqorida ko'rsatilgan shartlarni bajarmagan, xususan, miqdoriy ko'rsatkichlarga javob bermagan hollarda bunday qadamni qo'yishi mumkin. Bunday qaror birjada ro'yxatga olingan kompaniyaning o'zi tomonidan ham qabul qilinishi mumkin. Buning uchun ushbu masala bo'yicha aksiyadorlar o'rtasida ovoz berish o'tkazish va ovozlarning 2/3 qismi buning uchun berilishi, bunga qarshi aksiyadorlarning 10%dan ortiq bo'lмаган qismi ovoz berishi va bunga kompaniya direktorlarining ko'pchiligi rozilik berishi zarur.

Oxirgi 10 yil davomida Nyu-York fond birjasida taqdim etilgan korporatsiyalar soni qariyb o'zgarmadi. Hozirgi paytda bu raqam 1500 ni tashkil etadi. Ushbu

korporatsiyalar guruhi Amerika biznesirring eng sara vakillaridir. AQShda muomalada bo'lgan kapitalning eng katta ulushi shu aksiyadorlik jamiyatlarining aktivlariga to'g'ri keladi, 1993-yil boshida bu ko'rsatkich 81%ni tashkil qilgan.

Nyu-York fond birjasi doimo uning faoliyatiga davlat tomonidan biror-bir aralashuvga qattiq qarshilik ko'rsatib kelgan, birja faoliyatini tartibga solishning birja a'zolari tomonidan amalga oshirilishi yetarli ekanligini himoya qilgan va «yopiq klub» maqomini saqlab qolishga harakat qilgan.

Biroq tarixan qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solishning ikki yo'nalishi - davlat tomonidan va birjachilarining o'zлari tomonidan tartibga solish vujudga kelgan. 1929-33-yillardagi inqirozgacha davlat amalda birjalar faoliyatiga umuman aralashmagan. Inqiroz va uning ortidan kelgan depressiya fond bozori faoliyatini davlat tomonidan tartibga solish tadbirlarini ishlab chiqishni tezlatdi. Hozirgi paytgacha 1933-yilda qabul qilingan qimmatli qog'ozlar haqidagi qonun va 1934-yilda qabul qilingan fond birjalari haqidagi qonun qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni davlat tomonidan tartibga solishga asoslanadigan asosiy hujjatlar hisoblanadi.

Birjalar faoliyatiga davlatning aralashuvi asos qilingan bosh g'oya aksiyalar va obligatsiyalar oldi-sotdisi jarayoniga maksimal aralashmaslikka erishish bo'ldi. Bu g'oya inqirozdan keyin qabul qilingan qonun hujjatlari asoslanadigan «axborot taqdim etish» tamoyilida o'z aksini topdi. Ularning mualliflari shundan kelib chiqdilarki, agar korporatsiyalar aksiyadorlarga firma faoliyati haqida to'liq va ishonchli axborot taqdim etadigan bo'lsa, bu avtomatik ravishda qimmatli qog'ozlar bozorining barcha nuqsonlari yo'qolishiga olib keladi, chunki aksiyalar va obligatsiyalar haqiqiy qiymatini oson aniqlash mumkin bo'ladi va ular bilan turli maxinatsiyalar yaqqol ko'rinish qoladi.

AQShning ahamiyati bo'yicha ikkinchi o'rinda turadigan birjasi - Amerika fond birjasi rasman mustaqil, haqiqatda esa Nyu-York fond birjasi bilan uzviy bog'liq. Amerika fond birjasi XIX asrning 50-yillaridan boshlab qimmatli qog'ozlar norasmiy bozori sifatida mayjud bo'lgan, uning tashkilry shakllanishi 1908-1921-yillarda ro'y bergen.

Ushbu birjada qabul qilingan birja savdosi qoidalari, asosan, Nyu-York fond birjasida amal qiladigan qoidalar bilan bir xil. 1975-yilgacha ikkala Nyu-York birjalarida bir xil komission mukofotlar qo'llanilgan. Bu holat bitta moliyaviy markazda joylashgan ikkita yirik birjaning raqobat qilishi uchun potensial imkoniyatlarini pasaytirgan. Nyu-York fond birjasi va Amerika fond birjasi o'rtasida kuchli raqobat yo'qligining asosiy sababi shundaki, Amerika fond birjasi a'zolarining ko'pchilagini Nyu-York fond birjasida yetakchi o'ringa ega bo'lgan firmalar tashkil etgan.

Amerika fond birjasida qimmatli qog'ozlarni ro'yxatga olishda qo'yiladigan talablar Nyu-York fond birjasi standartlariga nisbatan yumshoqroq. Amalda Amerika fond birjasi Nyu-York fond birjasining o'ziga xos sinov maydoni vazifasini bajaradi. Istiqbolli va o'sib borayotgan korporatsiyalarning qimmatli qog'ozlari dastlab Amerika fond birjasida kotirovka qilinadi va so'ngra, agar uzoq vaqt davomida bu korporatsiyalar ulardan kutilgan umidlarni oqlasa, ularning qimmatli qog'ozlari Nyu-York fond birjasiga o'tkaziladi. "General Motors", "Radio Corporations of America" kabi korporatsiyalarning qimmatli qog'ozlari aynan shu yo'lni bosib o'tgan. Amerika fond birjasi xorijiy qimmatli qog'ozlar savdosida ham sezilarli o'rin egallagan.

AQSh ning birjadan tashqari bozori ham qimmatli qog'ozlar bozorida sezilarli o'ringa ega. Hozirgi paytda birjadan tashqari aylanmaning asosi miliiy fond dilerlari tomonidan tashkil qilingan va 1971-yilda ishga tushirilgan NASDAQ kommunikatsiya tizimi hisoblanadi. Ushbu tizim doirasida aksiyalari kotirovka qilinadigan amerikalik va xorijiy korporatsiyalar soni barcha amerika birjalarida kotirovka qilinadigan korporatsiyalarning birgalidagi sonidan ham katta. Birjadan tashqari bozorning o'z kanallari bo'yicha milliardlab aksiyalarni o'tkazish qobiliyati shuni ko'rsatadiki, tashkilotchilik nuqtayi nazaridan u juda yuqori rivojlangan. Buning ustiga, NASDAQ tizimining texnik imkoniyatlari unga hozirgi paytda birjalarda kotirovka qilinayotgan aksiyalarni ham kiritishga imkon beradi. NASDAQ tizimida kotirovka qilinayotgan qimmatli qog'ozlar bo'yicha dilerlar bo'lib 360 dan ortiq firma qatnashmoqda.

NASDAQ tizimiga kirish uchun kompaniyalar o'z qimmatli qog'ozlarini 1933-yildagi Qimmatli qog'ozlar to'g'risidagi qonun yoki 1940-yildagi Investitsion kompaniyalar to'g'risidagi qonunga muvofiq ro'yxatdan o'tkazishlari lozim; ular obuna bo'yicha joylashtirilgan kamida 100 mingta aksiyaga ega bo'lishi va 300 dan ortiq aksiyadorni birlashtirishi zarur. Bundan tashqari, har bir aksiya narxi, foyda va aktivlar hajmi, bu aksiyalar bozorini belgilab beradigan va ular bilan bitimlarni nazorat qiladigan shaxslarning mavjudligiga taalluqli qo'shimcha shartlar ham ko'zda tutilgan. Hozirgi paytda NASDAQ tizimida brokerlar ham, dilerlar ham ishlamoqda.

1.3. Tovar birjasi-zamonaviy bozor faoliyati omili

Zamonaviy bozor tizimiga kiruvchi birja va yarmarkalar kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligi va ijtimoiy mahsulot aylanmasi tezlashishini ta'minlaydi. Birja va yarmarkalar faoliyati evaziga tovarlar muomala vaqtqi qisqaradi, asosiy fondlar, mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi oshadi, aylanma mablag' va bank kreditiga bo'lgan talabning qisqarishi hisobiga boshqa soxalarga yunaltiriladigan resurslar zaxiralari o'sishi bilan e'tiborga molikdir. Shuning uchun birja va yarmarka tizimi orqali aylanma mablag' vositalarining aylanishi tezlashishi xozirgi davrning asosiy iqtisodiy vazifalaridan biri bo'lib maydonga chiqadi.

2015 yilning dekabr oyida birjaning barcha savdo platformalarida tuzilgan bitimlarning umumiy hajmi 774,4 mlrd so'mni tashkil etib, 2014 yilning shu davri bilan qiyos etganda sezilarli o'zgarish ko'zga tashlanmaydi. Yarmarka savdolari va – «E-xarid»ning korporativ savdolar tizimida ijobiyligi ko'rsatkich qayd etildi.

O'tgan yilning so'nggi oyida birja savdolarining hajmi 571,0 mlrd so'mni tashkil etdi, bu dekabr oyidagi umumiy bitimlar hajmining 74 foiziga tengdir. 2014 yilning dekabr oyi bilan mahsulotlar sotish tizimini taqqoslaganda katta o'zgarish kuzatilmaydi. Polietilenning birja bozoridagi savdosiga 9 foizdan 12 foizga, chorva ozuqasi esa 10 foizdan 13 foizga oshgan. Sotilgan neft mahsulotlari hajmi 43 foizga o'sgan, ammo uning ulushi 1 foizga oshgan. Qurilish materiallari va oziq-ovqat mahsulotlarining umumiy ulushi 47 foizdan 45 foizga kamaygan. Valyuta savdo

platformasida 3,4 mln AQSh doll. miqdoridagi mahsulot sotishga erishildi, jumladan ular orasida polietilen hajmi 78 foiz, suyultirilgan gaz – 22 foizni tashkil etadi.

Shuning bilan bir qatorda tahlil etilayotgan davrdagi savdo hajmida kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarining ulushi oshganligini ko'rishimiz mumkin. Ular tomonidan 2014 yilning dekabr oyiga nisbatan 8 foiz ko'p, ya'ni 463,7 mlrd so'mlik xomashyo va materiallar sotib olindi. Ular tomonidan ishlab chiqarilgan 181,3 mlrd so'mlik mahsulotlar xaridorlarga etkazildi va bu ko'rsatkich o'tgan yilning shu davriga nisbatan 26 foizga oshgan. Umumiyligida tuzilgan savdo bitimlaridagi kichik biznes va xususiy tadbirkorlarning ulushi 73 foizdan 83 foizga ko'tarildi.

Yarmarka savdolari tizimida eng yuqori savdo ko'rsatkichiga erishilib, uning hajmi 128,7 mlrd so'mni yoki o'tgan yilning shu davriga qiyos etganda 24 foiz yuqori ko'rsatkichni tashkil etdi. Yarmarka savdolaridagi bitimlarning umumiyligida kichik biznes sub'ektlarining ulushi 70 foizga etdi. Ular orasida eng yuqori qurilish materiallari-27 foiz, mashinasozlik mahsulotlari-10 foiz, uskuna va qurilmalar bo'yicha -8 foiz bitimlar tuzishga erishildi.

“O'zbekiston Respublikasi tovar xomashyo birjaning davlat xaridlari tizimida tuzilgan bitimlar o'tgan yilning dekabr oyida 39,1 mlrd so'mni tashkil etib, natijada 9,9 mlrd so'mlik byudjet mablag'lari iqtisod qilindi. Umumiyligida tuzilgan bitimlar hajmiga nisbatan kichik va o'rta biznes sub'ektlarining ishtiroki 99 foizni tashkil qildi. Tahlil etilayotgan davrda “elektron katalog” tizimining davlat xaridlari bo'yicha 4,4 mlrd so'mlik bitimlar imzolanib, 1,2 mlrd so'm byudjet mablag'larini iqtisod qilishga erishildi. Bu borada tuzilgan bitimlar soni va hajmiga nisbatan kichik biznes sub'ektlarining ishtiroki 100 foizni ko'rsatdi.

«E-xarid» korporativ savdo tizimida ijobjiy o'sish ko'zga tashlanib, savdo hajmi 7,8 foiz oshdi va 31,1 mlrd so'mni tashkil etdi. Korporativ xaridlardagi kichik biznes sub'ektlarining ulushi 98 foiz, umumiyligida savdo hajmiga nisbatan esa 95 foizni tashkil etdi. Auktsion savdolaridagi har bir mahsulot yuzasidan etkazib beruvchilar tomonidan 12 dan takliflar tushdi.”³

³ O'zbekiston Respublikasi Tovar-xom ashyo birjasi ma'lumotlari

Birja va yarmarkalar bozor infratarkibining muhim bo'lagidir.

O'tish davrining islohotlari natijasida tovarlar bozori infratarkibi yo'qdan bor qilindi, zarur infratarkibsiz zamonaviy tovar ishlab chiqarishning samarali faoliyat ko'rsatishi mumkin emas. Chunki, xom ashyo, tayyor mahsulot ishlab chiqaruvchilar, birja va yarmarkalar savdogarlarining ikki taraflama manfaatli tijorat foydasi olishlariga yo'naltirilgan, tijorat faoliyatining mustaqil shakli bo'lган birja va yarmarkalar tovar bozori infratarkibining muhim unsurlari (elementlari)dan biri hisoblanadi.

Birja va yarmarkalarda maxsus ishlab chiqilgan qoidalar bo'yicha tanlangan tovar nomenklaturalarini sotuvga tayyorlash va ular yuzasidan oldi - sotdi operatsiyalari amalga oshiriladi.

Mamlakat ichkarisidagi va tashqarisidagi yagona bozor sharoiti barcha yarmarka va birjalar faoliyatini boshqarish va ularning shakllariga ta'sir etuvchi yagona qoidalar va an'analar mavjudligini e'tirof etadilar. Har bir birja va yarmarka faoliyati harakteri va ishni tashkil etish xususiyatlari bo'yicha bir-birlaridan farq, qiluvchi o'ziga xos taraflariga ega bo'lsalarda, ularga ta'sir etuvchi yagona tarmoq, qonun-qoida va an'analar yaxlitliklariga egadirlar.

Yarmarka va tovar birjalarini zamonaviy avtomatlashtirilgan ulgurji savdo tovar omborlari bilan birgalikda yaxlit kompleks bo'lib faoliyat ko'rsatishlari kengaytirilgan takror ishlab chiqarish jarayonining uzluksizligiga va birja va yarmarkalarda tovar aylanma harakatlarining tezlashuviga xizmat qiladi.

Keyingi vaqtarda, "Birja va yarmarkalar davri o'tib ketdi, ular o'z oldilariga qo'yilgan vazifalarni uddalay olmadilar, hozir ularning keragi yo'q"- degan gaplar ham bor. Lekin bunday fikrlar noto'g'ri, jahon amaliyoti tajribasi shuni ko'rsatmoqdaki, tovar ishlab chiqarish va uning muomalasi taraqqiyoti birja va yarmarkalar ahamiyati kamaymagani, balki aksincha ortayotganini tasdiqlamoqda. Birja va yarmarkalar faoliyatları natijasida tovar massasi naqd pul bilan qoplanadi, yangi sharoitda birja va yarmarkalarning vazifalari, ularning iqtisodiy ahamiyati mazmunan boyidi, shaklan o'zgarishlarini boshidan kechirdi. Shuning uchun ham tovar birjalari va yarmarkalar taraqqiyoti yo'nalishlarini har taraflama o'rganish zarurati kun tartibida ko'ndalang bo'lib turibdi.

Birja va yarmarkalar taraqqiyoti tarixi, ularning tarkibiy qismlari va tajribalarini atroflicha o'rganib, umumlashtirib, ularning keljakdagi rivojlanishlari tamoyillarini aniqlash va zamonaviy tovar bozoridagi vazifalarini belgilab berish juda muhimdir.

Ushbu fan zamonoviy birja va yarmarkalar faoliyatlarini tashkil etish xuquqiy asoslari va ular oldida turgan muammolarni o'rganish bilan birga bozor iqtisodiyoti sharoitida birja va yarmarkalarning turkumlanishi, rivojlanish istiqbollarini taxlil etishdan iboratdir. Ham mahsulot ishlab chiqaruvchilar, ham birja va yarmarkalar savdogarlarining ikkitaraflama manfaatli tijorat foydasini olishga yo'naltirilgan tijoratning mustaqil shakli bo'lgan birja va yarmarkalar tovar bozori infratarkibining eng muhim elementlaridan biridir.

Tovar ishlab chiqarish va uni muomalasining taraqqiyoti birja va yarmarkalar rolini kamaymaganini, balki aksincha ortayotganini tasdiqlamokda chunki u tovar massasini naqd pul bilan qoplanishidir.

Mamlakat ichkarisidagi va tashqarisidagi yagona bozor sharoiti barcha yarmarka va birjalar faoliyatini tashkil etish va ularning shakllariga ta'sir etuvchi yagona qoida va an'analar mavjudligini e'tirof etadilar.

Bozor va bozor munosabatlari rivojlanishining mahsuli bo'l mish, tovar birjalari va yarmarkalari tarixiy uzoq evolyutsion yo'lni bosib o'tdi. Birja va yarmarkalar savdosi shakllari umumiyligi tashkiliy qirralarini saqlab qolgan xolda bir qator o'zgarishlarini boshidan kechirib, iste'molchi talablariga moslashib borib, faoliyatini yangi qirrali, yo'naliishlari paydo bo'la boshladi. Birja faoliyati yo'naliishi asta-sekin iqtisodiy transformatsiyalashib eski tashkiliy shakl yangi iqtisodiy mazmun bilan to'ldirilib borildi.

1.4. Tovar birjasining huquqiy asoslari

O'zbekistan Respublikasining mutaqillikka erishishi keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar bilan kechmokda, ma'muriy buyruqbozlik tizimi o'rniga qisqa vaqt ichida bozor iqtisodi qonunlariga asoslangan iqtisodiy tizim yaratila boshlandi. Sobiq ittifoq respublikalar ichida birinchilardan bo'lib O'zbekistonda "Birja va birja faoliyati to'g'risida" qonun qabul qilindi. 1991 yilning mart oyida respublikamizda birinchi, ochiq turdag'i aksionerlik jamiyat shaklidagi «Toshkent» universal tovar-xom

ashyo birjasi tashkil etilib, 48 ta ta'sischi va 125 ta aksioner manfaatlarini birlashtirdi. Tashkil etilgan yilning o'zidayoq birja tovar aylanmasi 3 mlrd. rublni tashkil etdi. 1992 yilning yanvar oyidan boshlab, birjada qimmatli qog'ozlar bilan oldi-sotdi operatsiyalari amalga oshirila boshlandi. «Toshkent» birjasi birja faoliyatining muhim omili bo'lган birja infratarkibini yaratish bilan ham shug'ullana boshladi.

Respublikamiz mustaqilligining dastlabki yillari tovar birjalari va yarmarkalar taraqqiyoti yunalishlarini har taraflama o'rganish zaruriyati kun tartibida ko'ndalang bo'lib turgan edi. Ular taraqqiyoti tarixi, yarmarka va birjalar tarkibiy qismlari tajribalarini avvaldan urganib, umumlashtirib, taraqqiyoti tamoyillarini aniqlash va zamonoviy tovar bozoridagi rolini belgilab berish vazifasi juda muhimdir.

Shuning uchun ham, O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Islom Karimovning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va Senatining qo'shma majlisidagi "Mamalakatimizda demokratik islohotlarni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish kontseptsiyasi" ma'rzasining VI – bobida demokratik bozor islohotlarini va iqtisodiyotni liberallashtirishni yanada chuqurlashtirish choralari doirasida kichik biznes va xususiy tadbirokrlilikni rivojlantirish bo'yicha amaldagi qonunlar va me'yoriy hujjatlarni takomillashtirish zaruriyatiti ta'kidlangan.

Barchamizga ayonki, mamlakatimiz mustaqil taraqqiyotining daslabki bosqichida, ya'ni 1991 yildan 2000 yilgacha bo'lган davrda ulkan o'zgarishlarni amalga oshirishda asosiy e'tiborimiz markazlashtirilgan ma'muriy-buyruqbozlik tizimiga barham berish va bozor iqtisodiyotining asoslarini, avvalambor, qonunchilik bazasini shakllantirish uchun sharoit yaratishga qaratildi.

Shu borada qabul qilingan o'ta muhim qonun va normativ hujjatlar qatorida Fuqarolik, Yer, Soliq va Bojxona kodekslari, "Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida", "Banklar va bank faoliyati to'g'risida", "Chet el invesitsiyalari to'g'risida", "Chet ellik invesorlar huquqlarining kafolatlari va ularni himoya qilish choralari to'g'risida"gi qonunlarni qayd etish mumkin.

Islohotlarimizning keyingi bosqichida "Tadbirkorlik faoliyati erkinligining kafolatlari to'g'risida", "Xususiy korxona to'g'risida", "Valyutani tartibga solish

to'g'risida”, “Tashqi iqtisodiy faoliyat to'g'risida”, “Fermer xo'jaligi to'g'risida”gi qonunlar, yangi tahrirdagi Soliq kodeksi va iqtisodiyotni isloq qilish bo'yicha umumiylar hisobda 400 dan ziyod qonun hujjatlari ishlab chiqilib, qabul qilindi va joriy etildi. Ularning barchasi iqtisodiyotimizni yanada liberallashtirish va modernizatsiya qilishda nafaqat musahkam huquqiy asos, balki amalga oshirilayotgan bozor islohotlarining ortga qaytmasligining kafolati bo'lib xizmat qilmoqda.

Qisqacha hulosalar:

Mazkur fanning predmeti bozor iqtisodiyo'ti sharoitida birja va yarmarkalarning o'rni va vazifalari, birja va yarmarkalardagi savdo operatsiyalarini olib borish tartibi, ulardagи baholar kotirovkasi tovarlar harakati zanjirida tovar ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar o'rtalaridagi aloqalarda birja va yarmarkalar faoliyatlari mazmuni va mohiyatini o'rganishdan iboratdir.

Ushbu fan zamonoviy birja va yarmarkalar faoliyatlarini tashkil etish huquqiy asoslari va ular oldida turgan muammolarni o'rganish bilan birga bozor iqtisodiyoti sharoitida birja va yarmarkalarining turkumlanishi, rivojlanishi istiqbollarini tahlil etishdan iboratdir. Ham mahsulot ishlab chiqaruvchilar, ham birja va yarmarkalar savdogarlarining ikkitaraflama manfaatli tijorat foydasini olishga yo'naltirilgan tijoratning mustaqil shakli bo'lgan birja va yarmarkalar tovar bozori infratarkibining eng muhim elementlaridan biridir.

Tovar ishlab chiqarish va uni muomalosining taraqqiyoti birja va yarmarkalar rolini kamaymaganini, balki aksincha ortayotganini tasdiqlamoqda chunki u tovar massasini naqd pul bilan qoplanishidir.

Mamlakat ichkarisidagi va tashqarisidagi yagona bozor sharoiti barcha yarmarka va birjalar faoliyatini tashkil etish va ularni shakllariga ta'sir etuvchi yagona qoidalar va an'analarni mavjudligini e'tirof etadilar.

NAZORAT SAVOLLARI

1. Ushbu kurs predmeti nimalardan iborat?
2. Birja va yarmarka faoliyatini tashkil etish fanining asosiy vazifalari nimalardan iborat?

3. Bozor iqtisodini qaror topishida birja va yarmarkalar qanday rol o'ynaydilar?
4. O'qitilayotgan ushbu fan qanday fanlar bilan bog'liklikda o'rganiladi?
5. Birja va yarmarkalar mamlakat iqtisodiyotini rivojlanishida qanaqa vazifani bajaradi?
6. Iqtisodiyotni liberallashtirishda birja va yarmarkalarning ahamiyati nimalardan iborat bo'ladi?
7. Mamlaktimiz iqtisodiyotini rivojlantirishning ustivor vazifalarida birja va yarmarka savdolariga qanaqa ahamiyat berilgan?
8. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirish omillarini sanab o'ting.
9. Kichik biznes sub'ektlarini moddiy resurslar bilan ta'minlashni yaxshilash shartlarini sanab o'ting.
10. Davlat xaridlarini maqbullashtirish yo'nalishlarini sanab o'ting.

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

Asosiy adabiyotlar

1. N. Yo'ldoshev. «O'rta-Osiyoda bozor nazariyasi va tajribasi». - O'quv qo'llanma.-T.:TDIU, 2004, - 113 b.
2. Гусева И.А. Рынок ценных бумаг. Практическое задания по курсу: Учеб.пособ. – М.: Экзамен, 2005, – 464 с.
3. Дегтярева О.И. Биржевое дело - М.:МАГИСТР 2010, . 623 с.
4. Каменева. Н. Г. Организация биржевой деятельности - М.: Банки и Биржи ЮНИТИ, 2002, стр. 313.
5. Кеселев В.А. "FOREX для начинающих" М.:, ЮНИТИ 2010, - 248 с.

2 – Mavzu. Birja va yarmarkalar rivojlanishi tarixi.

Reja:

- 2.1. Tovar birjalari va yarmarkalarning paydo bo'lishi
- 2.2. Birja savdosining evolyutsiyasi
- 2.3. Birja va yarmarkalarining qaror topishi xususiyatlari

2.1. Tovar birjalari va yarmarkalarning paydo bo'lishi

Bozor va bozor munosabatlari rivojlanishining maxsuli bo’lmish tovar birjasи tarixiy uzoq evolyutsion yo’lni bosib o’tdi. Birja savdosi shakllari umumiyl tashkiliy kirralarini saqlab qolgan xolda bir qator o’zgarishlarini boshidan kechirib, iste’molchi talablariga moslashib borib, faoliyatini yangi qirrali, yo’nalishlari paydo bo’la boshladi. Birja va yarmarkalar faoliyati yo’nalishi asta-sekin iqtisodiy transformatsiyalashib eski tashkiliy shakl yangi iqtisodiy mazmun bilan to’ldirilib borildi.

O’ziga xos xususiyatga ega bo’lgan birjani tug’ulishi Yaponiyada I asrga, qadimgi Rimda I asrning oxiriga, Florentsiyada esa XIII asr ga to’g’ri keladi. XVI – XVII asrlarda Yevropa mamlakatlarida birjalarni paydo bo’lishi ulgurji bozor faoliyatini boshlanishiga olib keldi.

“Birja” so’zi lotincha “bursa”, ya’ni “hamyon” so’zidan kelib chiqqan deb hisoblanadi. Flandriyaning eng katta savdo shahri bo’lmish Bryugge dagi savdo yig’ini maydoni yaqinida joylashgan “Burse” mehmonxonasi ham shu erlik mashhur Zodagon Van der Burse zoti nomi bilan atalgan. Ushbu uchta hamyon tasviri tushurilgan tamg’a bilan bezalgan mehmonxonada savdogarlar boshpana topishar, tijorat xabarlaridan vokif bo’lishar va turli oldi – sotdi bitimlarini tuzishar edilar. G’arb mamlakatlarida chop etilgan adabiyotlarda birja va yarmarkalarning paydo bo’lishi xususida yuqorida keltirilgan dalillarga ustvorlik beriladi.

Bizning fikrimizcha, birja va yarmarkalarning paydo bo’lishi va rivojlanishida sharq mamlakatlar xalqlarining tarixiga ham bir nazar tashlasak foydadan holi bo’lmaydi.

Sharq mamlakatlarida qadimdan ma’lum bo’lgan karvon savdosi, qaysidir ma’noda birja savdosining boshlanishi desak mubolag’a bo’lmaydi. Karvon savdosida bajariladigan jarayonlarni birma - bir ko’zdan kechirsak, quyidagilarni ko’rishimiz mumkin. Shahardan shaharga, mamlakatdan mamlakatga ko’chib yurib savdo bilan shug’ullanuvchi savdogarlar karvon saroylarda boshpana topishir edilar, shu erda ma’lum muddat yashab, tijorat uchun boshqa savdogarlar orasidan hamkorlar izlashar edi. Shu yerning o’zida ko’pincha o’z mollarini xaridorlarga nomoyish etishar edi, mollarni ko’zdan kechirib savdogarlar savdolashish jarayoni amalga oshirishar, ya’ni narxlash – baholash, molni ma’lum bir manzilga yetkazib

berish shartlari bo'yicha tortishishar edi. Ayniqsa, narx bobida biron – bir qarorga kelish uchun eng maqul usul - kim oshdi - auktsion usulidan foydalanishar edi.

Yana bir vaziyatni modellashtashtirish ususlida taxlili qiladigan bo'lsak, quyidagi holatni kuzatishimiz mumkin. Karvon saroya tijorat maqsadida kelgan savdogar –tojirning rejasi o'zgardi, u o'z mollarini eng yuqori narxda sotishga intilishi tabiiy hol, agarda bozorda shakllangan narx tojirning istagi bilan mos kelmasa, tojir o'z mollarini bozor ko'targan narxda sotib yuborishi lozim bo'ladi. Bu vaziyatda ham savdoning auktsion – kimoshdi usulidan foydalanish zaruriyatini keltirib chiqaradi. Sanab o'tilgan savdo jarayonidagi barcha tadbirlar keyinchalik Yevropa va dunyoning boshqa mamalakatlarida paydo bo'ladigan birja savdosining unsurlarini tashkil etadi. Demak, birja va yarmarka savdosi karvon savdosi rivojlanishining evolyutsiyasi deyishimiz mumkin bo'ladi.

Dastavval manufaktura ishlab chiqarishigacha bo'lgan ulgurji savdoning shakli – real mavjud tovar birjasi paydo bo'ldi. Uni boshqalardan, avvaldan o'rnatilagan qoidalarga bo'ysyo'ngan xolda ma'lum bir joyda, muntazam kelishilgan vaqt va sharoitlar asosida savdolashib savdoni takrorlanib turilishi boshqa bir savdodan farq qilar edi.

Yarmarka savdosi yoki tor ma'noda yarmarkalar birja savdolariga juda o'hshash savdo turi hisoblanadi. Yarmarkalarning paydo bo'lishi ham kishlar o'rtalarida tovar ayriboshlash faoliyati bilan bog'liq faoliyat hisoblanadi. Yarmarkalar ko'proq Yevropa mamlakatlari xalqlari hayoti bilan bog'liqlikda rivojlangan. Chunki, Yevropaning tabiiy iqlimi, ob - havosi odamlardan yilning faqat ma'lum bir vaqtida, masalan yilning nisbatan issiq kunlarida o'z yashash makonlarini tark etishlari va kundalik yashashlari uchun zarur, o'zlari ishlab chiqarmaydigan boshqa morlarni xarid qilish imkoniyatini berar edi.

Yarmarka so'zining lug'aviy ma'nosi , "Yar" – yil, "Marka" – tovar, mol, ya'ni bir yilda bir marotaba tashkil etiladigan savdo - bozorni bildiradi.

2.2. Birja savdosining evolyutsiyasi

Birja va yarmarka savdosining evolyayutsiyasi haqida fikr yuritadigan bo'lsak, birja va yarmarkalarda savdo jarayonida bitiladigan savdo bitimlari tasnifiga nazar

tashlashimiz kerak. Birja va yarmarkalarda bitiladigan bitimlar quyidagilar xususiyatlari bilan tavsiflanadi. Ko'pchilik xarid operatsiyalar mavjud tovarlar bo'yicha bitimlardan iborat bo'lar edi. Sanoat inqilobi oziq-ovqat va xom ashyoga bo'lган talabni tez ortishiga, Jahon savadosi ham xajmi, ham tovar xillarini o'sishi bir xil xususiyatli tovarga qo'yiladigan talab ko'rsatkichlarining ortishiga olib keldi. Tovar birjalari savdoni tashkil etish, birjadan joy berish va odatdagi savdo xarid qoidalarini o'rnatish bilan cheklanmay asosiy faoliyat doirasiga tovar standartlarini o'rnatish, kontraktlar shakl-nussxalarini ishlab chiqish, baho kodi, anglashilmovchiliklar yechimi (Arbitraj) hamda axborot yig'ish va tarqatish kabi ishlarni kiritdilar.

Barcha birjalar borgan sari xalqaro savdo markazlariga aylanib bordi. Real tovarlar bo'yicha muddatli, talab qilingan tovarni ma'lum narx va muddatda yetkazib berish kafolatini beruvchi, foyda olish imkonini beruvchi bitimlar asosiy ahamiyat kasb etadigan bo'ldi. Bu o'z navbatida firmalar uchun o'z ishlab chiqarish harajatlarini oldindan aniqlash imkonini berdi, natijada ishlab chiqarish jarayonida qatnashmagan va faqat kafolat sarmoyasi bo'lmish sarmoyaning bir qismi bo'shab, ortib qoldi.

Erkin raqobat tomojyllariga asoslangan, juda ko'p sotuvchilari va xaridorlari mavjud bozor sharoitida birja, xili ko'payib borayotgan tovar massasini ishlab chiqaruvchidan iste'molchiga eng kam ijtimoiy zarur mehnat va mablag' sarflab yetkazib berishiga imkon yaratdi.

XIX asr oxiri XX asrni boshlarida real tovar birjalarining ahamiyati tushib ketdi, shu bilan birga butunlay yangi xil tovar birjalari, fyuchers birjalari paydo bo'la boshladi. Bu jarayon har bir mamlakatda o'ziga xos xususiyatlarga ega bo'lib, turli shakllardagi birjalarning paydo bo'lishiga olib kelgan bo'lsada, vaqt bobida ancha cho'zilib ketdi, xatto cho'yan, ko'mir, spirt, beda, solod (qizil miya – dorivor o'simliklar) bo'yicha birja savdolari umuman to'xtab qoldi.

Hozirgi vaqtida mavjud real tovarlar birjalari bir nechta mamlakatlardagina saqlanib qolgan bo'lib, ulardagi ayriboshlash xajmi uncha katta emas. Ular odatda mahalliy ahamiyatga ega bo'lган, kam talab qilinadigan, sotilishi va xarid qilinishi sust bo'lган tovarlar ulgurji savdosi bo'lib xizmat qiladi. Ba'zan ma'lum – muhim

tovarlar eksportida mamlakat sanoati manfaatlarini himoyasini tashkil etadi. Ulardan eng kattasi Hindiston, Indoneziya, Malayziyada faoliyat ko'rsatmokdalar.

Binobarin tovar birjasi instituti o'z ahamiyatini yo'qotgani yo'q, balki, huquqlar bozoriga aylandi yoki fyuchers birja deb ataluvchi birja ko'rinishini oldi. Aynan shu birjalar hozirda G'arb mamlakatlari tijoratining asosi hisoblanadi.

2.3. Birja va yarmarkalarining qaror topishi xususiyatlari

O'zbekiston respublikasining mutaqillik davlat sifatida shakllanishi keng ko'llamli iqtisodiy islohotlar bilan kechmokda, ma'muriy buyruqbozlik tizimi urniga qisqa vaqt ichida bozor iqtisodi qonunlariga asoslangan iqtisodiy tizim yaratila boshlandi 1991 yilning mart oyida Respublikamizda birinchi, ochiq tipdag'i aksionerlik jamiyati shaklidagi "Toshkent" universal tovar-xom ashyo birjasi tashkil etilib, 48 ta ta'sischilar va 125 ta aksionerlar manfaatlarini birlashtirdi. Tashkil etilgan yilning o'zidayok birja tovaroboroti 3 milliard rublni tashkil etdi. 1992 yilning yanvar oyidan boshlab, birjada qimmatli qogozlar bilan oldi-sotdi operatsiyalari amalga oshirila boshlandi. "Toshkent" birjasi birja faoliyatining muhim omili bo'lган birja infratarkibini yaratish bilan ham shug'ullana boshladi, Bevosita birja tashabbusi bilan "Birjevoy vestnik vostoka" gazetasi chop etila boshlandi, "Umid" Osiyo sug'urta kompaniyasi va qator boshqa tashkilotlar tashkil etildi. Birja faoliyatini keng reklama qilinishi oqibatida, Respublikamizning deyarli barcha viloyatlarida, ko'pchilik Vazirliklar va idoralar qoshlarida 36 ta universal tovar-xom ashyo birjalari faoliyat ko'rsata boshladilar. Biroq birjalar faoliyatini tartibga solish borasidagi qonun va boshqa me'yoriy hujjatlar yo'qligi va tajribaning etishmasligi bu ishda ba'zi qiyinchiliklarni keltirib chiqardi. Masalan birjalarni tashqi iqtisodiy aloqalar sohasidagi tovarlarni eksport-import operatsiyalari uchun zaruriy letsenziyalar masalasi kun tartibida ko'ndalang bo'lib qoldi va o'z echimini anchagacha topa olmadi.

1992 yilning iyulida Respublika Oliy kengashi tomonidan qabul qilingan "Birja va birja faoliyati haqida"gi Qonuni, birja faoliyati, birja tovari, ta'sis sarmoyasi, Ta'sischilar doiralarini, ta'sis etilajak birjalarni ro'yhatdan o'tkazib qayd etish va faoliyatlar uchun ruhsatnomalar berish tartiblarini aniqlab berdi.

O'zbekiston Respublikasining "Birja va birja faoliyati" haqidagi Qonunida birjalar shakllari belgilab berildi. Ular ochiq yoki yopiq turdag'i aksionerlik jamiyatlari ko'rinishidagi xo'jalik sub'ektlari bo'lishlari, ixtisoslishuvi bo'yicha tovar-fond, intellektual mulk savdosi bo'yicha, aralash mulk shakllarida bo'lishlari mumkinligi alohida ta'kidandi. Qonun birjalar bevosita savdo vositachilgi faoliyati bilan shug'ullanishlari, birja faoliyati bilan bog'liq bo'limgan korxonalar ta'sischilari sifatida aksiyalar xarid qilishlari taqiqlab qo'yildi.

Ushbu qonunni amalda qo'llanishi avval tashkil etilan birjalarni ko'pchiligin faoliyat yuritish huquqidan mahrum etdi. Chunki ular qonun talablariga to'la javob bera olmadilar. O'zbekistonda birja harakati rivojdanishining 1 – bosqichi hulosalariga kelsak, "Toshkent" va boshqa universal tovar-xom ashyo birjalarni tashkil etilishi, ularning keng ko'llamdag'i brokerlik idoralariing faoliyati ma'lum darajada Sobik Ittifoq korxonalarining uzilib qolgan xo'jalik aloqalarini yangi bozor iqtisodi shartlari asosida tiklashga muvofiq bo'lindi.

"Toshkent" universal birja Markaziy Osiyo va boshqa Mustaqil davlatlar hamdo'stligi xududidagi birjalar bilan hamkorlik aloqalarini yo'lga qo'yib yubordi, Bu esa o'z navbatida ko'p yillar davomida yagona iqtisodiy xududni vujudga keltirdi.

Birja ishi amaliyotida, turli xil texnika va texnologiyalar sinovdan o'tdi, chet el birjalari tajribalari o'rganiladi, brokerlik va boshqa birja faoliyati mutaxassislari tayyorlandi.

Birja narxlar dinamikasi, iqtisodiy jarayonlarni rivojlanishi haqidagi va boshqa informatsiyalar manbai sifatida maydonga chikdi. Birja savdosi natijasida mamlakatimizga kelirilayotgan va chetga olib ketilayotgan tovarlar narxlari kotirovkasi, ayniqsa paxta tolasi narxi kotirovkasi shakllana boshladи. Bu esa o'z navbatida jahon bozoridagi pahta tolasi kon'yunkturasini o'rganishga va paxtani xarid narxlarini o'zgarishi uchun manba bo'lib xizmat qildi.

Shu bilan birga, vazirliklar qoshida tashkil etilgan birjalarni yopilishi, mamlakatga keltirilayotgan va mamlakatimizdan olib ketilayotgan tovarlarni ma'lum darajada cheklanishi, bojaxona to'siqlarining paydo bo'lishi birjalar harakatini susayishiga olib keldi.

Respublikada birjalar faoliyatlari rivojlanishi uchun yangi turtki bo'lib, 1994 yil 21 yanvarda e'lon qilingan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Iqtisodiy islohotlarni yanada chukurlashtirish, xususiy mulkchilikni himoya qilish va tadbirkorlikni rivojlantirish choralari haqida" gi farmoni maydonga chikdi. Chunki ushbu farmonning 11 - bandida "Korxonalar tassarufida qoladigan mahsulotlarni sotish bo'yicha tovar - xom ashyo birjalari ishtirokida ulgurji yarmarkalar o'tkazish amaliyoti joriy etilsin. Ushbu yarmarkalarda xarid qilingan tovarlarni respublikadan tashqariga olib chiqish uchun xech qanday ruhsatnomalar talab qilinmaydi, ular bojxona to'lovlaridan ozod etilsin" deb e'tirof etilgan qismi tadbirkorlikni va birjalar faoliyatlarini rivojlanishi uchun muhim turtki bo'ldi.

Shu yili "Toshkent" universal tovar-xom ashyo birjasini qayta tashkil etilib, uning negizida tovar xom-ashyo va qimmatli qog'ozlar savdosiga ixtisoslashgan "Toshkent" fond birjasini tashkil etilishi, ularning faoliyat yo'nalishlarini aniqlanishi respublikada birjalarni xalqaro birjalar darajasiga yaqinlashuvi bilan birjalar faoliyatining rivojlanishi ikkinchi bosqichi boshlandi.

1995 yili O'zbekiston respublikasi Vazirlar mahkamasining "1995 yilda Iste'mol bozorini birincha gal dagi muhim tovarlar bilan boyitishning qo'shimcha choralari haqida"gi qarori bilan Respublikamizning barcha viloyatlarida Respublika tovar-xom ashyo birjasining filiallari tashkil etildi va keyinchalik bu filiallar mutaqil xo'jalik sub'ektlari sifatida faoliyat ko'rsata boshladilar.

1997 yil 10 oktyabrdagi O'zbekiston Respublikasi Birinchi Prezidentining "Tovarlar (xizmatlar) ni eksport qilishni rag'batlantirishning ko'shimcha choralari haqida" gi farmoni xo'jalik sub'ektlarining eksport - import operatsiyalarini tartibga soldi.

Mamlakatimiz raxbariyati birja va yarmarka faoliyatini rivojlantirish masalalari bilan muntazam shug'ullanib, bu tarmoqdagi tub o'zgarishlarning tashabbuskori bo'ldi. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar maxkamasi 1999 yil 15 aprelda qabul qilingan "Birja va yarmarka faoliyatining samaradorligini oshirish choralari" haqida va o'sha yil 6 - mayda "O'zbekiston Respublikasida birja va yarmarka faoliyatini yanada rivojlantirish choralari" haqidagi qarorolari, birjada

birja bitimlari tuzish tartibi, birja tovari ro'yxati va valyuta operatsiyalarini tartibiga solish, birja qoshida hisob - kitob (Kliring) palatalari tuzishni joriy etdi.

Yuqorida zikr etilgan xukumat qarorlarini qabul qilinishi - hisob-kitob palatasini joriy etilishi, eksport-import operatsiyalarini keskin ortishiga olib keldi, raqobatchilik muhitini yaratdi. 2000 yil 1999 yilga nisbatan birja tovar oboroti 3 barobar o'sgan bo'lsa, 2001 ilning 9 oyida, ushbu ko'rsatkich 2000 yilning 9 oyiga qaraganda 2 barobar o'sgan.

2001 yilda "O'zbekiston Respublikasining birja va birja faoliyati haqida"gi qonunini yangi taxriri qabul qilindi, bu esa o'z navbatida birja faoliyatini respublikamizda amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohot talabalari bilan moslashtirib tartibga solish imkoniyatini yaratdi.

Respublikamizda birja faoliyatiga maxsus ruhsatnomlar berishning muhim shartlaridan biri birja savdolashuvida qatnashuvchi xo'jalik sub'ektlari yagona elektron savdo tizimi bilan bog'lik bo'lislari shartligidir. O'zbekiston respublika tovar-xom ashyo birjasida elektron savdolashuv tizimini joriy etilishi quyidagi masad va vazifalarini ko'zlab amalga oshirilmoqda:

- Mamalakatda yagona birja xududini yaratish, umumiy milliy tovar bozorini shakllantirish;
- Birja operatsiyalari va tovar bozorlarining erkinligi va oshkoraligni oshirish;
- Birja savdolashuvdagagi raqobatchilik muhitini, savdolashuv ishtirokchilari sonini oshirish;
- Respublikamiz birja savdolashuviga chet ellik xo'jalik sub'ektlari jaib etish, O'zbekiston tadbirkorlarini chet el tovar bozorlariga chiqishlari uchun imkoniyatlar yaratish;
- Kunu-tun butun sutka davomida savdolashuv imokoniyatini yaratish;
- Birjadagi eksport-import operatsiyalar bitimlari yuzasidan joriy harajatlarni kamaytirish;
- Kichik shahar va qishloq joylaridagi tadbirkorlar uchun, joylashashidan qat'iy nazar birjadagi savdolashuvda qatnashish imkoniyatini yaratish.

Elektron savdalashuvda qatnashuvchi xo'jalik sub'ektlarining doirasi juda keng:

- Tovar ishlab chiqaruvchilar, savdo korxonalari, xususiy tadbirkorlar, jurnalistlar, talaba-o'quvchilar va boshqa birja savdolashuvi haqidagi informatsiyaga zaruriyati bor shaxslar;
- Birja savdolashuvida qatnashmaydigan va lekin o'z faoliyatlari uchun “Biznes navigator” informatsiya ma'lumot manbaidan foydalanuvchi tovar ishlab chiqaruvchilar, xususiy tadbirkorlar;
- Malakali brokerlar vositachiligidagi birja savdolashuvida qatnashuvchi tovar ishlab chiqaruvchilar, savdo korxonalari;
- Mutaqil qatnashuvchi tovar ishlab chiqaruvchi va savdo korxonalari dillerlari, uzoq masofada turib birja savdolashuvida o'z mahsulotlari yuzasidan savdo olib boruvchi sub'ektlar;
- Mustaqil elektron brokerlar va boshqalar.

Elektron savdolashuv tizimi quyidagi imtiyozlarni beradi:

- Qayerda bo'lishlaridan qat'iy nazar internet tizimiga bog'lanib, maxsus kompyuter dasturi va qayd etilgan ruhsatnomaga ega bozor qatnashchilariga oldi-sotdi muzokaralarida qatnashish;
- Biznes operatsiyalarining tezkorligi (bir laxzada bir nechta operatsiyalar olib borish imkoniyati borligi) hisobiga tijorat ko'rsatkichlarining mislisiz o'sishi;
- Ko'l mexnati yordamida taxlil qilish qiyin bo'lgan axborot oqimidan eng muhimi va maqulini tanlab olish imkoniyatini beradi.

Fikrimizning dalili sifatida O'zbekiston agrosanoat birja faoliyatiga bir nazar tashlasak kifoya, O'zbekiston agrosanoatbirjasi 25 dekabr 1991 yili, O'zbekiston Respublikasi “Birja va birja faoliyati haqida”gi qonuni asosida tashkil etilgan bo'lib Mamlakatimiz Mutaqilligi tengdoshdir.

O'zagrosanoatbirja ta'sischiları Respublika Agrosanoat kompleksi, “Dehqonsavdo”, “Prestij” Savdo uylari va bir necha ko'shma korxonalardirlar, ularning har biri faqat 10% aksiyaga egalik qilishlari mumkin xolos, birja nizomiga

muvofiq xech bir ta'sischi belgilangan miqdordan ortik aksiyaga egalik qilish huquqiga ega emasdirlar.

Hozir birja qoshida 2 ta muvofiqlashtiruvchi kengash faoliyat ko'rsatmoqda, ayniqsa kichik biznes va xususiy tadbirkorlik su'ektlarini qo'llab - quvvatlash kengashi samarali faoliyat ko'rsatmoqda. O'zbekiston agrosanoat birjasi Rossiya federatsiyasidagi birja va xo'jalik sub'ekitlari bilan kliring hisob-kitobi tizimi joriy qilingan bo'lib, bu o'z navbatida Sobiq Ittifok respublikalari o'rtasida amalgam shirilayotgan savdolarda 2003 yil yakunlari bo'yicha narx-navoni 30-40 % ga kamayishiga olib keldi. Birja elektron tizim orqali xalqaro bozorga bevosita chikish imkoniyatiga egadir.

Qisqacha xulosalar:

O'ziga xos xususiyatga ega bo'lgan birjani tug'ulishi Yaponiyada I asrga, qadimgi Rimda I asrning oxiriga, Florentsiyada esa XIII asr ga to'g'ri keladi. XVI – XVIII asrlarda Yevropa mamlakatlarida birjalarni paydo bo'lishi ulgurji bozor faoliyatini boshlanishiga olib keldi.

Sanoat inqilobi oziq-ovqat va hom ashyoga bo'lgan talabni tez ortishiga, Jahan savdosini hajmi, ham tovar xillarini o'sishi, bir xil xususiyatli tovarga qo'yiladigan talab ko'rsatkichlarining ortishiga olib keldi. Tovar birjalari faoliyat doirasiga tovarlar standartlarini o'rnatish, kontraktlar shakl-nusxalarini ishlab chiqish, baho kodi, anglashilmovchiliklar yechimi (Arbitraj) hamda axborot yig'ish va tarqatish kabi ishlari kiradi. Barcha birjalar borgan sari xalqaro savdo markazlariga aylanib bordi.

Hozirgi vaqtida mavjud real tovarlar birjalari bir nechta mamlakatlardagina saqlanib qolgan bo'lib, ulardagi ayriboshlash hajmi uncha katta emas. Ular odatda mahalliy ahamiyatga ega bo'lgan, kam talab qilinadigan iste'moli, sotilishi va xarid qilinishi sust bo'lgan tovarlar ulgurji savdosi bo'lib xizmat qiladi. Ba'zan ma'lum – muhim tovarlar eksportida mamlakat sanoati manfaatlarini himoyasini tashkil etadi. Ulardan eng kattasi Hindiston, Indoneziya, Malayziyada faoliyat ko'rsatmoqdalar.

Nazorat savolari.

1. Birja savdosi shakllari evolyutsiyasi qanaqa?
2. Xorijda tovar birjalarini rivojlanishi qanday bo'lgan?
3. Mavjud - real tovarlar birjasi xususiyatlari nimalardan iborat?
4. O'zbekistonda birja faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari nimalarda namoyon bo'ladi?
5. Yagona elektron savdolashuv tizimi maqsad va imkoniyatlari nimada?
6. Birja savdosining sharq mamlakatlardagi qaysi savdo bilan o'hshashliklari mavjud?
7. Birja savdosining qaysi tamoyillari sharq mamlaktlari xalqlari tarixidagi karvon savdo tomoyillari bilan bir hil?
8. Birjada elektron savdo tizimini tadbiq etilishi birja uchun qayday imkoniyatlar beradi?
9. O'zbekiston agrosanoat univestal birjasi qanaqa vazifani bajarishga xizmat qiladi?
10. O'zbekiston agrosanoat universal birjaning qaysi mamalakatlar birjalari bilan aloqalari o'rnatilgan?

Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. N. Yo'ldoshev. «O'rta-Osiyoda bozor nazariyasi va tajribasi». - O'quv qo'llanma.-T.:TDIU, 2004, - 113 b.
2. Гусева И.А. Рынок ценных бумаг. Практическое задания по курсу: Учеб.пособ. – М.: Экзамен, 2005, – 464 с. с.
3. Дегтярева О.И. Биржевое дело - М.;МАГИСТР 2010, . 623 с.
4. Каменева. Н. Г. Организация биржевой деятельности - М.: Банки и Биржи ЮНИТИ, 2002, стр. 313с.
5. Кеселев В.А. "FOREX для начинающих" М.:, ЮНИТИ 2010, - 248 с.

3- mavzu. Tovar birjasi – zamonaviy bozor faoliyatining asosiy omilidir.

Reja:

- 3.1. Birja bu bozor elementi
- 3.2. Bozor iqtisodi rivojida birjaning roli

3.3. Tovar birjalari klassifikatsiyasi tamoyillari

3.1. Birja bu bozor elementi

Kundalik hayotimizda ishbilarmon, tadbirkor, pul, milliy valyuta, bank, soliq kabi tushunchalar iboralarni tez-tez eshitib turamiz, bu so'zlar, so'z birikmalari borgan sari so'z boyiligidan ajralmas qismiga aylanmoqda.

Mamlakatimiz 1991yil mutaqillikka erishgach, jahon tajribasini rad etmagan xolda ijtimoiy taraqqiyotning o'zinga xos va o'ziga mos yo'llini ishlab chiqdi hamda shu yo'ldan bozor iqtisodiyoti sari yo'l tutdi.

Respublikamizda bozor munosabatlariga o'tishning mamlakatimiz Prezidenti Islom Karimov rahbarligida belgilangan quyidagi nazariy asoslari va mezonlari aniqlandi:

- iqtisodni mafkuradan xoli bo'lishi va uning siyosatdan ustuvorligi;
- davlatning bosh islohotchi bo'lishi;
- qonunlar va ularga rioya qilish ustuvorligi;
- xalq manfaatlariga qaratilgan kuchli ijtimoiy siyosatni yurgizish;
- bozor iqtisodiyotiga asta - sekin, bosqichma - bosqich o'tib borish.

Bozorda tovar ayriboshlashning mohiyatini pul vositasi bilan ifoda etuvchi va bozorni boshqarib turuvchi ob'ektiv iqtisodiy qonunlar bozor qonunlari deb yuritiladi. Bular jumlasiga:

- Talab va taklif qonuni;
- Pul muomalasi qonuni kiradi.

Bu qonunlar bozor munosabatlari soxasida amal qiladigan qonunlardir. Ular ob'ektiv tarzda amal qiladi. Bozorda talab oshsa, narxni ham oshiradilar, agar pasaysa, narxni ham tushiradilar.

Bozor munosabatlariga o'tish ishlab chiqarish vositalarini, barcha tovarlarni iste'molchilarga bozor orqali erkin narxlarda sotish imkoniyatini yaratdi. Endi ushbu aloqalar ulgurji savdo bozorida tovar birjalari orqali amalga oshiriladi. Bu yerda ommaviy bir xildagi tovarlar (pahta, don, metall va boshqa) erkin narxlarda, naqd pulsiz, korxonalarining bankdagi maxsus hisob raqami orqali hisob-kitob yuritish yo'li bilan sotiladi.

Tovar birjalarini ham o'zida, raqobat, talab, taklif, baho, narx kabi bozor mexanizmlarini mujassamlashtiradi. Birja bir tarafdan tovar sotish ilinjida bo'lgan sotuvchi tomon, ikkinchi tomondan o'z talabini qondirish uchun harakat qilayotgan xaridor uchrashadigan joy bo'lib, ular har ikkalasi ham mustaqil xo'jalik sub'ektlaridirlar. Oldi - sotdi jarayoni vositachi dalol – broker, diler, treyderlar orqali amalga oshiriladi. Birjada ham xuddi boshqa bozorda bo'lgani kabi tovar narxi talab va taklif bilan bevosita bog'liqdir.

Agar ishlab chiqaruvchi birjaga yangi, sifati yaxshilangan tovar olib kelsa, u o'z moliga yuqori narx o'rnatish huquqiga egadir. Bu xolda birja qatnashchilari ham ijobjiy yondoshsalar ishlab chiqaruvchi olgan foyda o'rtacha tarmoq foydasi ko'rsatkichidan yuqori bo'ladi. Bu o'z navbatida boshqa ishlab chiqaruvchilarni ishlab chiqarishni katta foyda keltiruvchi tovarki ishlab chiqarishga qayta jihozlashga undaydi. Bu xolda tadbirkorlar ko'proq xaridorlarni jalb qilish maqsadida tovar narxini bir oz pastroq belgilaydi. Vaqt o'tishi bilan yuqorida zikr etilgan tovarga bo'lgan extiyoj qondiriladi, bozor boyiydi- to'yinadi, narxlar ma'lum bir joyda to'xtaydi. Agarda yangi tovar ishlab chiqaruvchi o'z tovarini sota olmasa, tovar kutilgan talab bilan quvvatlanmasa, tovar narxi asta – sekin pastga, birjadagi barcha mavjud partiya mollari sotib bo'lingunga qadar tushib boradi.

"O`zRTXB" AJ ning 2016 йил 1 yanvar holatiga ko`ra faoliyat yakunlari to`g`risida ma`lumot⁴

Ko`rsatkich	O`l.birligi	1 oktyabr 2014 yil	1 oktyabr 2015 yil	%
Bitimlar hajmi, jami	mlrd.so`m	8 870,2	8 838,0	99,6
Birja savdolari hajmi	mlrd.so`m	7 041,5	6 861,7	97,4
shu jumladan: yuqori likvid mahsulotlar (VMQ №57)	mlrd.so`m	6 101,9	5 978,8	98,0
Birja savdolarining O`zRTXB bitimlarning umumiyligi hajmidagi ulushi	%	79,4	77,6	
Юқори ликвид маҳсулотларнинг O`zRTXB bitimlarning umumiyligi hajmidagi ulushi	%	68,8	67,6	
Birja savdolarida ishtirok	mlrd.so`m	2 795,6	2 428,5	86,9

⁴ "O`zRTXB" AJ ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

etgan ishlab chiqaruvchilarning qo'shimcha daromadlari				
KXT subyektlari tomonidan sotib olingan mahsulotlarning hajmi	mlrd.so`m	4 262,7	5 136,1	120,5
Sotilgan mahsulotlarning umumiylajimida KXT subyektlarini xarid qilish ulushi	%	48,1	58,1	
KXT subyektlari tomonidan sotilgan mahsulotlarning hajmi	mlrd.so`m	1 648,8	1 989,3	120,6
Sotilgan mahsulotlarning umumiylajimida KXT subyektlarini sotish ulushi	%	18,6	22,5	
Ko'rgazma-yarmarka savdolari bitimlarining hajmi	mlrd.so`m	1 007,8	1 088,1	108,0
Eksport	mlrd.so`m	380,1	143,1	37,6
Davlat xaridlari bo'yicha tuzilgan bitimlarning hajmi	mlrd.so`m	470,5	497,1	105,7
Tuzilgan bitimlarning umumiylajim boshlang'ich bahosi	mlrd.so`m	587,8	637,0	108,4
Byudjet mablag`larini tejalishi	mlrd.so`m	117,3	139,8	119,2
Boshlang'ich bahoga nisbatan byudjet mablag`larini tejalishi	%	20,0	22,0	
Tovar (ish, xizmat) ni yetkazib beruvchilari	soni	33 674	38 854	115,4
Shu jumladan: kichik biznes subyektlari	soni	32 935	37 949	115,2
Kichik biznes subyektlarini yetkazib beruvchilarning umumiylajim sonidagi ulushi	%	97,8	97,7	
Tovar (ish, xizmat) ni faol yetkazib beruvchilari	soni	9 645,0	11 201,0	116,1
Faol yetkazib beruvchilarni ulushi	%	28,6	28,8	
Bitimning o'rtacha baxosi	ming so`m	1 794,1	1 651,4	92,0
Korporativ xaridlar bo'yicha tuzilgan bitimlarning hajmi	mlrd.so`m	350,4	344,3	98,3

Moliya mablag`larining tejalishi	ming so`m	64,1	68,4	106,8
Boshlang`ich bahoga nisabatan moliya mablag`larini tejalishi	%	15,5	16,6	
Bitimning o`rtacha baxosi	ming so`m	20 749,5	20 717,7	99,8
Elektron katalogda tuzilgan bitimlarning hajmi	mlrd.so`m	-	46,7	-
Moliya mablag`larining tejalishi	mlrd.so`m	-	12,0	-
Boshlang`ich bahoga nisabatan moliya mablag`larini tejalishi	%	-	20,4	
Bitimning o`rtacha baxosi	ming so`m	-	1 014,9	-

Talab va taklif o`rtasidagi nomutanosiblik oqibatida mavjud real tovarni sotuvchi va sotib oluvchilari oldi-sotdi bitimlarini amalga oshirishga tayyor bo'lmay qoladilar. Qachon talab va taklif vositachilar tamonidan vaqtinchalik ushlab turilganda birjada Xejlash ya'ni narxni keskin tushib ketishi yoki ko'tarilab ketishidan sug'urta qildirish mexanizmi orqali qoniqarli darajadagi foyda olishga erishadilar.

Tovar birjasи bozor narxi, bozor holati, uni kayfiyati haqidagi va boshqa tijorat axborotlari shakllanadigan joy bo'lib xizmat qiladi. Birja narx haqidagi axborotning yagona manbai bo'lib u narx shakllanishi jarayoniga borgan sari ko'proq ta'sir ko'rsatadi. Birja axborotnomalari nashr etilsada, oldi - sotdi savdo bitimlari natijalari haqidagi axborot tijorat siri bo'lib qoladi. Shuni takidlash joizki, birjaning o'zi savdo vositachilik faoliyati bilan shug'ullanmaydi faqat, uning uchun sharoit yaratib beradi. Savdoni brokerlik idoralari va brokerlar hamda treyderlar amalga oshiradilar.

Ko'pgina taraqqiy etgan mamalakatlar qonunchiligada birja maqsadli pul qo'yish, qo'yilmalarda o'z xissalari (pay) larga ega bo'lish, korxonalar bevosita birja faoliyatlarini muvofiqlashtirish va tashkil etish bilan bog'liq bo'limganda,

ularni aksiyalarini sotib olish huquqidan mahrumdirlar. Birja zimmasiga faqat tashkilotchilik vazifasigina yuklanadi.

Bozorni tabiiy qonunlari bo'lgan talab va taklif qonunini inkor etmagan xolda tovar birjasi mamlakatimiz bozor tizimiga rejalashtirish va muvofiqlashtirish, uni sog'lomlashtirish elementi - unsurlarini kiritdi.

Birja orqali tovarlarni ishlab chiqarish sohasidan iste'mol soxasiga tezkor harakati amalga oshiriladi, chunki birja savdosi faqat differentsial foyda (chayqovchilik foydasi) olgandagina amalga oshiriladi. Birja bizda yana tadbirkorlarni iqtisodiy o'qitish vazifasini ham bajaradi. Birja o'zida tovar kontsentratsiyalashuvi evaziga tovar zaxiralarini ma'lum bir muddat vaqtda va makonda taqsimlash joyi bo'lib xizmat qiladi.

Bozor elementi bo'lmish birja mohiyatini tushunish uchun uni, o'ziga xos xususiyatlarini birma-bir sanab o'tish kerak:

- bozorda savdoni qayta yangilash va tashkilotchiligi muntazamligi;
- avvaldan o'rnatilagn ma'lum qoidalarga rioya qilishlilik (har bir birja o'z nizomi, o'z savdo qoidalariiga ega va ularga qat'iy rioya qiladi.);
- Ma'lum bir joyga o'mashib moslashganligi;
- Tovarlarga standartlar o'rnatish;
- Ma'lum bir xil (tip) kontraktlar ishlab chiqish;
- Narxlarni kotirovkalash;
- Majaro - kelishmovchmliklarni bartaraf qilish-arbitraj;
- Birjani axborot soxasidagi faoliyati;
- Tovarni o'zi yo'qligida bitim tuzilishi;
- Bitimlarni o'ziga xos xususiyatlari, muqobil sotuvchi va xaridor taraflaridan amalga oshiriluvchi ikki taraflama auktsion printsipi;
- Sifat jixatidan bir - birini o'rnini bosuvchi, ba'zida bir-biriga to'la mos keladigan bir xil xususiyatli tovarlar bilan savdo qilish;
- Bitimlarni chayqovchilik harakteri, savdo qatnashchilarining maksimal yuqori tijorat natija sari intilishi - birja faoliyatining iqtisodiy harakatlantiruvchisidir.

Bundan tashqari, fyuchers birjasidagi savdolar quyidagi qo'shimcha qirralarga egadirlar:

- Asosiy maqsad tovarlarni iste'mol qiymati emas balki, almashtirish qiymati bo'lgan bitimlarning sohtalik harakteri;
- Mavjud real tovar bozori bilan vosita orqali aloqa o'rnatish (xejlash orqali);
- Birja vakili bo'l mish kontraktlarda tovar iste'mol qiymatini butunlay unifikatsiyalanganligi;
- Bitimlardagi qarama - qarshi agentlarni almashinushi va bitimlarni naqdsizligi.

Fyuchers birja bir vaqtda ma'lum tovarlarning narxlari bozori bo'lib turib, birja kotirovkalariga sezilarli darajada ta'sir ko'rsatibgina qolmay, real - mavjud tovarlar bo'yicha tuziladigan aniq bitimlarga xejlash mexanizimi orqali ta'sir ko'rsatib, ularni haqiqiy narxiga ham o'z ta'sirini o'tkazadi. Oxir oqibatda tovar ishlab chiqaruvchilar raqobatbardoshligiga ta'sir etadi.

Birja mexanizmi tadbirkorlar orasida xo'jalik yuritishdagi yaxshi sharoit uchun, eng yaxshi mahsulot ishlab chiqarish va realizatsiya qilish orqali maksimal eng yuqori foyda olish uchun iqtisodiy kurashni qullab - quvvatlaydi. Raqobat samarali bozor mexanizmi demakdir.

3.2.Bozor iqtisodiyoti rivojida birjalarning roli.

Birjaning quyidagi asosiy funktsiyalari ajratib ko'rsatiladi:

1. Birja mexanizmi yordamida xom-ashyo bozorini tashkil qilish:

Avvalo, birja bozorda undan foydalanish bilan to'g'ridan-to'g'ri bog'liq bo'lmanan talabni ta'minlaydi. Birja talabi va taklifini birja vakillari – birja chayqovchilari amalga oshiradi. Birja savdosi mavjud narxlarda na taqchillik, na tovarning omborda to'planib qolishi ro'y bermaydigan imkoniyatni ta'minlaydi;

Birjada tovarning o'zim emas, unga mulk maqomi yoki tovari yetkazib berish uchun shartnomaga muomalada bo'ladi. Zamonaviy tovar birjasiga bu real tovar ta'minoti kichik miqdorda bo'lgan holda tovari yetkazib berish shartnomalari bozoridir. Birja, tovarlar katta hajmini harakatini bog'lab o'tirmasdan, talab va taklifni tenglashtiradi;

2.Birja narxlarini aniqlash va tartibga solish.

Birja birja tovarlarining barcha turlari narxini aniqlash va tartibga solishda ishtirok etadi, birjada talab va taklifning mujassamlashuvi, katta sonli bitimlar tuzilishi bozordan tashqari omillarning narxga ta'sir etishiga yo'l qo'ymaydi, uni real talab va taklifa maksimal darajada yaqinlashtiradi. Birja narxi birjaning muhim funktsiyasi sifatida ko'rib chiqiladigan kotirovka jarayonida aniqlanadi. Kotirovka deganda birjada har bir ish kunida narxlarni qayd qilish, qimmatli qog'ozlar yoki valyuta kursini, birja tovarlari narxini ro'yxatga olish tushuniladi.

Narx kotirovkasi bu birja narxlarini birja qoidalari bo'yicha ro'yxatga olish va e'lon qilishdir. Bu funktsiya batafsilroq quyida ko'rib chiqiladi.

Bundan bozorni tashkil qilishning tarkibiy qismlaridan yana biri – narx barqarorlashuvi ko'rinish turadi:

Real talab va real taklifning mos kelmasligi tufayli vujudga kelgan narx tebranishlari moslashuvchanligi past bo'lib, darhol qondirilmasdan, narx keskin tebranishlariga aylanish qobiliyatiga ega. Birja chayqovi narxni oshirish emas, ularni barqarorlashtirish mexanizmi;

Narxni barqarorlashtirishning muhim omili bitim tuzishning ochiqligi, birja kuni boshida va oxirida narxning ommaviy belgilanishi (birja kotirovkasi), kunlik narx tebranishining birja qoidalari o'rnatilgan chegaralar bilan cheklanishi. Birjaning axborot faoliyati shu bilan bog'liq.

3. Tovar standartlarini ishlab chiqish, iste'molchilar uchun qulay bo'lган va shu sababli nisbiy likvidlikka ega bo'lган navlarni aniqlash, birja savdosiga yo'l qo'yilgan firma markalarini ro'yxatga olish. Bularning oxirgisi o'ta muhim. Bu firma ishlab chiqargan mahsulot sifatigan o'ziga xos talabdir. Namunaviy shartnomalarni standartlashtirish, o'ziga xos savdo an'analarini o'rnatish birja faoliyatining muhim tomoni hisoblanadi.

4. Avvalgidek, birjalar o'zinging tovar o'tkazish funktsiyasini, ya'ni real tovarni sotish va sotib olish dastlab vujudga kelgan funktsiyani bajaradi.

5. Tovar xomashyolariga cheklangan talab narxlarini barqarorlashtirib, birjalar birja tovarlaridan boshqa tovarlar ishlab chiqarish harajatlarini ham barqarorlashtiradi.

6. Pul muomalasini barqarorlashtirish va kreditni engillatish. Birja pul muomalasi sig’imini oshiradi, chunki u tovarlar maksimal likvidlik sohasini ifodalaydi. Birja ssuda kapitali qo’llanadigan muhim sohalardan biri, chunki u ssudalarning ishonchli ta’mnotinini taqdim etadi va riskni minimallashtiradi.

7. Tomonlar o’rtasida turli mojaro va kelishmovchiliklarni bartaraf qilish.

Birja savdosi jarayonida turli sabablar tufayli (xato, aldov va h.k.) birja savdosi qatnashchilari o’rtasida bevosita faqat birjada va uning mos keluvchi neytral organi tomonidan hal etilishi mumkin bo’lgan muammoli vaziyatlarning vujudga kelish ehtimoli bor. Odatda bu hakamlar sudi yoki arbitraj hisoblanadi.

8. Jahon bozorini shakllantirish va uning faoliyat ko’rsatishi. Zamonaviy tovar birjasи bu jihatdan tovar, fond va valyuta birjalari faoliyatini birlashtiradi.

9. Birja savdosi qatnashchilarini ular uchun noqulay narx o’zgarishlaridan sug’urtalash (xedjlash). Buning uchun birjada maxsus bitim turlari va ularni tuzish mexanizmlari foydalaniladi. Birja savdosi qatnashchilarini sug’urtalash vazifasini bajarar ekan, birja savdoni tashkil qilgandan ko’ra ko’proq unga xizmat ko’rsatadi. Birja real tovar sotuvchilari va xaridorlari o’z hohishi bilan bir vaqtning o’zida mos keluvchi birja savdolarida mijozlar yoki qatnashchilar sifatida ishtirok etishi uchun sharoitlar yaratadi. Bu birjaga ishonchni oshiradi, unga bozor chayqovchilarini jalb qilib, bevosita va vositachilar orqali savdo qiluvchilar sonini oshiradi.

10. Ochiq birja savdolari o’tkazish uchun birja yig’ilishlarini tashkil etish, aynan:

- birja savdolarini tashkil etish
- birja savdosi qoidalarini ishlab chiqish
- savdoni moddiy-texnik ta’minlash
- birjaning malakaviy apparati.

Savdoni tashkil qilish uchun birja, avvalo, ochiq birja savdosi o’tkazadigan ko’p sonli sotuvchi va xaridorlarni sig’dira oladigan, yaxshi jihoshchlangan bozor joyiga (birja zaliga) ega bo’lishi lozim. zamonaviy elektron aloqa vositalaridan foydalanish savdo qilayotganlarning zalda shaxsan albatta ishtirok etishini talab qilmaydi, balki savdoni elektron kompyuter terminallari orqali amalga oshirish imkonini beradi. Biroq bu holatda ham birja yuqori samarali elektron savdo tizimini

ta'minlashi ko'zda tutilgan. Savdoning moddiy-texnik ta'minoti birja zalini savdo qatnashchilari uchun ish o'rnlari bilan jihozlash, kompyuter ta'minoti va hokazolarni qamrab oladi.

11. Birja shartnomalarini ishlab chiqish, u quyidagilarni qamrab oladi:

- birja savdolarining sifat tavsifnomalariga talabni standartlashtirish
- tovarlar partiyasi hajmini standartlashtirish
- birja bitimlari bo'yicha hisob-kitoblarga talablarni ishlab chiqish.

Birja savdolariga qo'yiladigan tovarlarga nisbatan birja qattiq talablar belgilaydi. Bu talablar asosida birja standartlari ishlab chiqiladi va tovar birjalarida ishlab chiqaruvchilar va iste'molchilar tomonidan hisobga olinadi.

12. Bitimlar bajarilishini kafolatlash kliring va hisob-kitob birja tizimlari vositasida erishiladi. Buning uchun birja savdo qatnashchilarning bir-biriga talablari va majburiyatlarini hisobga olish yo'li bilan naqd pulsiz hisob-kitob tizimidan foydalanadi, shuningdek, ularning ijro etilishini tashkillashtiradi.

13. Birjaning axborot faoliyati.

Birjaning eng muhim funksiyasi birja narxlarini to'plash va ro'yxatga olish, ularni umumlashtirish e'lon qilish, mijozlarga, boshqa turli manfaatdor tashkilotlarga, xalqaro bozorga namuna bo'yicha tovarlar mavjudligi haqida axborot taqdim etish, uni gazeta, jurnal, axborot agentliklarida chop etish.

Birjaning bozor iqtisodiyotning rivojlanishidagi bajaradigan roli haqida fikr yuritadigan bo'lsak, avvalo, bozor iqtisodiyoti sharoitida birja va davlat munosabatlari har kaysi mamlakatda har xil tuzilgan.

Yevropada boshidanok birja faoliyatiing barcha kirralarini qamrab olgan qonunchilik asosida davlat nazoratida edi. Birjalarda narx-navo atrofidagi chaykovchilik xaddan oshirib yuborilgan vaqtarda ularni yopib qo'yildi. 1896 yil Germaniyada, 1903 yil Avstriyada don-galla, yog moy sanoati uchun xom ashyo hisoblangan yogli don dukkakli mahsulotlar birja savdosini ta'kiklandi.(shakar, paxta, rangli metallar birja savdo bitimlari davom etdi.)

1960 yilda Xindistonda ham paxta, zigir, yog-moy birjalari yopildi. Bu xol boshqa qator mamlakatlarda ham amalgalashdi.

Birja faoliyatini normalashtirishda birja haqidagi qonunchilik ahamiyati nioxyatda kattadir.

Birja qonunchiligi - birja faoliyatini tartibga soluvchi yoki muvofiqlashtirivchi qonunlar yig'indisidir. Ba'zi ilmiy adabiyotlarda ba'zan "tartibga solish"ni o'mniga "muvoifiqlashtirish" iborasi ishlataladi. Asosiy maqsad - kichik firma va mayda chaykovchilar manfaatlarini ximoya qilish va birjada xaddan tashqari o'sish yoki pasayish, sun'iy - g'ayri qonuniy harakatlarni va korxonalarini , mijozlarni sun'iy sindirishni oldini olish hisoblanadi.

Birja faoliyatini qonuniy muvofiqlashtirish ayniqsa keyingi 20 yil ichida sezilarli darajada kuchaydi. Ilgargi birja savdosi birjani o'z tomonidan ishlab chiqarilgan qoida va me'yoriy hujjatlar asosida ko'pgina mamlakatlarda tartibga solinar edi.

Hozirgi vaqtida ko'pgina mamlakatlarda o'z qonunchiligidida birja faoliyatini muvofiqlashtiruvchi, tartibga soluvchi umumiy bir biriga mos bandlari mavjud.

Birja faoliyatini muvofiqlashtirish birjada bitim tuzish va imzolash tartibi va talablari va hamda birja faoliyatining umumiy tartibi haqidagi ma'lum ishlar majmuidir.

Birja faoliyatini huquqiy muvofiqlashtirish tarixiy nuktai nazardan quyidagi yunalishda rivojlangan.

- davlat tomonidan muvofiqlashtirish;
- birja va birja bozoridagi boshqa qatnashchilar tomonidan muvofiqlashtirish;
- birja bozorini o'z o'zini muvofiqlashtirish printspidan foydalanish.

Ko'pgina xorijiy mamlakatlar tajribasida birja faoliyatini davlat nazorati quyidagi printsplarga rioya qilish asosida qurilgan:

- jamiyat uchun foydalilik;
- birja faoliyatini ochiqligi va oshkoraliqi;
- o'z o'zini muvofiqlashtirish printspidan foydalanish;
- bija savdosi qatnashchilarini huquqiy kafolati;

Demak, birja faoliyatini muvofiqlashtirishda davlatni ahamiyati ancha katta.

Iqtisodiy taraqqiy etgan mamlakatlar tajibasi shuni ko'rsatdiki, davlat va bozor tizimi bir biri bilan chambarchas bog'liq, birgalikda harakat qiladilar. Odatda

bozor iqtisodiyoti samarali ishlashni qo'llab - quvatlovchi huquqiy asoslari davlat tomonidan ta'minlanadi.

Huquqiy asosning mavjudligi davlatni boshqaruvchi tashkilotlar tomonidan ham ishlab chiqarish soxasi ham, muomala soxasida qatnashuvchi barcha sub'ektlar uchun bir xil majburiy “o'yin qoidalari”ni o'rnatish imkonini beradi.

Birja faoliyatini davlat tomonidan nazorat qilinishi - butun iqtisodiyotni boshqarishni bir muhim omilidir. Davlat firma, korxonalar rivojlanishi uchun imkon beruvchi raqobatni rag'batlantiradi, manopoliyalar rolini cheklaydi, iqtisodiyot infratarkibi orqali resurslar taqsimotini tartibga soladi, pul sitemasini qo'llab - quvvatlaydi, iste'molchiar xaqini himoya qilib, iste'molchilar va tovar ishlab chiqaruvchilar o'rtasidagi aloqalarni muvofiqlashtiradi.

Aholi daromadlarini qayta taqsimlash masalalari, hamda ijtimoiy dasturlarni moliyaviy ta'minlash ham, davlat zimmasidadir. Bundan tashqari ishchi xizmatchilar sog'ligini ximoya qilish , mehnat muhofazasi, atrof muhitni ximoyalash hamda istemochilarni huquqiy ximoya qilish ham davlat tomonidan amalga oshiriladi.

Demak hulosa qilib aytadigan bo'lsak, birjalarning bozor iqtisodiyotidagi roli, faoliyat ko'rsatayotgan xudud, tuman, viloyat, mamalakatning iqtisodiy-ijtimoiy taraqqiyoti darajasi, rivojlanishining ustivor yo'nalishlariga bevosita bog'liq bo'ladi.

Yuqorida sanab o'tgan birjaning xususiyatlari ichida jamiyat uchun foydalitlik darajasiga alohida ahamiyat berish kerak bo'ladi, chunki, birja jamiyat rivojlanishi, jamiyatdagi insonlar farovonligi uchun xizmat qilishi talab etiladi. Agarda birja jamiyat uchun foyda keltirmasa, uning keragi bo'lmay qoladi.

Hozirgi kunda O'zbekistonimizni iqtisodiy - ijtimoiy rivojlantirishning ustivor yo'nalishlaridan biri kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishi bilan bog'liqdir. Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishi uchun esa, ularning moddiy va moliyaviy resurslarga bo'lgan talabini qondirish zaruriyati mavjud. Moddiy resurslarga bo'lgan talabini birja savdolari orqali amalga oshirish eng maqlul ususl hisoblanadi. Bu erda birja mamlakat iqtisodiy - ijtimoiy rivojlanishining muhim omili sifatida maydonrga chiqmoqda.

Birjalarning, xususan tovar birjalarining alohida olingan insonlar hayotidagi roli ham e'tiborga loyiq mezonlar bilan ifodalshga arziydi. Birjada faoliyat ko'rsatuvchi xodimlar soni ham, sifati ham e'tiborga loyiq, Masalan valyuta bozorining muhim unsuri-komponenti FOREKS birjasida faoliyat ko'rsatuvchi treydirelar soni cheklanmagan xolda ko'pchilikni tashkil etadi. Ular shu faoliyat tufayli daromad qiladilar, oila boqadilar.

Qimmatli qog'ozlar bozori bevosita fond birjalari bilan bog'liqdir. Fond birjalari taraqqiy etgan mamalakatlarning iqtisodiyotining ajralmas va muhim qismi hisoblanishi barchaga ma'lumdir. Chunki, fond birjalarida savdo predmeti sifatida turli aksiyalar, obligatsiyalar, bo'lishlari mumkin. Aktsiyadorlar manfaatlarini himoya qilishda, aksiyalarning daromadlildigini ta'minlashda fond birjalarining ahamiyati beqiyos kattadir.

Iqtisodiyotda fyuchers birjalarining ahamiyat ham tobora ortib borishi ham barchaga ma'lumdir.

3.3. Tovar birjalarining klassifikatsiyasi tamoyillari

Tovar birjalarining klassifikatsiyasi haqida so'z yuritadigan bo'lsak, birinchi navbatda, ularning xuquqiy maqomi haqidagi qarashlarga e'tiborni qarataylik. Xuquqiy nuqtai-nazardan birjalar turli statusga ega bo'lishlari mumkin. Birjalarning rivojlanishi tarixiga e'tibor beradigan bo'lsak, birjalar butunlay mustaqil, o'zini-o'zi tartibga soladi, unga faqat xalaqit berilmas bo'ldi-degan gaplar ham bo'lgan, Masalan AQShda 19 asrning oxiri, 20 asrning boshlarida tovarsiz birja operatsiyalari avj olishi natijasida narx navoning mislisiz o'sishi ro'y berdi, mamlakatning ba'zi xudularida oziq-ovqat tovarlari ta'minoti birjadagi chayqovchilining xaddan tashqari ortib ketganligi natijasida izdan chiqib, aholining norozilingga sabab bo'ldi. G'alayonlar vujudga keldi, va xukumatni birjalar faoliyatiga aralashuv zaruriyatini ko'rsatdi.

Birja faoliyati qoida va tartiblarini ishlab chiqishda davlatni boshqaruv organlari (parlament qonun chiqarish tashabbusiga ega tashkilotlar bilan birga), birja mutaxasis xodimlari hamda birja mijozlari ham, qatnashishi muhim ahamiyatga egadir. Buni ahamiyati ayniqsa qimmatli qog'ozlar bozorida kattadir, chunki odatda

birjdan turli qimmatli qog'ozlarni sotib oluvchi investorlar birja savdo bitimlarida bevosita ishtirok etmay o'z huquq va mablag'larini birjadagi mutaxasis vositachiga ishonib topshiradilar. Shuning uchun mijozlar o'z manfaatlarini huquqiy kafolatiga ishonch xosil qilishlari kerak.

Davlat tomonidan birja faoliyatini muvofiqlashtirish taqiqlash harakteriga ega bo'lmasligi kerak. Uni vazifasi birja faoliyatini muvofiqlashtiruvchi tartib va qoidalarni izchil nazorat qilish bilan birga birja savdo qatnashchilarining barchasi uchun bir xil huquq yaratish va ularni rag'batlantirishdan iboratir. Shuningdek, birja savdosida qatnashchilar, birjani o'z faoliyati uchun ruxsatnomalar berish, soliqqa tortish tizimini o'rnatish, hamda ularni nazorat qilish borasida yagona huquqiy asos yaratishdan iboratdir.

Hulosa qilib aytganda, davlat tomonidan birja faoliyatini muvofiqlashtirish birja uchun yagona huquqiy asos yaratishdan iboratdir.

Birja savdosi davlat tomonidan huquqiy muvofiqlashtirish odatda maxsus davlat tashkilotlari hamda maxalliy davlat tashkilotlari tomonidan amalga oshiriladi. Zarur hollarda bu ishga mahsus ekspert guruhlari, mutaxassislar jalg qilinishi mumkin.

Birja bitimlari muvofiqlashtirishni eng ishchan tizimi AQShda vujudga keldi. AQShda birdja faoliyatini muvofiqlashtirish 1973 yildan boshlandi.

Mamlakat tovar birjalaridagi barcha operatsiyalarni birjalar o'zi hamda tovarlar fyuchers savdosi bo'yicha komissiya (TSFK) tomonidan muvofiqlashtiriladi, ayniqsa fyuchersli savdoni muvofiqlashtirish uni nazorati ostida o'z o'zini boshqarish deb ifodalash mumkin. Komissiyaning har bir a'zosi Davlat Prezidenti tomonidan tayinlanadi va kongres tomonidan tasdiqlanadi.

AQSh fyuchers savdosida KTFT qonuniy eng yukori tashkilot bo'lishiga qaramay amalda u narxlarni sun'iy tebranishni va sun'iy korxona sinishini bartaraf etish bo'yicha tadbir va choralarни ishlab chiqarish va tadbiq etish majburiyatlarini fyuchers bozori qatnashchilari zimmasiga yuklaydi. O'zi esa o'z - o'zini boshqarish jarayonini muntazam kuzatib turadi.

AQSh birja faoliyatini huquqiy muvofiqlashtirishni xozirgi zamонави shakli uzok vaqt mobaynida shakllandi .

AQSh dagi birja bozori paydo bo'lgandan 50 yil o'tgandan keyin ham birja faoliyatiga taalluqli federal umumdavlat qonunlari yo'q edi. Har bir birja o'z qoidalariiga ega edi. 1861-1865 y fukarolararo urushdan keyin xom ashyolar bahosi tushish davri keldi. Bu esa mamlakatda iqtisodiy rivojlanish sur'atlarini keskin tushib ketishiga sabab bo'ldi. Bunda tovar ishlab chiqaruvchilar aybni birja chayqovchilari va birja bozoriga qo'ydilar. Zudlik bilan iqtisodiy o'sishni ta'minlovchi tadbir – choralar, qonun - qoidalari ishlab chiqish zaruriyati paydo bo'ldi. Birinchi bo'lib Illinoys shtati qonun qabul qildi. 1867 yilda qabul qilingan qonun sotuvchida mavjud bo'limgan tovarni muddatli sotuvini taqipladi. Qonun deyarli qo'llanilmagan, ammo 1867 yilda Chikago savdo palatasining etti nafar a'zosi hibsga olindilar. Ular mavjud bo'limgan tovarlar bo'yicha savdo bitimi imzolanganlikda ayblandilar. Ba'zi bir shtatlarda fyucherli savdoni butunlay taqiqlovchi qonunlar ham qabul qilingan edi. Mahbuslar tez orada erkinlikka chiqarilgan bo'lsalarda, vujudga kelgan janjal birja bozoridagi noxushliklarni keltirib chiqardi. Bir yil o'tar - o'tmas qonun bekor qilindi. Birinchi jahon urushi davomi mobaynida AQSh xukumati va birja (fyuchers) bozorlari o'rtasida kelishuv bitimi amal qildi, ammo urush tufayli, bozorni muvofiqlashiruvchi barcha harakatlar chipakka chiqdi. 1916 yilda qabul qilingan fyuchers paxta savdosi haqidagi qonun bu boradagi birinchi qadam bo'ldi.

1921 yilda ishlab chiqilgan fyuchers savdo haqidagi qonun ham tez orada g'ayri konstitutsiyaviy deb e'lon qilini. Qonun matni qayta ishlanib 1922 yil "Don fyuchersi savdosi haqidagi qonun" nomi bilan qabul qilindi.

Qonun kontrakt bozoridagi tushunchalarni birinchi bor ifodalab berdi. Don savdosida fyuchers kontraktlar bo'yicha ma'muriyatni qishloq xo'jalik departamenti doirasida ta'sis etdi. Mazkur qonun o'sha vaqtda mavjud bo'lgan Chikago savdo birjasи va 9 ta boshqa birjalarda don savdosi bo'yicha faoliyatni muvofiqlashtirdi.

Birja savdosi bo'yicha tuzilgan maxsus departament - ma'muriyat birja a'zolari hisob raqami va asosiy hisob - kitobini tekshirish hamda birjalarning bozordagi faolliklari va savdo qonun qoidalarga rioya qilishlari ustidan nazorat qilish huquqini qo'lga kiritdi.

AQSh kongresi keyingi 10 yilliklar davomida ushbu qonunga turli o'zgartirishlar kiritdi. Lekin faqat 1939 inqiroz va 1930- yillardagi depressiyalar bu qonunni qayta ko'rib chikishga olib keldi. 1936 yildagi qonun tovar birjalari bo'yicha komissiyalar tuzishni ko'zda tutgan edi. 1947 yilga kelib ushbu komissiya nomi "Tovar birjalari bo'yicha ma'muriyat" deb o'zgartirildi.

Demak, tovar birjalarning klassifikatsiyasi, ularning xususiyatlari bo'yicha turlarga bo'lish demakdir. Masalan birjadagi savdolar predmeti bo'lgan tovarlar turi bo'yicha, Neft birjasi, Xindiston Choy birjasi, Kofe birjasi, London pahta birjasi, Moskva xalqaro valyuta birjasi, Sank Piterburg Mo'yna birjasi va hakazo. Tashkiliy huquqiy maqomi bo'yicha, Moskva Munitsipal ko'chmas mulk birjasi, Toshkent viloyat ko'chmas mulk birjasi. Nyu York Qimmatli qog'ozlar birjasi – Newyork Stock exchange.

Joylashish xududi bo'yicha, mahalliy, munitsipal, Federal birjalar. O'zbekiston Respublikasi tovar xoashyo birjasi barcha viloyatlarda o'z filallariga ega, ular ilgari alohida xuquqiy maqomga ega viloyat tovar xom ashyo birjasiga edilar.

Qisqacha hulosalar:

Bozorda tovar ayriboshlashning mohiyatini pul vositasi bilan ifoda etuvchi va bozorni boshqarib turuvchi ob'ektiv iqtisodiy qonunlar bozor qonunlari deb yuritiladi. Bular jumlasiga:

Talab va taklif qonuni;

Pul muomalasi qonuni kiradi.

Bu qonunlar bozor munosabatlari sohasida amal qiladigan qonunlardir. Ular ob'ektiv tarzda amal qiladi. Bozorda talab oshsa, narxni ham oshiradilar, agar pasaysa, narxni ham tushiradilar.

Tovar birjalari ham o'zida, raqobat, talab, taklif, baho, narx kabi bozor mexanizmlarini mujassamlashtiradi. Birja bir tarafdan tovar sotish ilinjida bo'lgan sotuvchi tomon, ikkinchi tomondan o'z talabini qondirish uchun harakat qilayo'tgan xaridor uchrashadigan joy bo'lib, ular har ikkalasi ham mustaqil xo'jalik sub'ektlaridirlar. Oldi-sotdi jarayo'ni vositachi dalol–broker, diler, treyderlar orqali amalga oshiriladi.

Birjada ham xuddi boshqa bozorda bolgani kabi tovar narxi talab va taklif bilan bevosita bog'liqdir. Agar ishlab chiqaruvchi birjaga yangi, sifati yaxshilangan tovar olib kelsa, u oz moliga yuqori narx ornatish huquqiga egadir. Bu holda birja qatnashchilari ham ijobiliy yo'ndoshsalar ishlab chiqaruvchi olgan foyda ortacha tarmoq foydasi korsatkichidan yuqori bo'ladi.

Tovar birjalarini klassifikatsiyasi eng avvalo ularning maqsadalari va tashkiliy maqomiga qarab aniqlanadi.

Tovar birjalari tovar nomenklaturalariga qarab ixtisoslashgan va universal bolishlari mumkin.

Ixtisoslashtirilgan tovar birjalari ma'lum tor doiradagi tovarlar nomenklaturasi (hatto bitta tovar) bilan savdo qiluvchi tovar birjalari bolib ularning ham oziga xos xususiyatlari mavjud.

Bular qatoriga;

- fond birjalari;
- valyuta birjalari;
- intellektual mulk, uning ob'ektlari bilan savdo qiluvchi birjalar;
- aralash nomenklaturali birjalar;
- mehnat birjalarini kiritish mumkin.

tashkiliy tamoyili bo'yicha 2 guruhga bo'lish mumkin;

1. Maxsus korporativ huquq harkteridagi masalan davlat tomonidan nazorat ostiga olingan tovar birjalari.
2. Xususiy mulk shaklidagi tovar birjalari.

Nazorat savollari

1. Bozor iqtisodiyoti qanday qonunlar amal qilinishi bilan ma'muriy-buyruqbozlikka asoslangan iqtisodiy tizimdan farqqiladi?
2. Birjaning bozor faoliyatining omililigi nimalarda namoyon bo'ladi?
3. Birja faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar qanday harakterga ega bo'lishlari kerak?
4. Bozor munosabatlari taraqqiy etgan AQSh da birja va davlat munosabatlari kay tarzda tashkil etilgan?

5. Tovar birjalarining iqtisodiyotdagi roli qisqachi tariflang.
6. Fond birjalarning mamalakat iqtisodiyotida qanaqa vazifani bajaradi?
7. Valyuta birjalari korxonlar uchun qanday imkoniyatlar beradi?
8. Fond birjalari aksiyadorlar uchun qanaqa ahamiyatga ega?
9. Fyuchers birjalarining ahmiyati nimalarda namoyon bo'ladi?
10. Kichik biznes va xususiy tadbirkolrlik sub'ektlari uchun birjalar qanaqa xizmatlar ko'rsatishilari mumkin.

Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. N. Yo'ldoshev. «O'rta-Osiyoda bozor nazariyasi va tajribasi». - O'quv qo'llanma.-T.:TDIU, 2004, - 113 b.
2. Гусева И.А. Рынок ценных бумаг. Практическое задания по курсу: Учеб.пособ. – М.: Экзамен, 2005, – 464 с.
3. Дегтярева О.И. Биржевое дело - М.:МАГИСТР 2010, . 623 с.
4. Каменева. Н. Г. Организация биржевой деятельности - М.: Банки и Биржи ЮНИТИ, 2002, стр. 313.
5. Кеселев В.А. "FOREX для начинающих" М.: ЮНИТИ 2010, - 248 с.

4-mavzu. Tovar birjalarining huquqiy asoslari va boshqarish tashkiloti.

Reja.

- 4.1. Tovar birjalarining boshqaruv organlari va ularni vazifalari
- 4.2. Tovar birjalarining boshqaruvni tashkil etish tajribasi
- 4.3. Tovar birjalarining tashkiliy bo'linmalari

4.1. Tovar birjalarining boshqaruv organlari va ularni vazifalari

Tovar birjalariing tashkilotchilik xususiyati har qanday davlat bozor iqtisodiyoti rivojlanishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi. O'zbekiston Respublikasida tovar

birjalariin boshqarish O'zbekiston Respublikasining "Birja va birja faoliyati to'g'risida"gi qonuni asoida tartibga solinadi, tovar birjalarini boshqarish ham anan shu qonun talablari asosida amalga oshiriladi.

Tovar birjasи ham xuddi boshqa xo'jalik yurituvchi tashkilotlar kabi faoliyat yuritishi uchun o'z ta'sis hujjatlari, ta'sis shartnomasi, nozomi kabi me'yoriy hujjatlar zarur bo'ladi.

Tovar birjalarini boshkarish uning nizomida, ya'ni ta'sis hujjatlarida o'z aksini topadi. Tovar birjalarini boshqarish uning a'zolari tomonidan shuningdek, uning yollangan personali tomonidan amalga oshiriladi. Ko'pchilik birjalarning ta'sis hujjatlarida birja boshqaruvining oliy organi Direktorlar (Boshkaruvchilar) Kengashi hisoblanadi. Kengash birja a'zolar tomonidan saylanadi. Birja faoliyatining siyosati, birjada savdolar olib borish qoida va me'yorlari Direktor Kengashi tomonidan belgilanadi va birja qo'mitalari tomonidan amalga oshiriladi.

Bu qo'mitalar Direktorlar Kengashi tomonidan tayinlanadi yoki birja a'zolari tomonidan saylanadi. Qo'mita Direktorlar Kengashiga tavsiya bilan chikadi va unga yordam ko'rsatadi, shuningdek birjaning faoliyat ko'rsatishi bilan bog'lik bo'lgan aniq vazifalarni bajaradi. Birjaning kundalik faorliyatini boshqarish maqsadida yollangan birja apparati shakllantiriladi. Yollangan personal savdo va ovoz berish bo'yicha xukuklarga ega bulmaydi. Birja apparatidagi personal soni va ularning majburiyatlari Direktorlar Kengashi tomonidan belgilanadi. Personal DK va qo'mita tomonidan berilgan topshiriq va qarorlarni bajaradi, personallarning tashkiliy tuzilishi esa ko'pincha qo'mitalar funktsiyalariga mos keladi.

Ko'plab birjalar xususiy shaxslarning assotsiatsiyasi shaklida mavjud bo'ladi. Birja a'zoslarining soni cheklangan bo'ladi va u utrli omillar ta'sirida o'zgarib turadi. Birja a'zosi bo'lgan korporatsiyalar ko'pincha tuzilgan bitimlar bo'yicha foizlar to'lashda, o'z tovarlarini sotishda bir qator yangiliklarga ega bo'lishi mumkin.

Bundan tashqari, ba'zi birjalarda korporatsiyalarga, kompaniyalarga va kooperativlarga birjalardagi a'zolari bilan birga kantselyariya va texnik ishlarni bajarish uchun birja a'zo bo'lмаган xizmatchilarni ushlab turishga ruxsat beriladi,

birok shartnama tuzish faqat birja a'zosi bo'lgan kompaniya vakilining xuquqi bo'lib qolaveradi.

Birja ustavida uning ustav kapitali ko'rsatiladi, bu kapital a'zolarning paylari (vznoslari, ya'ni faoliyat boshlashlari uchun zarur bo'ladigan aylanma va asosiy fondlar uchun ta'sischilarining kiritmalari) hisobiga shakllantiriladi.

Birjaga a'zolik ma'lum bir xuquqlarni beradi va shuningdek ma'lum bir majburiyatlarning bajarilishini ham ko'zda tutadi.

Birja to'liq a'zosining asosiy xuquqi - bu mustaqil ravishda birja doirasida bitimlar tuzishdir. Birjaga a'zo bo'limganlar esa operatsiyalarni faqat birja a'zolari orqali amalga oshiradilar. Birjada bitimlar tuzish xuquqi avtomat tarzda emas, balki ma'lum bir tayyorgarlikdan o'tilgandan so'ng davlat imtihonlari topshirgandan keyingina o'rnatilgan ma'lum tartibda, birjada opreatsiyalar o'tkazish huquqini beruvchi litsenziya guvohnomasi berish orqali amalga oshiriladi. Shundan so'ng u birja savdogar (Treyder) guvohnomasini oladi. So'ngra treyder guvohnomasiga ega birjadan joy olish uchun hujjatlarni rasmiylashtirish mumkin. Treyder o'z faoliyatini, kengaytirishi va uning samaradorligini oshirish maqsadida o'z hisobidan yordamchi yollanab ishlatishi mumkin. Guvohnomali treyder yoki broker malakasi uchun juda katta talab qo'yiladi chunki, ularning xatosi birja faoliyatiga sezilarli zarar keltirishi mumkin, ular katta xajmdagi operatsiyalarda ishtirop etadilar.

Birjani boshqarish uning a'zolari tomonidan ham, yollanma xodimlar tomonidan ham amalga oshiriladi. Birjaning oliy rahbarlik organi direktoriar (boshqaruvchilar) Kengashi hisoblanadi. Kengash birja a'zolari tomonidan saylanadi. Uning tarkibiga birja a'zolari ham, bir nechta direktorlar ham kiradi. Birja faoliyati me'yorlari, siyosati va qoidalarli direktoriar Kengashi tomonidan belgilanadi va direktoriar Kengashi tomonidan tayinlanadigan yoki birja a'zolari tomonidan saylanadigan, birja a'zolaridan tarkib topgan qo'mita tomonidan hayotga tatbiq etiladi. Qo'mita a'zolari direktoriar Kengashining oldida javob beradi. Qo'mita a'zolari mos keluvchi haq to'lanmasdan ishlaydi. Ular tavsiyalar chiqaradi va direktoriar Kengashiga yordam beradi, shuningdek, tartibga solish qoidalariga muvofiq ularga yuklatilgan birja faoliyati bo'yicha muayyan majburiyatlarni bajaradi. Birjaning yollanma xodimlari savdo bo'yicha hech qanday huquqqa yoki ovoz berish huquqiga ega

emas. Xodimlar soni va ularning majburiyatlari direktoriar Kengashi tomonidan belgilanadi. Personal direktoriar Kengashi va qo'mitalarning topshiriq va qarorlarini bajaradi, personalning tashkiliy tuzilmasi esa, ko'pincha, turli qo'mitalarning funksiyalariga mos keladi.

Birjalarning ko'pchiligi xususiy shaxslarning korporatsiya ko'rinishida tashkil qilingan va foyda olishni o'z oldiga maqsad qilib qo'ymagan uyushmalarini ifodalaydi. Birja a'zolari soni cheklangan bo'lib, ba'zida o'zgarib turishi mumkin. Birja a'zolari faqat alohida shaxslar hisoblanadi. Shu bilan birga, korporatsiya, kompaniya va shirkatlar ularni, masalan, tuzilgan bitimlar bo'yicha komissiya foiziga taalluqli masalalarda ayrim a'zolar taqdim etadigan imtiyozlarni olish huquqiga ega. Bundantashqari, ayrim birjalarda korporatsiya, kompaniya va shirkatlarga ularning manfaatlarini ifodalovchi a'zolar orqali xizmatchilarga - birja zalida kanselariya ishlari va boshqa texnik ishlarni bajarish uchun birja a'zosi bo'limgan shaxslarga ega bo'lishga ruxsat ctiladi. Biroq bitimlar tuzish faqat kimga a'zolik rasmiylashtirilgan bo'lsa, o'sha firmaning imtiyozida qoladi.

Birja korporatsiyasi nizomida uning a'zolar payi (badali) hisobiga shakllanadigan kapitali ko'rsatiladi. Birja sertifikatiga (payiga) egalik qilish birja halqasida bitimlar tuzish huquqini beradi.

Birjaga a'zolik ma'lum bir huquqlar beradi va qator majburiyatlarni bajarish bilan bog'liq bo'ladi.

Birjaning to'liq a'zosi oladigan asosiy huquq - birja halqasida mustaqil bitimlar tuzishga ruxsatdir. Aytib o'tilganidek, birjaga a'zo emaslar birja operatsiyalarini faqat birja a'zolari orqali amalga oshirishlari mumkin, birja halqasida birja bitimi tuzish huquqi avtomatik ravishda emas, a'zo belgilagan tayyorgarlikdan o'tgan va bilimdonlik bo'yicha minimal talablarga javob bergandan so'ng beriladi. Shundan keyin u halqaga kirish imkonini beradigan savdogar (makler) belgisini oladi. Unga nisbatan yo'l qo'yadigan xatolari natijasida qo'shimcha zarar ko'rishi mumkinligi tufayli, shuningdek, makler belgisiga ega bo'lganlar qoidaga ko'ra, halqaga kirish imkoniga ega bo'limganlarga nisbatan ko'proq hajmda operatsiyalar o'tkazishi sababli ularga qattiq moliyaviy talablar qo'yiladi.

Birja a'zosining ikkinchi muhim ustunligi birja operatsiyalari o'tkazish xarajatlarining nisbatan pastligidir. Odatda, a'zo bo'l'maganlar har bir bitim bo'yicha 2 sentdan 75 sentgacha birja yig'imi to'laydilar. Shu bilan bir paytda birja a'zolari, qoidaga ko'ra, bunday yig'ilmardan ozod etiladi.

Birjaga a'zolik birja shartnomalarini sotib olish va sotishda birjaga a'zo bo'l'maganlardan olinadigan komission mukofotlar ko'rinishida ma'lum bir daromad olish imkonini ham beradi.

Nihoyat, birjaga a'zolikning muhim afzalligi birja boshqaruvida ishtirok etish yoki boshqarish, birjaning faoliyat qoidalarini ishlab chiqish yoki o'zgartirish, namunaviy shartnomalar shartlarini belgilash, bozor axborotiarini birjaga a'zo emaslardan oldinroq olish imkoniyati hisoblanadi.

O'zbekiston Respublikasining «Tovar birjalali va birja savdosi to'g'risida»gi Qonuniga muvofiq birjani ta'sis qilishda quyidagilar ishtirok etishi mumkin emas:

- davlat hokimiyati va boshqaruvi oliy va mahalliy organlari;
- banklar va belgilangan tartibda bank operatsiyalarini amalga oshirish litsenziyasini olgan kredit muassasalari;
- sug'urta va investitsion kompaniya va fondlari;
- jamoat, diniy va xayriya tashkilotlari va jamg'armalari;
- qonunchilikka muvofiq tadbirkorlik faoliyatini amalga oshira olmaydigan jismoniy shaxslar.

Ta'sischilar soni qanchalik ko'p va ularning moddiy-moliyaviy ahvoli qanchalik kuchli bo'lsa, ular birjaga shunchalik katta yordam ko'rsata oladi deb hisoblanadi, vaholanki, ta'sischilar sonining ko'pligi birjani boshqarishni qiyinlashtiradi.

Birja a'zosi deb, uning nizom kapitalini shakllantirishda ishtirok etadigan, a'zolik badallari yoki birja mulkiga boshqa maqsadli badallar kiritadigan va ta'sis hujjatlarida ko'zda tutilgan tartibda uning a'zosiga aylangan shaxslarga aytildi.

Birja a'zosi belgilangan quyidagi huquqlarga ega:

- birja savdosida ishtirok etish;
- birjaning me'yoriy hujjatariga muvofiq uni boshqarishda qatnashish;
- foydani taqsimlashda ishtirok etish va ta'sis hujjatlarida ko'zda tutilgan hollarda dividend olish;

- birja savdosida qatnashish huquqini ijaraga berish (belgilangan tartibda va faqat bitta yuridik shaxsga).

Birja a'zolari soni cheklangan boiib, nizom fondi hajmiga va bitta aksiyaning nominal qiymatiga bog'liq bo'ladi. Aktsiya birja a'zosi huquqlaridan foydalanish imkonini beradi. U birjadagi «joy» bahosini ifodalaydi. **Joy** — bu birja a'zosining mulkidir. U birja a'zosi birjadan chiqadigan taqdirda sotib yuborilishi yoki ijaraga berilishi mumkin. Joyning bahosi Birja qo'mitasi tomonidan belgilanadi, u talab va taklifga bog'liq bo'ladi. Masalan, 1991-yil (bahorda) RTXB aksiyalari 2470 ming so'mdan (nominali 100 ming so'm), 1991-yil noyabrida 7600 ming so'mdan sotilgan. 1990-yil Chikago tovar birjası to'liq a'zosining joyi 406 ming dollarga sotilgan. Ushbu birjada 1991-yil to'liq a'zolik joyini 445 ming dollarga sotish, 405 ming dollarga sotib olish taklifi tushgan.

Chet ellarda tovar birjalarida turli a'zolar guruhlari mavjud. Masalan, London metall birjasida birja a'zolari ikki guruhga ajratilgan: individuallar (prinsipallar) bitimlarni o'z nomidan tuzadi; a'zo-vakillar bitimlarni ularning vakili hisoblangan firma yoki kompaniyalar nomidan tuzadi.

«Tovar birjalari va birja savdosi to'g'risida»gi Qonunga muvofiq O'zbekistonda ham ikki xil birja toifalari ko'zda tutilgan:

- to'liq a'zolar - birjaning barcha seksiyalarida (bo'lim, bo'linma) birja savdosida ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan a'zolar;

- to'liqsiz a'zolar - mos keluvchi seksiyalarda (bo'lim, bo'linma) va birjaning ta'sis hujjatlari va birja seksiyalari (bo'lim, bo'linma) a'zolarining umumiy yig'ilishida belgilangan birja savdosida ishtirok etish huquqiga ega bo'lgan a'zolar.


Birjaga a'zolikning yana afzalliklari - a'zo birja boshqaruvida faol ishtirok etadi, birja faoliyati tartiblarini shakllantiradi va o'zgartirib boradi, namunaviy(tipovoy) bitimlar shartlarini o'zgartirishda ishtirok etadi, birjada a'zobo'lmapganlarga nisbatan ko'proq va avvalroq so'nggi axborotlarga ega bo'ladi.

O'zbekiston Respublikasining «Birja va birja faoliyati to'g'risida» gi qonuniga muvofiq birjani ta'sis etishda quyidagilar ishtirok etishi mumkin emas:


- davlatning oliy va mahalliy xokimiyatlari va boshqarmalari;

- belgilangan tartibda litsenziya olgan bank va kredit muassasalari;
- sug'urta va investitsiya kompaniyalari hamda fondlari;
- ijtimoiy, diniy va hayriya tashkilotlari hamda fondlari;
- qonunchilikka muvofiq tijorat faoliyati yuritishi mumkin bo'limgan jismoniy shaxslar.

Birjani boshqarish uning institutsional strukturasi bilan belgilanadi, bu struktura quyidagi chizma yordamida ifodalanishi mumkin.



2-chizma. Birjaning institutsional strukturasi.⁵



3-chizma. Birja boshqaruv organlari⁶

⁵ Yunusov M.P.Birja va yarmarka faoliyatini boishqarish.Ma'ruza matnlari.-TDIU, T.2012.

⁶ Xomitov K.Z., Muxamedov G'. T. **Moliya bozori va birja ishi. O'quv qo'llanma.** — T.: «Davr nashriyoti», 2012. — 168-b.

Birja ta'sischilar qatoriga birjaning tashkilotchilari sifatida namoyon bo'ladigan institutsional guruh a'zolari kiradi. Ta'sischilar birjani tashkil qilish haqida ta'sis shartnomasini imzolaydilar va dastlabki badallarni kiritadilar. Ta'sischilar jismoniy shaxslar ham, yuriik shaxslar ham bo'lishi mumkin. Birja boshqaruv organlari Jamoat strukturasi, Statsionar struktura, Umumiy yig'ilish, Saylanma organlar, Birja qo'mitasi (kengashi), Taftish komissiyasi, Ixtisoslashgan organlar, Ijrochi organlardan iborat.

Jamoat strukturasi, o'z navbatida, birja a'zolarining Umumiy yig'ilish va birja a'zolari yig'ilishida shakllantiriladigan saylanadigan organlar bilan ifodalanadi.

Umumiy yig'ilish bu – birja faoliyatining ichki qonun chiqaruvchi organi bo'lib, quyidagi funktsiyalarini bajaradi:

- birja va birja savdosiga umumiy rahbarlikni amalga oshirish; birja maqsad va vazifalarini, uning rivojlanish strategiyasini, ichki tartib qoidalarini belgilash; ta'sis hujjatalrini (shartnoma, nizm, savdoqoidalari) tasdiqlash va o'zgartirish; - Birja qo'mitasi yoki kengashi va Taftish komissiyasini saylash va tasdiqlash;
- ularning birlamchi tarkibi va strukturasiga qo'shimcha va o'zgarishlar kiritish; birja faoliyati natijalarini tasdiqlash va foydani taqsimlash; dividend to'lash tartibini, shuningdek, zararlarni qoplash shartlarini belgilash;
- birjada joylar sonini belgilash (kamaytirish yoki oshirish) va ularning a'zolari uchun kvotalar belgilash;
- Birja qo'mitasining (kengashining) tovar sektsiyalarini yaratish (boshqarish), yangi birja a'zolarini qabul qilish haqidagi qarorlarini tasdiqlash;
- Birja qo'mitasi (kengashi) va birja personali harajatlar smetasini tasdiqlash.

Narxlarni kotirovkalash bu – birja narxlarini birja qoidalari bo'yicha ro'yxatdan o'tkazish va e'lon qilish.

Ayni vaqtida birjalar funktsional - axborot nuqtai nazardan mukammal organizm sifatida qabul qilinib tovar bozorini har taraflama tadqiq etishga xizmat qiladi.

Tovar birjasи deganda, o'zi urnatgan qoidalarga asosan avvaldan aniqlangan joyda va avvaldan aniqlangan vaqtida oshkora savdolashuv shaklda amalga

oshiruvchi ulgurji bozorni shakllantiruvchi va birja faoliyatini muvofiqlashtirish yo'li bilan tashkil etilgan yuridik huquqiy shaxs ko'rinishidagi tashkilot tushuniladi.

Tovar birjalar amaldagi qonunlar doirasida tasdiklanuvchi o'z filiallari va maxsus bo'linmalariga ega bo'lishlari mumkin.

Birja savdosining o'ziga xosligi shundaki, u sotuvchi yoki xaridorlarning o'zi tomonidan emas, balki ularning vakillari birja vositachilari tomonidan amalga oshiriladi.

Birjaning ajralmas bir uzviy qismi deb, brokerlik idorasini hisoblash mumkin. U birja strukturasiga kirmaydi. Biroq brokerlik firmalarisiz birja savdosini tashkil qilib bo'lmaydi.

Brokerlik faoliyati birja vositachiliga mansub bo'lib, birja bitimlarini mijoz nomidan va uning hisobidan, birja vositachisi nomidan va mijoz hisobidan, mijozning nomidan va birja vositachisi hisobidan amalga oshirishdan iborat.

Brokerlik firmasi — bu xususiy, shirkat, aksiyadorlik yoki boshqa korxona bo'lib, uning asosiy funksiyasi birja va mijozlar (mahsulot ishlab chiqaruvchilar, xaridorlar, savdo vositachilari) o'rtasida aloqani ta'minlashdan iborat. Muayyan birjaning brokerlik firmasi birja aksiyalar (pay)ini sotib olish asosida tashkil etilishi mumkin. Aktsiya egasi birjada o'z brokerlik firmasini tashkil qilish yoki birja savdolarida ishtirok etish huquqini boshqa tashkilotlarga ijara berish va ijara to'lovi shaklida mos keluvchi daromad olish huquqiga ega.

Yuqorida aytib o'tilganidek, birjada brokerlik firmasi sifatida ro'yxatga olinadigan tashkilot amaldagi qonunchilikka muvofiq istalgan tashkiliy-huquqiy shaklga ega bo'lishi mumkin.

Brokerlik firmasini tashkil qilishning eng tarqalgan va qulay turi mas'uliyati cheklangan o'rtoqchilik (MCHO') hisoblanadi.

Brokerlik firmasi mustaqil yuridik maqomga ega bo'lmasdan, biror-bir korxona yoki tashkiotning tarkibiy qismi bo'lishi ham mumkin.

Agar birja aksiyalarining egasi vositachilik tashkiloti hisoblansa, u mazkur birjaning brokerlik firmasi sifatida ro'yxatga olinadi, xolos.

Vositachilik firmasi birja uchun aksiyador hisoblanmagan hollarda esa u o'zining brokerlik firmasini tashkil qiladi.

Brokerlik firmasi mijozlarning birja tovarlarini sotish va sotib olishga arizalarini to'playdi, ularni ro'yxatga oladi va tezkorlik bilan birjadagi brokerlarga yetkazadi. Brokerlar olingan topshiriqlarni bajaradilar va bu haqida xabar brokerdan kompaniyaga va undan mijozga yetkaziladi.

Brokerlik firmalari butun mamlakat bo'ylabjoylashishi mumkin va bu mijozlarni jalg etish imkoniyatlarini kengaytiradi. Bunday firmalar chet elliklar tomonidan ham tashkil qilinishi mumkin.

Brokerlik firmasi ta'sischilari va personali ular faoliyatida ishtirok etishni mo'ljallayotgan muayyan birjaning huquq va majburiyatlarini, qonunchilik me'yorlarini bilishi zarur (nizom, brokerlik firmalari faoliyati haqidagi qoidalar, Birja qo'mitasining qarorlari, shuningdek, birja savdosi qoidalari va b.). Birjaning buyruq beruvchi va ijrochi boshqaruv organlari birja savdosi qoidalari, talablar va boshqa birja me'yoriy hujjatlarini yaratuvchi hamda qonunchilik asosida faoliyat ko'rsatayotgan brokerlar va brokerlik firmalari faoliyatiga aralashish huquqiga ega emas.

Brokerlik firmasini birjada ro'yxatga olishda ro'yxatga olish xizmati tomonidan unga birja bilan aloqa qilish uchun tijorat kodi va raqam beriladi.

Brokerlik firmasini ro'yxatga olish uchun quyidagilarni taqdim etish zarur: brokerlik firmasini ta'sis qilgan aksiyadorning arizasi; ta'sis hujjatlarining notarius tasdiqlagan nusxalari; mos keluvchi hukumat organlarining brokerlik firmasini yuridik shaxs sifatida ro'yxatga olish haqidagi qarorining tasdiqlangan nusxasi.

Brokerlik firmalari brokerlik firmalari maxsus REESTRida ro'yxatga kiritiladi. Ro'yxatga olingandan so'nga brokerlik firmasi mos keluvchi guvohnoma oladi.

Brokerlik idoralari birja boshqaruvini amalga oshirmaydi.

Broker birja savdosining professional qatnashchisi hisoblanadi, u tashkil qilingan bozorlarda faoliyat ko'rsatadi va birjada tovari sotish yoki sotib olish istagida bo'lgan mijozga yordam ko'rsatish uchun tayyorlangan bo'ladi. Broker va mijoz o'rtasidagi munosabatlar mijozning tashabbusi bilan vujudga keladi, biroq broker uning xizmatlaridan birontasi yana bir marta foydalanib qolishi yoki birjada bitim imzolash niyatida bo'lgan tanishlariga tavsiya etishini kutib o'tirmasligi kerak.

Brokerlik firmasi mijozlarni hamkorlikka jalg etishida xizmat ko'rsatadigan asosiy kanal reklama e'lolnari hisoblanadi.

Birjada ishlayotgan brokerlik firmalari mos keluvchi akkreditatsiyadan o'tadi, ya'ni birja firmaning unga qo'yiladigan talablarga muvofiqligini belgilaydi. Ayrim birjalarda firmaning o'zini akkreditatsiyalashdan tashqari. uning birja savdolarida ishtirok etadigan brokerlarini ham akkreditatsiyadan o'tkazish talab qilinadi. Akkreditatsiyadan o'tgan brokerlik firmasi birja REESTRiga kiritiladi va birja bitimlarini tuzishda uning ostida harakat qiladigan raqam (kod, shifr) oladi. Ayrim birjalarda brokerlik firmasining raqamli kodiga harflar qo'shiladi yoki umuman harflar bilan almashtiriladi, bunda u qat'iy belgilangan (4 dan 6 gacha) harflarga ega bo'ladi. Brokerlik firmasining funksiyalari quyidagilardan iborat:

- a)bitimlar tuzishda birja vositachiligi, ya'ni buyurtmachining topshirig'i bilan birjada turli topshiriqlar bajarish; tovar, shartnoma, tovar ayriboshlash operatsiyalari, qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi (fond birjalarida mos keluvchi malakaviy attestat mavjudligida);
- b)birjadan tashqari vositachilik, ya'ni mijozlar o'rtaida birjani aylanib o'tgan holda bitimlar tuzish;
- d)mijozlarga birja va marketing faoliyati masalalari bo'yicha maslahatlar berish, zarur tijorat axborotlari toplash;
- e)tuzilgan bitimlarni hujjatlarda rasmiylashtirish;
- f)amaldagi qonunchilikka va mos keluvchi birianing me'yoriy hujjatlariga zid kelmaydigan boshqa funksiyalar.

Birinchi bosqichda brokerlik firmasi faoliyati uni ta'sis etgan yuridik yoki jismoniy shaxslarning mablag'lari hisobiga, keyinchalik esa, vositachilik faoliyatidan olinadigan daromadlar (tuzilgan bitimlar uchun komission to'lovlar hisobiga shakllanadigan) va mijozlarga ko'rsatiladigan turli marketing xizmatlari uchun to'lovlar hisobiga moliyalashtiriladi.

Brokerlik firmasi xodimlar shtati va unda band bo'lganlar mehnatiga haq to'lash hajmi firma egasi yoki rahbari tomonidan firmaning daromadlilik darajasiga qarab belgilanadi.

Brokerlik xizmatlari uchun to'lovlar, odatda, firma va mijoz o'rtaida bitim summasiga qarab belgilangan foiz miqdorida o'rnatiladi (masalan, bitim summasi qancha katta bo'lsa, foiz shunchlik kichik bo'ladi).

Yirik firmalar komission ajratmalarni bekor qilish va turli qo'shimcha xizmatlar taqdim etishdan (aloqadan foydalanish, maslahat berish va h. k.) daromad olishni taklif etadi.

Mijozning topshirig'i bo'yicha harakat qilar ekan, brokerlik firmasi bitimni uning nomidan tuzadi. Qoidaga ko'ra, brokerlik firmasi bitimlarda kontragentlar bilan hisob-kitoblarda ishtirok etmaydi va uning hisob-raqamiga faqat komission to'lovlar kelib tushadi. Biroq brokerlik firmasining tovarni keyinchalik qayta sotish maqsadida sotib olish varianti ham mavjud. Bu holatda u dilerlik operatsiyalarini amalga oshiradi, uning daromadi esa xarid va sotuv narxi o'rtaсидаги farqdan iborat bo'ladi.

Birjada ishlayotgan brokerlar va brokerlik firmalari bitimlarni birja savdosi qoidalariga muvofiq amalga oshiradi; birjada sotish uchun taklif etilayotgan mahsulot va xizmat turlari haqida axborot xarid qiladi yoki oladi; belgilangan tartibda birja personali xizmatlaridan, jumladan, savdo zallari va boshqa birja binolaridan, aloqa vositalari va boshqa idora texnikasidan (jumladan, hisoblash texnikasidan) foydalanadi; birjaning arbitraj komissiyasi ishida qatnashadi.

Brokerlar bozor konyunkturasini, mahsulotni xarid qilish va sotish imkoniyatlarini har tomonlama biladi, ancha tor tovarlar assortimentiga ixtisoslashadi. Brokerning vazifasi tovarni umumiyl bozor aylanmasiga kiritishga ko'maklashishdan iborat.

Tovar egasi bo'lgan sotuvchilar savdo bo'ladigan kundan kamida bir kun oldin tovar birjasida ishlaydigan brokerlarga ularning tovarini sotish haqida topshiriq beradi. Brokerlik firmasi (idorasi) orqali brokerlik o'rnini birjada sotib olgan yuridik shaxslar birjada faoliyat ko'rsatayotgan brokerlar hisoblanadi.

Brokerlar o'z xohishi bilan tovar mayjudligi va navlarini ko'rib chiqish, tovar egasi bo'lgan sotuvchining topshiriqlarini bajarish uchun zarur bo'lgan boshqa axborotni talab qilish huquqiga ega. Topshiriqlar yozma ko'rinishda rasmiylashtirilishi, bunda broker sotuvchining nomidan harakat qilish uchun

ishonchnomaga ega bo'lishi lozim. Birja yig'ilishida tovar egasi bo'lgan sotuvchilarni topish taqiqlanadi. Savdo seksiyalar — «yama» bo'yicha bo'lib o'tadi, har bir seksiyada birja tomonidan makler — savdoning boshlovchisi tayinlanadi.

Makler ulardan kelib tushgan iltimoslar tartibida brokerlarga o'z taklifini e'lon qilish uchun so'z beradi.

Keyingi 3 daqiqa ichida talabni aniqlash ro'y beradi, bunda broker sotuv shartlarini o'zgartirishi mumkin. Agar broker taklifi bekor qilganini e'lon qilmasa, u broker taklif qilgan shartlarda haqiqiy hisoblanadi va xaridorlar taklif ommaviy ravishda bekor qilinmagunga qadar birja yig'ilishi davomida broker bilan bitim tuzish huquqiga ega bo'ladi.

Tovar birjalarining muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatishi to'g'ridan to'g'ri brokerlik idoralari bog'liq.

Birjada ishlayotgan brokerlik idoralari, asosan, universal ido-ralar hisoblanadi.

Brokerlik firma (idora)larining taxminan 30% real tovar, masalan, don, paxta, elektronika, qurilish materiallari va h. k. sotib olish va sotishga ixtisoslashadi. Ularning ko'pchiligi davlat mulkini xususiy lashtirishda qatnashshish uchun yetarli mablag'larga ega. Biroq daromadni brokerlar, asosan, birjaga a'zolikdan emas, balki mulkdan oladilar, ya'ni ular amalga oshiradigan birja bitimlariga bog'liq bo'ladi. Broker qanchalik ko'p operatsiya (bitim) amalga oshiradigan bo'lsa, u shunchalik ko'p komission to'lov oladi. Broker mijozni «ovlash»ni o'rganishi lozim.

G'arb mamlakatlarida oddiy komissiya foizi 50—60 ga teng, ya'ni agar bir oy ichida broker qimmatli qog'ozlar yoki real tovar bilan bir necha million dollarlik operatsiyalar amalga oshiradigan bo'lsa, u darhol, ayniqsa, bozor faollashgan paytda juda boyib ketishi mumkin. Qo'polroq qilib aytganda, broker xuddi tozi it kabi yangi izlarni qidirishga tushishi lozim.

Tovar va fond birjalarida yuzaga kelgan birja savdosi jarayoni quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi:

Makler birja tovari nomi va uning narxini arizalar kelib tushganda o'qib eshittiradi. Broker makler e'lon qilgan tovarga qiziqishini qo'l ko'tarish yoki ovoz bilan bildiradi. Tovarni sotuvga qo'ygan broker va unga qiziqish bildirgan broker bitimning qo'shimcha shartlarini o'zaro kelishib oladilar. O'zaro kelishuvga

kelingach, brokerlar (broker-sotuvchi va broker-xaridor) tovar ko'rsatilgan va bitim obyekti hisoblangan arizani imzolaydilar. Shu paytdan boshlab bitim tuzilgan hisoblanadi. Ikkala tomon imzolagan ariza maklerga beriladi, u arizaga o'z imzosini qo'yib, ro'yxatga olish sanasi va vaqtini kiritadi. Shundan so'ng halqadagi operator ro'yxatga olingan bitim haqidadagi axborotni ma'lumotlar bankiga kiritadi.

Agar makler e'lon qilgan tovarga biror kishi qiziqish bildir-masa, bu pozitsiyani e'lon qilgan broker (broker-sotuvchi) taklif qilingan tovarni o'zgartirish va bu haqida makler orqali birja yig'i-lishiga xabar berish huquqiga ega. Buning uchun u qo'lini ko'tarib belgi beradi yoki maklerga axborotni yozma ravishda topshiradi.

Agar u yoki bu pozitsiyaga nisbatan bittadan ortiq broker qiziqish bildiradigan bo'lsa, makler konkurs savdosi o'tkazadi, unda quyidagi sharoitda arizada ko'rsatilgan narx o'zgartirilishi mumkin:

- bir nechta broker-xaridor mavjud bo'lsa, bunda bitimni amalga oshirish huquqini ko'proq narx taklif qilgan kishi qo'lga kiritadi;
- bir nechta broker sotuvchi mavjud bo'lsa, bunda eng kam narx taklif qilgan kishi bitimni amalga oshirish huquqini qo'lga kiritadi.

Agar pozitsiyani e'lon qilgan broker yoki arizachining o'rniliga bitim tuzish vakolati berilgan broker arizada ko'rsatilgan shartlarda bitimni amalga oshirish yoki ro'yxatga olishni rad qiladigan bo'lsa, bu belgilangan shartlarda bitimni amalga oshirishdan bosh tortish sifatida baholanadi, savdo qoidalarining buzilishi deb tan olinadi va jarima bilan jazolanadi.

4.2.Tovar birjalarining boshqaruvni tashkil etish tajribasi

Huquqiy jixatdan birjalar barcha mamlakatda rasmiy ro'yxatdan o'tkazilgan turli huquqiy shaklda barpo etilgan birlashmalar hisoblanadilar. Ko'pincha ular, ma'sulyati cheklangan jamiyat, urtoklik xissadorlik-aksiyadorlik assosiatsiyalari ko'rinishida bo'ladi.

Umumbirja mulkiga nisbatan birjani hamma a'zolari mulkni teng huquqli egalari bo'lislari bilan birga bir vaqtning o'zida o'zlari qo'ygan ulushlari va olinadigan daromadlarga egalik qiladilar. Ular tashkil qilgan huquqiy yoki jismoniy hamjamiyat jamoa ko'rinishida bo'lib ulardagi alohida fuqarolar, tashkilotlar birja

brokerlik to'lovlari chegirmali savdodan keladigan chegirma foydaga egalik qiladilar.

Ko'pincha birjalar korporatsiya sifatida faoliyat ko'rsatib, qaysi mamlakatda joylashgan bulsalar, usha mamlakat qonunchiligi doirasida harakat qiladilar Rivojlangan mamlakatlarda birjalar ko'pincha foyda olishga intilishmay notijorat makomiga ega bo'lib insonparvarlik va diniy g'oyalarga tayanib turli kuchli e'tiborga molik solik imtiyozlariga ega tashkilot sifatida maydonga chikadilar.

Birja o'zi bevosita savdo operatsiyalarini o'z funktsiyalarini amalga oshirish bilan bog'liq zarur hollardagina amalga oshiradi. AQShdag'i ba'zi birjalar o'z obro' e'tibrlarini oshirish maqsadida, yillik hisobotlarida asosli ravishda ko'pmilliardli raqamlarni keltirsalarda faqat ramziy 500- 100 dollar atrofida toza foyda oishlari mumkin U erda birjalarga boshqa savdo birjalarida (asosan fond) qimmatli qog'ozlar sotib olish va sotish ruxsat etilgan.

Birjalarni tijorat tashkilotlari sifatidagi faoliyati qatnashchilari tomonidan investorlar kabi turli kapital qo'yilmalardan daromad oishlari nazarda tutilar edi. Investorlar daromadlarini oshirish yo'llaridan biri birja faoliyatini qimmatlashuvi, mijozlar uchun turli to'lov va yig'ilmlar va boshqalar orqali amalga oshirilishi mumkin. Bu esa o'z navbatida ma'lum vaqtdan keyin birja operatsiyaarini o'sishini to'xtatadi. Shu bilan birja a'zolari mijozlardan chegirmalar savdo faoliyatidan keladigan foydalarni yo'qotishga olib kelgani muqarar.

Birjani huquqiy shaxs sifatida egalik qiladigan mulklari quyidagilar hisoblanadi:

- nizom sarmoyasi sifatida birja a'zolari qatnashchilari tomonidan berilgan mulk va boshqa kiritmalar;

- birja faoliyati davomida ichki xodimlar tomonidan yaratilgan mahsulot va xizmatlar qiymati;

- qatnashchi a'zolarning yillik badallari, birja operatsiyalaridan tushumlar, turli xil xizmatlar uchun to'lovlari , qoidabo'zarlarga solingan jarima tushimlari , xaridorlar to'lovlari;

- mulk yoki pul shaklidagi boshqa xarid tushumlari va x.k.

Odatda birja nizom sharnomasi ma'lum miqdordagi birja sertifikatlariga bo'linadi va birjani har bir a'zosi kamida bitta birjada operatsiya o'tkazish huquqini beruvchi bitta sertifikatga ega bo'lishi kerak. Birja sertifikatlari paylari yig'indisi birjaning nizomda ko'rsatilgan asosiy sarmoyasini tashkil etadi. Tovar birjalari tomonidan amalga oshiriluvchi asosiy va yordamchi funktsiyalarga quyidagilarni kiritish mumkin:

- real tovarlarni oldi-sotdisi;

- chayqovchilik;

- xejirlash;

- narxlar kotirovkasi;

- birja tovarlariga standartlar o'matish;

- bir xil (tip) ko'rinishli kontraktlar varaqalarini ishlab chiqish;

- savdolashuv odatlarini hisobga olib, xakamlik arbitrajlik funktsiyasini amalga oshirish;

- birja a'zolari urtalaridagi hisob-kitobini hisob-kitob palatalari va likvidatsion cassalar orqali amalga oshirish;
- birjaning axborot soxasidagi faoliyati va x.k.

Birjani oliy organi bo'lib birja ta'sischilarini va a'zolari umumiyligi yig'ilishi hisoblanadi. U nizomni unga kiritilgan o'zgartirishlari bilan tasdiklaydi. Birjaning boshqa hujjatlarini ham faqat umumiyligi yig'ilishi tasdiklaydi.

Birja umumiyligi yig'ilishida ovoz berish huquqisiz birja xodimlari, taklif qilinganlar va qatnashishlari mumkin.

4.3.Tovar birjalarining tarkibiy bo'linmalari

O'zbekiston Respublika Tovar xom-ashyo birjasini respublikamizning 12 viloyatida o'z filiallariga ega bo'lib, ularga uslubiy maslahat yordamini muntazam ko'rsatib boradi.

Bevosita Respublika Tovar xom-ashyo birjasining tarkibiy qismi sifatida faoliyat ko'rsatuvchi quyidagi qism va bo'linmalarini keltirish mumkin:

1. Toshkent shaxrida, Bubur ko'chasida joylashgan, metall, yog'och va qurilish materiallari bilan savdo qiluvchi maydon;

2. “Birjaservismarkaz” ochiq turdagি aksiyadolar jamiyati, mijozlarga quyidagi birja xizmat turlari ko’rsatadi:

- a) Yuklarni bojxonada rasmiylashtirish;
- b) Yuklarni taxtlash, saklash, ortish-tushirish ishlari borasidagi xizmatlar;
- v) 26 ta dukonlarda mayda ulgurji savdoni tashkil etish;
- g) Transport xizmatlari;
- d) Ijara xizmatlari ko’rsatish va boshqalar.

3. Birjalararo axborot-taxlil markazi tarkibida:

- a) Uslubiy bo’lim;
- b) Brokerlar tayyorlovchi, o’quv kurslari.


4. “O’zauktsionsavdo” xosila korxonasi.

5. Xitoy xalq respublikasida muntazam faoliyat ko’rsatuvchi “O’zbekyarmarkasi” qo’shma korxonasi.

Birja va birja tarkibidagi korxonalar faoliyatlarini muvofiqlashtirish, nazorat qilish ishlarini, Nizom bo'yicha tashkil etilgan Komissiya, Komitet va maxsus bo'limlar tamonidan amalga oshiriladi. Bu ishlarni bajarish uchun, xizmatchilar jadvalida 150-200 nafar xizmatchi-mutaxassislarini yollab ishlatish ko'zda tutilgan.

Quyidagi chizmada tovar birjalari boshqaruvining taxminiy tuzilmasi e’tiboringizga havola qiliniyapti.


Tovar birjalari boshqaruvini tashkil etishda birja faoliyatiga ta’sir etuvchi omillar albatta hisobga olinishi zarur bo’ladi.




4-chizma. Tovar birjasи boshqaruving taxminiy tuzilmasи.⁷

Birja boshqaruvi tuzilmasiga(strukturasiga) ta'sir etuvchi asosiy omilalar; birjaning joylangan joy, faoliyat yuritayotgan mamalakatning huquqiy muhiti, qonun va me'yoriy hujjatlarning mukammaligi, birja savdosiga bo'lgan jamiolatchilikning munosabati, siyosiy va iqtisodiy ahvol kabi omillar ta'sir etishi mumkin.

O'zbekiston respublikasida faoliyat brtuvchi O'zbekiston Respublika tovar xom-ashyo birjasining boshqaruv tuzilmasi quyidagi chizmada keltirilgan.





5 - chizma. O'zbekiston Respublika tovar xom-ashyo birjasining boshqaruv tuzilmasi.⁸

O'tgan davr mobaynida muvaffaqiyatli faoliyat ko'rsatib kelgan O'zbekiston Respublika tovar xom-ashyo birjasi e'tiborga loyiq iqtisodiy xo'jalik ko'rsatkichlarga erishdi. Birja faoliyatida ayniqsa quyidagi bo'lim va bo'linmalarning faoliyati e'tiborga loyiqidir;

Komissiyalar: 1. A'zolar qabul qilish; 2. Arbitraj; 3. Savdo etikasi; 4. Nazorat-ko'zatish; 5. Operatsiya ishlari bo'yicha; 6. Taftish; 7. Yangi tovarlar bo'yicha; 8. Ring Savdo zali); 9. Kotirovkalash bo'yicha komissiya.

Birjani boshkaruvi apparati bo'limlari:

1. Birja tovarlari;
2. Birja bitimlari yuzasidan Hisob-kitob palatasi;
3. Iqtisodiy taxlil;
4. Birja faoliyatini takomillashtirish;
5. Axborot-ma'lumot markazi;
6. Birja faoliyatini tashkil etish va ta'minlash;
7. Ma'muriy-xo'jalik bo'limi;
8. Omchor xo'jaligi.

Bulardan tashqari Birja tarkibiy kisimlariga quyidagi boshqaruv tarkiblari kiritilgan: 1. Birja Zali; 2. Elektron-axborot tablosi; 3. Elektron hisoblash tizimi; 4. Telefon, telegraf, faksimil va radio aloqa tizimi; 5. Yirik ommaviy axborot agentliklari vakolatxonalari; 6. Birja mo'zeyi kabi tuzilmalar mavjud bo'lib ularning ham O'zbekiston Respublika mol xom-ashyo

⁸ "Birja va yarmarka faoliyatini boshqarish" fanidan ma'ruza mantlari. Yunusov. M. P.:T.2013 y.

birjasining faoliyatni tashkil etish va boshqarishda o'z o'rni va bajaradigan vazifalari belgilangan.

Qisqacha hulosalar:

Tovar birjasi deganda o'zi o'rnatgan qoidalarga asosan avvaldan aniqlangan joyda va avvaldan aniqlangan vaqtida oshkora savdolashuv shaklda amalga oshiruvchi ulgurji bozorni shakllantiruvchi va birja savdosini muvofiqlashtirish yo'li bilan tashkil etilgan yuridik huquqiy shaxs ko'rinishidagi tashkilot tushuniladi.

Tovar birjalari amaldagi qonunlar doirasida tasdiqlanuvchi o'z filiallari va maxsus bo'linmalariga ega bo'lishlari mumkin.

Ko'pincha birjalar korporatsiya sifatida faoliyat ko'rsatib, qaysi mamlakatda joylashgan bo'lsalar, o'sha mamlakat qonunchiligi doirasida harakat qiladilar. Rivojlangan mamlakatlarda birjalar kopincha foyda olishga intilishmay notijorat maqomiga ega bo'lib insonparvarlik va diniy g'oyalarga tayanib turli kuchli e'tiborga molik soliq imtiyozlariga ega tashkilot sifatida maydonga chiqadilar.

Tovar birjalari tomonidan amalga oshiriluvchi asosiy va yordamchi funktsiyalarga quyidagilarni kiritish mumkin;

- real tovarlarni oldi-sotdisi;
- chayqovchilik;
- xejirlash;
- narxlar kotirovkasi;
- birja tovarlariga standartlar o'rnatish;
- bir xil ko'rinishli kotirovkalar varaqalarini ishlab chiqish;
- savdo odatlarini hisobga olib hakamlik - arbitrajlik funktsiyasini amalga oshirish va h. k.

Birjani oliy organi bo'lib birja ta'sischilari va a'zolarining umumiy yig'ilishi hisoblanadi. U nizomni unga kiritilgan o'zgartirishlari bilan tasdiqlaydi. Birjaning boshqa hujjatlarini ham faqat umumiy yig'ilish tasdiqlaydi.

Birja umumiy yig'ilishida ovoz berish huquqisiz birja xodimlari, taklif qilinganlar va boshqalar qatnashishlari mumkin.

Birja faoliyatini tezkor boshqarish maqsadida taxminan 60—70 kishidan iborat boshqaruv apparati tashkil etilishi mumkin.

Nazorat savollari

1. Tovar birjalari funktsiyalari va vazifalariga nimalar kiradi?
2. Tovar birjalari boshqaruv tashkilotlarni birma bir sanab o'ting.
3. Tovar birjasining oliy organi va uning vakolatlari haqida nimalar bilasiz?
4. Tovar birjalarining tarkibiy tuzilishi tariflab bering.
5. O'zbekistonda tovar birjalari faoliyati qaysi hujjatlar asosida tashkil etiladi?
6. O'zbekiston Respublikasining "Birja va birja faoliyati to'g'risida"gi qonuni qanday vazifani bajaradi?
7. Tovar birjalarining faoliyati uchun qanaqa ta'sis hujjatlari zarur bo'ladi?
8. Tovar birjasining tashkiliy bo'linmalari nimalar bilan shug'ullandilar?

5-mavzu. Birja faoliyatini tashkil etish.

Reja:

- 5.1. Birja savdosi ishtirokchilari.
- 5.2. Birja operatsiyalari zalidagi savdo jarayoni.
- 5.3. Birjada savdolashish tartibi.

5.1. Birja savdosi ishtirokchilari.

Birjada asosiy faoliyat bi rja bitimlari bitish uchun sharoitlar yaratish hisoblnadi. Birinchi navbatda birjani tashkil etish masalalari hal etilgan, asosiy masala savdo bitimlarini bitish masalalari hal etilishi zarur.

Tovar birjasi bozor iqtisodiyotining klassik instituti bo'lib, tashkiliy rasmiylashtirilgan, rasmiy narx kotirovkasi namunalari va standartlar bo'yicha

bitimlar tuzish vaqtি va doimiy joyiga ega bo'lgan muntazam faoliyat ko'rsatuvchi tovarlar ulgurji bozori hisoblanadi.

Tovar birjasi - vositachilik faoliyatini tashkil qilish va oldi-sotdi bitimlarini amalga oshirish, ayirboshlash operatsiyalarida xizmatlar ko'rsatish, birja savdolarini muntazam o'tkazish vositasida tijorat maslahatlari berish, birja byulletenlari chiqarish, bozor haqida axborot to'plash, qayta ishslash va tahlil qilish va boshqa chora-tadbirlar bilan shug'ullanuvchi doimiy faoliyat ko'rsatadigan tovarlar ulgurji bozori.

Birja bozor mexanizmining tarkibiy qismi; u talab va taklif real nisbatini aniqlaydi, muvozanatli narxlarni shakllantiradi va ularga ulgurji bozorni yo'naltiradi, tovar massasini tovar muomlesi sohasiga jalg etishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, birja xedjlash orqali narxni barqarorlashtirish vositasi, narxlar farqida tijorat chayqovlari vositasi va shu asosda investitsiyalashning jalg etuvchan sohasi hisoblanadi.

Tovar birjalarida savdo bitimlari operatsion zalida, yoki "birja ringi" deb ataluvchi maydonchada olib boriladi. Birja operatsilari zaliga birjada operatsiyalar huquqiga ega bo'lgan mutaxassislargina kiritiladi.

Birja savdosida operatsiyalar zaliga faqat savdo qatnashchilari kiritiladilar . Ularga birja ish tajribasiga ega, shu ishga maxsus yollab olingan xodimlar va hamda birja komitetlari vakillaridan iborat kishilar bo'lishlari mumkin. Ular o'z navbatida brokerlar, diller-dallol, treyderlar, klerk va maklerlardan iborat. Bularidan tashqari operatsiyalar zaliga birja xodimlari; bosh ijrochi rais, Boshqaruv raisi, birja kengashining ma'sul a'zosi va davlat komissari hamda birja kengashi tomonidan ruxsat etilgan boshqa kishilar kiritilishlari mumkin.

Birjada savdo tarmog'i o'tkazishda, odatda, ko'p odamlar ishtirok etadi. U yerda ishlayotganlar aniq soni har kuni, ba'zida esa har soat o'zgarib turadi. Kimdir savdo halqasida bir necha soat bo'lib, so'ng tanaffusga chiqishi va yana savdoning oxirlarida qaytishi mumkin. Bozor favqulodda faollik holatida bo'lganda zal to'lib ketishi ham mumkin. Savdo zaliga kirish cheklangan. Birja vositachilari savdo zalida ishtirok etadiganlardan bid sanaladi. Ular qatoriga brokerlar va maklerlar kiradi.

Broker - bu ishlab chiqaruvchi va diler o'rtasidagi yoki diler va iste'molchi o'rtasidagi munosabatlarda agent sifatida qatnashadigan vositachi. Brokerlar faqat komission mukofotlar oladi.

Brokerlik idorasi birjada asosiy operatsion bo'g'in hisoblanadi. U birja ma'muriyati vaqt-vaqt bilan o'tkazib turadigan tender savdolarida sotib olinishi mumkin bo'lgan to'liq birja a'zosining joyi mavjudligida tashkil etilishi mumkin. Bitta to'liq qatnashchi joyiga faqat bitta brokerlik idorasi tashkil qilinishi, o'z navbatida, u brokerlar belgilangan sonini bepul akkreditatsiyalashi mumkin.

Brokerlik idorasi mijozlar bilan brokerlik xizmatlari ko'rsatish haqida shartnomalar tuzish, shuningdek, o'z hisobidan harakat qilish huquqiga ega. O'z xizmatlari uchun brokerlik firmalari tuziladigan bitim turi bilan ham, topshiriq turi bilan ham belgilanadigan mukofot oladi. Komission to'lovlar har oy uchun qat'iy belgilangan miqdorda yoki har bitta bitim uchun foydadan olinadigan foiz ko'rinishida olinishi mumkin.

Dunyoning eng yirik brokerlik kompaniyalari:

- «Morgan Stepin», AQSH
- «Solaman braders», AQSH
- «Merrim Linch», AQSH
- «Nashura», Yaponiya
- «Dayva sekyuteriz», «SDJ. Uorbkurg», Buyuk Britaniya
- **«Dalkiniyen sekyuritiz», Kanada.**

Mijozlar va brokerlik idoralari o'rtasidagi munosabatlardan ular tuzadigan shartnama va bitimlar asosida vujudga keladi. Bunday bitimlar bir nechta bo'lishi mumkin: odatda, doimiy mijoz bilan belgilangan muddatga tuziladigan brokerlik xizmatlari ko'rsatishga shartnama, mijozga o'z brokeridan birja axboroti yoki mijozni qiziqtirayotgan tahliliy sharh olish imkoniyatini beradigan axborot xizmatlari ko'rsatishga shartnama. Shuningdek, boshqa bitimlar ham tuzilishi mumkin, masalan, vakillik yoki qo'shma faoliyat haqidagi bitimlar.

Mijoz bilan ishlashda brokerlik idorasi o'z birjasining hisob-kitob firmalaridan birida bu mijoz bilan ishlash uchun hisob raqami ochadi. Broker bilan belgilangan turdagи bitim tuzish haqida kelishib olar ekan, mijoz unga topshiriq beradi, bu

topshriqlar variantlari xilma-xil bo'lishi mumkin. Masalan, bitta idoraning brokerlik xizmatlari ko'rsatish haqidagi shartnomasida mijoz brokerga quyidagi topshiriq turlarini beradi:

- tovarni joriy birja narxida sotib olish;
- tovarni joriy birja narxida sotish;
- tovarni joriy birja narxidan qimmatga sotib olmaslik;
- tovarni joriy birja narxidan arzonga sotmaslik;
- tovarni uning narxi belgilangan qiymatga yetgan paytda sotib olish;
- tovarni uning narxi belgilangan qiymatga yetgan paytda sotish;
- tovarni brokerning xohishi bilan sotib olish;
- tovarni brokerning xohishi bilan sotish.

Makler - bu fond va tovar birjalarida bitimlar tuzishdagi vositachi. U mijozning topshirig'i bo'yicha va uning hisobidan harakat qiladi. Makler yuridik shaxs huquqiga ega bo'lib, birja operatsiyalarining belgilangan turlariga ixtisoslashadi. Ular vositachilik ximatlari ko'rsatuvchi va buning uchunbirja qo'mitasi belgilagan miqdorda komission to'lovlar oluvchi maklerlik idoralari va firmalariga birlashadi.

Birjada qatnashadigan shaxslar ichida maklerlar alohida o'ringa ega. Ularning vazifasi - har bir xaridorga sotuvchini va har bir sotuvchiga xaridorni yetkazib berishdir.

Asrlar davomida mavjud bo'lib kelgan maklerlar vositachilik qilishi, lekin shartnomalar tuzmasligi lozim degan tamoyil birja savdosining rivojlanishi va 1896-yil birja qonunining kuchga kirishi bilan yanada kuchaydi. Bu qonunga ko'ra, qasamyod qiladigan maklerlar oldingi kabi tayinlanmaydi, ularning o'rnini hozirda kurs maklerlari egalladi. Kurslarning rasmiy belgilanishida ular yordamchi shaxslar sifatida ishtirok etadi. Savdoning boshqa turlari bilan shug'ullanish va unda ishtirok etish ular uchun ta'qiqlangan.

Kurs maklerlari lavozimga hukumat tomonidan tayinlanadi. Ishlarni boshlashdan avval ular zimmalariga yuklatilgan vazifalarni sidqidildan bajarishga qasamyod qilishlari zarur. Bu holatda, garchi faoliyati xususiy xarakterga ega bo'lsada, ular amaldorlarga aylanadilar. Shu bilan birga, kurs maklerlari savdogar bo'lib, ularning

barcha huquq va majburiyatlariga egalar, garchi boshqa savdo maklerlariga qarshi ma'lum bir cheklovlarga uchrasalar ham.

Kurs maklerlari birja zalida o'z joylariga egalar, shunday ekan, u yoki bu narsani sotish yoki sotib olish istagida birjaga tashrif buyurgan shaxs kimga murojaat qilishini biladilar. Erkin maklerlar, aksincha, butun birja bo'ylab yugurib yuradilar.

Kurs maklerlarining savdo faoliyati doirasi erkin maklerlarning faoliyat doirasiga to'liq mos kelmaydi. Mukofotli bitimlar ham bularning keyingisiga tegadi. Kurs maklerlari bu bilan shug'ullanmaydilar. Shuning uchun ham mukofotlar kursi norasmiy. Kurs maklerlarining bu bilan shug'ullanmasliklarining sababi shundaki, ular birjada o'z o'rinalariga bog'lab qo'yilgan. Mukofotli bitimlar bo'yicha makler turli birja guruhlarida turli qatnashchilarni izlashi lozim. U bir joydan boshqa joyga ko'chib yurish imkoniga ega bo'lishi kerak.

Maklerlarning birja daromadlari 2 ta elementdan: kurtaj va chayqov foydasidan tashkil topadi. Kurtaj — bu savdo maklerining vositchalik bilan bog'liq yugur-yuguri uchun mukofot. Kurs qiymatiga ega bo'lмаган, alohida hisoblab chiqiladigan kurtaj kurs maklerlarida mingdan 1/2 ga teng bo'ladi. U xaridor tomonidan ham, sotuvchi tomonidan ham to'lanadi, kurs maklerimng kurtaji esa, naqd bitimlarda ifodalanib, doimiy qiymatga ega bo'ladi: maksimum mingdan 1/2, minimum 0 (franko kurtaj), odatda esa, mingdan 1/4.

Birja vositachisi o'z doimiy mijozlarini shakllantirish uchun harakat qilib, ularning manfaatlari uchun birjada tovarlar sotib oladi, sotadi yoki almashtiradi. Birja vositachisi doimiy mijoz bulmagan korxona va tashkilotlar uchun ham savdo bitimi tuzishi mumkin .

Birja tovarlarni sotish, sotib olish va yoki ularni boshqa tovarlar bilan almashtirish operatsiyalari faqat birja vositachilari tomonidangina amalga oshiriladi.

Ularga quyidagilar kiradilar:

- Brokerlar - o'z xizmatlari uchun chegirma xaq oluvchi birja a'zolari bo'lib, ular mijozlar buyurtmalari bo'yicha tovar sotish va xarid qilish bo'yicha savdo kontraktlarini tuzadi.

- Dallol yoki diller, o'z hisobi yoki o'z nomidan birja vositachsiga olib beruvchi, birja a'zosi. Ular birjada o'z joylariga ea bo'lib kotirovka ishlarini amalga

oshiradilar. Ularni daromadari sotib olish va sotish narxlari tafovutidan va hamda valyuta va qimmatli qog'ozlar kurslarini o'zgarishidan iboratdir.

- Treyderlar - bu birja a'zolari bo'lib, o'zлari uchun savdo qiladilar.

- Maklerlar (jobberlar)- bokerlardan farqli ularok faqat o'z hisobidan va faqat o'zi uchun tovar sotadi va sotib oladi. Birjada savdoni boshqarib boruvchi xizmatchi ham, makler deb ataladi.

- Klerklar - birja alida turli majburiyatlarni bajarib yuruvchi xizmatchi.

Butun savdo bitimi birja zalida amalga oshiriladi. Birja zaliga hamma ishtirokchilar sigishi kerak . Xorijiy birjalar operatsiyalar zaliga 2-3 ming kishi bemalol sigadigan bo'lib har-bir savdo qatnashchisi uchun kulay ish sharoiti yaratilgan. U kabina yoki sektsiyalarga bo'lingan bo'ladi.

Dunyoning ko'pchilik birjalarida birja savdosi bir necha tovarar bilan bir vaqtda turli sektsiyalarda birdaniga olib boriladi. Bitimlar imzolash uchun har bir sektsiyalar katta zal saxnidan, pastroq bo'lган, nisbatan kichik maydoncha ajratiladi.

Birja a'zolarining har bir qatnashchisi uchun bir xil imkoniyat yaratilgan qilib joylashtiriladi. Shuning uchun ham ko'pgina xorijiy birjalar zallari amfiteatr yoki tsirk saxnasiga juda o'xhash bo'lib, savdo qatnashchilari bir-birlarini va operatsiya olib boruvchi boshqaruvchini yaxshi kurishlari, bir-birlarini imo-ishorali harakatlarini yaxshi tushunishlari zarur. Rossiyada Chelyabinsk unversal birjasi yukoridagi talablarga javob beruvchi birjalardan biri. Birja xalqasining markazi va chekkalarida biroz balandlikda birja xodimlari va birja faoliyatini olib boruvchi va bitimlar imzolansa, ularni ro'yxatga oluvchi xodimlar egallahadi.

Obro'li firmani vakili bo'lган broker odatda birja chuqurchasining balandroq bosqichini egallaydi. Uning qo'lida ko'pgina buyurtmalari bo'lib, uni hamma savdogarlar va u hammani ko'rib turishi kerak bo'ladi. Bundan tashqari yaxshi joy firma vakili bilan doimo aloqada bo'lib turishlikni ta'minlaydi.

Treyderlar joyi chukurlikning eng past yoki pastki bosqichlari hisoblanadi.

Chukurlikda broker va treyderlar orasida faqat narx hisobini olib boruvchi klerk xizmatkor bo'ladi. Unda ratsiya bo'lib har bir aksiya narxi o'zgarishini ratsiya orqali e'lon qilishi kerak.

Yangi narx kompyuter sistemasiga kiritiladi va elektron tablo devorida chiqarilib savdoning borishini aks ettirib turadi. Bitim qatnashchilari hisobchi klerka oxirgi narxni eslatib ko'yishari kerak. Aks xolda, bitim bekor qilinadi.

5.2. Birja savdo zalistagi savdo jarayoni.

Birjada savdo zalistagi savdo jarayoni mohiyatini tushunish uchun birinchi navbatda birja savdolarini predmeti bo'l mish birja tovarlari haqida ikki og'iz so'z.

Jahon amaliyotida tovar birjalari faoliyati asosan xomashyo va qishloq xo'jalik tovarlari oldi-sotdisi bilan cheklanadi.

Birja tovarlari, qoidaga ko'ra bu - xomashyo, mahsulot ishlab chiqarishning texnologik jarayoni boshlanishiga aloqador. Shu sababli ular ko'p jihatdan ulardan olinadigan tovarlar narxini belgilab beradi. Klassik birja tovari hajmi va sifati bo'yicha bir xillashtirilgan, qat'iy belgilangan, oson muayyanlashtiriladigan, barqaror xususiyatlarga ega bo'lgan ommaviy mahsulotdir. Ular urfdan chiqib qolmasligi va ma'naviy eskirmasligi lozim.

Bu birja tovari birjaga yetkazib berilmasligi mumkinligini anglatadi. Sotuvchi kim, tovar qaysi partiyadan olingan, muddatli bitimni amalga oshirish uchun nima zarur - xaridorga buning farqi yo'q bo'lishi lozim. Eng mashhur birja tovarlari: neft i neft mahsulotlari, rangli va qimmatbaho metall, o'rmon, paxta, kauchuk, kofe, shakar, don. Bitta tovarning o'zi bir mamlakatda birja tovari bo'lishi, boshqa mamlakatda esa bo'lmasligi mumkin.

Ularning soni va assortimenti doimiy o'zgarib turadi. Agar XIX asr oxirlarida bu qatorga 200 gacha tovarlar kirgan bo'lsa, hozirgi kunda ularning soni 60-65gacha kamaygan, shundan faqat 45 tasi birjada muomalada bo'ladi. U yoki bu tovarni tanlash nima bilan asoslanadi? Tovar belgilangan sifatlar yig'indisiga ega bo'lishi lozim.

Birja tovarlariga talablar.

1. Tovar ommaviy bo'lishi va katta hajmda chiqarilishi lozim (ishlab chiqaruvchilar va xaridorlar soni katta). Bu talab va taklifni aniqlashga imkon beradi. Muvozanatli narx o'rnatiladi. Yagona ishlab chiqaruvchining ijro etish usuli bo'yicha o'ziga xos mahsulotlari birja savdosi ob'ekti bo'la olmaydi.

2. Sifat, saqlash shartlari, transport vositasida tashish va o'lchash bo'yicha talablar. Bu tovar namunalar yoki texnik tavsiflar bo'yicha ko'rib chiqmasdan sotish mumkin bo'lishi uchun oson standartlashtiriladigan bo'lishi lozim. Birja ishi amaliyotida standartlashtirish asl birja tovarining belgisini tashkil qiladi.

3. Oldi-sotdi uchun taklif etiladigan tovar soni. Tovar birjada qat'iy belgilangan miqdorda sotiladi va sotib olinadi. Bu hajmlar birja birlklari, partiya, lot deb ataladi va yoki transport vositalari sig'imiga, yoki joyi, hajmi va vazniga mos keladi. Partiya yoki lot birja birligiga karra bo'lishi lozim.

Birjada muomalada bo'ladigan barcha tovarlarni shartli ravishda ikki guruhga ajratish mumkin:

Birinchi guruhni qishloq xo'jalik mahsulotlari tashkil qiladi, bu erda moy olinadigan ekinlarning ulushi katta. Xuddi shu guruhga don ekinlari, chorva mahsulotlari, shakar, kofe, kakao, yog'och materiallar kiradi.

Ikkinci guruhga sanoat xomashyosi va uni qayta ishlash mahsulotlari kiradi. Bu erga energiya vositalari, qimmatbaho va rangli metall kiradi.

Ta'kidlab o'tish joizki, tovar birjasiga odiy tovarlarga shartnomalar bilan bir qatorda qimmatli qog'ozlarga shartnomalar, jumladan, davlat obligatsiyalari, aksiyadorlik banklarining aksiyalari, ishlab chiqarish aksiyadorlik jamiyatlarining aksiyalari, depozitli bank sertifikatlari ham kiradi.

Birja tovari sifat bo'yicha ham, son bo'yicha ham standartlashtiriladi. Sotilishi lozim bo'lgan minimal miqdor birja birligi deb ataladi. U qoidaga ko'ra, bitta transport vositasi yoki o'rinning sig'imiga mos keladi. Tovar yetkazib berishning amaldagi sig'imi standart ko'rsatkichi lot, ya'ni birlikka karra bo'lgan, belgilangan tovar miqdori hisoblanadi (masalan, ming birlik yoki tonna, yoki 100 o'ram va h.k.).

Birja yetkazib berish vaqt va joyi aniqlanib, standart talablariga muvofiq guruhlanadi, ya'ni joy o'ziga xos xususiyatlari bo'yicha bir xillashtiradi yoki boshqacha qilib aytganda biron – bir belgi asosida belgilanadi. Vaqtini bir xillashtirish tovar faqat pozitsiya deb nomlangan, belgilangan vaqt oralig'ida yetkazib beriladi. Har bir tovarga o'zining yetkazib berish davri xos. Xususan,

qishloq xo'jalik mahsulotlari bozorida yetkazib berish davri ishlab chiqarishning mavsumiyligi bilan belgilanadi.

Yetkazib berish joyini bir xillashtirish ombor va elevatorlar mos keluvchi ro'yxati bilan belgilanadi. Ba'zida tovari temiryo'l stantsiyasiga vagonlarda keltirishga ruxsat beriladi. Bir xillashtirish tovarlarning taqqoslanuvchanligini ta'minlash uchun zarur. Birja yoki uning vakolatlagan firmasi sotuvchiga ombor guvohnomasi – varrant beradi. Sotuvchi uni xaridorga chekka almashtiradi.

Xorijiy birjalar elektron tablo devorlarida faqat bitim narxlarini aks ettiribgina kolmay birjadagi boshqa mollar, boshqa tovar, valyuta va fond birjalaridagi ma'lumotlar, xatto narx harakatlariga ta'sir etuvchi ob-xavo, tovar ortirilishi, siyosiy ahvol voqealari va boshqalar haqidagi ma'lumotlar berib boriladi. Brokerlar odatda savdo zaliga odatda savdo boshlanishiga 30 dakika kolganda yigiladilar. Ularni har birini qo'lida savdodagi tovarlar ro'yxati, narxi, buyurtma xajmi, idora yoki ombor joylashgan joy, tovar yetkazib berish haqidagi ma'lumotlar yozilgan maxsus varakalar bilan ta'minlangan bo'ladilar. Har bir tovar sektsiyasida uch marotaba bong urilib savdo boshlanganligi e'lon qilinadi.

Birja savdosi oshkora tashkil etiladi. Takliflarni oxirgi ma'qullagan savdo qatnashchisi, birjada savdo bitimi tomoni hisoblanadi, ya'ni taklif talab narxi bilan mos kelganini tovar esa sotilganini bildiradi.

Forward va qo'shimcha shartlar bilan to'ziladigan bitimlar tomonlar kelishuvi asosida amalga oshiriladi.

5.3. Birjada savdolashish jarayoni.

Savdo sektsiyasida savdoni birja makleri olib boradi. Avval tez sotilishi kerak bo'lган real mavjud tovarlar bilan ish boshlanadi. Keyin esa taliflar bo'yicha forward (ya'ni hisob-kitoblari bitim kuni emas, bir oz vaqt o'tgandan keyin va boshqa shartlar bilan) operatsiyalari bo'yicha bitimlar to'ziladi. Har bir sektsiyada savdo quyidagi tartibda olib boriladi. Dastavval makler ushbu birja kunida savdoga qo'yilgan barcha tovarlar ro'yxatini o'kiydi. Makler ro'yxatni o'qiyotgan paytda bitim uchun zarur tovarlar topgan brokerlar qo'llaridagi guvohnomalarini baland ko'taradilar. Makler darxol tovari sotuvga chiqarayotgan brokerlik idora raqamini

aytadi. Broker idorasi vakili harakatni tasdiqlamasa (yoki shu paytda shu erda bo'lmasa, yoki mudrab qolsa) tovar savdodan olib tashlanadi va broker birjaga kelmaganligi uchun birjaga jarima to'laydi.

Undan so'ng makler boshqa tovar turiga utadi. Butun ro'yxat ukib bo'lingach kichik tanaffus e'lon qilinadi. Keyin bong bir marta urilgandan so'ng ishning ikkinchi qismi, brokerlar takliflarini muxokamasiga o'tiladi. Har bir brokerik taklifining muxokamasi ikki kismdan iborat bo'ladi.

Muhokamaning ikkinchi qismida sektsiyaga yig'ilgan xaridor brokerlarning muqobil (qarama-qarshi takliflari) muxokama qilinadi.

Broker xaridorlar tovar xarid qilish shartlarini e'lon qiladi (yoki tovarning bir qismmini).

Bu shartlar tovar xajmi va narxi xususida bo'ladi. Agar bitim yana imzolanmasa makler sotuvga qo'yilgan tovarlar ro'yxatini keyingi pozitsiyasini muxokamasiga o'tadi.

Birja - bozor mexanizmining tarkibiy qismi bo'lib, u talab va taklif real nisbatini aniqlaydi, muvozanatli narxlarni shakllantiradi va ularga ulgurji bozorni yo'naltiradi, tovar massasini tovar muomalasi sohasiga jalb etishga xizmat qiladi. Bundan tashqari, birja - xedjlash orqali narxni barqarorlashtirish vositasi, narxlar o'rtasidagi farqda tijorat chayqovlari vositasi va shu asnoda investitsiyalash uchun jalb etuvchi soha hisoblanadi.

Birja savdosi quyidagi yo'l bilan amalga oshiriladi:

— birja bitimlarini birja vositachisi tomonidan mijozning nomidan va uning hisobiga yoki o'z nomidan va mijozning hisobiga amalga oshirish (brokerlik faoliyati);

— birja bitimlarini birja vositachisi tomonidan keyinchalik birjada qayta sotish maqsadida o'z nomidan va o'z hisobiga amalga oshirish (dilerlik faoliyati).

Zamonaviy jahon iqtisodiyotida birja savdosining rolini ko'rib chiqish uchun albatta birja savdosini avtomatlashtirish mohiyatiga murojaat qilish zarur. Oxirgi paytlarda iqtisodiy vazifalami hal qilishda EHMni qo'llash kengaymoqda. Bugungi kunda deyarli barcha tashkilotlar o'z ishida hisoblash texniksidan foydalanmoqda. Bozor iqtisodiyoti munosabatlarining shakllanishi davomida hisoblash texnikalari

bozori ham, dasturiy ta'minot vositalari bozori ham, asosan, kichik va o'rta korxonalarning qo'shilishi hisobiga ancha kengaydi.

Saqlanayotgan ma'lumotlar hajmi va tarkibiy murakkabligining o'sishi, axborot tizimlaridan foydalanuvchilar doirasining kengayishi shunga olib keldiki, 60-yillarda ma'lumotlar to'plamini boshqarish tizimlarining (SUBD) ilk sanoat namunalari — MTni tashkil qilish va yuritish uchun mo'ljallangan ixtisoslashgan dasturiy vositalar paydo bo'ldi. Iqtisodiy jarayonlarni avtomatlashtirish uchun SUBDdan foydalanish ko'p hollarda maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bandlik xizmati yoki mehnat birjasini avtomatlashtirish misolini ko'rib chiqamiz.

Birjaning kompyuter tizimida barcha ma'lumotlar – savdo haqida, birjada ro'y beradigan operatsiyalar haqida xizmat axborotlari va h. k. saqlanadi.

Xizmat axboroti deb uni ochib berish birjaga va savdo qatnashchlariga zarar yetkazishi mumkin bo'lgan va quyidagilarga aloqador har qanday axborot hisoblanadi:

- emitentlar va ular chiqargan emission qimmatli qog'ozlar, to bundan axborot e'lon qilinadigan paytga qadar, jumladan, agar bu emitentning qimmatli qog'ozlar bozor bahosiga ta'sir etadigan bo'lsa, shuningdek, emitentdan yangiliklar lenta sida e'lon qilinmasdan oldin jiddiy dalillar haqida olingan ma'lumotlar;

- savdo qatnashchilari, jumladan, ularning moliyaviy ahvoli;
- savdo hisob raqamlarida qimmatli qog'ozlar miqdori va pul mablag'lari summasi haqidagi axborot;
- birja savdolarida qimmatli qog'ozlar bilan bitimlar, birja tomonidan axborotlar belgilangan tartibda e'lon qilingan holatlar bundan mustasno;

- savdo qatnashchilari va birja xodimlarining birja kompyuter tizimi va birja kompyuter tarmog'iga kirish uchun nomlari va parollari;

- birjaning kompyuter tizimini ruxsatsiz ulanishdan himoya qilish tizimi;
- Birja, Hisob-kitob tashkiloti, Kliring tashkiloti, Hisob-kitob depozitariysi faoliyatida majburiy ochib berish lozim bo'lмаган jiddiy hodisalar;
- savdo qatnashchisini qimmatli qog'ozlar bozorining boshqa subyektlariga nisbatan ustun holatga qo'yishi mumkin bo'lgan boshqa axborotlar.

Xizmat axborotlarini qayta ishslash qoidalari va ularga ulanish rejimi.

Himoya qilinishi lozim bo'lgan axborot birjada elektron ko'rinishda (jumladan, kompyuter tarmoqlarida, magnitli vositalar-da), shuningdek, bosma hujjatlar shaklida saqlanadi.

Uchinchi shaxslarning birjaga ulanishi faqat birja xodimlari ishtirokida amalga oshiriladi.

Birja xodimlarining, shuningdek, uchinchi shaxslarning birja kompyuter tizimiga ulanishi faqat individual nom va parollar asosida amalga oshiriladi.

Birja kompyuter tarmog'iga ulanishga faqat birja xodimlariga har oy o'zgartiriladigan individual parollar asosida ruxsat beriladi.

Texnik vositalardan foydalangan holda axborot texnologiyaiari bo'limi quyidagilarni amalga oshiradi:

- onlayn rejimida Birja kompyuter tizimiga, Birja kompyuter tarmog'iga ulanish monitoringi, shuningdek, ruxsatsiz ulanishning oldini olish va bunga yo'l qo'ymaslik;
- kiruvchi/chiquvchi e-mail xabarları monitoringi;
- ichki nazorat bo'limi bilan birgalikda xodimlarning lavozim majburiyatlariga muvofiq Birja xodimlarining Birja kompyuter tizimi va Birja kompyuter tarmog'i resurslariga ulanish huquqini cheklash.

Xizmat axborotlarini ruxsatsiz ulanishdan himoya qilish tizimlari. Ruxsatsiz ulanish quyidagi tizimlarga taalluqli boiishi mumkin:

- ma'lumotlar bazasi serveri;
- Birjaning savdo zalida joylashgan savdo qatnashchilarining ish o'rni;
- savdo qatnashchilarining uzoqda joylashgan ish o'rni;
- Birja kompyuter tizimidagi birja savdosi bo'limi xodimlarning ish o'mi.

Axborotni qayta ishlash, uzatish va Birja kompyuter tizimida saqlash bosqichlarida xavfsizlikka tahdidlar quyidagilarni qamrab oladi:

- axborotning maxfiyligini buzish;
- axborotning to'laqonliligini buzish;
- axborotning ochiqligini buzish.

Birja kompyuter tizimiga nisbatan qoidabuzalar ichki (xodimlar orasidan) va tashqi (begona shaxslar) bo'lishi mumkin.

Ichki qoidabuzarlar quyidagi xodimlar toifalaridan bo'lishi mumkin:

- Birja kompyuter tizimidan foydalanuvchilar (operatorlar);
- texnik vositalarga xizmat ko'rsatuvchi xodimlar (muhandislar, texniklar);
- amaliy va tizimli dasturchilar;
- binolarga xizmat ko'rsatuvchi texnik personal;
- Birja kompyuter tizimining xavfsizlik xizmati xodimlari;
- Birja kompyuter tizimiga ularish huquqiga ega bo'lgan turli pog'onadagi rahbariyat.

Begona shaxslar orasidan quyidagilar qoidabuzarlar bo'lishi mumkin:

- savdo qatnashchilari (vakolatli treyderlar va ularning yordamchilari);
- birja savdo zaliga tashrif buyuruvchilar;
- Birja kompyuter tizimiga masofadan ularish kanallari bo'yicha hujum qiluvchilar;
- Birja kompyuter tizimi bilan uning hayot faoliyatini ta'minlash masalalari bo'yicha aloqa qiluvchi tashkilotlar;
- raqobatlashuvchi tashkilotlar vakillari;
- tasodifan yoki atayin propusk (o'tkazish) rejimini buzgan shaxslar (Birja kompyuter tizimi xavfsizligini buzish maqsadisiz);
- birja hududidan tashqaridagi istalgan shaxslar.

Birja kompyuter tizimida axborot xavfsizligiga tahdidlar tasnifi va himoya tizimiga talablar. Axborotni qayta ishslash, uzatish va saqlash bosqichlarida xavfsizlikka tahdid istalgan axborot-telekom-munikatsiya tizimida, jumladan, Birja kompyuter tizimida quyidagilarni qamrab oladi:

- axborotning maxfiyligining buzilishi;
- axborotning to'laqonliligining buzilishi;
- axborotning ochiqligining buzilishi.

Birja kompyuter tizimida turli operatsiyalarni bajarishda qayta ishlanadigan hujjatlar himoyalanishiga talablarning taqsimlanishi:

- talab yo'q;
- past;
- o'rtacha;

- baland.

Elektron hujjat yaratish:

- savdo qatnashchilari pozitsiyalarini hisobga olish bo'limida topshiriqlar kiritish;
- savdo hisob raqami atributlari bilan ishlash;
- tashqi huijatlar kiritish;
- savdo qatnashchilari va ularning mijozlari pul mablag'lari haqidagi axborot bilan ishlash;
- qimmatli qog'ozlarni birjada savdoga yo'l qo'yish (listing va delisting) topshiriqlari bilan ishlash;
- tizimli ma'lumotnomalar bilan ishlash;
- ulanish huquqi jurnallari bilan ishlash;
- savdo qatnashchisi vakil qilgan treyderning Birjaning savdo zalida buyurtma kiritishi;
- savdo qatnashchisi vakil qilgan treyderning savdo qatnashchilarining masafodagi ish joyidan buyurtma kiritishi.

Bu holatda hujum obyekti sifatida ish o'rnidagi operator, xizmat ko'rsatuvchi personal, ish stansiyasi (ish o'rni), lokal tarmoq, ma'lumotlar to'plami bo'lishi mumkin.

Obyektlarga ta'sir, qoidabuzarning qabul qilingan modeliga muvofiq, bevosita (hujjatni ruxsatsiz o'qish, disketani o'g'irlash va h. k.) va bilvosita (masalan, tashqi tarmoqdan yaratilayotgan hujjatning to'liqligini buzish maqsadida) bo'lishi mumkin.

Axborotni himoyalash tizimi quyidagi talablarga javob berishi kerak:

- tizimning axborot, dasturiy va apparat resurslariga begona shaxslar tomonidan, shuningdek, savdo qatnashchilari va Birja xodimlari tomonidan tizim ishiga tasodifan yoki ataylab noqonuniy va ruxsatsiz (berilgan vakolatlarni oshirgan holda) ulanishdan himoya qilish maqsadida Birja kompyuter tizimi resurslariga foydalanuvchilarning ulanishini boshqarish;
- aloqa kanallari bo'yicha uzatiladigan ma'lumotlarni himoyalash;

- Birja kompyuter tizimida ro'y beradigan va uning xavfsizligiga aloqador barcha hodisalar haqida ma'lumotlarni ro'yxatga olish, toplash, saqlash, qayta ishslash va berish;
- Birja kompyuter tizimidan foydalanuvchilar ishini ma'muriyat tomonidan nazorat qilish va tizim resurslariga ruxsatsiz ulanishga qilingan harakatlar haqida xavfsizlik ma'murini tezkor xabardor qilish;
- Birja kompyuter tizimining eng kichik resurslari, himoya va amaliy dasturlami bajarish muhiti to'laqonliligini qo'llabquvatlash va nazorat qilish;
- Birja kompyuter tizimiga potensial xavfli dasturlar (ularda zararli dastur asoslari yoki xavfli xatolar bo'lishi mumkin) va himoyani buzish vositalari nazoratsiz kiritilishidan, shuningdek, kompyuter viruslarining tushishi va tarqalishidan himoyalash maqsadida tekshirilgan dasturiy ta'minot yopiq muhitini ta'minlash;
- himoya tizimi vositalarini boshqarish.

Birja kompyuter tizimida foydalaouvchini tanib olish. Birja kompyuter tizimida foydalaouvchini tanib olish tizimga foydalanuvchining ismi va parolini kiritish yo'li bilan amalga oshiriladi. Foydalanuvchi Birja kompyuter tizimida oladigan huquqlar quyidagi qoidalar bilan belgilanadi:

Birja kompyuter tizimida ro'yxatga olingan har bir foydalanuvchiga xuddi shu nomli SQL server foydalanuvchisi mos keladi. Foydalanuvchi Birja kompyuter tizimiga kirishga harakat qilganda tizim kiritilgan ism va parolni SQL serverga tanib olish uchun uzatadi. Agar SQL server foydalanuvchini tanimasa, foydalanuvchi Birja kompyuter tizimida ishslashga ruxsat bermaydi. Agar SQL server foydalanuvchining huquqlarini tasdiqlasa, Birja kompyuter tizimidagi foydalanuvchilar jadvalida ushbu foydalanuvchining nomi izlanadi. Bujadvalda quyidagilarko'rsatiladi:

- foydalanuvchiga Birja kompyuter tizimida ishslashga ruxsat berilgan vaqt oralig'i;
- foydalanuvchining qo'shimcha vakolatlari. Foydalanuvchining nomi va paroli asosida SQL seiver uni

ma'lumotlar to'plamidagi foydalanuvchilar guruhlaridan biriga kiritadi (atamashunoslikda ***Microsoft SQL Server***). Muayyan guruhga mansublik server darajasida obyektlarga (ma'lumotlar va jarayonlarga) ulanish jismoniy huquqini beradi. Hozirgi paytda Birja kompyuter tizimida quyidagi foydalanuvchilar guruhlari mavjud:

- tizim administratori;
- smena boshlig'i;
- buxgalter;
- savdo administratori;
- nazoratchi;
- savdo qatnashchisining savdo zalidagi treyderi;
- savdo qatnashchisining masofadagi ish o'rnida treyderi. Savdo qatnashchilari foydalanadigan amaliy dasturiy ta'minot

ma'lumotlar to'plamini bevosita o'zgartirish huquqiga ega emas. Treyderlar o'tkazadigan ma'lumotlarni o'zgartirish bo'yicha barcha operatsiyalar saqlanadiganjarayonlar orqali amalga oshiriladi. Har bir murojaatda saqlanadigan jarayon treyder nomi asosida treyderning bajarilayotgan o'zgarishni amalga oshirish huquqini tekshiradi.

Tizim foydalanuvchilarning unga ulanishga qilgan harakatlarini maxsus fayllarga (jadvallarga) yozib boradi. Bunda har bir so'rov bilan ishlashda tizim quyidagilarni qayd qiladi:

- voqeа vaqtি;
- voqeа turi (ulanish-uzish so'rovi);
- foydalanuvchining nomi;
- so'rov kelib tushgan stansiya raqami.

Birja savdolar Bo'limi savdo zalining nazorat guruhi xodimlari kelib tushayotgan so'rovlarni Birja savdo zalidagi real o'rinalar soni bilan taqqoslagan holda bu jarayonni doimiy kuzatib boradilar. Parolni tanlab topishga harakatlar ham dasturiy, ham vizual jihatdan qayd qilinadi.

Axborot texnologiyalari bo'limi xodimlari lokal tarmoqning barcha stansiyalarida o'rnatilgan barcha dasturiy vositalarning kundalik monitoringini

yuritadi. Har bir stansiya uchun unda o'rnatilishi va ishga tushirilishi mumkin bo'lgan dasturlar ro'yxati belgilanadi. Stansiyalarning katta qismiga (xususan, barcha treyder stansiyalariga) SDdiskdan foydalanish uni protsessor blokidan olib tashlash yo'li bilan ta'qiqlanadi. Protsessor bloklari muhrlanadi.

Dasturiy ta'minotning chalalik riskini kamaytirish uchun modelli ta'minot usulidan foydalaniladi. Kompyuter vositalaridan foydalanish va qo'lda hisob-kitob qilish asosidagi savdo jarayoni modeli ishlab chiqilgan. Model quyidagi asosiy quyi tizimlarni qamrab oladi:

- kliring tashkiloti bilan ishlar;
- savdo qatnashchilarining savdo hisob-raqamlar mazmuni haqidagi axborot o'rnatish va o'zgartirish;
- risklarni boshqarish;
- savdo qatnashchisining buyurtma kiritishi va uni tahrir qilishi;
- savdo qatnashchilari pozitsiyalarining o'zgarishini hisobga olish bo'yicha harakatlar;
- market-maykerlar va mutaxassislarning ishlari;
- savdo qatnashchisining masofadan ishslash modeli.

Dasturiy vositalar operatorlari xatosidan himoyalash. Birjada foydalaniladigan amaliy dasturiy ta'minot ichki qarama-qarshi ma'lumotlar kiritishga imkon bermaydi. Barcha axborotlarni kiritish alohida topshiriqlar bilan rasmiylashtirilishi lozim. Topshiriqni kiritishda Birja kompyuter tizimi avtomatik ravishda uning ichki ziddiyatsizligini tekshiradi. Ziddiyatlar aniqlangan holatda topshiriq kiritilmaydi va foydalanuvchi yuzaga kelgan muammodan xabardor qilinadi. Foydalanuvchining xatolaridan himoyalash birinchi darajasi bevosita Birja kompyuter tizimiga kiritiladi. Kiritiladigan har bir topshiriq uchun uni bajarishga alohida buyruq mavjud. Topshiriqni bajarishda Birja kompyuter tizimi avtomatik ravishda bunday operatsiyaning mumkinligini tekshiradi (masalan, deponentlangan qimmatli qog'ozlar bo'yicha sotuvga buyurtma berishda tizim avtomatik ravishda bu qimmatli qog'ozlarning depozitariyda mavjudligini tekshiradi va «sotuvga qog'ozlar registridan «buyurtmaga qo'yilgan qog'ozlar» registriga provodka o'tkazadi.

Asbob-uskunalarining buzilishi, yo'q qilinishi, dasturiy xatolar, personalning noto'g'ri harakatlari va boshqa turli sabablarga ko'ra ma'lumotlarni yo'qotishning oldini olish uchun ma'lumotlar to'plamidan muntazam nusxa olish tizimi ko'zda tutilgan. Bunday zaxira nusxalari olish xatolik yuzaga kelgan yoki axborot yo'qotilgan taqdirda eng yaqin ishga yaroqli nusxadan foydalanishga imkon beradi. Bundan tashqari, Birjaning asosiy binosi buzilib ketgan taqdirda Birja faoliyat ko'rsatayotgan vaqt davomida Birja kompyuter tizimiga berilgan barcha buyurtmalar va ular bilan tuzilgan bitimlar haqida to'liq axborot olish mumkin bo'lishi uchun arxiv nusxalari olish ko'zda tutilgan.

Ma'lumotlar to'plamidagi axborotdan zaxira uchun nusxa olish lentali vositalarga olinadi. Arxiv nusxalari quyidagi guruhlarga taqsimlanadi:

- zaxira nusxalar;
- arxiv nusxalar;
- «yong'in» nusxalari.

Zaxiralash. Zaxira nusxalari ma'lumotlar to'plamidan nusxa olish vaqtida bo'lган ma'lumotlarni qayta tiklashga imkon beradigan kundalik nusxa olish uchun xizmat qiladi.

Andviash. Arxiv nusxalari uzoq kelajakda kerak bo'lib qolishi mumkin bo'lган istalgan ma'lumotlardan nusxa olish va saqlash (arxivlash) uchun xizmat qiladi. Birja kompyuter tizimining barcha savdo ma'lumotlar to'plamlari kundalik arxivianishi lozim.

«Yong'in» nusxalari tabiiy ofatlar ro'y berishi natijasida Birja kompyuter tizimi yo'qotilgan hollarda Birja kompyuter tizimini ishga tushirishga imkon beradigan ma'lumotlar va dasturlar nusxalaridan iborat bo'ladi. Zaxira uchun nusxa olish belgilangan vaqt oralig'ida avtomatik ravishda amalga oshirilishi mumkin.

Ma'lumotlarni arxivlash savdolar yakunlangandan so'ng keyingi operatsion kunga tayyorlanish jarayonining bir qismi sifatida har kuni bajariladi. Bunda foydalanuvchilarning barcha harakatlarini qayd qilish jurnali, buyurtmalar berish/chiqarib tashlash va tuzilgan bitimlar haqidagi axborot keyinchalik arxivlash jarayonida magnit optikvositaga ko'chirib olinadigan ma'lumotlar to'plariining arxiv jadvaliga o'tkaziladi.

Birjaning elektron savdo maydonchasida aksiyalar xaridi yoki sotuv narxini kiritishda treyderlarning xatolari. Kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalari tufayli birja savdosi klavishani bosish tezligida amalga oshirilmoqda. Va albatta, xuddi shu tezlikda xatolarga ham yo'l qo'yilmoqda. Elektron savdo maydonchasida xato yoki noto'g'ri bosilgan klavisha millionlab dollar turishi va hattoki bozor «qulashi»ga sabab bo'lishi mumkin.

Insonga xato qilish xos, hattoki zamonaviy texnologiyalar eng tajribali treyder ham aksiyalar xaridi yoki sotuv narxini kiritishda xato qilmasligini kafolatlay olmaydi.

Quyida bunday xatolarga misollar keltirilgan:

J.P.Morgan Securitiyes Japan kompaniyasi treyderi kompyuterda boshqa klavishani bosib yubordi, natijada sotuvga boshqa aksiyalar chiqarib yuborildi. Xato aniqlangan paytda esa J. P. Morgan Securitiyes Japan sotib yuborilgan aksiyalarni qayta sotib olishiga to'g'ri keldi. Kunning ikkinchi yarmida, xato aniqlangan paytda birja indeksining o'sganligiga qarab, aksiyalarni qimmatroq narxda sotib olishga to'g'ri kelgan. Ekspertlarning baholashicha, noto'g'ri bitim tufayli kompaniya yo'qotishlari 50 mln. dollardan oshmagan.

2006-yilning iyuni. Yaponianing Tachibana Securitiyes kompaniyasi Advvays internet kompaniyasining 2600 dona aksiyasini har birini 1670 iyenadan (14,47 dollar) sotishga buyurtma berdi, bundan sal oldin kompaniya 2400 dona aksiyani donasiga 1,4 mln. iyenadan (12 ming dollar) joylashtirgan edi. Garchi xato darhol aniqlangan va buyurtma bekor qilingan bo'lsada, 1482 dona aksiya sotib yuborilgan. Broker yo'qotishni 1,5 mln. dollardan ortiq baholagan.

2005-yil, dekabr. Rekord xatoga Yaponianing Mizuho Securitiyes kompaniyasi treyderi yo'l qo'ydi. Broker J-Com rekruting kompaniyasining bir dona aksiyasini sotishga buyurtma oldi. Bu J-Com savdosining birinchi kuniyoq ro'y berdi: sal oldin kompaniya aksiyalari 610 ming iyena (5 ming dollar) narxida joylashtirgan. Broker kompyuterga xato qilib 1 iyena narxida 610 ming dona aksiyani sotishga buyurtma kiritdi. Xatoni darhol aniqladilar, biroq buyurtmani bekor qilishga barcha so'rovlarga birja kompyuter tizimi javob qaytarmadi. «Vedomosti» gazetasining baholariga ko'ra, Mizuho Securitiyes ko'rgan zarar 40 mlrd. iyenadan (341 mln.

dollar) ortdi. Bunda kompaniyadajami 14 ming dona aksiya mavjud boiib, buyurtmani joylashtirish bozorda xaosga olib keldi, asosiy bozor indeksi Nikkei 225 301 punktga pasayib ketdi.

Voqea sodir bo'lgandan ikki hafta o'tgach, Tokio birjasi rahbariyati iste'foga chiqdi. Shu paytda yangi qoidalalar joriy qilindi. Bu qoidalarga ko'ra brokerlik kompaniyalari kompaniya aksiyalarining 5%idan ortiq bo'lgan barcha buyurtmalarni xatoga tekshirib chiqishi talab qilinadi. Shunisi qiziqki, Mizuho Securitiyes brokeri birjadan yetkazilgan zarar uchun tovon to'lashni talab qilgan, chunki kompyuter tizimi bunday bitimga yo'l qo'ygan. Birja to'lashdan boshtortgan, natijada ish sudda ko'rildigan bo'lgan.

2003-yilning apreli. Britaniya treyderi xato bo'yicha GlaxoSmith Kline kompaniyasining 500 mingta aksiyasini har birini 13 funtdan sotib olgan, bozorda esa bu aksiyalar narxi 70 pensdan ham kam bo'lgan. Yetkazilgan zarar 6 mln. funtdan ortiq deb xabar beradi The Wall Street Folly.

2002-yil, noyabr. Ryanair kompaniyasi kotirovkalarini qo'yadigan brokerlik firmasi klerki yevro va funtdagi aksiyalar narxini adashtirib yuborgan. Bu xato London fond birjasi indeksini darhol 61% yoki 404,5 punktdan 653,7 punktgacha oshirgan.

2002-yil, oktabr. Britaniyalik treyder fyuchers narxini kiritishda xatoga yo'l qo'ydi, ikkilamchi moliyaviy vositalar bilan ishslash bo'yicha eng yirik maydoncha hisoblangan Eurex birjasida savdo uch soatga to'xtab qolgan, birja indeksi esa 500 punktga pasaygan.

2002-yil, sentabr. Bitta nemis indeksi DAX ni 5180 punkt darajada sotish istagida bo'lgan Eurex treyderi 5180 ta shartnomani sotib yubordi va bu narxning keskin tushib ketishiga olib keldi. Besh soat o'tgach, birja rahbariyati buning sababi bo'lgan bitimdan keyin tuzilgan barcha bitimlarni bekor qilishga qaror qildi.

2001-yil, dekabr. Shveysariyannig UBS VVarburg banki treyderi ikki soniya ichida ajoyib natijaga erishdi — o'z kompaniyasiga 71 mln. funt zarar yetkazdi. UDensu yapon kompaniyasining 16 dona aksiyasini har birini 600 ming iyenadan sotishga harakat qilib, buning o'rniga 610 mingta aksiyani olti iyenadan sotib yubordi.

2001-yil, may. Lehman Brothers invESTbank treyderi 3 mln. funtlik aksiyalarni sotish istagida edi, biroq u ortiqcha nollarni qo'shib yubordi va 300 mln. funtlik aksiyalarni sotib yubordi.

1999-yil, noyabr. Diler klaviaturaga suyanib, tasodifan Premiyer Oil kompaniyasining umumiy qiymati 1,8 mln. funtdan ortiq bo'lgan 16 mingta aksiyasini sotib yubordi.

Boshqacha qilib aytganda, birja savdosining yaxshiroq ishlashi uchun faqat avtomatlashtirishning o'ziga emas, EHMDan foydalanishda e'tiborlilik ham talab qilinadi.

Vazifalarini avtomatlashtirishning ahamiyati. Birja savdosini avtomatlashtirish birja muhitini tubdan o'zgar-tirib yubordi va bozor xulq-atvoriga katta ta'sir ko'rsatdi. Bu nima uchun «tarixiy» ma'lumotlar bilan ishlash mexanik savdo tizimining faoliyat ko'rsatish samaradorligini oshirmsaligi sabablaridan yana biridir. Doimiy taraqqiy etayotgan jamiyatning texnologik rivojlanishi bozorning asosiy dementi - insonni uzluksiz o'zgartirib boradi.

Birja faoliyati obyektlari va subyektlarining axborot tahliliy ta'minoti statistikaning muhim vazifasi va birja faoliyatini tartibga soiish va sug'urtalashning zarur sharti hisoblanadi. Davlat statistikasi va birjalarni nazorat qilishi va litsenziyalashi lozim bo'lgan organlar birja bozorining miqyosi va ahvoli, uning infratuzilmasi, birja jarayoni qatnashchilarining daromad va xarajatlari haqidagi ma'lumotlarga ehtiyoj sezadi. Biznes statistika birja bozorining salohiyati, uning rivojlanish qonuniyatları, narx va sotuv bashorati, birja bozorida investitsiyalar haqidagi ma'lumotlarga ehtiyoj sezadi. Shunday qilib, birja statistikasining vazifalari birja konyunkturasi, birja tovar aylanmasi tendensiyalari va narx, tovar bozorida birjalar roll, birja jarayonining moddiy ta'minoti haqida axborot to'plash va tahlil qilishga borib taqaladi.

Birja statistikasining muayyan vazifalari quyidagilardan iborat: birjalar mavjudligi va birja faoliyati haqida axborot to'plash va qayta ishlash; muayyan sanadagi yoki davrdagi birja bozorining ahvolini baholash; birja savdosi salohiyati talab va taklif bahosini, ularning nisbatini aniqlash; birjada ishbilarmonlik faolligini baholash; birja tovar aylanmasini, uning hajmi, strukturasi va dinamikasini, tovarlar

ulgurji bozorida tovar birjalari rolining tavsifmi baholash va tahlil qilish; real tovarli bitimlar va muddatli bitimlar nisbatini tahlil qilish; birja narxlari darajasi, o'zgaruvchanligi va dinamikasini, ularning mavsumiyligini tahlil qilish, birja narxlarini bashorat qilish; birja savdosining tijorat natijalarini baholash va tahlil qilish; birja savdosi infratuzilmasining holati va rivojlanishi tavsifnomasi.

Avtomatlashtirishda bu operatsiyalarni amalga oshirish uchun ketadigan vaqt va mehnat sarfi sezilarli qisqaradi. Shu sababli bandlik xizmatining eng yaxshi ishlashi uchun avtomatlashtirish zarur.

Qisqacha xulosalar:

Seksiyada savdoni birja makleri olib boradi. Avval tez sotilishi kerak bo'lgan real mavjud tovarlar bilan ish boshlanadi. Keyin esa takliflar bo'yicha forward (ya'ni hisob-kitoblari bitim kuni emas bir oz vaqt o'tgandan keyin va boshqa shartlar bilan) operatsiyalari bo'yicha bitimlar tuziladi. Har bir sektsiyada savdo quyidagi tartibda olib boriladi.

Dastavval makler ushbu birja kunida savdoga qo'yilgan barcha tovarlar ro'yxatini o'qiydi. Makler ro'yxatni o'qiyotgan paytda bitim uchun zarur tovarlar topgan brokerlar qo'llaridagi guvohnomalari yoki qo'llarini baland ko'taradilar.

Makler darhol tovarni sotuvga chiqarayotgan brokerlik idora raqamini aytadi. Broker idorasi vakili harakatni tasdiqlamasa (yoki shu paytda shu erda bo'lmasa, yoki mudrab qolsa) tovar savdodan olib tashlanadi va broker birjaga kelmaganligi uchun birjaga jarima to'lovi undiriladi.

Undan so'ng makler boshqa tovar turiga o'tadi. Butun ro'yxat o'qib bo'lingach kichik tanaffus e'lon qilinadi. Keyin bo'ng bir marta urilgandan so'ng ishning ikkinchi qismi, brokerlar takliflari muhokamasiga o'tiladi. Har bir brokerlik taklifining muhokamasi ikki qismdan iborat bo'ladi.

Muhokamaning ikkinchi qismida sektsiyaga yig'ilgan xaridor brokerlarning muqobil (qarama-qarshi takliflari) muhokama qilinadi.

Broker xaridorlar tovar xarid qilish shartlarini e'lon qiladi. (yoki tovarning bir qismini).

Bu shartlar tovar hajmi va narxi hususida bo'ladi. Agar bitim yana imzolanmasa makler sotuvga qo'yilgan tovarlar ro'yxatini keyingi pozitsiyasini muhokamasiga o'tadi.

Nazorat savolari

1. Birja faoliyatini ng qatnashchilari kimlar?
2. Birja xodimlariga kimlar kiradi?
3. Bira xodimlari vazifalarini bilasizmi?
4. Birja tovari deganda nimani tushunasiz
5. Birja savdosida ishtirok etish huquqiga kimlar ega?
6. Birja tovarlari boshqa tovar turlaridan nimalari bilan farq qiladi?
7. Standart birja tovarlari qanaqa tovarlar?
8. Birja zalida savdoni kim olib boradi?
9. Birja operatsion zaliga kimlar qanaqa hujjat asosida kiritiladi?
10. Elektron tabloda qanaqa axborot aks ettiriladi?

Tavsiya etiladigan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Birja va birja faoliyati to'g'risida" gi qonuni (yangi taxrir). 2001 y. preamble qismi.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining "O'zbekistonda birja va yarmarka savdosini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari haqida"gi qarori
3. "Davlat xaridlari tizimini optimallashtirish va ularga kichik biznes sub'ektlarini jalb qilishni kengaytirish haqida" gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 7 fevral 1474 – sonli qarori
4. Каменева. Н. Г. Организация биржевой деятельности - М.: Банки и Биржи ЮНИТИ, 2002, 313с.
5. Yunusov M.P. Birja va yarmarka fcaoliyatini boshqarish. Ma'ruzalar matni, -T., TDIU, 2005. 4-6 betlar.
6. www.yarmarka.ru
7. www.uzex.uz

6-mavzu. Birja bitimi va brokerlik faoliyati.

Reja:

- 6.1. Birja bitimining mohiyati.
- 6.2. Birja bitimlari turlari.
- 6.3. Birjada broker xizmatining o'rni va ahamiyati.

6.1. Birja bitimining mohiyati

Birja savdosi deyarli har doim sotuvchi va xaridor o'rtasida bitim imzolash bilan tugaydi. Birja bitimi bu birja (savdolashuvi) savdosi davrida birja qatnashchilari tomonidan birja tovariga nisbatan ro'yxatga olingan birja kelishuvi (shartnomasi). Birja bitimlari huquqiy, iqtisodiy tashkiliy va etik (ma'naviy) tomonlari bilan harakterlanadi. Huquqiy (yuridik nuqtai nazardan bitim fukarolik huquq va majburiyatlarini o'rnatishga, o'zgartirishga yoki to'xtatishga qaratilgan harakat tushuniladi. Birja bitimi huquqiy tarafdan bitim qatnashchilarining huquq va majburiyatlarini o'z ichiga oladi.

Birja bitimini tashkiiy tomoni, bitim xili va qatnashchilarini aniqlash va bitim tuzish uchun zarur bo'lган ma'lum harakatlarni bajarish tartibini aniqlash bilan birga harakatlarni aniq hujjatda aks ettirish bilan ifodalanadi.

Birja bitimining iqtisodiy tomoni bitim tuzishning asosiy maqsadi (iste'molchi extiyojlarini kondirish, birja tovarini sotish, narx o'rnatish, foyda olish, pul qo'yish, chayqovchilik va x.k.) ifodalaydi.

Etika (ma'naviyat) tomonidan birja bitimlariga va birja savdosiga umumiy jamoatchilik munosabatlari, birja qonunchiliginı rioya qilinishi (an'ana, me'yor va axloq kabi tushunchalarni birja qonunida ifoda etilganligi va uni barcha birja qatnashchilari tomonidan bajarilishi).

Birja bitimlari natijasida qatnashchilar nima qilib bo'lsa ham emas balki qabul qilingan qonun va qoidalarga amal qilgan holda ma'lum miqdorda foyda olishlari bilan ifodalanadi.

Tovar birjalarida tuzilgan bitimlar quyidagi xususiyatlarga egadirlar:

- bitim birja tovarini oldi sotdi shartnomaga (kontrakt)si bo'lib, unda tovar darxol yoki kelishilgan mudatda yangi egasiga yetkazib berilishi kerakligi ifodasi;

- bitim tuzish tartibi, ro'yxata olish va rasmiylashirilishi birja haqidagi davlat qonunchiligiga va aniq bir birja (o'sha joyni o'zidagi)da qabul qilingan (o'rnatilgan) qoidalarga mos bo'lishi;

- birja o'z savdosida tuzilgan ro'yxatga olingan bitimlar yuzasidan kafolat berishi;

- bitimlar birjada tuzilgan bo'lib, ma'lum qoidalar va talablarga javob berishi kerak, javob bermaydigan bitimlar birja tasarrufidan tashqarida, gayri birjaviy deb hisoblanadi va bunday bitimlar yuzasidan birja kafolati berilmaydi;

- birja g'ayribirjaviy bitimlar tuzayotgan birja qatnashchilariga nisbatan turli sanktsiyalar qo'llashga xaklidir;

- birjada bitimlar birja hisobidan yoki birja nomidan tuzilmaydi, bitim tuzish birja qatnashchilarining odatda mutaxasis vositachi bo'lgan birja a'zosi brokerlar funktsiyasi;

- birja bitimi tuzishga tayyorgarlik birjadan tashqarida bo'ladi, ammo uni imzolash esa aniq bir savdolashuv jarayonida amalga oshiriladi.

Bitim tuzishga "imzolash" asos kontragentni ochiq olib borayotgan savdoda ushbu tovar sektsiyasida makler tomonidan inobatga olingan og'zaki roziligi hisoblanadi.

Birjada ro'yxatga olingan vaqtidan boshlab bitim imzolangan hisoblanadi. Bitim imzolanayotganda tomonlar o'zaro xal qilishi zarur bo'lgan masalalar doirasida bitim tuzish shakli va tartibi kabilarni kelishib oladilar.

Bitim tarkibi shartlari:

- tovarni nomlanishi (yoki nomi);
- uni sifati;
- tovar xajmi (yoki partiyasi);

- xarid qilingan tovar kiymati to'lov shakllari va narxi;
- yetkazib berish manbai, bazasi;
- tovar qabul qilinadigan joy;
- tovar yetkazib berish shartlari va bitim bajarilish muddati.

Bitim to'zganda tovarni nomi, uni xajmi, sifati , narxi, hammaga oshkora e'lon qilinishi shart, qolgan barcha bitim shartlari tijorat siri sifatida aytimasligi ham mumkin.

Bitimlar yagona huquqiy asosga ega bo'lisliliklari uchun har bir birja kontragentlar orasidagi munosabatlarni tartibga solish maqsadida maxsus qoidalar ishlab chikadilar. Bular bitimlarni tayyorlash, ularni bajarish, bitimlar yuzasidan hisob-kitoblar, bitimlar bajarilish yuzasidan javobgarlik, va hamda e'tirozlar echimi haqidagi qoidalardir.

Shunday qilib, bitimlarni qonunchilik asosi o'z navbatida birja savdosidagi beandisha savdogarlikka karshi kurash turlaridan biridir. Bitim tuzishga tayyorgarlik odatda birjadan tashqarida olib borilib, bitimning savdolashish jarayonida har bir birjada o'zi uchun urnatilgan qoida va me'yoriy hujjatlar asosida amalga oshiriladi.

Birjada savdolashuv deyarli har-xil xususiyatlari bo'yicha klassifikatsiyalanadigan birja bitimlari bilan yakunlanadi.

2-jadval. Birja bitimlari tuzish shartlari.⁹

Nº	Harakteristikasi	G'arb mamlakatlari birja savdosi	Rossiya
1	2	3	4
2	Tovar turlari	qat'iy belgilangan	ma'lum tovar guruhlaidan xoxlagan tovar turlari
3	Tovar sifati	qat'iy belgilangan	Har bir bitimda kelishib olinadi
4	Tovar miqdori	qat'iy belgilangan	Bitim oldidan kelishib olinadi
5	Bitim shartlari	narxi, yetkazish muddati	narxi, yetkazish muddati, tovarga tovar ayriboshlash

⁹ Xomitov K.Z., Muxamedov G'. T. Moliya bozori va birja ishi. O'quv qo'llanma. — T.: «Davr nashriyoti», 2012.

6	Tovarni tasdiklovchi hujjat	Oldi-sotdi kontrakti	Oldi-sotdi buyurtmasi
7	Ma'lum vaqt va ma'lum joyda savdolashuv	ma'lum vaqtda ma'lum tovar ma'lum narxda	ma'lum tovar guruqlaridan kelishuv narxida istalgan vaqtda
8	Savdo texnologiyasi	ko'pmarotaba bitim tuzish	Variantlar tanlovi asosida sotuvchi va xaridorlar o'zaro oldi-sotdi sharti bo'yicha
9	Birja savdolashuvi natijasi	Tovar oldi-sotdi kontrakti	Tovar yetkazib berish shartnomasi

Ko'proq uchraydigan savdo ob'ekti ham real tovar, ham kontrakt sifatida uchraydigan bitim. Unda tovar yetkazib berish muddati, uni narxi, sifati va xajmi kelishib olinadi. Bitim imzolanayotgan paytda aynan birjada tovarni mavjud bo'lishi zaruriy shartlardan emas.

Mavjud real tovarlar yuzasidan bitiladigan bitimlar bu sharnomada ko'rsatilan shartlar bo'yicha tovar kiymati xaridor ixtiyoriga o'tayotgan paytda to'lanadi.

6.2. Birja bitimlarining turlari

Birja bitimlari turlari quyidagilarga bo'linadi.

1. Real (mavjud) tovarlar yuzasidan bitiladigan bitimlar.

2. Real tovarsiz bitimlar.

Real (mavjud) tovar yuzasidan bitiladigan bitimlar quyidagilarga bo'linadi:

- Real tovarlarni darxol yetkazib berish bo'yicha bitimlar;
- Forvard bitimlari, ma'lum muddatdan so'ng yetkazib berish sharti bilan;
- Barter bitimlari;
- Turli o'zaro kelishilgan shartlar bilan bitiladigan bitimlar.

Forvard bitimlari o'z navbatida, Tovon (zalog)li bitimlar va mukofotli bitimlarga bo'linadi.

Tovonli bitimlar esa, xarid bitimlar va sotuv bitimlarga bo'linadi.

Mukofotli bitimlar ham o'z navbatida:

- oddiy bitimlar;


- ikkiyoqlama bitimlar, bitimlardan qaytish imkoniyati bor bitimlar;
- Murakkab bitimlar (oddiy bitim bilan ikkiyoqlama bitimlarni qo'shilgani);
- Qisqa bitimlar (hajm ko'rsatkichi ma'lum mukofot evaziga oshirilishi ko'zda tutilgan).

Oddiy bitimlar o'z navbatida xarid bitimlar va sotuv bitimlariga bo'linadi.

Tovonli (s zalogom) birja bitimlar majburiyatlarida bir kontragent ikkinchi kontragentga bitim bitish chog'ida ikkala tomon uchun qoniqarli ma'lum kafolatli to'lov amalga oshirish ko'zda tutilgan bitimlardir.

Mukofotli bitimlarda bir kontragent ikkinchisiga maxsus majburiyatda bitim bitish evaziga kelishilgan mukofotni to'lash majburiyatini o'z zimmasiga oladi yoki mukofot to'lanmasa, ikkinchi tomon kontragent bitimdan butunlay voz kechishi ko'zda tutilgan birja bitimidir.

O'zTXB da quyidagi birja bitimlari turlari chizmasi.¹⁰




- Spot bitimi –darhol yetkazib berish sharti bilan tuziladigan birja bitimlari.
- Forvard – real tovarni oldi-sotda bitimi bo'lib, tovar ma'lum muddat ichida xaridorga yetkaziladi.

¹⁰ Birjevaya torgovli na Uzbekskoy respublikanskoy tovarno-sirevoy birje. Tashkent, 2006 god.str 147.

- Fyuchers bitimi - tovarni kelajakda yetkazib berish xuquqili oldi-sotdi standart kontrakti- majburiyati.
- Optsiyali bitim - kelajakda yetkazib berish huquqili yoki tovari ma'lum narxlarda sotish yoki tovari yetkazib berish kontrakti.
- Kafolatli bitimlar - birja bitimlari bajarilishini kafolatlash uchun biron- bir tavon (zadatka) beriladigan bitim bo'lib u, o'z navbatida yana 2 xil sotish va sotib olish bitimlariga bo'linadi.

Bulardan tashqari O'zTXBda birja savdolarining samaradorligini oshirish, respublikamizda faoliyat ko'rsatayotgan xo'jalik sub'ektlariga amaliy yordam ko'rsatish maqsadida birja savdolari oldi-sotda bitimlarini turli shartnoma (kontrakt) ko'rinishida ham rasmiylashtrish mumkin.



7 - chizma. An'anaviy usulda savdolar olib boruvchi birjalarida real tovar bilan bitiladigan bitimlar turlari.¹¹

Sanab o'tilgan birja bitmilaridan tashqari tovar birjadlarida bitiladigan bitimlar orasida fyuchers bitimlari alohida e'tiborga loyiq.

Bu bitimning mohiyati, tovar yoki xizmat bitimda ko'rsatilgan muddatda, odatda bir necha kundan bir necha oy, hatto yil davomida yetkazib berish sharti bilan bitiladligan birja bitimidir. Lekin fyuchers bitimi bir oz murakkab tushuncha bo'lib, odatda tovarning iste'mol qiymati emas, almashtirish qiymatining ahamiyati katta bo'lib, tovar yetkazib berish birja savdosi qatnashchisinin qiziqtirmaydi, faqat narxlar farqigina qiziqtiradi. Chunki fyuchers kontraktlarining faqatgina 2 – 3 foizigina tovar yetkazib berish bilan tugaydi, qolganlari esa, kontraktlarni almashtirish bilan tugallanadi.

Fyuchers bitimining predmeti fyuchers shartnomasi – mulkni (jumladan, pul, valyuta va qimmatli qog'ozlar) yoki axborotni olish yoki uzatish tartibi ko'rsatilgan holda bu uzatish yoki olish huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan hujjatdir. Bunda u qimmatli qog'oz hisoblanmayd. Fyuchers shartnomasi oddiygina bekor qilinishi, yoki birja tili bilan aytganda tugatilishi mumkin emas. Agar u yakunlangan bo'lsa, yoki bir xil sonli tovarlar bilan qarama-qarshi bitim tuzish yo'li bilan, yoki kelishilgan tovarni shartnomada ko'rsatilgan muddatda yetkazib berish bilan tugatilishi mumkin.

Fyuchers shartnomalar bo'yicha savdo qoidalari quyidagi imkoniyatlarni beradi: sotuvchi uchun mahsulotni yetkazib berish yoki muddatli shartnomani tovar yetkazib berish muddati etib kelmasdan qayta sotib olishdan birini tanlash huquqi saqlab qolinadi; xaridor tovarni qabul qilishi yoki muddatli shartnomani yetkazib berish muddati kelmasdan turib sotib yuborishi mumkin.

Fyuchers bitimining predmeti fyuchers shartnomasi – mulkni (jumladan, pul, valyuta va qimmatli qog'ozlar) yoki axborotni olish yoki uzatish tartibi ko'rsatilgan

¹¹ Xomitov K.Z., Muxamedov G'. T. Moliya bozori va birja ishi. O'quv qo'llanma. — T.: «Davr nashriyoti», 2012. — 168-b.

holda bu uzatish yoki olish huquq va majburiyatlarini belgilab beradigan hujjatdir. Bunda u qimmatli qog'oz hisoblanmaydi.

Barcha fyuchers operatsiyalarida tomonlarning narxga nisbatan to'liq erkinligi, tovarni yetkazib berish muddatini tanlashga nisbatan esa – cheklangan erkinligi saqlab qolingan. Qolgan barcha shartlar qat'iy tartibga solingan bo'lib, bitimda ishtirok etayotgan tomonlarning hohish-istiklariga bog'liq emas. Shu munosabat bilan fyuchers birjasи ba'zida xaridor va sotuvchi shartnomaning istalgan shartini o'zaro kelishib olishi mumkin bo'lgan tovarlar bozoridan (iste'mol va almashinish qiymati yig'indisi va birligi) farqli ravishda «narx bozori» (ya'ni almashlash bahosi) deb ham atashadi. Real tovarli bitimlardan soxta tovarlar bilan bitimlarga tomon rivojlanish esa real qiymatli pul muomalasidan qog'oz pul muomalasiga o'tish bilan taqqoslanadi.

Birja faoliyatida an'anaviy usulda olib borish ancha mashaqqatli va ko'p vaqt talab qiluvchi jarayondir, ularni osonlashtirish va vaqt bobida tejamkorlikka erishish maqsadida O'zbekiston respublika tovar xomashyo birjada muntazam tadqiqotlar olib borilishi natijasida zamonaviy texnologiyalar joriy etilmoqda ulardan biri O'zRTXB birja savdo sessiyalari yagona elektron savdo tizimida amalga oshirilmoqda. Birja tizimida ko'rgazmali-yarmarka savdosi ham amalga oshirilmoqda.

6.3. Birjada birokerlik xizmatining o'rni va ahamiyati.

O'zbekiston Respublikasining “ Birja va birja faoliyati haqida”gi qonunida belgilanishicha, Brokerlik faoliyati birja vositachiligi faoliyatining muhim qismi bo'lib, uning mazmuni; Mijoz hisobidan va nomidan birja bitimlari tuzish; Birja vositachisi nomidan va mijoz hisobidan; Mijoz nomidan, birja vositachisi hisobidan bitimlar tuzish huquqiga ega birja xizmatchisi.

Brokerlik firmalari, xususiy, tadbirkorlik korxonalari bo'lib, mas'uliyati cheklangan jamiyat, hamkor korxona(tovarishchestvo), shaxsiy-xususiy korxonalar shaklida bo'lishlari mumkin.

Brokerlik firmalari yuridik (huquqiy) shaxs maqomiga ega bo'lmasliklari, biron-bir korxona, tashkilotning tarkibiy qismi bo'lishlari ham mumkinligi Rossiya Federeatsiyasining "Tovar birjalari haqida"gi qonunida e'tirof etilgan.

Odatda brokerlik xizmatlari faoliyatlarini quyidagi funktsiyalarini bajarishga yunaltirilgan bo'ladi:

1. Birjada buyurtmachi buyurtmasi bo'yicha birja bitimlari bitishda birja vositachiligin amalga oshirish (faqat etarli darajadagi malakaga egaligi haqidagi guvoxnomasi va attestati mavjudligida).
2. Birjadan tashqaridagi vositachilik ya'ni birjadan tashqarida bitilayotgan oldisotdi shartnoma-bitimlarida vositachilik qilish;
3. Birja va marketing faoliyatlarii yuzasidan turli maslaxatlar berish, zarur tijorat axborotini yigish;
4. Bitilgan bitimlar bo'yicha zarur hujjatlarni rasmiylashtirish;
5. O'zbekiston Respublikasi amaliy qonunlari va me'yoriy hujjatlarga zid bulmagan boshqa funktsiyalarini bajarish imkoniyatiga egadir.

Birja faoliyatida brokerlik xizmatidan foydalinish mijozlarga quyidagi imtiyozlarni beradi.

1. O'z shaxsiy harajatlarini oshirmay turib, savdo operatsiyalari xajmini sezilarli darajada o'sishiga erishish;
2. Yukori malakali savdo personali xizmatidan foydalanish imkoniyati paydo bo'ladi;
3. Savdo operatsiyalariga brokerlik firmalar xizmatini jalb etish, xizmat harajatlarini savdo xajmidan ma'lum protsent miqdorida hisoblash imkoniyatini beradi.

Brokerlik firmalar xizmatining ahamiyati ayniqsa, fond birjalarida kattadir.

1. Mijozlar aksiyalar sotib olish chog'ida, shubhali shaxslar xizmatidan foydalanib, betayin-beqaror narxlarda emas, balki shu kungi savdolarda shakllangan narxlarda obro'li aksiyalar xarid qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

2. Korxonalar, fuqorolarni bo'sh yotgan jamg'arma pul mablag'larini qimmatli qog'ozlar bozoriga faol jalb qilish evaziga milliy iqtisodni rivojlantirish imkoniyatlarini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Birja ishida vositachilik faoliyati muhim ahamiyat kasb etadi. Bunday faoliyatni, asosan, investitsiya vositachilari o'zlarining qo'l ostidagi treyderlari yordamida amalga oshiradilar.

Shuningdek, investitsiya vositachilari (broker-dilerlar) fond bozorining professional ishtirokchilari ichida ko'p sonli va eng tajribali guruhnini tashkil etadi.

Vositachilik yoki topshiriq shartnomasi yoxud mijozning vositachisi yoki ishonchli vakili sifatida qimmatli qog'ozlarga doir bitimlarni tuzish uchun berilgan ishonchnoma asosida ish olib boruvchi yuridik shaxs brokerdir.

Mijozlarning bitimlar tuzish uchun brokerga berilgan qimmatli qog'ozlari va pul mablag'lari, shuningdek, broker tomonidan shartnomalar asosida mijozlar bilan tuzilgan bitimlar bo'yicha olingan qimmatli qog'ozlar va pul mablag'lari broker tegishinchcha Qimmatli qog'ozlar markaziy depozitariysida va bankda ochadigan (ochiladigan) alohida hisobvaraqda (hisobvaraqlarda) turishi kerak.

Broker o'ziga mijoji tomonidan topshirilgan pul mablag'laridan, mijozga uning topshiriqlari ko'rsatib o'tilgan pul mablag'lari hisobidan bajarilishini yoki ular mijozning talabiga binoan qaytarilishini kafolatlagan holda o'z manfaatlarini ko'zlab foydalanishga, agar bu mijoz bilan tuzilgan shartnomada nazarda tutilgan bo'lsa, haqlidir.

Brokerga pul mablag'laridan o'z manfaatlarini ko'zlab foydalanish huquqini bergen mijozlarning pul mablag'lari brokerga bunday huquqni bermagan mijozlarning pul mablag'lari turgan hisobvaraqdan (hisobvaraqlardan) alohida bo'lgan hisobvaraqda (hisobvaraqlarda) turishi kerak. Broker o'z pul mablag'larini bu hisobvaraqqa (hisobvaraqlarga) o'tkazishga haqli emas, Qonun hujjalarda belgilangan tartibda pul mablag'larini mijozlarga qaytarish va (yoki) mijozlarga qarz berish hollari bundan mustasno.

Broker har bir mijozning pul mablag'lari hisobini yuritishi, qimmatli qog'ozlarga doir bitimlar va operatsiyalarni faqat mijozning topshirig'iga binoan va u bilan tuzilgan shartnomaga muvofiq amalga oshirishi, amalga oshirilgan bitimlar va operatsiyalar to'g'risida unga hisobot berib borishi shart.

Qimmatli qog'ozlarni sotib olish va (yoki) sotish narxini oshkora e'lon qilish orqali ushbu qimmatli qog'ozlarni o'zi e'lon qilgan narxlarda sotib olish va (yoki)

sotish majburiyati bilan o'z nomidan hamda o'z hisobidan qimmatli qog'ozlarga doir oldi-sotdi bitimlari tuzuvchi yuridik shaxs dilerdir. Diler qimmatli qog'ozlar narxidan tashqari ularga doir oldi-sotdi shartnomasining boshqa muhim shartlarini: sotib olinadigan va (yoki) sotiladigan qimmatli qog'ozlarning eng kam va eng ko'p miqdorini, shuningdek, e'lon qilingan narxlarning amalda bo'lish muddatini oshkora e'lon qilish huquqiga ega. Ushbu e'londa qimmatli qog'ozlarga doir oldi-sotdi shartnomasining boshqa muhim shartlari ko'rsatilmagan taqdirda, diler o'z mijoz taklif qilgan muhim shartlar asosida shartnomada tuzishi shart. Diler qimmatli qog'ozlar oldi-sotdi shartnomasini tuzishdan bo'yin tovlagan taqdirda, unga nisbatan shunday shartnomada tuzishga majbur qilish haqida va (yoki) mijozga yetkazilgan zararlarning o'rmini qoplash to'g'risida da'vo qo'zg'atilishi mumkin.

Yuridik shaxsni — investitsiya vositachisini tugatish faqat qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi investitsiya vositachisi o'z mijozlariga tegishli bo'lgan qimmatli qog'ozlarni qaytarganligini yozma ravishda tasdiqlaganidan keyin amalga oshirilishi mumkin.

Birja boshqaruvi tomonidan belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgan birja a'zolari birja bitimlarining ishtirokchilari hisoblanadi. Birja a'zosining faqat birjada muayyan qoidalarga muvofiq ro'yxatdan o'tgan va ishonchnoma asosida faoliyat yurituvchi treyderlari birja a'zosi nomidan bitimlar tuzish huquqi bilan birja savdolarida ishtirok etishi uchun ruxsat beriladi.

Birja a'zosi o'zining treyderi (treyderlari) tomonidan birjada amalga oshiriladigan barcha harakatlar uchun javobgardir. Treyderlarning noto'g'ri yoki ruxsat etilmagan harakatlari natijalari uchun birja javobgar emas.

Birja savdo zaliga birja savdolarida bitim tuzmaslik sharti bilan kirish uchun quyidagilarga ruxsat beriladi:

- birjaning bosh makleri;
- birja maklerlari;
- savdo tizimining belgilangan tartibdag'i faoliyatini ta'minlovchi birja mutaxassislari;
- birja boshqaruvi raisi, uning o'rinoslarlari;

- qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organining vakolatli vakillari;
- qonunda ko'zda tutilgan tartib va hollarda boshqa shaxslar. Savdolarni vaqtinchalik to'xtatib qo'yish va to'xtatish huquqi bilan savdolar jarayoniga tezkor aralashish huquqiga keyinchalik o'z harakatlarini yozma rasmiylashtirish bilan, birja boshqaruvi raisi, uning o'rinnbosarlari, birjaning bosh makleri, qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organining vakolatli vakillari ega.

Qisqacha hulosalar:

Bitim tuzishga "imzolash" asos kontragentni ochiq olib borayotgan savdoda ushbu tovar sektsiyasi makleri tomonidan inobatga olingan og'zaki roziligining isbotidir.

Birja bitimlari turlari quyidagilarga bo'linadi:

1. Real (mavjud) tovarlar yuzasidan bitiladigan bitimlar.
2. Real tovarsiz bitimlar.

Real (mavjud) tovar yuzasidan bitiladigan bitimlar quyidagilarga bo'linadi:

Real tovarlarni darxol yetkazib berish bo'yicha bitimlar;

Forward bitimlari, ma'lum muddatdan so'ng yetkazib berish sharti bilan;

Barter bitimlari;

Turli o'zaro kelishilgan shartlar bilan bitiladigan bitimlar.

Forward bitimlari oz navbatida, Tovon (zalog) li bitimlar va mukofotli bitimlarga bo'linadi.

Tovonli bitimlar esa, xarid bitimlar va sotuv bitimlarga bo'linadi.

Mukofotli bitimlar ham o'z navbatida; - oddiy bitimlar;- ikkiyoqlama bitimlar, bitimlardan qaytish imkoniyati bor bitimlar; - Murakkab bitimlar (oddiy bitim bilan ikkiyoqlama bitimlarni qo'shilgani); - qisqa bitimlar (hajm ko'rsatkichi ma'lum mukofot evaziga oshirilishi ko'zda tutilgan).

Oddiy bitimlar o'z navbatida xarid bitimlar va sotuv bitimlariga bo'linadi.

Tovonli (s zalogom) birja bitimlar majburiyatlarida bir kontragent ikkinchi kontragentga bitim bitish chog'ida ikkala tomon uchun qoniqarli ma'lum kafolatli to'lov amalga oshirish ko'zda tutilgan bitimlardir.

Brokerlik faoliyati birja vositachiligi faoliyatining muhim qismi bo'lib, uning mazmuni; Mijoz hisobidan va nomidan birja bitimlari tuzish; Birja vositachisi nomidan va mijoz hisobidan; Mijoz nomidan, birja vositachisi hisobidan bitimlar tuzish xuquqiga ega birja xizmatchisi.

Birja faoliyatida brokerlik hizmatidan foydalinish mijozlarga quyidagi imtiyozlarni beradi:

O'z shaxsiy harajatlarini oshirmay turib, savdo operatsiyalari xajmini sezilarli darajada o'sishiga erishish;

Yuqori malakali savdo personali xizmatidan foydalanish imkoniyati paydo bo'ladi;

Savdolashuv operatsiyalariga brokerlik firmalar xizmatini jalb etish, xizmat harajatlarini savdo xajmidan ma'lum foiz - protsent miqdorida hisoblash imkoniyatini beradi.

Brokerlik firmalar xizmatining ahamiyati ayniqsa, fond birjalarida kattadir.

1. Mijozlar aksiyalar sotib olish chog'ida, shubxali shaxslar xizmatidan foydalanib, betayn-beqaror narxlarda emas, balki shu kungi savdolarda shakllangan narxlarda obro'li aksiyalar xarid qilish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

2. Korxonalar, fuqorolarni bo'sh yotgan jamg'arma pul mablag'larini qimmatli qog'ozlar bozoriga faol jalb qilish evaziga milliy iqtisodni rivojlantirish imkoniyatlarini yanada oshirishga xizmat qiladi.

Nazorat savollari.

1. Birja bitimi deganda nima tushiniladi?
2. Bitimlarning amalda kaday xillari mavjud?
3. Bitim mohiyati nimadan iborat?
4. Optionlar nima uchun kerak?
5. Bitimni ro'yxatga olish qanday amalga oshiriladi?
6. Birja bitimi natijasida mulkiy munosabatdlar o'zaradimi?
7. Birja bitimlarining qaysi turlari O'zbekiston Respublik tovar - xom ashyo birjasida qo'llaniladi?

8. Birja savdosini elektron ttizmimni joriy etilishi mijozlar uchun qanday imkoniyatlar beradi?
9. Birja bitmilarining bartier usuli qachon va qanday shartlar asosida qo'llanilishi m aqsadga muvofiq?
10. Brokerlik xizmati

Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikachi Vazirlar Mahkamasining "Ulgurji va birja savdosini tashkil etish tizimini takomillashtirish to'g'risida"gi Qarori. 2001 yil 1 may, № 198.
2. O'zbekiston Respublikachi Vazirlar Mahkamasining "Tovar xom-ashyo birjalari faoliyatini takomillashtirishga doir qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarori. 2004 yil 31 may, № 251.
3. Татаркова Н.В. История трудовых отношений: Учебное пособие, тесты, учебная программа. / Московский государственный университет экономики, статистики и информатики.-М.: МЭСИ, 2004.- 247с.

7-mavzu. Fyuchers birjalari.

Reja.7.1.Fyuchers birjaning o'ziga xos xususiyatlari.

7.2.Funktional mexanizmlar.

7.3.Fyuchers bozori.

7.1. Fyuchers birjaning o'zaga xos xususiyatlari

Faqat fyuchers kontraktlar asosida birja faoliyatini olib borilishi fyuchers birja deyiladi. Bunday birjalar 19 asrning ikkinchi yarmida paydo bo'ldi. Fyuchers birjalarning paydo bo'lishi muomala harajatlarini kamaytirish, sarmoya aylanishida narxlarni noxush tebranishini oldini olish, nokulay konyunktura oqibatida zarur bo'ladigan zaxira (rezerv) sarmoyasini miqdorini kamaytirish va pul ko'rinishidagi sarmoya qo'yilmalarini qaytarib olish imkoniyatlarini oshirish bilan bog'liq.

Fyuchers birja savdosi real mavjud tovarlar birjasidan quyidagilar bilan farq qiladi; bitimlarni fiktiv (tovarsiz) harakteri, faqat 1-2 % bitimlar tovar yetkazib

berish bilan yakunlanadi, qolganlarida narxlar tafovuti to'lanadi xolos, real mavjud tovar bozori bilan xejirlash bilangina bog'liqlik, tovar narxi va yetkazib berish muddatidan tashqari kontrakt shartlarini to'la unifikatsiyalanganligi, kontrakt sotuvchi va xaridor o'rtasida emas, balki hisob palatasida ro'yhatdan o'tkazilganligi uchun fyuchers bitimlar tovarlarsiz bitilib, ham real tovar, ham valyuta, ham aksiya indekslari, ham foiz stavkalari yuzasidan bo'lishi mumkin.

Butun jahon fyuchers birjalaridagi operatsiyalar xajmi 20 trln. dollardan oshadi. Fyuchers birjalar baholarni aniqlash, axborotni oqimini oshirish, kontrakt shartlarini bajara olmaslik xavfini bartaraf qilish, kontrakt shartlarini bajarish samaradorligi, bajarish imkoniyatlarini oshirish kabi funktsiyalarni bajaradi.

Shartnoma majburiyatlarini bajara olmaslik xavfi fyuchers birjani, fyuchers kontraktlar va fyuchers savdoni rivojlanishining asosiy sababi bo'ldi.

Odatda kontrakt shartlarini bajara olmaslik xavfini bartaraf etish bozor qatnashchilari zimmasidan, shartlarni bajara oladigan qatnashchilar zimmasiga ko'chirib yuklaydi.

Masalan: narx tebranishi natijasidagi xavfdan xejerlar fyuchers kontraktlar vositasidan foydalanib chayqovchilardek o'z zimmalariga olib, narx ko'tarilganda foya olish umidida bo'ladi. Demak, bir taraf uchun noxushlik bo'lgan vaziyat, boshqa bir taraf uchun cheksiz imkoniyatlar ochishi mumkin.

Narxlardagi tebranma xavf mavjud bo'lib, muammo faqat kim qanaqa bu masalaga yondashishida, Fyuchers birja aynan shunday mexanizmni ishlab chiqadi.

Narxlarni aniqlash. Fyuchers narxlar fyuchers bitimlar bo'yicha birja narxlaridir, ya'ni fyuchers kontraktlari muddati davomidagi kontrakt asosidagi narx.

7.2. Fyuchers birja funktional mexanizmlari

Fyuchers bozor minglab narx baland pasligiga qarab sotuvchi va xaridor qatnashchilarini o'z ichiga oladi. Albatta sotuvga qo'yilgan hamma tovarlar bo'yicha narx dinamikasini ko'rsatuvchi obro'li hujjatlar bo'ladi. Masala shundaki, fyuchers bozorini har bir qatnashchisi o'z fikrini (narx borasidagi) oltin hisobidagi nakd pul bilan ta'minlaydi. Agar narxlar dinamikasi haqidagi ma'lumotlarda xabarsiz kolgan bozor qatnashchilari o'yindan chiqishsa (kontraktdagi tovarlarni

sotib yuborishsa), bundan zarur ma'lumotlarga ega bozor qatnashchilari o'zlari uchun foyda ko'rish maqsadida foydalanadilar. Fyuchers bozorni o'zga xos xususiyatlaridan biri xejerlash operatsiyalarining mavjudligidir.

Xejirlash bu, mavjud tovarlar bozoridagi narx (tavakkalchiligi qaltisliklaridagi bahoni tushib ketishini oldini olish maqsadida fyuchers bozordan foydalanishga asoslangan harakatni ifodasi deb tushunish mumkin.

Buning mohiyati shundan iboratki, fyuchers birjada bitilgan bitim ayni shu tovar yuzasidan mavjud tovar birjasida bitiladigan bitimning “debocha - boshlanishi” yoki o’rnini bosuvchi bitim deb tushunish ham mumkin; Masalan: Savdogar – tijoratchi birjada neft xarid qildi va uni qayta sotish maqsadida payt poylab turibdi, mavjud tovarni joriy narxda zudlik bilan yetkazib berish sharti bilan sotishni xohlamay, xarid qilingan neft yuzasidan fyuchers kontraktini sotadi. Keyin mavjud neft sotilsa, agar mavjud tovar bozorida narx tushsa, fyuchers kontrakt sotib olgan tijoratchi shaxs zarar ko'radi, lekin fyuchers kontrakt sotgan shaxs esa o'z navbatida narxlar tafovuti miqdorida foyda ko'rishi mumkin. Agar mavjud tovarlar bozorida narx ko'tarilsa, teskari natija vujudga kelishi muqarrar. Fyuchers kontraktlar qayta-qayta sotiladi va sotib olinadi, ko'rinish turibdiki bir bozordagi zarar, boshqa bozordagi foyda bilan to'ldiriladi va shu tariqa narxlarning noqulay tebranishi oqibatlari yumshatiladi.

Xejirlashdan mavjud tovarlar bozoridagi bitilajak bitimlardagi narxlarni aniqlash, bir maromda ushlab turish uchun ham foydalaniladi. Masalan xom ashyo iste'molchisi Oktyabr oyida kerak bo'ladigan xom ashyonini oktyabr oyida narx kutarilib ketishidan qo'qib, oldindan oktyabr oyida yetkazib berilishi mo'ljallangan fyuchers kontraktni sotib oladi, ... keyin mavjud tovar sotib olayotganda fyuchers kontrakti yo'q qilinadi, agar bazis narx o'zgarmay qolsa, mo'ljallangan narx darajasi saqlanib qolinadi.

Bajarilishi texnikasi bo'yicha ikki xil Xejirlash mavjud; 1. Qisqa Xejirlash-fyuchers kontraktlarini sotish; 2.Uzun xejirlash – fyuchers kontraktlarni sotib olish.

Har qanday xejirlash bitimi ikki bo'g'indan iboratdir; birinchi bo'g'inda fyuchers kontrakti bo'yicha pozitsiya ochiladi, ikkinchi bo'g'inda teskari bitim bilan shu pozitsiya (ma'lum tovar yetkazib berish majburiyati) yopiladi.

Klassik xejirlash kontraktlarida xejirlashning birinchi va ikkinchi bo'g'in pozitsiyalari bitta tovar yuzasidan bo'lgan, ham miqdor, ham muddat ko'rsatkichlari ham bir xil bo'lishi ko'zda tutilar edi.

Fyuchers narxlarni doimiy tebranib turishi real fakt. Bu tebranishlar bozor qatnashchilarining doimiy o'zgarib turuvchi ma'lumotlarini taxlili natijasidagi nuqtai nazari muhim bo'lib, fyucher bozorini ushbu axborot oqimidagi sezgirlik ko'rsatkichidir.

7.3. Fyuchers bozori

Fyuchers bozori haqida fikr yuritadigan bo'lsa, birinchi navbatda kontrakt shartlarini bajara olishlilik va samaradorlik. Fyuchers birjalari eng samarador va kontrakt shartlari doimo bajariladigan bozordir samaradorlik fyuchers bitimlarni soddaligi va tezligidadir. Fyuchers birja brokerlik firmasida hisob raqami va telefoni bor kishi uchun juda oson ish, u bir necha daqiqa ichida joriy narxlarni bilib bitim tuzish uchun buyruq berish va buyruq bajarilganligi haqidagi tasdig'ini olish mumkin. Bu juda kulay chunki, ishlab chiqaruvchi va iste'molchini, savdogarni doimo o'ziga hamokr topish ishidan xolos qilib, butun diqqat e'tiborni asosiy biznesda mujassamlashtirish imkonini beradi.

Narx tavakkalchiliklari qaltisliklari quyidagi xillarga bo'linadilar.

1. Zaxiralari mavjud tovarlar narxlari bo'yicha;
2. Yarimtayyor mahsulotlar narxlari bo'yicha;
3. Bo'lajak (Ishlab chiqarilayotgan) mahsulot narxlari bo'yicha;
4. Qat'iy narx bilan sotib olish shartnomalari;
5. Qat'iy narx bilan sotish shartnomalari;

6. Tovar ishlab chiqaruvchilar o'zlari uchun xom ashyo xarid qilishlari uchun kelajak xarid narxlar tavakkalchilagini o'z zimmasiga oladilar. Bu narx tavakkalchiligi - kelajak xarid tavakkalchiligi deyiladi.

Tavakkalchilik darajasini pasaytirish usuli quyidagi xususiyatlarga ega bo'lmog'i kerak:

- Oson (yengil) amalga oshirilishi;
- Korxona boshqaruvidagi shakllangan yengillikni buzmasligi;
- Narx tavakkalchilagini, kredit tavakkalchiligi bilan almashtirmasligi;

- Xaddan tashqari qimmatga tushmasligi kerak.

Bozorlar haqidagi axborot fyuchers birjani muhim funktsiyasi, Axborotni birja qatnashchilarini hammasi uchun bemalol olishlari imkoniyati va oshkoraliqi savdoni xalol raqobati sharoitida olib borishga majbur qiladi. Fyuchers birja ob'ektiv bo'lisi barcha tovarlar bo'yicha axborotni borligini birjachilar o'rtasidagi raqobat ta'minlaydi. Fyuchers birjalar savdodagi tovarlar narxini belgilamaydilar, ular faqat narx belgilovchi qatnashchilar savdolashuvi natijasida aniqlanadigan narxlar uchun joy masalasini xal qiladilar xolos.

Birja o'z funksyalarini bajarish uchun ma'lum sharoitlar bo'lishini ta'minlash kerak:

- operatsiyalar amalga oshiriladigan xonalarning jixozlanganligi;
- aloqa va axborot vositalari;
- tez va samarali bitim tuzish imkonini beruvchi tartib ishlab chiqish;
- bitimlar samaradorligini ta'minlovchi kliring tizimini joriy etish;
- amaldagi qonunchilikka mos bozorning hamma qatnashchilari tomonidan bajariladigan qoidalar;
- samarali fyuchers kontraktlari.

Birja savdo qatnashchilarining u yoki bu birja operatsiyalarini amalga oshirish uchun murojaat etadigan joyidir. Agar birjalar rivojlanishi boshida hamma operatsiyalar birja binosida amalga oshirilgan bo'lsa, hozirda dunyoning barcha ilgor birjalari tasarrufida keng quloch yoygan mijozlardan buyurtmalar olish xizmatlari va yagona elektron birja savdolashuv tizimi bor.

Hozirgi vaqtda birja ishchi tashkilotlarini ikki guruhga bo'lish mumkin; Markaziy va chekka joylardagi (pereferiynie) fyuchers birja vakillari.

Chekka joylardagi xizmat xodimlar mijozlarga o'sha joyni o'zida xizmat ko'rsatadilar, ya'ni mijozlardan buyurtmalari olish va birjaga ijro uchun topshirish bilan bog'liq bo'lgan xizmat turlari va boshqa xizmatlarni bajaradilar. Chekka joylardagi xizmat alohida mutaqil agent bo'lisi yoki brokerlik idoralar filiallari, bo'linmalari bo'lib, buyurtmalar qabul qiluvchi brokerlar deb ataladilar. Ularni vazifalari mijozlardan operativ-tez buyurtmalar olib, ularni rasmiylashtirishdan iborat bo'ladi. Markaziy xizmat bevosita birja imoratida joylashgan bo'ladi. Birja

imoratida markaziy xizmatlarni umumiy operatsiyalar zali, brokerlik firmalar ofislari, ro'yxatga olish byurosi va axborot xizmatlari bo'lishligi ko'zda tutiladi.

Qisqacha hulosalar:

Faqat fyuchers kontraktlar asosida savdo olib boradigan birja fyuchers birja deyiladi. Bunday birjalarining paydo bo'lishi muomala harajatlarini kamaytirish, noqulay konyunktura oqibatidagi narxlarni noxush tebranishlarini oldini olish, faoliyat uchun zarur bo'ladigan aylanma sarmoya miqdorini kamaytirish va pul ko'rinishidagi sarmoya qo'yilmalarini ko'paytirib olish imkoniyatlarini oshirish bilan bog'liqdir.

Fyuchers birjalar baholarni aniqlash, tovar bozoridagi axborotlardan oqilona foydalanish imkoniyatini oshirish, kontrakt shartlarini bajara olmaslik havfini bartaraf qilish, kontrakt shartlarini bajarish samaradorligi, bajarish imkoniyatlarini oshirish kabi funktsiyalarni bajaradi.

Fyuchers birja savdosi, real mavjud tovarlar birjasidan quyidagilar bilan farq qiladi; bitimlarni fiktiv (tovarsiz) harakteri, real mavjud tovar bozori bilan xejlash bilangina bog'liqliligi, tovar narxi va yetkazib berish muddatidan tashqari kontrakt shartlarining to'la unifikatsiyalanganligi, kontrakt sotuvchi va xaridor o'rtasida emas, balki hisob palatasi bilan bitilib, hisob palatasida ro'yxatdan o'tkazilganligi uchun fyuchers bitimlar tovarlarsiz bitilib, ham real tovar, ham valyuta, ham aksiya indekslari, ham foiz stavkalari yuzasidan bo'lishi mumkin.

Xejirlash bu mavjud tovarlar bozoridagi narx (tavakkalchiligi) qaltisliklaridagi bahoni tushib ketishini oldini olish maqsadida fyuchers bozordan foydalanishga asoslangan harakatni ifodasi deb tushunish mumkin.

Bajarilishi texnikasi bo'yicha ikki xil xejirlash mavjud:

- Qisqa xejirlash - fyuchers kontraktlarini sotish;
- Uzun xejirlash – fyuchers kontraktlarni sotib olish.

Nazorat savollari.

1. Fyuchers birjasiga deganda nimani tushinasiz?
1. Fyuchers birjasini real mavjud tovar birjasidan farqi nimada?

2. Fyuchers birjasining funktsiyalarini ifodalang.
3. Fyuchers birjasining xususiyatlari nimalardan iborat?
4. Fyuchers bozorida qanaqa bitimlar bitiladi?
5. Fyuchers bitimlarining boshqa birja bitimlaridan farqi nimalarda nomoyon bo'ladi.
6. Bitimlarning xejirlash deganda nima tushuniladi?
7. Fyuchers bitimlarni xejirlashning necha xili mavjud?
8. Fyuchers bitimlari tovar birjasidagi bitimlar bilan qanday bog'liqlikka ega?
9. Fyuchers bozori qanday iqtisodiy ahamiyatga ega?

Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Birja va birja faoliyati to'g'risida" gi qonuni (yangi taxrir). 2001 y. 3 qismi.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining "O'zbekistonda birja va yarmarka savdosini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari haqida"gi qarori
3. "Davlat xaridlari tizimini optimallashtirish va ularga kichik biznes sub'ektlarini jalb qilishni kengaytirish haqida" gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 7 fevral 1474 – sonli qarori
4. Каменева. Н. Г. Организация биржевой деятельности - М.: Банки и Биржи ЮНИТИ, 2002, стр. 313.
5. Дегтярева О.И. Биржевое дело - М.:МАГИСТР 2010, . 623 с.
6. Yunusov M.P. Birja va yarmarka faoliyatini boshqarish. Ma'ruzalar matni, - T., TDIU, 2005. 24-2 betlar
7. www.yarmarka.ru
8. www.uzex.com
9. www.xarid.uz.
10. www.Exchage.com

8-mavzu. Fond birjalari.

Reja:

- 8.1.Qimmatli qog'ozlar bozori.
- 8.2.Birlamchi fond bozori.
- 8.3.Ikkilamchi fond bozori.

8.1.Qimmatli qog'ozlar bozori

Har xil turdag'i qimmatbaho qog'ozlarning paydo bo'lishi qimmatli qog'ozlar oldi - sotdisi ushbu qog'ozlar bozorini boshlanishiga olib keldi. Asosiy ma'no shundaki, bu bozorda sotilgan va sotib olingan qog'oz mulkdorlik huquqi va shu mulk ba'dalidan ma'lum daromad olish huquqini berar edi. Ana shu huquq qog'ozda mujassamlangan bo'ladi.

Qimmatbaho qog'ozlar bu mulkiy ma'nodagi hujjat bo'lib, mulkdorlik huquqi ushbu hujjatsiz amalga oshirilmaydi va biror boshqa kishiga utib kolmaydi. Qimmatli qog'ozlarning asosiy xillari xissador-aksiyadorlar jamiyatlari sarmoyasida qatnashish huquqini beruvchi va ma'lum dvidend olish huquqini beradigan guvohnoma. Aktsiya va obligatsiyalar emitentlari aksiya va obligatsiya egalariga ma'lum, avvaldan belgilangan yillik foiz miqdorida daromad tulash majburiyati oladilar. Aktsiya va obligatsiyalar fond birjalari va birjadan tashqaridagi bozorda sotiladi va sotib olinadi.

Qimmatli qog'ozlarga yana tovar va pullik hujjatlar kiradi. Ular o'zlarida mujassamlashgan huquqiy kiymatini amalga oshirishlari mumkin. Bundan tashqari, qimmatli qog'ozlarga cheklar, veksellar, depozit sertifikatlar, obligatsiya ko'ponlari, konosamentlar, ombor guvoxnomalari - warrantlar va boshqalar kiradi.

Qimmatli qog'ozlar ikki xilga bo'linadi:

- birlamchi, qimmatli qog'ozlar, ya'ni emissiyasi vaqtida paydo bo'lган bozor;
- ikkilamchi, qimmatli qog'ozlar, ya'ni bozorda qayta (xatto bir necha marotaba) sotiladigan qimmatli qog'ozlar.

Emitent-qimmatli qog'oz yoki pullarni emissiya qiluvchi (muomalaga chiqaruvchi) sub'ekt. Pul belgilarini emitenti faqat davlat bo'lishi mumkin. Qimmatli qog'ozlar emitenti sifatida davlat, aksioner jamiyatlar, banklar va aynan shunday huquqiy huquqqa ega boshqa shaxslar bo'lishlari mumkin.

Qimmatli qog'ozlar ikkilamchi bozori birjada va birjadan tashqarida bo'lishi mumkin. Birjadan tashqaridagi oldi - sotdi operatsiyalari biror bir sabab tufayli birjada kotirovka qilinmayotgan qog'ozlar yuzasidan bo'lishi mumkin, (masalan banklar orqali).

Avvallari qimmatli qog'ozlar bilan birja operatsiyalari tovar birjalarida olib borilar edi. Birinchi fond birjalari XVIII asrda Buyuk Britaniyada, AQSh, Germaniyada paydo bo'ldi. XIX asrning oxiri, XX asrning boshlariga kelib fond birjalari milliy xo'jalik xayotini muhim markazlariga aylandi.

Fond birjalari huquqiy nuqtai nazardan zavod yoki magazin yoki bank kabi korxona bo'lib u xususiy yoki davlat tasarrufida bo'lishi mumkin. Frantsiya, Italiya, Ispaniya, Belgiya, Lyuksemburg kabi davlatlarda fond birjalari davlat mulki bo'lib, ya'ni davlat tashkilotlari tashabbusi bilan faoliyat yuritadilar va tartibga solinadi. AQSh, Buyuk Britaniya, Germaniya, Yaponiya kabi mamlakatlarda asosan aksiyadorlar jamiyatları ko'rinishidagi xususiy birjalar faoliyat ko'rsatadilar. Qizig'i shundaki shu birjalarning aksiyalari ko'pincha instituttsion investorlarga - bank va har xil fondlar kabi kompaniyalar - davlat tashkilotlariga tegishli bo'ladi.

8.2.Birlamchi fond bozori.

Fond birjalari fond bozorlari hisoblanadi. Birlamchi fond bozorida aksiyadorlar jamiyatları, xukumat munitsipial tashkilotlari tomonidan chiqarilgan yangi qimmatli qog'ozlar joylashtiriladi.

Fondli kiymatni hamma oladi: yakka tartibdagи investorlar, moliya-kredit institutlari, pensiya fondlari, davlat muassasalari va korporatsiyalari, sug'urta kompaniyalar. Investitsiya qiluvchi fondlar va qimmatli qog'ozlarni joylashtirish

bilan (xukumat obligatsiyalaridan tashqari) odatda emissiya sindikatlarini barpo qiluvchi investitsion banklar shug'ullanadilar. Sindikat qatnashchisi o'ziga ajratilgan xajm-miqdor doirasida chiqariladigan qimmatli qog'ozlarni mijozlar orasida avvaldan obuna qilish yo'li bilan tarqatadi.

Investitsion bank yangi chiqarilgan qimmatli qog'ozlarni joylashtirishda sarmoya resurslarini mobilizatsiya qilishni istovchilar aksiyadorlar jamiyatni va investorlar o'rtalarida vositachi vazifasini bajaradilar. Investitsiya banki raxbariyati jamiyat rahbariyati hamkorligida mobilizatsiya qilinishi zarur bo'lgan pul miqdorini, muomalaga chiqarilishi mo'ljallangan qimmatli qog'ozlar xilini, ularni chiqarish va joylashtirish usullarini aniqlab oladilar.

Ko'pgina xollarda investitsiya banklari yangi chiqarilgan qimmatli qog'ozlarni hammasini sotib olib, keyinchalik o'zlarini qayta sotadilar. Bunday xollarda aksiyanterlik jamiyat va investitsiya banklari o'rtasida emissiya bitimi imzolanadi. Bu bitimga muvofiq yoki xaridor yoki qimmatli qog'ozni sotuvchi agent bo'lishi mumkin. Agar investitsion bank xaridor sifatida harakat qilsa aksiyador jamiyat - emitentga qimmatli qog'oz sotuvidan tushgan hamma pulni berish kafolatini o'z zimmasiga olishi kerak. Boshqacha qilib aytganda bank sotilmay kolgan har qanday qog'oz uchun masuliyatni o'z zimmasiga oladi.

Investitsiya banki agent sifatida, u boshqacha harakat qilishi mumkin. Emissiya bitimiga muvofiq o'z zimmasiga mumkin qadar ko'p, yangi chiqarilgan qog'ozlar sotish majburiyatini olsada, xech qanday moliyaviy javobgarlikni o'z zimmalariga olmasliklari ham mumkin. Yangi chiqarilgan aksiyalar sotishni bitimda ko'rsatib o'tilgan ma'lum (bir necha kun yoki xaftha) muddat ichida amalga oshiriladi. Xullas bank o'z zimmasiga yangi chiqarilgan qog'ozlarni sotishni rezerv kanali vazifasini bajarish majburiyatini olishi mumkin. Bunday xollarda aksiyador jamiyat emitent yangi chiqarmani o'zi joylashtiradi, lekin bank bilan kelishuvga muvofiq bu ishga bankni ham jalb qilishi mumkin. Hamma emissiya bitimlarida odatda bozordan chiqish qoidalari ko'zda tutiladi. Unda bitim noxushliklar oqibatida bekor qilinishi, fond bozorida axvol keskin yomonlashuvi, korxona moliyaviy ahvolini yomonlashuvi, hukumat tomonidan emitent yoki investitsiya bankini harakatini cheklovchi qonunlar qabul qilinishi ko'zda tutiladi.

Bitta investitsiya bankiga yangi chiqarilgan aksiyalar miqdori xaddan tashqari ko'plik qilgan xollarda, bank boshqa investitsiya banklari bilan emissiya sindikatlari tuzishi mumkin. Bunday sindikatlar ikki xil tamoyilda harakat qilishlari mumkin. *Birinchisi* (ko'p tarkalgan) alovida hisob tamoyili, bunda sindikat a'zolari sotgan qismi va xissalari doirasidagina mas'uldirlar. Masalan yangi chiqarilgan 100 mln sum aksiyani 20 % sotish uchun bitim imzolangan bulsa firma faqat 20 mln sumlik miqdordagi aksiyalar uchungina javobgar, shuning uchun 20 mln sumdan tashqari aksiyalardan keladigan daromaddan xech kancha xissa ololmaydi.

Ikkinci printsipda, sindikat a'zosi ham o'zini xissasi, ham ushbu sindikatning boshqa a'zolari xissalari uchun ma'suliyatni o'z zimmasiga oladi, bu umumiy hisob tamoyilidir.

Agar asosiy emissiya sindikatlari chiqarilgan hamma chiqarilmani o'zlari sotish imkoniyatlari bo'lmasa, ular firma fond dillerlaridan iborat sotish guruhini tuzadilar, emissiya sindikati a'zolaridan farqli o'laroq guruhlar qog'ozlarni sotib olmaydi va o'z zimmasiga xech qanday moliyaviy javobgarlik olmaydilar va faqat sindikat tomonidan yoki o'zlari aniqlagan miqdorda yangi chiqarilma xissasini ma'lum marja mukofot – to'lov evaziga sotib beradilar.

Yangi aksiyalarni muomalaga chiqarishga tayyorgarlik uch bosqichdan iborat bo'ladi: Emissiya oldi majlislari, sovush davri, ro'yxatga olish.

Har qanday yangi qimmatli qog'oz chiqarilishi ro'yxatga olishdan boshlanadi, buning uchun ro'yxatga olishni so'rab, maxsus ariza beriladi (uni tayyorlashda Emitent kompaniya bilan emissiya shartnomasi imzolagan investitsiya banki yaqindan yordam beradi). Yangi chiqarilma ro'yxatdan o'tkazishda davlat boj to'lovlarini undiriladi. Maxsus ariza berilgandan so'ng "Sovush" davri keladi, odatda u 20 sutka bo'ladi. Amalda bu muddat qog'oz investorga sotish kunigacha cho'ziladi. Bu vaqt mobaynida maxsus tanishuvnomasi prospektlari investorlar uchun chiqarilib, unda investorlarni emitent takliflari bilan tanishtiriladi. Bu prospektda emitent sindikat raxbariyati (emitent yuristi, bosh hisobchisi, va kompaniya direktori, shaxsi, manzili), obuna bo'lish shartlari haqidagi ma'lumotlar bo'lib, emissiya narxi va shartlari haqidagi ma'lumotlar bo'lmaydi. Sovush davrida, ro'yxatga olish arizasi tekshiriladi, prospektga ravshanlik kiritiladi va potentsial

investorlarga jo'natiladi. Emitent va garant o'rtasidagi chiqarilma shartlari bo'yicha imzrolanadigan shartnomalar shartlari aniqlanadi. Yangi chiqariladigan aksiyalarni pirovard narxlari, marja kafolati va boshqalar aniqlanadi. Bu davrda emissiya sindikatini xohlagan a'zosi hech qanday moliyaviy oqibatlarsiz undan erkin chiqishi mumkin. Bundan keyin chiqish imkoniyati to'xtatiladi.

Ko'p kompaniyalar bitta, markazashtirilgan yig'ilish o'rniga, mamlakatning turli qismlarida brifing va axborot yig'ilishlarini o'tkazib, ularda kompaniya rahbariyati investitsiya qilish mumkin bo'lgan potentsial investorlarni savol va shartlariga javob beradilar.

Yangi chiqarilgan aksiyalarni sotish, aksiyalarga qiziqish bildirgan investorlarga o'z buyurtmalarini yuborishlarni iltimos qiluvchi xatlar jo'natishdan boshlanadi.

Butun obuna investitsiya banki yoki emissiya sindikatining menejeriga kelib tushadi. Agar yangi chiqarilmaning hammasiga obuna qilinsa, sindikat sotuvni to'xtatadi. Dillerlar hamma chiqarilgan aksiyalar uchun obuna bo'lishgan bo'lsa ham, bu xali hamma qog'ozlar sotildi degan gap emas.

Agarda potentsial investorlarni qiziqishlari kutilganidek yuqori bo'lmasa, chiqaruvni (me'yorlash) stabillash chorralari qabul qilinadi. Emissiya shartnomasiga muvofiq aksiyalarni joylashtirishga kafillik beruvchi sotilmagan qog'ozlarini yoki sotib bo'lingan qog'ozlarni o'zi sotib olishga tayyor bo'lish kerak.

Agar yangi chiqarilmaga bo'lgan talab taklifdan ancha yukori bo'lsa, chiqarilma "qaynoq" deyiladi. "Qaynoq" qog'ozlar narxlari shu zaxotiyoq ko'tarilib ketadi va ikkinchi marotaba qo'shimcha narx bilan sotilishi mumkin. Bu holda joylashtirish garanti ko'pincha haqiqiy boridan ko'p qog'oz joylashtiradi yoki sotadi, keyin qayta sotishga chiqarilgan qog'ozlarni o'zi sotib oladi va o'z moliyaviy ahvolini to'g'irlab oladi.

8.3.Ikkilamchi fond bozori.

Qimmatli qog'ozlarni birlamchi bozori - emissiya paytida ularni investorlar tomonidan sotib olinishidir. Ikkilamchi bozor esa avval chiqarilgan qog'ozlarni oldi-sotdi bitimlari. Ular fond birjalarida yoki birjalardan tashqarida amalga oshirilishi mumkin.

Fond birjalarini va birjadan tashqaridagi qimmatli qog'ozlar bozorlari birlarini uzviy to'ldirsalarda, bir vaqtin o'zida o'zaro raqobatchidirlar. Obligatsiyalar savdosida birjadan tashqaridagi bozor birja mexanizmini to'ldiradi, birja va aksiyalarni savdosida birjadan tashqari bozor o'zaro konkurent hisoblanadilar.

Birja savdosini amalga oshirish uchun birja yuqori malakali xodimlar shtatiga ega bo'lishi lozim.

Birja bitimlari fond qimmatlari bilan bank operatsiyalari kabi bir xil emas. Birja bitimlari deganda, birja binosida belgilangan birja ish vaqtida tuzilgan va birjada muomalaga va kotirovkaga yo'l qo'yilgan, almashtirsa bo'ladigan fond qimmatlari uning predmeti bo'lgan savdo bitimlari tushuniladi. Birja bitimlari bevosita rasmiy kurs makleri yoki diler, yoki birja vakili bo'lgan, birja savdosini tashkil etuvchi va kotirovkalarni e'lon qiluvchi boshqa shaxs ishtirokida tuziladi.

Birja jarayoni texnologiyasi quyidagi printsipial sxemaga ega. Har bir birja mustaqil ravishda bitim tuzish reglamentini belgilaydi. Biroq, birja kotirovkaga yo'l qo'yilgan qimmatli qog'ozlarning narx darajasi va chegarasini belgilashga haqli emas. Shu bilan bir paytda birjada bitim tuzish tartibi investitsion qimmatli qog'ozlar bilan bitimlarga quyidagi umumiy talablarga tayanadi: investitsion qimmatli qog'ozlarli bitimlar yozma shaklda tuzilishi va bu bitimni tuzayotgan shaxslar belgilangan muddat davomida bu hujjatlarni o'zida saqlashi, birinchi talab bo'yicha ularni moliya organlari va soliq xizmati vakolatli xodimlariga taqdim etishlari shart.

O'zbekiston Respublikasining qonun hujjatlariga ko'ra, **fond birjası** — ochiq va oshkora birja savdolarini oldindan belgilangan vaqtida va belgilangan joyda o'rnatilgan qoidalar asosida tashkil etish hamda o'tkazish orqali faqat qimmatli qog'ozlar savdosi uchun sharoitlar yaratuvchi yuridik shaxs.

Fond birjası qimmatli qog'ozlar bilan birja faoliyatini yuritish uchun litsenziyaga ega bo'lishi kerak. Fond birjalarining muassisulari bo'lib qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish uchun ruxsatnomaga (litsenziyaga) ega bo'lgan yuridik va jismoniy shaxslar qatnashishi mumkin. Davlat hokimiyati va boshqaruvi

idoralari, ularning xodimlari va mutaxassislari birjalarning muassislari sifatida ishtirok etishi mumkin emas.

Fond birjasida qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar quyidagi asosiy tamoyillarga muvofiq amalga oshiriladi:

- birja savdolarining ishtirokchilari, shuningdek, birja xizmatchilari tomonidan qonunchilik va birja qoidalariga qat'iy rioxva qilinishi;
- birja savdolarining barcha ishtirokchilari uchun teng sharoitlar yaratilishi;
- birja savdolari o'tkazilishini oldindan belgilangan joyva yil bilan reglamentlash yo'li orqali ushbu savdolarning reglamentlanishini ta'minlash;
- tuziadigan bitimlarning ixtiyoriyligi;
- amalda yuzaga kelgan talab va taklif asosida narxni belgilash;
- birja savdolariga ruxsat etilgan qimmatli qog'ozlar haqidagi ishonchli va to'liq ma'lumotlarni zudlik bilan e'lon qilish hamda birja savdolari ishtirokchilarini birja bitimlarining narxlari to'g'risida xabardor qilish;
- qonun yo'li bilan talab etiladigan birja axborotini taqdim etish va e'lon qilish;
- tovlamachilik, narxlar bilan nayrangbozliklar qilinishi, qasddan noto'g'ri axborot berilishining taqiqlanishi va ta'qib qilinishi va h. k.

Birjada quyidagilar taqiqlanadi:

- qalbaki, sun'iy qisqa muddatli bitimlarning tuzilishi;
- monopoliyaga qarshi siyosatni yuritishga vakil etilgan organ bilan oldindan kelishuvlarsiz bir-birining mulkini nazorat qiluvchi bir shaxs yoki shaxslar guruhi tomonidan biror-bir emitent aksiyalarining 35 va undan ortiq foizini ta'minlovchi yoki aksiyadorlar ovozlarining 50 foizidan ortig'ini ta'minlovchi aksiyalami xarid qilish hamda bitimlarni ro'yxatga olish;
- bir shaxs tomonidan bevosita yoki baholar kotirovkasiga ta'sir ko'rsatishni maqsad qilgan soxta shaxs orqali qimmatli qog'ozlarni sotib olish (sotish) bo'yicha koiamli bitimlarning tuzilishi;
- qimmatli qog'ozlar bozori konyunkturasining sun'iy ravishda o'zgarishiga olib kelishi mumkin bo'lgan yolg'on xabarlarni tarqatish va qimmatli qog'ozlar bilan savdolar qilishning asosiy tamoyillariga hamda amaldagi qonun huijatlariga zid bo'lgan boshqa harakatlar.

Fond birjalari o'zini o'zi tartibga soluvchi tashkilotlar jumlasiga kiradi. Bu shuni anglatadiki, birjalar qimmatli qog'ozlar bilan birja savdolari qoidalarini, birjaning tarkibiy tuzilmalari, ularning a'zolarining ishini tartibga soluvchi hujjatlarni mustaqil ravishda ishlab chiqadi va tasdiqlaydi, biroq bularning barchasi qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risidagi amaldagi qonun hujjatlari doirasida amalga oshirilishi lozim. Xususan, birja operatsiyalarining qoidalari majburiy tartibda quyidagi ta'riflarni nazarda tutishi kerak:

- muayyan birjada qimmatli qog'ozlar bilan savdo-sotiq qilish tamoyillari;
- birja savdolari ishtirokchilarining tarkibi va ularga nisbatan qo'yiladigan talablar; birja yig'ilishlarining joyi va yili haqida axborot;
- qimmatli qog'ozlarning birja savdolariga ruxsat etilishi tartibi;
- birja bitimlari;
- mijozlarning brokerlarga topshiriqnomalari (buyruqlari)ning turlari;
- savdolarni tashkil etish;
- bitimlarni ro'yxatga olish va rasmiylashtirish tartibi;
- bitimlarni tuzishda foydalilaniladigan shartnomalar, arizalar, hisobotlar, xabarnoma shakllari va boshqa birja hujjatlarining namunalari.

Birja savdolarining ichki qoidalari, birjaning ustavi majburiy tartibda O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga soluvchi organ bilan kelishilishi zarur.

O'z vazifalarini bajarish uchun fond birjalari:

- birja a'zoligiga kirish uchun zarur bo'lgan investitsiya muassasalariga nisbatan qo'yiladigan majburiy talablarni belgilashi; savdolarda birja a'zolarining vakillariga qo'yiladigan malaka talablarini belgilashi;
- ekspert, malaka, kotirovka, bahslarni hal etish uchun nizolar bo'yicha komissiya, maslahat va ma'lumotnomalar byurosini tashkil etishi;
- kirish va joriy a'zolik badallari, bitimlarni ro'yxatga olish, texnik xizmatlar, birjaga doimiy va bir martalik kelib ketuvchilarning tashrifi uchun to'lovlarni belgilashi va undirib olishi;
- ustavni, savdolar qoidalari buzganlik uchun, ro'yxatga olish yig'imlarini o'z yilida to'lamanlik uchun jarimalarni undirib olishi;

— birja qo'llanmalari, ma'lumotnomalari, to'plamlarini nashr qilishi mumkin.

Qimmatli qog'ozlar bozorida birja faoliyati fond birjasining maxsus faoliyat turi bo'lganligi bois qonunchilik bilan uning daromad manbalari qat'iy reglamentlangan. Chunonchi, birja faoliyatini moliyalash o'z aksiyalarini, paylarini, brokerhk joylarini sotish, muntazam a'zolik badallari, birja bitimlarini ro'yxatga olishdan tushgan yig'imlar, qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarda vositachilik qilganlik uchun vositachilik haqlari, shuningdek, axborot va ayrim boshqa xizmatlardan olingan daromadlar hisobidan amalga oshirilishi mumkin.

Fond birjasining tashkiliy asoslari. 1991-yilning bahorida O'zbekiston hukumatining qarori bilan respublika tarixida birinchi «Toshkent» O'zbekiston Respublikasi tovar-xomashyo biriasi tashkil etildi. O'sha yilning yoziga kelib u tovar seksiyasida savdolarni o'tkaza boshladi, qat'iy davlat narxlarining belgilanishi amaliyotidan voz kechishni nazarda tutgan bozor munosabatlariga o'tish, har bir korxona qat'iy belgilangan xomashyo yetkazib beruvchilar va mahsulot iste'molchilariga ega bo'lgan sobiq Sovet Ittifoqi rejali iqtisodiyotining o'sha davrda barbod bo'la boshlaganligi xo'jalik yurituvchi subyektlar o'zлari uchun eng ma'qui bo'lgan xomashyo yetkazib beruvchilar hamda mahsulot iste'molchilarini mustaqil ravishda topa oladigan yangi iqtisodiy vositani barpo qilish zaruratini keltirib chiqardi.

Tez orada yuz bergen sobiq Ittifoqning tarqalib ketishi davlat tomonidan tartibga solinadigan muayyan qoidalar bo'yicha tashkil etilgan mustaqil ichki bozorni jadallik bilan yuzaga keltirishning maqsadga muvofiq ekanligini tasdiqladi. Dastlab birja mas'uliyati cheklanganjamiyat shakhda barpo etildi. Qator vazirliklar, idoralar, respublikaning yirik korxonalari uning ishtirokchilari bo'lishdi. Birjaning ustav fondi 10 mln. rublni tashkil etdi. Biroq 1991-yil bahor oylarining oxiri va yoz oylarining boshida birja savdolarining shiddat bilan o'sishi birja ustav sarmoyasining oshirilishi, uning ishtirokchilari tarkibining kengaytirilishi zaruratini keltirib chiqardi.

O'sha yilning avgustida «O'zbekiston tovar-xomashyo birjasi» mas'uliyati cheklanganjamiyat «Toshkent» O'zbekiston respublika universal tovar-fond birjasi (qisqartirilgan nomi — «Toshkent» birjasi)ga aylantirildi va uning tarkibida

qimmatli qog'ozlar bozorining dastlabki rasmiy tashkiloti — Fond bo'limi ochildi. Fond bo'limi zimmasiga qimmatli qog'ozlarning uyushgan bozorini tashkil etish (fond boyliklari bilan birja savdolarini tashkil qilish), birjaning brokerlik o'rinalarini sotish, birjaning ustav sarmoyasini shakllantirish maqsadida uning aksiyalarini joylashtirish vazifalari yuklatildi.

1991-yilning sentabrida Biznes milliy universiteti bazasida «Toshkent» birjasi «Aktsiyalashtirish. Qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar» maxsus o'quv kursini tashkil etdi. Savdo zalining fond seksiyasida ishlashni xohlovchi barcha brokerlar ushbu kursda o'qishlari lozim edi. Bir yilning o'zida Fond bo'limining tarkibi shakllandi. Brokerlik joyining narxi 100 ming rublni tashkil etdi. O'sha yilning kuz oylari mobaynida me'yoriy hujjatlar paketini ishlab chiqish bo'yicha jiddiy ishlar olib borildi va bu ishlar 1992-yilning boshiga kelib tugatildi. O'sha yilda «Toshkent» birjasi Fond bo'limi to'g'risida, brokerlik joyi to'g'risida, Fond bo'limining a'zolari to'g'risida, Ekspert, Malaka, Kotirovka, Nizolar bo'yicha komissiyalar to'g'risida tasdiqlangan nizomlarga va eng asosiysi, boshqa respublikalar, shuningdek, g'arbiy Yevropa davlatlari hamda AQSH fond birjalari tajribalarini inobatga olgan holda ishlab chiqilgan qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish qoidalariga ega edi.

1992-yilning yanvarida «Toshkent» birjasining Fond bo'limi respublikada birinchi bo'lib qimmatli qog'ozlar bilan muntazam savdolarni o'tkazishga kirishdi. O'sha yili «Toshkent» birjasi Fond bo'limining qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar bo'yicha aylanmasi 26 mln. rublni tashkil qildi, bu Rossiyaning dongdor fond birjalarining xuddi shunday ko'rsatkichlari bilan taqqoslanadigan darajasi edi. Savdolarga banklarning aksiyalari, turli birjalarning fond boyliklari toifasiga kiritiladigan brokerlik joylari, shuningdek, ishlab chiqarish tijorat yo'nalishidagi dastlabki aksiyadorlik jamiyat-larining paydo bo'la boshlagan aksiyalari qo'yildi. Fond bo'limi o'sha yilda qimmatli qog'ozlar bozori ishtirokchilarining faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar bo'limgan sharoitda va o'zi yaratgan qoidalar asosida ish olib bordi. Fond bozorining respublika miqyosidagi dastlabki yirik muassasasi bo'lgan Fond bo'limi nafaqat dastlabki emitentlarva sarmoyadorlarning, balki Moliya vazirligining ham e'tiborini

tortdi. Moliya vazirligi o'sha yili endigina fond bozoriga nisbatan o'z munosabatini belgilay boshlab, uni tartibga solishga urinib ko'rdi.

Ayni paytda birjalarning soni asta-sekin o'sib bordi. Ayrim ma'lumotlarga ko'ra, faqat O'zbekistonning o'zida 1992-yilning yoziga kelib ularning soni 36 taga yetdi. Respublikada qabul qilingan «Birjalar va birja faoliyati to'g'risida»gi qonun birjalarga nisbatan zarur majburiy talablarni belgilagan holda, ularning faoliyatiga sezilarli o'zgartirishlar kiritdi. Qonunga binoan birjaning ustav fondi 50 min. rubldan kam bo'lmasligi lozim edi. Birjalar hech qanaqa tijorat tuzilmalarini tashkil qilishi mumkin emas edi. Vazirliklar, idoralar, davlat qo'mitalari va shu kabi tashkilotlar birjaning muassislari bo'lishi mumkin emas edi. Ustav sarmoyasining miqdoriga ko'ra «Toshkent» birjasи qonunchiliktalablariga javob berdi. Biroq o'sha yili bu birja ancha nomdor bo'lgan tijorat tuzilmalari katta miqdorining asosiy ta'sischisi bo'lib, bir necha yirik vazirliklar va idoralar birjaning o'zining muassisi edi. Bu birjalar to'g'risidagi yangi qonunga zid keldi. 1992-yilning oxirida «Toshkent» birjasи «O'zbekinvest» — O'zbekiston moliya-investitsiya kompaniyasi» aksiyadorlik jamiyatiga aylantirildi va u yangi birja — «Toshkent» O'zbekiston Respublikasi tovar-fond birjasи mas'uliyati cheklangan jamiyatning muassisi bo'lib qatnashdi. Yangi birjaning tarkibida Fond bo'limi tashkil etilib, bu bo'lim tashkiliy-me'yoriy jihatdan hech bir o'zgarishlarga duch kelmadi. Yangi birja amaldagi qonunchilikning barcha talablariga javob berdi. Ta'sis hujjatlarining shartlariga ko'ra eski birjaning barcha a'zolari to'g'ridan to'g'ri yangi birjaning a'zolari maqomini oldi.

Fond bo'limining «solnoma»sida quvonchli va ayanchli sahifalarni uchratish mumkin. Biroq O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozorining tarixidan u joy oldi, chunki O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994-yil yanvardagi Farmoniga muvofiq, 1994-yil 8-aprelda uning negizida uning nomini, avvalgi belgisini — bir o'rakchli tuya (matonatlilik va chidamlilik ramzi), fond birjalari faoliyat ko'rsatishining mumtoz tamoyillariga asoslangan operatsiyalarni amalga oshirish qoidalariiga amal qilish an'analarini saqlab qolgan «Toshkent» Respublika fond bijasi tashkil etildi.

O'z faoliyatining dastlabki kunlaridan boshlab birja tarmoq dasturiy mahsulotlarini yaratishga ixtisoslashtirilgan tashkilotlarni jalb etish bilan

savdolarning elektron birja tizimini barpo etish, shuningdek, aksiyalashtirish va aksiyalarni xarid qilish orqali mablag'larni milliy iqtisodiyotga investitsiya qilishni tashviq etish bo'yicha faol ishlarni boshlab yubordi.

Barcha fond birjalarida bo'lgani kabi, savdolarda ishtirok etish uchun faqat Moliya vazirligining qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish huquqini beruvchi maxsus litsenziyasiga ega bo'lgan birja a'zolariga ruxsat etildi. Faoliyatining dastlabki yilida «Toshkent» RFB o'z qo'l ostiga 250 nafar a'zolarni, shu jumladan, AQSH, Germaniya, Rossiya, Pokiston davlatlarining vakillarini birlashtirdi, ularning deyarli to'rtdan bir qismini xususiy shaxslar tashkil etdi. Birja a'zoligiga kirish shartlari brokerlik joyining sotib olinishini va muntazam a'zolik badallarining to'lanishini nazarda tutdi. Qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar qilish qoidalarida savdolarda birjada ro'yxatga olingan har bir brokerlik idorasidan uning to'rtta vakili ishtirok etishiga ruxsat berildi, ushbu vakillardan ikkitasi bitimlarni tuzishda imzo chekish huquqiga ega edi. Sarmoyadorlar va jamoatchilik narxlar kotirovkasi to'g'risidagi axborotni informatsion lavha va birja axborot byulletenlari yordamida olishi mumkin edi. Umumiyligi va maxsus birja xizmatlaridan tashqari, fond birjasida doirasida malaka, ekspert, kotirovka, nizolar bo'yicha komissiyalar va makleriat faoliyat ko'rsatdi. Malaka komissiyasi brokerlarning malakasini va ularga qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar o'tkazish uchun ruxsat etilishi mumkinligini belgilab berar edi. Kotirovka komissiyasi qimmatli qog'ozlar kotirovkasini o'tkazish bilan birga, birja axborot byulletenlarini tuzar edi. Nizolar bo'yicha komissiya esa, savdolar o'tkazilishi yilida yuzaga kelgan tortishuvlarni, shuningdek, bitim tuzilganidan keyin, birja shartnomalarining bajarilishi jarayonida sodir bo'lgan bahslarni hal qilib berardi. Makleriat savdolarni tayyorlash, tashkil etish va o'tkazish ishlarining bajarilishini ta'minlab turardi.

O'sha yilda Ekspert komissiyasi alohida rol o'ynadi. Ya'ni u aksiyalarga ekspert bahosini berish bilan birga, ularning kotirovkaga va birja savdolariga kiritilishiga ruxsat etilishini amalga oshirdi. «Toshkent» Respublika fond birjasida savdolar o'tkazishning qoidalariga binoan, barcha emitentlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyati va investitsion jozibadorligi puxta tahlil qilinib, uning natijalariga ko'ra ekspert

komissiyasi mazkur emitentning aksiyasini savdolarga taqdim etilgan qimmatli qog'ozlar ro'yxatiga kiritish yoki kiritmaslik haqida qaror qabul qilardi.

Qimmatli qog'ozlar savdolariga ruxsat berish tadbiri quyidagi tarzda amalga oshirildi. Emitent birjaga uning qimmatli qog'ozlarini ro'yxatning ma'lum bo'limiga kiritish to'g'risidagi ariza bilan murojaat etib, ushbu arizaga listing bo'yicha komissiya uchun korxona faoliyati bilan tanishib chiqish va uning moliyaviy ahvolini baholash imkonini beruvchi hujjatlar to'plamini ilova qilardi. Listing bo'yicha komissiya tarkibiga birja a'zolarining vakillari, shuningdek, chetdan jalb etilgan buxgalterlik hisobi va moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tahlil qilish, bank ishi, fond bozorini qonun jihatdan tartibga solish sohasidagi ekspertlar kiritildi.

Barcha emitentlar to'rt guruhga bo'linadi:

«A» ro'yxat — birja tomonidan talab etiladigan ko'rsatkichlar darajasiga ega bo'lgan emitentlar.

«B» ro'yxat — «A» guruhi uchun ro'yxatdagi darajadan past ko'rsatkichlarga ega bo'lgan, lekin listing to'g'risidagi iltimosnama bilan murojaat etgan va ma'lum muddat ichida o'z ko'rsatkichlarini «A» guruhi darajasiga yetkazishga qodir bo'lgan emitentlar.

«C» ro'yxat — «B» guruhi uchun ro'yxatdagi darajadan past ko'rsatkichlarga ega bo'lgan, lekin ma'lum muddat ichida o'z ko'rsatkichlarini «B» guruhi darajasiga yetkazishga qodir bo'lgan emitentlar.

«D» ro'yxat — qimmatli qog'ozlari bo'yicha bir martalik tartibda birjada muomalaga chiqarilishi mumkin bo'lgan boshqa emitentlar.

Bunday ro'yxatning mavjud bo'lishi respublikada qimmatli qog'ozlar bozori endigina rivojlana boshlangani bilan izohlanardi. Shuning uchun «D» ro'yxatga «A», «B» va «C» ro'yxatlariga kiritilmagan emitentlarning aksiyalari kiritilishi lozim. Quyidagi ko'rsatkichlar listingning mezonlari hisoblanadi:

- birjada qimmatli qog'ozlar sotilishining tezligi va miqdori;
- real aktivlar miqdori;
- qimmatli qog'ozlar soni yoki aksiyalar (aksiyalar paketlari) egalarining soni;
- jalb etilgan sarmoyaning umumiyligi;
- daromadlilik (foydalilik);

— emitentning moliyaviy ahvoli.

Bunda listing ro'yxatiga kiritilgan emitentlar ular faoliyatining o'ziga xos xususiyatlarini inobatga olgan holda quyidagi guruhlarga bo'lingan:

- a) ishlab chiqarish korxonalari;
- b) tijorat banklari;
- d) investitsiya fondlari (kompaniyalar).

Aktsiyadorlik jamiyatining moliyaviy ahvoli va investitsion jozibadorligi 41 ta ko'rsatkich asosida amalga oshirildi. Bunga umumiqtisodiy ko'rsatkichlar, balans likvidligining ko'rsatkichlari, likvidlik koeffitsiyentlari, moliyaviy barqarorlik ko'rsatkichlari, moliyaviy koeffitsiyentlar, aktivlarni boshqarish ko'rsatkichlari, foydalilik (rentabellik) ko'rsatkichlari, aksiyadorlik jamiyatini boshqarish samaradorligining ko'rsatkichlari va hokazolar kiradi. Tahlil qilish uchun kompyuter dasturi ishlab chiqilgan edi. Tahlil natijalariga ko'ra «Toshkent» Respublika fond birjasining birja axborot byulleteniga kiritiladigan, «A» va «B» guruhidan joy olgan emitentlardan tarkib topgan aksiyadorlik jamiyatlarining ro'yxati tuzilib, bu ro'yxat «Biznes-Vestnik Vostoka» gazetasida har haftada e'lon qilinib borildi. Hozirgi kunda ushbu ma'lumotlarni «Toshkent» RPBning maxsus sayti va «Birja» gazetalari e'lon qiladi.

1995-yilda «Toshkent» RFB Andijon, Samarqand, Buxoro shaharlarida, keyinchalik esa respublikaning boshqa viloyatlari markazlarida o'zining sho'ba bo'linmalari tarmoqlarini tashkil etdi. Bu bo'linmalar mintaqalarda birjaning manfaatlarini namoyon qilish, brokerlik joylarini mustaqil ravishda sotish va bitimlarning mahalliy ishtirokchilari tomonidan to'lanadigan vositachilik yig'imlaridan tushadigan daromadlarning bir qismiga egalik qilish huquqini qo'lga kiritishdi. 1995-yilning yozida birja savdolarini o'tkazish tizimi tubdan o'zgardi.

Fond birjasining viloyatlardagi hududiy bo'linmalarining soni o'sishi munosabati bilan savdolar Toshkent shahridagi Markaziy telegrafda buning uchun maxsus jihozlangan aniq yil mobaynidagi selektor so'zlashuvlar zalida o'tkazila boshlandi. Selektor tizim tufayli savdolarda respublikaning deyarli barcha viloyatlari brokerlari ishtiroketishdi. Bunda birjaning mintaqaviy bo'linmalari mintaqadagi savdolar

ishtirokchisining bitimni tuzish bo'yicha amaldagi harakatini tasdiqlovchi savdolar tashkilotchisi rolini bajardi.

1996-yilning mart-aprel oylarida «Toshkent» Respublika fond birjasi o'z joyini o'zgartirdi va yangi binoda faoliyat ko'rsataboshladi. Ushbu yilga kelib Birja savdolarining elektron tizimini yaratish bo'yicha ishlar tugatilib, 1996-yilning bahoridayoq birja uning mintaqaviy bo'linmalaridagi maydonchalarining terminallarini qo'shish bilan bevosita asosiy savdo zalidagi 84 ta terminaldan foydalangan holda aniq yil mobaynida savdolarni o'tkaza boshladi.

Fond birjasida birja jarayonini printsipial tashkil qilish quyidagi ko'rinishga ega bo'ladi: birinchi bosqich - qimmatli qog'ozlar sotish va sotib olishga buyurtmalarni rasmiylashtirish va ro'yxatga olish, ikkinchi bosqich – buyurtmalarni birja savdosiga kiritish va birja savdosiga jarayonida bitim tuzishda uni bajarish, uchinchi bosqich – birjada birja bitimini ro'yxatga olish va bitimlar bo'yicha hisob-kitoblar.

Birja bitimlari ularni bajarish riskiga qarab kassa bitimlari va muddatli bitimlarga ajratiladi.

Birjada quyidagi birja bitimlari amalga oshirilishi mumkin:

- bevosita bitimlar - qimmatli qog'ozlar va shuningdek, ularning xosilalarini sotib olish va sotish bitimlari;
- repo bitimlari - qaytarib sotib olish sharti ko'zda tutilgan qimmatli qog'ozlarning oldi-sotdi bitimi.

Shuningdek, repo kelishuv - bu tomonlar ishtirokida repo bitimini amalga oshirish uchun tuziladigan kelishuv bo'lib, ushbu bitimning narxi va o'zga shartlarini, shuningdek, muddatlarini belgilaydi.

Birja a'zolari o'rtasidagi bitim uni savdo tizimida qayd etish va maxsus hisob registrida ro'yxatdan o'tkazish orqali tuziladi. Birja bitimlari birja nomidan va hisobidan amalga oshirilishi mumkin emas. Birja a'zolari bitimlarni o'z nomidan va o'z hisobidan yoki mijozlarning topshirig'i bo'yicha amalga oshirishlari mumkin.

Topshiriq shartnomasi yoki komissiya shartnomasi birja a'zolari tomonidan mijozlar topshirig'i bo'yicha bitimni amalga oshirish uchun asos bo'ladi. Tuziladigan

topshiriq shartnomalari va komissiya shartnomalarining muhim shartlari mazkur Qoidalarda ko'zda tutilgan talablarga to'g'ri kelishi lozim.

Birjada qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organida davlat ro'yxatidan o'tgan, Markaziy depozitariyda ro'yxatga qo'yilgan, «Toshkent» RFBning rasmiy birja byulleteni to'g'risidagi Nizomga ko'ra qimmatli qog'ozlar rasmiy birja byulleteniga kiritilgan hamda joylashtirish va (yoki) muomalada bo'lish jarayonida bolgan emission qimmatli qog'ozlarning savdolarga qo'yilishiga ruxsat beriladi.

Birjada joylashtirilayotgan va muomalada bo'layotgan qimmatli qog'ozlar qiymati O'zbekiston Respublikasining milliy valyutasida ifodalanadi va to'lanadi, qonunchilikda ko'zda tutilgan hollarda esa chet el valyutasida to'lanadi. Rasmiy birja byulletenidagi qimmatli qog'ozlar listing kompaniyalarining qimmatli qog'ozlari va listingdan tashqari kompaniyalar qimmatli qog'ozlariga bo'linadi.

Rasmiy birja byulleteni rasmiy birja listingi va listingdan tashqari kompaniyalarining qimmatli qog'ozlarini o'z ichiga oladi. Listingdan tashqari kompaniyalarining qimmatli qog'ozlariga quyidagilar kiradi:

a) listing talablariga to'g'ri kelmaganligi sababli listing jarayo-nidan o'tmagan emitentlarning qimmatli qog'ozlari;

b) birja Qoidalariga muvofiq ravishda ekspertizadan o'tmagan holda birjaga joylashtirish va muomalada bo'lish uchun buyurtma berilgan qimmatli qog'ozlar;

d) delisting natijasida rasmiy birja listingidan chiqarilgan emitentlarning qimmatli qog'ozlari.

Ekspertizadan o'tmagan holda birjaga joylashtirish va muomalada bo'lish uchun buyurtma berilgan qimmatli qog'ozlarga quyidagilar kiradi:

a) Davlat mulki qo'mitasi tomonidan sotuvga qo'yilgan davlat aktivlari (aksiyalari);

b) joylashtirish vaqtida sotuvga qo'yilgan aksiyalar;

d) birjada muomalada bo'lish uchun egalari tomonidan qo'yilgan aksiyalar;

e) baholovchi tashkilot tomonidan oldindan baholanishi majburiy bo'lgan qimmatli qog'ozlarni sotish bo'yicha maxsus savdo maydonchasiga qo'yiladigan qimmatli qog'ozlar;

f) birjada joylashtirilishi va muomalada bo'lishi uchun qo'yiladigan korporativ obligatsiyalar.

O'zbekiston Respublikasining norezidentlari tomonidan chiqarilgan qimmatli qog'ozlar qonunchilikka muvofiq davlat ro'yxatidan o'tganidan keyin ularning O'zbekiston Respublikasi hududida muomalada bo'lishi bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartib va kvotalar doirasida birjada muomalaga qo'yiladi.

Birja boshqaruvi tomonidan belgilangan tartibda ro'yxatdan o'tgan birja a'zolari birja bitimlarining ishtirokchilari hisoblanadi. Birja a'zosining faqat birjada belgilangan qoidalarga muvofiq ro'yxatdan o'tgan va ishonchnoma asosida faoliyat yurituvchi treyderlari birja a'zosi nomidan bitimlar tuzish huquqi bilan birja savdolarida ishtirok etishi uchun ruxsat beriladi.

Birja a'zosi o'zining treyderi (treyderlari) tomonidan birjada amalga oshiriladigan barcha harakatlar uchun javobgardir. Treyderlarning noto'g'ri yoki ruxsat etilmagan harakatlari natijalari uchun birja javobgar emas. Birja savdo zaliga birja savdolarida bitim tuzmaslik sharti bilan kirish uchun quyidagilarga ruxsat beriladi:

- birjaning bosh makleri;
- birja maklerlari;
- savdo tizimining belgilangan tartibdag'i faoliyatini ta'minlovchi birja mutaxassislari;
- birja boshqaruvi raisi, uning o'rinnbosarlari;
- qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organining vakolatli vakillari;
- qonunda ko'zda tutilgan tartib va hollarda boshqa shaxslar. Savdolarni vaqtinchalik to'xtatib qo'yish va to'xtatish huquqi

bilan savdolar jarayoniga tezkor aralashish huquqiga, keyinchalik o'z harakatlarini yozma rasmiylashtirish bilan, birja boshqaruvi raisi, uning o'rinnbosarlari, birjaning

bosh makleri, qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organinmg vakolatli vakillari ega.

Birja a'zolarining treyderlari Savdo tizimining ish tartibiga muvofiq mazkur Qoidalarda belgilangan tartibda savdolarda ishtirok etishlariga ruxsat beriladi.

Birja a'zosining treyderi quyidagilarga ega bo'lishi lozim:

a) qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi tomonidan mutaxassisga berilgan qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirish huquqini beruvchi I yoki II toifali malaka guvohnomasi;

b)treyderning attestatsiya sinovidan o'tganligi to'g'risidagi birja malaka komissiyasining guvohnomasi;

d) Savdo tizimida ishslash huquqini beruvchi birja malaka komissiyasining guvohnomasi;

e)birja a'zosi tomonidan berilgan tegishli ishonchnama;

f) birja a'zosi tomonidan qonunchilikda belgilangan tartibda tayyorlangan va treyderga berilgan treyderning ro'yxatga olish shtampi (treyder shtampi).

Birja a'zosi ireyderining birja savdolarida qatnashishi uchun Savdo tizimiga ulanishida uning Savdo tizimiga kirishi uchun asos bo'lgan hujjatlarning mavjudligi va huquqiy holati tekshiriladi. Birja a'zosi qonunchilik va mazkur Qoidalarda belgilangan tartibda o'z treyderlarining harakatlari (harakatsizligi) uchun javobgardir.

Bosh maklerga (maklerlarga) qo'yiladigan talablar birja makleriati to'g'risidagi Nizom bilan belgilanadi.

Qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organi vakilining vakolatlari qonunchilikka muvofiq belgilanadi.

Savdolarga qo'yish, savdo ishtirokchilarini identifikatsiyalash ustidan nazorat qilish hamda ularga qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni bajarish huquqini berish birjaning bosh makleri va birja a'zolarini ro'yxatga olish uchun mas'ul bo'lган birja bo'linmasi tomonidan amalga oshiriladi.

Savdoni o'tkazish vakolatlari va belgilangan qoidalarning talablariga rioya etilishini nazorat qilish bosh makler zimmasiga yuklatiladi. Bosh makler savdolarning o'tkazilish jarayonini boshqaradi, treyderlar bilan tezkor o'zaro aloqani

amalga oshiradi hamda savdolar o'tkazilishiga jalb qilingan birja xizmatlari faoliyatini muvofiqlashtiradi.

Bosh makler quyidagi huquqlarga ega:

- birjada amalda bo'lgan qoidalar va nizomlarning treyderlar tomonidan so'zsiz bajarilishini talab qilish;
- savdo zalidan begona shaxslarni chiqarib yuborish;
- savdolarni o'tkazish tartibini buzgan yoki ularni o'tkazishga xalaqit bergan treyderlarni zaldan chiqarib yuborish va Savdo tizimidan o'chirish;
- savdolarni o'tkazish tartibi bilan bog'liq masalalar bo'yicha axborotlarni rasmiy e'lon qilish.

Bosh maklerning majburiyatlari:

- birja boshqaruvi farmoyishlarini o'z vakolati doirasida bajarish;
- birja boshqaruvi qarori bilan tasdiqlanadigan tartibga muvofiq Savdo tizimini tayyorlash, ochish va yopish;
- reglament va mazkur Qoidalarga qat'iy amal qilgan holda savdolarni o'tkazish jarayonini boshqarish;
- bitimlar tuzilganligini tasdiqlovchi hujjatlarni, shuningdek, savdo yakunlari bo'yicha boshqa hujjatlarni imzolash;
- favqulodda vaziyatlar yuzaga kelgan holda mazkur Qoidalarga muvofiq chora ko'rish;
- savdolar jarayonida yuz beradigan buzilishlarni qayd etish va bu haqda birja boshqaruvini o'z vaqtida xabardor qilish;
- bitim tuzayotgan tomonlar o'rtasida nizolar yuzaga kelganida savdo zaliga zudlik bilan qimmatli qog'ozlar bozorini tartibga solish bo'yicha vakolatli davlat organining vakolatli vakilini va birja boshqaruvi raisini chaqirtirish;
- savdo yakunlari bo'yicha hujjatlarning hisobini va ularning saqlanishini ta'minlash;
- savdo kuni bayonnomasini tuzish;
- savdolarni o'tkazish tartibi bilan bog'liq bo'lgan birja boshqaruvming farmoyishlarini birja a'zolariga o'z vaqtida yetkazish;

- qonunchilik va mazkur Qoidalarning buzilishi holatlari aniqlangan taqdirda hujjatlarni imzolamaslik.

Bosh makler (maklerlar) tomonidan savdolar jarayonida olingen ma'lumotlar maxfiy hisoblanadi. Bosh makler savdoda ishtirok etmagan hollarda birja boshqaruvi farmoyishiga muvofiq uning vazifalarini makler bajaradi.

Birja a'zolari savdolarga kirish huquqini olish uchun birjaga quyidagi hujjatlarni taqdim etadilar:

a) birja a'zosi nomidan treyderlarga qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisi bo'yicha operatsiyalarni amalga oshirish huquqini beruvchi ishonchnoma;

b) ro'yxatdan o'tkazish varaqasi;

d) taqdim etuvchi tomonidan tasdiqlangan quyidagi litsenziyalar nusxasi:

- qimmatli qog'ozlar bozorida investitsiya vositachisi yoki investitsiya aktivlarining ishonchli boshqaruvchisi sifatida professional faoliyatni amalga oshirish uchun litsenziya;

- O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki tomonidan tijorat banklariga berilgan bank faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya;

- O'zbekiston Respublikasi Moliya vazirligi tomonidan sug'urtalovchilarga berilgan sug'urta faoliyatini amalga oshirish uchun litsenziya;

e) qimmatli qog'ozlar bozori mutaxassisining malaka guvohnomasi nusxasi.

Birjada birja a'zosi ro'yxatdan o'tganidan keyin uning treyderlariga birjaning markaziy savdo zaliga kirish uchun elektron identifikatsiya ruxsatnomasini hamda Savdo tizimiga ulanish uchun parol beradi.

Treyderlar soni birja a'zosi tomonidan belgilanadi. Birja a'zosi ro'yxatdan o'tganidan so'ng unga o'zgartirilmaydigan identifikatsiya raqami beriladi. Birja a'zosi ro'yxatdan o'tganidan keyin uning treyderlari mazkur Qoidalarda belgilangan tartibda ishchi terminallarga qo'yiladi. Savdo kuni davomida Savdo tizimiga ruxsatsiz kirish holatlarini bartaraf etish maqsadida birja a'zosini identifikatsiya'qilish uchun treyder tizimga o'zining shaxsiy parolini kiritadi.

Birja a'zosi o'z parolini o'zgartirishi uchun quyidagi hollarda birjaga yozma ravishda murojaat qiladi:

- birja a'zosining treyderi almashganida;
- parol to'g'risidagi ma'lumotning oshkor bo'lganligi holati aniqlanganda;
- treyderning parolidan foydalangan holda Savdo tizimiga ruxsatsiz kirilganida.

Treyder o'zining shaxsiy parolining maxfiyligini saqlashga majbur. U birja a'zosi bilan mehnat shartnomasini bekor qilganidan so'ng paroldan foydalanish huquqini yo'qotadi.

Treyderlar o'z parollarini oshkor qilish hamda Savdo tizimiga begona parol ostida kirish huquqiga ega emas. Ushbu qoida buzilgan taqdirda bunga yo'l qo'ygan birja a'zosining vakillari birja Arbitraj komissiyasining qaroriga qadar savdolarda ishtirok etishdan chetlashtiriladi.

Ba'zi asoslarga ko'ra vakolatlarini yo'qotgan treyderlarning ruxsatsiz harakatlarining oldini olish maqsadida birja a'zosi ushbu treyderlarga ilgari berilgan ishonchnomalarni birjadan o'z vaqtida chaqirtirib olishi va savdo tizimiga kiriladigan parolni almashtirishi shart.

Birja Savdo tizimida qimmatli qog'ozlar bo'yicha bitimlarni amalga oshirish uchun birja a'zolariga teng sharoitlarni yaratib beradi. Birja a'zolari bitimlarni quyidagicha amalga oshirish huquqiga ega:

- a) o'z nomidan va o'z hisobidan (birja a'zolari - dilerlar);
- b)komissiya shartnomasi asosida o'z nomidan o'z mijozlari hisobiga; bunda birja a'zosi bitim bo'yicha komissioner sifatida chiqadi (birja a'zolari - brokerlar);
- d)topshiriq shartnomasi bo'yicha o'z mijoji nomidan; bunda treyder bitim bo'yicha ishonchli vakil sifatida chiqadi (birja a'zolari - brokerlar);
- e)mijozning investitsiya aktivlarini boshqarish bo'yicha qimmatli qog'ozlar bilan oldi-sotdi bitimi (birja a'zolari - investitsiya aktivlarining ishonchli boshqaruvchilari).

Birja a'zosi — broker, qonunchilikda, mijoz bilan tuzilgan shartnomada va ishonchnomada topshiriqni boshqa kishilarga ishonib topshirish ko'zda tutilgan holatlarni istisno qilgan holda, unga berilgan topshiriqni shaxsan o'zi bajaradi. Birja a'zolari — brokerlar tomonidan bitimlarni amalga oshirish uchun beriladigan ishonchnoma faqat boshqa birja a'zolariga topshiriladi.

Birja a'zosi brokerlik xizmatlarini bajarish jarayonida o'z pul mablag'laridan foydalanishga haqli. Bunda ushbu mablag'lar shartnoma muddati tugaganidan keyingi o'zaro hisob-kitoblarni amalga oshirish paytida mijoz tomonidan qoplanadi.

Birja a'zosi mijoz tomonidan unga berilgan pul mablag'laridan, agar bu mijoz bilan tuzilgan shartnomada ko'zda tutilgan bo'lsa, o'z manfaatlari uchun foydalanishga haqli. Bunda u mijozga ushbu pul mablag'lari hisobiga uning topshiriqlarini bajarishni yoki ularni mijozning talabi bo'yicha qaytarishni kafolatlaydi.

Birja a'zosiga o'z manfaatlari uchun foydalanish huquqini bergan mijozlarning pul mablag'lari birja a'zosiga bunday huquqni bermagan mijozlaming pul mablag'lari saqlanadigan hisobraqamdan (hisobraqamlardan) alohida bo'lgan hisobraqamda (hisobraqamlarda) saqlanishi lozim.

Birja a'zosi o'zining pul mablag'larini ushbu hisobraqamga (hisobraqamlarga) o'tkazishga haqli emas; ularni mijozlarga qaytarish va (yoki) qonunchilikda belgilangan tartibda mijozlarga qarz berish hollari bundan mustasno.

Birja a'zosi mijoz bilan tuziladigan shartnomada quyidagi barcha muhim shartlarni ko'zda tutishi kerak:

- a) shartnoma turi - topshiriq yoki komissiya;
- b) xizmatlar turi - qimmatli qog'ozlarni sotib olish yoki sotish hamda mijoz xoxishiga ko'ra birja a'zosining vakolatlariga kiruvchi boshqa qo'shimcha xizmatlami ko'rsatish;
- d) emitentning nomi, qimmatli qog'ozlarning turi va tipi, ularning soni, nominal qiymati, sotib olish (sotish) narxi;
- e) mijozning qimmatli qog'ozlar oldi-sotdi shartnomasi bo'yicha huquq va vazifalarni o'z zimmasiga olganligi to'g'risidagi majburiyatlari;
- f) qimmatli qog'ozlarni topshirish hamda ularning to'lov muddati va usuli;
- g) Birja a'zosiga to'lanadigan haq miqdori va uni to'lash muddati;
- h) qimmatli qog'ozlarni birja savdolariga qo'yishda ushbu qimmatli qog'ozlarni sotayotgan yuridik shaxsning ustav jamg'armasidagi davlat ulushining miqdorini ko'rsatish;


- i) aksiyalarni sotib olishda bank aksiyalarining 20 foizidan va xo'jalik yurituvchi subyekt aksiyalarining 35 foizidan ortiq aksiyalar paketi ulushining shakllanishiga oiib kelish-kelmasligi;
- j) bank aksiyalarini sotib oluvchi yuridik shaxs offshor hududda ro'yxatga olingan norezidentmi yoki yo'qmi;
- k) birja savdolarida bitimlar amalga oshirilgunga qadar mijoz birja a'zosiga quyidagi hujjatlarni taqdim etishga majbur:
 - investor - xaridor tomonidan ochiq aksiyadorlik. jamiyati ustav jamg'armasining jami 15 va undan ortiq foizini tashkil qiluvchi aksiyalar paketini sotib olish niyati to'g'risidagi oldindan nashr qilingan e'lon nusxasi;
 - O'zbekiston Respublikasi norezidentlari, aksiyalarining ellik foizidan ko'pi O'zbekiston Respublikasining norezidentlari egaligida, foydalanishida va (yoki) tasarrufida bo'lgan O'zbekiston Respublikasi rezidentlari hisoblangan yuridik shaxslar hamda bank aksiyalarini xarid qiluvchilarning mablag'larini boshqaruvchilar (ishonchli vakillari) hisoblangan O'zbekiston Respublikasi rezidentlari tomonidan bank aksiyalarini sotib olishga Markaziy bankning oldindan berilgan roziligi to'g'risidagi hujjat nusxasi.
- m) mazkur Qoidalarda belgilangan birjadagi bitim va komissiya yig'imlarining to'lov muddatlari buzilgan hollarda birja akseptsiz tartibda bitimning ikkala tomoni uchun sotib oluvchi tomonidan depozitga qo'yilgan pul mablag'laridan komissiya yig'imlarini undirishini ko'rsatish;
- n) tomonlarning javobgarligi, shu jumladan, mijoz tomonidan ma'lumot taqdim etish talabining buzilishi oqibatida birjaning bitimni ro'yxatdan o'tkazishni rad etishi.

Mijoz tomonidan birja a'zosiga taqdim etilgan ma'lumotning haqqoniyligi uchun uning mijoji javobgar bo'ladi.

Qimmatli qog'ozlarni sotayotgan yuridik shaxsning ustav jamg'armasida davlat ulushi mayjud bo'lgan taqdirda, qimmatli qog'ozlarni sotish uchun baholashni o'tkazish va baholovchi tashkilotning baholash haqidagi hisobotini taqdim etish zarur.

Agar birja a'zosining mijozи томонидан барча талаб етилган хуҷатлар тақдим етимаганбо'lsa, шунингдек, bank ақсиyalарининг xаридори оғлфшор hududda ro'yxatga oлинган norezident yuridik shaxs bo'lsa, birja a'zosi topshiriq va komissiya shartnomalarini tuzishga haqli emas.

Шартноманинг мухим деб hisoblangan boshqa шартлари тараflar томонидан qonunchilikka muvofiq ravishda belgilanadi.



8-chizma. Fond birjasida bitiladigan bitimlarning asosiy turlari.¹²

«Toshkent» Respublika fond birjasi

«Toshkent» Respublika fond birjasi 1994 yilning 8 aprelida O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 1994 yil 21 yanvadagi 745-sonli «iqtisodiy islohotlarni yanada chuqurlashtirish, xususiy mulk himoyasini ta'minlash va tadbirkorlikni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi Farmoni va O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 1994 yil 26 yanvardagi 36-sonli Qaroriga muvofiq tashkil etilgan. Uning faoliyati respublikada o'tkazilayotgan islohotlar va xususiylashtirilayotgan davlat korxonalari asosida ochiq turdag'i aksiyadorlik jamiyatlari tashkil qilish siyosati bilan uzviy bog'liq.

Fond bozori iqtisodiyotda pul jamg'armalarini qayta taqsimlashning samarali tizimi hisoblanadi. Milliy kompaniyalar, o'z qimmatli qog'ozlarini sotish yo'li bilan o'z rivojlanishi uchun ichki va tashqi kapital bozoridan amalda cheklanmagan investitsion resurslar jalb etish imkoniyatiga ega. U yoki bu tarmoq yoki korxonaga investitsiyalar oqimi samaradorligi va hajmi xo'jalik sub'ektlarining bozordagi raqobatbardoshlik darajasiga bog'liq bo'ladi.

Fond birjasi qimmatli qog'ozlar bilan savdoni tashkil qilishning unda amalga oshirilayotgan operatsiyalar qonuniyligi va bir xilda ochiqligini ta'minlovchi eng rivojlangan shakllaridan biri hisoblanadi. Bundan tashqari, muntazam birja savdolari o'tkazish savdoga qo'yilgan aktivlarning real bozor qiymatini aniqlashga imkon beradi.

Hozirgi paytda qatnashchilarining shaxsan ishtirok etishini talab qiluvchi ochiq birja savdosi o'z ofisidan, ish joyidan turib savdoda qatnashishga imkon beradigan elektron rejimga o'tkazilgan. Belgilangan qoidalarga va savdoni tartibga solish tizimiga amal qilish, shuningdek, barcha qatnashchilarining bu qoidalarga amal qilishga tayyorligi majburiy tartib bo'lib qolavermoqda.

Hozirgi paytda «Toshkent» Respublika Fond birjasi respublikaning barcha mintaqalarida o'z filiallariga ega. Birjada 84 ta brokerlik idorasi akkreditatsiyalangan bo'lib, ularning treyderlari qiziqtirayotgan qimmatli

¹² Ma'lumotlar asosida mualliflar tomonidan ishlab chiqilgan

qog'ozlarni sotish yoki sotib olish bo'yicha mijozlarning har qanday topshiriqlarini yuqori professional darajada bajarishga tayyor.

1994 yil - qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar bo'yicha yillik aylanma 30 mln. so'mni tashkil qildi, birjada 13 ta brokerlik idorasi akkreditatsiyalangan.

1995 yil – brokerlik idoralari soni 83 taga etdi, ro'yxatga olingan bitimlar hajmi 1,3 mlrd. so'mdan ortdi. Samarqand, Andijon, Buharoda birinchi filiallar ochildi.

1996 yil – savdo hajmi 2,8 mlrd. so'mni tashkil etdi. Birja Respublika birja markazining yangi binosiga ko'chib o'tdi. 12 ta filialning barchasi bilan onlayn rejimida xtaftada besh marta savdo qilishga imkon beradigan umumiyl elektron savdo tizimi joriy qilindi.

1997 yil – savdo hajmi 2,3 mlrd. so'm, halqaro standartlarga mos keladigan birja standartlari qabul qilindi.

1998 yil - savdo hajmi 3,5 mlrd. so'm. "Toshkent" RFBda listing jarayoni joriy qilindi, O'zbekistonda birinchi listing korxonasiga "Buxoroteks" aksiyadorlik jamiyati aylandi. Rasmiy birja ro'yxatiga "Buxoroteks"dan tashqari to'rtta aksiyadorlik jamiyati - "Paxtabank", "O'zsanoatqurilishbank", "O'zmetkombinat" va "G'allabank". "Toshkent" RFB Evrosiyo fond birjalari Federatsiyasi Ijroiya qo'mitasining a'zosi etib saylangan.

1999 yil – aksiyalarni xorijiy investorlarga EKVga sotish bo'yicha Maxsus maydoncha ish boshladidi. Birja aylanmasi 3,8 mlrd. so'mni tashkil qildi, shundan 1,4 mln. AQSh dolari EKVga bitimlar tuzishga sarflandi.

2000 yil – fevral oyidan boshlab birjada Tasiks (Tasix) Umumiy fond indeksi hisoblab chiqilmoqda, u birja fond bozorining holatini aks ettiradi va ommaviy axborot vositalarida muntazam e'lon qilib boriladi.

Aprel oyidan boshlab uzlusiz ikkiyoqlama kimoshdi savdosi usuli bo'yicha savdo qilishga imkon beradigan elektron savdo tizimi amal qilmoqda.

Uning ishi zamnaviy web-texnologiyalarga asoslangan. Bu tizim respublika qimmatli qog'ozlar likvidli va «shaffof» birja bozorini tashkil etishga xizmat qiladi.

Qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar bo'yicha birja aylanmasi 5,3 mlrd. so'mdan ortdi, jumladan, EKVga -249,9 ming AQSh dollarri.

2001 yil – birjaning web-sayti (www.uzse.uz) ishlab chiqildi, unda birjaga doir barcha axborotlar aks ettiriladi. Listing jarayoni soddalashtirildi va oltinchi listing korxona "O'zuyjoyjamg'armabank" kiritildi. Birja aylanmasi 8,0 mlrd. so'mga, jumladan, EKVga 794,9 ming AQSh dollariga teng bo'ldi.

2002 yil - qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar bo'yicha yillik aylanma ilk bor 10 mlrd.so'mdan orshdi va 17,4 mlrd. so'mga teng bo'ldi, bitimlarda 94 ta brokerlik idoralari qatnashdi. May oyidan boshlab korporativ obligatsiyalar muomalasi bo'yicha maydoncha joriy qilindi. Obligatsiyalar bo'yicha yillik aylanma 1,2 mlrd. so'mdan oshdi. Iyunda ikqilamchi bozorda EKVga birinchi bitim tuzildi.

2002 yil birjada 1,7 mln. AQSh dollari miqdorida xorijiy valyutaaga 27 ta bitim amalga oshirildi.

2003 yil - qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar bo'yicha yillik aylanma 35,7 mlrd. so'm, jumladan, EKVga - 8,3 mln. AQSh dollariga teng bo'ldi.

2004 yil – milliy valyutada aksiyalar muomalasi sektsiyalarida 962 ta aksiyadorlik jamiyatining umumiyligi miqdori 30,3 mlrd. so'mlik 42,7 mln. dona aksiyasini sotish bo'yicha 4175 ta bitim tuzildi. 2004 yil uchun "Toshkent" RFB Umumiyligi indeksi ("TASIX") qiymati 100 punktni (2003 yil - 32 punkt) tashkil etdi. 2004 yil aksiyalar bilan eng yirik bitim birlamchi bozorda xususiylashtirilgan korxonalar sektsiyasida 3 dekabr kuni tuzildi. Toshkent sh. "O'zenergota'minlashi" 141,8 ming dona aksiyalari 1,5 mlrd. so'mga sotildi.

EKVga aksiyalar sotish bo'yicha maxsus savdo maydonchasida 2004 yil birlamchi bozorda 8 ta (2003 yil 20 ta) aksiyadorlik jamiyatining umumiyligi miqdori 4,1 mln. (6,0 mln.) dollarlik 3,1 mln. (3,9 mln.) dona aksiyasini sotish bo'yicha 15 ta (30 ta) oldi-sotdi bitimi, ikqilamchi bozorda 55 ta (23 ta) aksiyadorlik jamiyatining umumiyligi miqdori 6,6 mln. (2,3 mln.) dollarlik 3,8 mln. (1,4 mln.) dona aksiyasini sotish bo'yicha 275 ta (34 ta) oldi-sotdi bitimi tuzildi.

«Toshkent» Respublika fond birjasidagi ochiq aksiyadorlik jamiyatiga shaklida tashkil etilganligi tufayli uni boshqarish organlarining tarkibi o'ziga xos xususiyatga ega. Aktsiyadorlarning umumiyligi yig'ilishi boshqaruvning oliy organi hisoblanadi, bu faqat investitsiya muassasalari bo'lismi mumkin. Aktsiyadorlarning umumiyligi yig'ilishlari oraliq'idagi davrda birjani boshqarish bilan Kuzatuv kengashi

shug'ullanadi. Kengashning a'zolari Aktsiyadorlarning umumiy yig'ilishi tomonidan saylanadi. Birjaning joriy faoliyatini boshqarishni birja a'zolaridan tarkib topgan Boshqaruv amalga oshiradi, unga Rais boshchilik qiladi. Boshqaruv faoliyatini tekshiruvchi organ Taftish komissiyasi bo'lib, uning xulosalarisiz aksiyadorlarning umumiy yig'ilishi Boshqaruvning yillik hisobotini tasdiqlash huquqiga ega emas.

«Toshkent» RFBning barcha funksional bo'linmalarini ikki guruhgabo'lish mumkin. Birinchi guruh - bu oddiy korxonalarga xos bo'linmalardir. Bunga quyidagilar kiradi: ishlar boshqarmasi, birjaga to'lanishi lozim bo'lgan yig'imlar va to'lovlarning o'z yilida kelib tushishini nazorat qiluvchi hisob-kitob to'loving moliya boshqarmasi, huquqiy boshqarma, nashriyot xizmati, ommaviy axborot vositalari bilan ishslash xizmati va tashqi aloqalar xizmati bilan axborot boshqarmasi. Mazkur bolinmalarning vazifalari barchaga ma'lum, ya'ni istalgan boshqa xo'jalik yurituvchi subyektlarning vazifalari bilan bir xil. Ikkinci guruh - bu muayyan birja xususiyatlariga ega bo'lgan faqat fond birjalariga xos bo'lgan bolinmalar. Ularga quyidagilar kiradi:

- savdolarni tayyorlash va o'tkazish boshqarmasi, u savdolarni tashkil etishga doir amalga oshiriladigan butun chora-tadbirlar majmuasiga brokerlarni tenglashtirishdan tortib, to ular tomonidan bitimlar tuzish va tegishli hujjatlarni rasmiylashtirish bo'yicha operatsiyalarning to'liq tugallanishigacha javob beradi. Unga quyidagilar kiradi: savdolarni tayyorlash va o'tkazish xizmati, u savdolarni tayyorlash, tashkil etish va o'tkazish ishlarining to'liq jarayonini, ya'ni brokerlardan qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisiga doir talabnomalarni qabul qilishdan tortib, to maxsus dasturiy-texnik savdo majmuasi yordamida o'tkaziladigan savdolarga xizmat ko'rsatish ishlarini amalga oshiradi;

- bitimlarni ro'yxatga olish va rasmiylashtirish xizmati, u birjada tuzilgan bitimlarni ro'yxatga olish, savdo tadbirlarining yakunlovchi bosqichida ularning rasmiylashtirish ishlarini amalga oshiradi;

- XIFlar dasturiga xizmat ko'rsatish, u maxsus kompyuter dasturidan foydalangan holda xususiylashtirilayotgan korxonalar aksiyalarini XIFlarga sotish bo'yicha elektron kimoshdi savdolarining o'tkazishini tashkil etishning o'ziga xos vazifalarini amalga oshiradi;

- aksiyadorlar, birja a'zolari bilan o'zaro hamkorlik qilish va sho'ba xo'jalik jamiyatlari faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi, u aksiyadorlar bilan ishslash, birjaga a'zolikni rasmiylashtirish, brokerlik idoralarini akkreditatsiyalash, ularning pasportlarini yuritish, tashkiliy talablarga rioya etishini nazorat qilish (brokerlarda shahodatnomalarning mavjudligi, a'zolik badallarining o'z yilida to'lanishi, yil davomida brokerlik joyidan foydalanish), brokerlik joylarining ijara shartnomalarini, birja a'zolarining tarkibidan chiqishni rasmiylashtirish vazifalarini amalga oshiradi, shuningdek, birjaning mintaqaviy sho'ba korxonalarining faoliyatini nazorat qiladi;
- texnikaviy ta'minot boshqarmasi birja tizimlari xizmati, orgtexnikadan foydalanish va unga xizmat ko'rsatish hamda aloqa xizmatidan tarkib topgan.

Birja tizimlari xizmati qimmatli qog'ozlar bilan savdo qihshning amaldagi tizimining tegishlicha ishslashini ta'minlaydi, uning faoliyat ko'rsatishini nazorat qiladi, takomillashuvi ustida ish olib boradi. Birja savdo tizimlarining rivojlanishini birjaning faoliyat ko'rsatishining boshlang'ich bosqichidan (u yilda savdolar bitta binoda «ovoz orqali» o'tkazildi (1994-1995-yy.)), oraliq bosqichidan (unda savdolar «ovoz orqali», lekin selektor aloqasi orqali birjaning viloyatlardagi mintaqaviy bo'linmalarini qo'shish bilan (1995-1996-yy.)) boshlab va to hozirgi bosqichgacha (unda savdolarning elektron tizimi mavjud bo'lib, uning faoliyat ko'rsatishi zamonaviy asbob-uskuna va aloqa vositalari, shu jumladan, yo'dosh aloqasi bilan jihozlangan yagona savdo majmuasini ta'minlaydi) kuzatish mumkin.

Orgtexnikadan foydalanish va unga xizmat ko'rsatish xizmati murakkab birja savdo tizimi hamda fond birjasini ning turli bo'linmalarida mavjud bo'lgan kompyuter parkini ta'minlaydi.

Aloqa xizmati ishining o'ziga xosligi shundaki, aniq yil tizimida birja savdolarini o'tkazishda birjaning markaziy savdo zali va respublika mintaqalarida joylashgan savdo maydonchalari o'rtasida barqaror aloqa ta'minlanishi zarur. Yana shuni ta'kidlash joizki, savdo zalidagi avtomatlashtirilgan brokerlik joylari telefonlar bilan jihozlangan, ular orqali brokerlar savdolarning butun jarayoni davomida mijozlar bilan turli mavqelar bo'yicha shartlarni aniqlashi mumkin.

Ekspert-kotirovka xizmati, tahliliy xizmat va metodologiya xizmatini o'z ichiga olgan ekspert-tahliliy boshqarma tegishli ravishda qimmatli qog'ozlar narxining birja kotirovkasi, qimmatli qog'ozlari birja savdolarida kotirovka qilinayotgan yoki kotirovkaga taqdim qilingan emitentlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyatini tahlil qiladi; o'tgan savdolar haqida turli xil hisobotlar va ma'lumotlarni tayyorlash (birja aylanmalarini viloyatlar, tarmoqlar, uyushmalar, konsernlar, birlamchi hamda ikkilamchi bozorlar va shu kabilar bo'yicha guruhlash) bilan bog'liq ishlar majmuasini amalga oshiradi; yaqin va uzoq xorij fond birjalarining ish tajribalarini ham qonuniy, ham texnikaviy nuqtayi nazardan, shuningdek, uni mahalliy sharoitlarda qo'llash imkoniyatlarini tadqiq qiladi.

Fond birjasining tarkibiy tuzilmalari qatorida komissiyalar alohida o'rinn tutadi. Ular, odatda, fond birjasining xodimlari - yuqori malakali, tajribali mutaxassislaridan tarkib topadi.

Ekspert-kotirovka komissiyasi qimmatli qog'ozlarning birja savdolarida kotirovka qilinishiga ruxsat etilishi imkoniyatlarini aniqlaydi, listing, delisting, relisting va shu kabi tadbirlarni amalga oshiradi.

Malaka komissiyasi tegishli imtihonlarni o'tkazish yo'li bilan brokerlarga birja savdolarida qatnashish uchun ruxsat berish imkoniyatlarini aniqlaydi.

Nizolar bo'yicha komissiya savdolami o'tkazish, bitimlarni ijro etish jarayonida brokerlar o'rtasida, brokerlar va ularning mijozlari o'rtasida, mijozlar va birjaning mutaxassislari o'rtasida yuzaga keladigan bahsli vaziyatlarni hal etish bilan shug'ullanadi.

Intizomiy komissiya birja savdosi qoidalari, ustav va birjaning boshqa asosiy hujjatlari buzg'unchilarining aybdorlik darajasini aniqlaydi hamda tegishli jazolarni tayinlaydi, jazolarning ijro etilishini nazorat qiladi.

«Toshkent» Respublika fond birjasi respublikaning har bir viloyatida o'zining sho'ba bo'linmasiga ega.

Broker - kontragentlar haqida turli xil axborotlarni olish, birja faoliyatining ayrim jihatlari bo'yicha maslaxatlar olish imkoniyatlari, zarur huijatlardan nusxalar ko'chirish, shartnomalarni to'ldirish va rasmiylashtirish bo'yicha birja xizmatlaridan foydalanish.

«Toshkent» RFBdagi brokerlik joyi noma'lum muddatga sotib olinadi, ya'ni brokerlik joyini sotib olib (bir karralik badalni to'lagan holda) uning egasi birja tomonidan unga qo'yiladigan talablarga rioya qilgan holda birja xizmatlaridan chegaralanmagan muddatda foydalanishi mumkin. Brokerlik joyiga egalik qilishning butun yili davomida birja a'zolari unchalik katta boimagan summadagi muntazam a'zolik badallari to'lashadi. A'zolikning bunday tizimi brokerlar uchun juda tejamli sanaladi. Boshqa mamlakatlarda birjadagi a'zolikni saqlab turish uchun har oyda yoki har yili ramziy emas, balki juda katta miqdordagi badal to'lanadi.

Broker va diler (market-meyker)larning faoliyati. Birjadagi brokerlik joyi.

Savdo jarayonida muhim hisoblangan birjadagi brokerlik joyi deganda, fond birjasasi o'zining to'la huquqli a'zosiga yaratib berishi mumkin bo'lgan imkoniyatlar yig'indisi tushuniladi. Shulardan eng asosiysi - birja maydonchasida qimmatli qog'ozlarni o'z nomidan va o'z hisobidan yoki mijozlar hisobidan hamda ularning topshirig'iga ko'ra xarid qilish yoxud sotish imkoniyatidir.

So'zsiz, bundan tashqari, brokerlik joylarining egalari qimmatli qog'ozlar bozorining qolgan ishtirokchilari dan farqli ravishda, boshqa ko'pgina imkoniyatlarga ega bo'lishadi. Qimmatli qog'ozlar, ularning emitentlari, narxlari, broker-kontragentlar haqida turli xil axborotlarni olish, birja faoliyatining ayrim jihatlari bo'yicha maslahatlar (masalan, bahslarni hal etishda Nizolar bo'yicha komissiya mutaxassislarining maslahatlarini) olish imkoniyatlari, zarur hujjatlardan nusxalar ko'chirish, shartnomalarni to'ldirish va rasmiylashtirish bo'yicha birja xizmatlaridan foydalanish shular jumlasidandir.

Brokerlik. joyi sotib ohnishi, begonalashtirilishi (sotilishi, sovg'a qilinishi, meros qilinishi, ustav fondga o'tkazihshi va h. k.), ijaraga berilishi mumkin. U bo'linmaydi. Uning egasi brokerlik joyining bir qismini berishi yoki sotishi mumkin emas. Bir shaxs faqat bitta brokerlik joyiga egalik qilishi mumkin. Brokerlik joylari uchta usul bilan sotib olinadi: bevosita fond birjasidan, birja savdolari orqali, birja savdolarisiz.

Brokerlik joyini bevosita fond birjasidan sotib olish. Mazkur usul xaridor tomonidan brokerlik joyini sotib olish istagi to'g'risidagi arizaning berilishini nazarda tutadi. Birja ushbu arizani 10 kunlik muddatda ko'rib chiqadi. Boshqaruv ijobjiy qaror qabul qilgan » hollarda birja va xaridor o'rtasida shartnoma tuziladi.

Shartnomada tomonlarning huquq va majburiyatlari, bitimning ayrim boshqa shartlari kelishib olinadi. Brokerlik joyi uni xarid qilish vaqtida Boshqaruв tomonidan belgilangan narxda sotib olinadi. «Toshkent» birjasining fond bo'limi va «Toshkent» RFBning vujudga kelishi davrida aksariyat hollarda brokerlik joylari bevosita birjadan sotib olindi.

Brokerlik joyini birja savdolari orqali sotib olish. Bunday holatda brokerlik joyini sotib olishni istovchi shaxs birja savdolariga ruxsat etilgan broker bilan brokerlik joyini birja savdolarida sotib olish to'g'risida topshiriq shartnomasini tuzadi. Broker tomonidan brokerlik joyini xarid qilish to'g'risidagi topshiriq bajarilganidan so'ng xaridor brokerga (kelishuvlarga ko'ra) va fond birjasiga vositachilik haqini to'laydi. Brokerlik joylarini birja savdolari orqali sotish umumiy asoslarda «Toshkent» RFBda qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni bajarishning qoidalariga muvofiq amalga oshiriladi. Brokerlik joyini birja savdolari orqali sotishni xohlovchi shaxs fond birjasiga joyni savdolarga qo'yish haqidagi arizani, uning narxi to'liq to'langanligini tasdiqlovchi hujjat (brokerlik joyiga sertifikat), mazkur joy zamirida garov majburiyatlarining yo'qligi haqida kafolatnomani taqdim etishi, shuningdek, fond biriasini o'zining oldidagi biror-bir bajarilmagan majburiyatlarning (bajarilgan bitimlar bo'yicha vositachilik haqlari, jarimalar, penyalar va h. k.) yo'qligini tasdiqlashi zarur. Ushbu vaziyatda brokerlik joyining narxi sotuvchi tomonidan ixtiyoriy ravishda belgilanadi. Brokerlik joyining narxiga qo'shimcha qiymat solig'i ham qo'shiladi.

Brokerlik joyini birja savdolarisiz xarid qilish. Agar sotuvchi va xaridor bir-birini mustaqil ravishda topsa, oldi-sotdi bitimini rasmiylashtirish uchun brokerlik joyining birja savdolariga qo'yilishi talab etilmaydi. Ular o'rtasida birja tomonidan tasdiqlangan namunaviy shakl bo'yicha brokerlik joyining oldi-sotdi shartnomasi tuziladi. Ushbu shartnoma ro'yxatga olish va brokerlik joyini qayta rasmiylashtirish uchun birjaga topshiriladi. Bunda birjaga shartnomani birjada ro'yxatga olish vaqtida birjaning Boshqaruvi tomonidan belgilangan brokerlik joyi qiymatining o'rnatilgan miqdorida ro'yxatga olish yig'imi to'lanadi. Ro'yxatga olish yig'imi birjaga kelishuvlarga ko'ra yo sotuvchi tomonidan, yo bo'lmasa, xaridor tomonidan

to'ianadi. Ushbu holat shartnomada aks ettiriladi va bunda ro'yxatga olish yig'i mining summasi brokerlik joyining qiymatiga kiritilishi mumkin.

Fond birjasining Boshqaruvi investitsiya muassasasi sifatida faoliyat ko'rsatish uchun litsenziyaga ega bo'lмаган yoki tarkibida qimmatli qog'ozlar bo'yicha I va II toifali mutaxassisga ega bo'lмаган shaxsga, shuningdek, avval fond birjasi a'zolarining safidan chiqarilgan shaxslarga, agar chiqarilgandan buyon bir yildan ortiq vaqt o'tmagan bo'lsa, brokerlik joyini sotib olishga ruxsat bermasligi mumkin.

Brokerlik joyining bir shaxsdan ikkinchisiga oldi-sotdi bilan bog'liq bo'lмаган (o'tkazish, almashish, sovg'a qilish, meros qoldirish) asoslarda o'tkazilishida uning yangi egasi joyni o'z nomiga qayta rasmiylashtirishi shart. Brokerlik joyini qayta rasmiylashtirishda uning yangi egasi birjaga ariza, avvalgi egasining brokerlik joyiga egalik qilish huquqlarini o'tkazish asoslarini (oldi-sotdi, almashish, sovg'a qilish, ustav fondiga o'tkazish shartnomasining nusxasini), birjaga ro'yxatga olish yig'imini o'tkazganlik to'g'risida to'lov topshiriqnomasining nusxasini taqdim etishi lozim.

Brokerlik joyining narxini to'liq to'lagan xaridor birjaga a'zo bo'ladi. Brokerlik joyining avvalgi egasi birja a'zosi huquqlarini yo'qotadi.

Brokerlik joyining egasi fond birjasiga ushbu joyni o'zi sotib olishi haqidagi iltimos bilan murojaat etish huquqiga ega. Birja mazkur joyni kelishilgan narxda sotib olgan holda uning iltimosini qondirishi, yo bo'lmasa, sababini izohlamagan holda iltimosini qondirmasligi ham mumkin.

Brokerlik joyini ijara ga berish. Brokerlik joyi bir yildan ortiq muddatga o'zaytirish bilan ijara ga berilishi mumkin. Bunda ijarchi (ijaraga oluvchi) birjaning vaqtinchalik a'zosi maqomiga ega bo'ladi. Bu shuni anglatadiki, ijara davri mobaynida ijarchi birja a'zolarining yig'ilishlarida va birjaning Boshqaruvi oldida faqat brokerlik joyi egasining ishonch qog'ozni orqali fond birjasi a'zosining manfaatlarini ifoda etishi mumkin.

Ijaraga beruvchi va ijarchi bir-biri bilan birjaning boshqaruvi tomonidan tasdiqlangan namunaviy shakl bo'yicha brokerlik joyining ijari haqida shartnomalar tuzadi. Unga ko'ra ijarchi qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risidagi amaldagi qonun hujjalariiga, birja qoidalariga rioya qilishi, birja bilan xizmatlar ko'rsatilishi uchun

shartnoma tuzishi, tuzilgan bitimlar bo'yicha vositachilik yig'imlarini birjaga o'z vaqtida o'tkazishi shart. Ijara haqining miqdori tomonlar o'rtasidagi kelishuvlarga muvofiq belgilanadi. U qat'iy o'zgarmas miqdorda (masalan, oyiga 5 ming so'm) yoki nisbiy miqdorda har bir tuzilayotgan bitim summasiga nisbatan foiz hisobida (masalan, har bir bitim bo'yicha vositachilik yig'imi summasining 7 foizi), yoxud ikkala usulning uyg'unligida belgilanishi mumkin. Bunda muntazam a'zolik badallarini to'lash ijarachi zimmasiga yuklatiladi. Ijara shartnomasi birja tomonidan ro'yxatga olinadi.

Fond birjasiga a'zolariga savdolarga ruxsat berish faqat ularda qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar qilish uchun litsenziya mavjud bo'lib, ular investitsiya muassasasi maqomiga ega bo'lgan, shuningdek, brokerlik idorasi birjada ro'yxatga olingan hollarda amalga oshiriladi. Birjada brokerlik joyini sotib olgan va qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarini amalga oshirish huquqini beruvchi malaka shahodatnomasiga ega bo'lgan jismoniy shaxs faqat u joylardagi davlat boshqaruvi idorasida ro'yxatga olinganidan hamda bankda hisob-kitob raqami ochilganidan keyin savdolarga qo'yilishi mumkin. Bunda birja a'zolari bo'lgan yuridik shaxslarning ishonch qog'ozi va birja Malaka komissiyasining ruxsatnomasini olgan brokerlar birja savdolarida bitimlar tuzish huquqiga ega bo'ladilar. Birja a'zosi bo'lgan jismoniy shaxs, agar u mustaqil ravishda faoliyat ko'rsatsa, brokerlik idorasini ro'yxatdan o'tkazish uchun Qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarini amalga oshirish huquqini beruvchi litsenziya va malaka shahodatnomasiga, birja Malaka komissiyasining ruxsatnomasiga ega bo'lishi kerak.

Rasmiy dilerlar (market-nieykeriar). Birja listingiga kiruvchi qimmatli qog'ozlarning doimiy kotirovkasini va ularning fond birjasidagi likvidligini ta'minlash uchun market-meykerlar tashkiloti faoliyat ko'rsatadi. Rasmiy dilerlar birja tomonidan qimmatli qog'ozlar bozorining professional ishtirokchilari safidan tayinlanadi. Rasmiy diler maqomini olish uchun investitsiya muassasasi muayyan talablarga javob berishi, chunonchi: qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarini amalga oshirish uchun litsenziyaga, qimmatli qog'ozlar bozorida kamida bir yil ish tajribasiga ega bo'lishi; rasmiy dilerning birja zalida ish yurituvchi xodimlari

«Toshkent» RFBning avtomatlashtirilgan ish o'rinlarida maxsus o'qitilishi va birja Malaka komissiyasining shahodatnomasiga ega bo'lishi lozim.

Rasmiy diler listing korxonalarining qimmatli qog'ozlari bilan operatsiyalarni amalga oshirish uchun o'z aktivlariga ega bo'lishi kerak. Uning eng kam miqdori birjaning boshqaruvi tomonidan belgilanadi.

Listing maydonchasida operatsiyalar o'tkazish uchun rasmiy diler qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni amalga oshirishga ruxsat etish haqidagi guvohnoma asosida birjaning tegishli ro'yxatga olish raqamini oladi. Bu raqam u berilgan kundan boshlab to taqvim yili tugagunga qadar amal qiladi.

Investisiya dilerlari sifatida investitsiya vositachilari, investitsiya kompaniyalari, aksiyadorlik-tijorat banklari, shu jumladan, O'zbekiston Respublikasining norezidentlari ishtirok etishi mumkin.

Har yili yanvar oyi mobaynida birja dilerlar ro'yxatini qayta ko'rib chiqadi va rasmiy ro'yxatga yangi dilerlarni kiritish (kiritmaslik) yoki amaldagilarni ro'yxatdan chiqarish to'g'risida qaror qabul qiladi.

Quyidagi holatlarda birja investitsiya muassasasini rasmiy dilerlar ro'yxatidan chiqarishi mumkin:

- investitsiya muassasasi sifatida faoliyat ko'rsatish litsenziyasidan mahrum bo'lish;
- market-meyker to'g'risidagi nizom, birjaning ichki hujjatlari qoidalarining buzilishi;
- davlat noziri diler tomonidan qimmatli qog'ozlar bozori to'g'risidagi qonun hujjatlari buzilganligi haqida hisobot bergan hollarda;
- birja Malaka komissiyasining qaroriga ko'ra.

Qimmatli qog'ozlarning listing tadbirdlari. Qimmatli qog'ozlar listingi tadbirini o'tkazish uchun «Toshkent» RFBga taqdim etiladigan hujjatlar ro'yxati:

1. Listing tadbirini o'tkazish haqida ariza.
2. Ta'sis hujjatlari (o'zgartirish va qo'shimchalar bilan).
3. Korxonaning davlat ro'yxatiga olinganligi haqidagi guvohnomaning tasdiqlangan nusxasi.

4. Davlat mulki qo'mitasining buyrug'i (agar AJ davlat korxonasining negizida tashkil etilgan bo'lsa).

5. Litsenziyani talab etadigan ishlarni bajarish va xizmatlar ko'rsatish uchun litsenziya.

6. Qimmatli qog'ozlarning qo'shimcha nashri to'g'risida qaror qabul qilinganligi haqida aksiyadorlar umumiy yig'tishi bayonnomasidan ko'chirma.

7. Depozitar xizmatlar ko'rsatilishi haqidagi shartnomaning nusxasi.

8. Qimmatli qog'ozlarning ro'yxatga olingan emissiya risolasi va avalgi nashrlar qimmatli qog'ozlarining emissiya risolalari.

9. AJ qimmatli qog'ozlarining avvalgi emissiyalari to'g'risida ma'lumotnoma.

10. So'nggi uchta tugallangan moliya yili uchun yoki tashkil etilgan yildan boshlab har bir tugallangan moliya yili uchun izohli yozuvlar bilan buxgalterlik balanslari.

11. So'nggi uchta tugallangan moliya yili uchun yoki tashkil etilgan vaqtdan boshlab har bir tugallangan moliya yili uchun moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot (2-shakl).

12. So'nggi moliya yili uchun asosiy vositalar harakati to'g'risida hisobot (3-shakl).

13. So'nggi moliya yili uchun pul oqimlari to'g'risida hisobot (4-shakl).

14. So'nggi moliya yili uchun o'z sarmoyasi to'g'risida hisobot (5-shakl).

15. Debitorlik va kreditorlik qarzlari to'g'risida ma'lumotnoma -so'nggi moliya yili uchun va ariza berilgan yildagi holatiga ko'ra balans (2-shakl)ga ilova.

16. Birja rasmiy ro'yxatiga kiritish haqida arizani berish oldidan so'nggi chorakning yakuni holatiga buxgalterlik balansi (1-shakl).

17. Birja rasmiy ro'yxatiga kiritish haqida arizani berish oldidan so'nggi chorakning yakuniy holatiga ko'ra moliyaviy natijalar to'g'risida hisobot (2-shakl).

18. So'nggi tugallangan moliya yili va joriy yilning hisobot davri uchun auditorlik xulosalari.

19. Qimmatli qog'ozlarni joylashtirish yo'li bilan safarbar etiladigan mablag'lardan foydalanishning yo'nalishlari haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan biznes-reja yoki texnik-iqtisodiy asos loyihasi (qo'shimcha emissiya hollarida).

20. Reestr saqlovchi haqida ma'lumotlar.
21. Aktsiyadorlar reestri haqida umumiylar.
22. Aktsiyadorlik jamiyati boshqaruvi organlariga kiruvchi shaxslarning ustav sarmoyasidagi ishtirokining ulushi ko'rsatilgan ro'yxati.
23. Eng yirik aksiyadorlar ro'yxati (ustav fondining 5 foizidan ortiq ulushiga egalik qiluvchi).
24. Davlat idorasi tomonidan tasdiqlangan qimmatli qog'ozlarni chiqarish yakunlari haqida hisobot.
25. Davlat idorasi tomonidan tasdiqlangan so'nggi moliya yili uchun qimmatli qog'ozlar bo'yicha yillik hisobot.
26. Taqdim etilgan hujjatlarni ekspertizadan o'tkazish bo'yicha ko'rsatilgan xizmatlarning haqi to'langanligi to'g'risida to'lov topshiriqnomasining nusxasi.
27. Emitentning xohishiga ko'ra boshqa hujjatlar va ma'lumotlar.
28. Birjaning ekspert-tahlil boshqarmasiga ko'rib chiqish uchun amalda taqdim etilgan hujjatlar ro'yxati.

Qimmatli qog'ozlarni likvidlilik, bozor faolligi emitentning barqaror moliyaviy-xo'jalik ahvoli bilan tavsiflanuvchi qimmatli qog'ozlar toifasiga kiritish qimmatli qog'ozlar listingi deb nomlanadi. O'z navbatida, listing korxonasi deb qimmatli qog'ozlari listing tadbiridan o'tgan, listing talablarini qondiradigan va birja rasmiy ro'yxatiga listing toifasi bo'yicha kiritilgan korxonalarga aytildi.

Qisqacha hulosalar:

Qimmatbaho qog'ozlar bu mulkiy ma'nodagi hujjat bo'lib, mulkdorlik xuquqi ushbu hujjatsiz amalga oshirilmaydi va biror boshqa kishiga o'tib qolmaydi. Qimmatli qog'ozlarning asosiy hillari hissador aksiyadorlar jamiyatlari sarmoyasida qatnashish xuquqini beruvchi va ma'lum dividend olish xuquqini beradigan guvoxnama.

Qimmatli qog'ozlar ikki hilga bo'linadi:

- birlamchi, ya'ni qimmatli qog'ozlar emissiyasi vaqtida paydo bo'lgan bozor;
- ikqilamchi, ya'ni qog'ozlar qayta sotiladigan bozor.

Fondli qiymatni hamma oladi: yakka tartibdagi investorlar, moliya-kredit institutlari, pensiya fondlari, davlat muassasalari va korporatsiyalari, sug'urta

kompaniyalari, investitsiya qiluvchi fondlar va qimmatli qog'ozlarni joylashtirish bilan (hukumat obligatsiyalaridan tashqari) odatda emissiya sindikatlarini barpo qiluvchi investitsion banklar shug'ullanadilar.

Hozirgi paytda qatnashchilarning shaxsan ishtirok etishini talab qiluvchi ochiq birja savdosi o'z ofisidan, ish joyidan turib savdoda qatnashishga imkon beradigan elektron rejimga o'tkazilgan. Belgilangan qoidalarga va savdoni tartibga solish tizimiga amal qilish, shuningdek, barcha qatnashchilarning bu qoidalarga amal qilishga tayyorligi majburiy tartib bo'lib qolmoqda.

Hozirgi paytda «Toshkent» Respublika Fond birjasi respublikaning barcha mintaqalarida o'z filiallariga ega. Birjada 84 ta brokerlik idorasi akkreditatsiyalangan bo'lib, ularning treyderlari qiziqtirayotgan qimmatli qog'ozlarni sotish yoki sotib olish bo'yicha mijozlarning har qanday topshiriqlarini yuqori professional darajada bajarishga tayyor.

Nazorat savollari.

1. Qimmatli qog'ozlar bozor tushunchasiga nimalar kiradi?
2. Qimmatli qog'oz deganda nima tushuniladi?
3. Qimmatli qog'oz bozorini qanaqa xillarini bilasiz?
4. Fond birjasi deganda nimani tushunasiz?
5. Ikkilamchi fond bozori tushunchasiga nimalar kiradi?
6. Fond birjalariing faoliyati nimalaran iborat?
7. «Toshkent» Respublika Fond birjasi haqida nimalar deya olasiz?
8. Fond birjalarida tuziladigan bitim turlari sanab o'ting.

Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Birja va birja faoliyati to'g'risida" gi qonuni (yangi taxrir). 2001 y. 3 qismi.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining "O'zbekistonda birja va yarmarka savdosini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari haqida"gi qarori
3. "Davlat xaridlari tizimini optimallashtirish va ularga kichik biznes sub'ektlarini jalb qilishni kengaytirish haqida" gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 7 fevral 1474 – sonli qarori

4. Каменева. Н. Г. Организация биржевой деятельности - М.: Банки и Биржи ЮНИТИ, 2002, стр. 313.
5. Дегтярева О.И. Биржевое дело - М.:МАГИСТР 2010, . 623 с.
6. Yunusov M.P. Birja va yarmarka faoliyatini boshqarish. Ma'ruzalar matni, - T., TDIU, 2005. 24-2 betlar
7. www.yarmarka.ru
8. www.uzex.com
9. www.xarid.uz.
10. www.Exchage.com

9-mavzu. Valyuta birjalari.

Reja.

- 9.1. Xalqaro valyuta tizimi.
- 9.2. Valyutalar kurslari.
- 9.3. Valyuta operatsiyalari.

9.1. Xalqaro valyuta tizimi

Valyuta birjalaridagi faoliyat olib borilganda ham milliy valyutada, ham xorijiy valyutalarda ishlashga to'g'ri keladi.

Valyuta jahon moliya tizimiing muhim komponenti (tarkibiy qismi) bo'lib mamlakatlar orasida tovarlar, xizmatlar va sarmoyalarni bir biriga o'tishiga xizmat qiladi.

Valyuta xalqaro iqtisodiy ayriboshlash va boshqa xalqaro aloqalarda qatnashib ular natijasida pullik hisob kitob zaruriyatiga olib keladigan mamlakat pul birligidir. Milliy pul birligi valyuta sifatida uning kursi bo'yicha foydalanuvchi xalqaro narxiga egadir. Amaliyotda valyuta milliy banknot shaklida foydalilaniladi, hamda to'lov vositasi va kredit omillari hisobi (cheklar, trattlar, pul o'tkazish vositasi va boshqalar) bo'lishi mumkin.

Valyutalarga xalqaro shartnomalar asosida hisob kitob pul birligi sifatidagi hisob kitob raqamlaridagi yozuv. Hamma milliy valyutalar qog'ozdan.

Valyutalarni bir - biriga taqqoslab muvofiqlashtirish birinchi jahon iqtisodiy inqirozigacha 1929 -1933 yil ya'ni oltin pul muomalasi tizimiing qo'llanishiga qadar zaruriyati yo'q edi. Bu oltin pul tizimi doirasidagi munosabatlar o'z-o'zini muvofiqlashtiruvchi edi. Chunki milliy valyuta birliklarini erkin oltinga almashtirish mumkin edi. Amalda haqiqiy dunyo puli sifatida oltin yurar edi. Valyuta kurslari bu sharoitda juda oson aniqlanar edi, ya'ni pul birligidagi oltin miqdori e'tirof etilgan edi.

Valyuta operatsiyalarini muvofiqlashtirishga birinchi marotaba ikkinchi jahon urushi oxirlarida harakat qilindi.

1944 yili BMTning Bredton-vudzdagi valyuta moliya anjumanida xalqaro valyuta jamg'armasi va valyuta tizimining qurish printsplari haqidagi bitim ishlab chiqildi va imzolandi.

Bretton-Vudz sistemasi printsiplari quyidagilardan iborat edi.

- pul birligi asosida oltin yotgan va kog'oz pullar oltinga erkin almashtirilgan;
- oltin standart o'rniqa qat'iy cheklangan oltin shiorli standart o'rnatildi;
- oltinga erkin almashuv huquqi faqat AQSh dollari va Angliya Funt-sterlingi uchun saklanib kolindi.

Bu ikki valyuta tilla bilan birga xalqaro rezerv valyuta makomini oldi va boshqa valyuta kurslarini aniqlashda asos bo'lib xizmat qilish kerak edi. Boshqa hamma valyutalar uchun valyuta paritetlarini aniqlashda tilla nisbatan ma'lum miqdorda cheklangan munosabat o'rnatildi. Hamma valyutalar kursini muvofiqlashirish amalda joriy qilindi. Davlat o'z valyutalari kurslari va valyuta paritetlarini qo'llab-quvvatlab turishlari kerak edi. Bretton-Vudz sistemasi ancha pishshiq o'ylanganligi bilan faqat rezerv valyutaning barqarorligi sharoitida samarali ishlar edi. Bu shart oxir oqibatda bajarilmay koldi, avval funt-sterling, keyin AQSh dollari barqarorligini yo'qotdi va ajoyib tizim ishlay olmadi. 1971 yil dollarni oltinga almashish to'xtatildi. Bu Bretton-Vudz tizimini tugaganligini bildirardi.

Bir qator xalqaro bitimlar natijasida yangi valyuta asosida na oltin, na rezerv valyuta bo'limgan tizimi paydo bo'ldi. Valyuta kurslari erkin (suzib yuruvchi)

bo'ldi, ular bir-birlariga ixtiyoriy bog'lanar edi. Oltinni qat'iy narxi bekor qilindi. Oltin oddiy tovarga aylandi.

Valyuta barqarorligini ushlab turish uchun maxsus qarz huquqi - SDR (Speciale Drive Rite) tizimidan foydalaniladigan bo'lindi. Bu tizimning mohiyati quyidagicha: SDR - xalqaro valyuta jamg'armasi qarori bilan barpo qilingan va amalga kiritilgan maxsus shartnomaviy pul. Xalqaro valyuta jamg'armasiga a'zo davlatlar maxsus hisob raqamlari ochilib, Xalqaro valyuta jamg'armasi - XVJ o'z sarmoyalariga mutanosib ravishda o'z xissalarini SDRda oldilar. SDR faqat hisob - kitob birligi sifatida muomalada bo'lishi ko'zda tutilgan bo'lib ma'lum bir sharoitda milliy valyutaga aylantirilishi mumkin. 1981 yil 1-yanvaridan XVJ SDRni sodalashtirilgan o'rtacha o'lchanigan valyuta xaltasi asosidagi kursini joriy qildi. Bu o'rtacha og'irlikdagi valyuta xatasining 42 % - AQSh dollari, 19% nemis markasi, har biri 13% Frantsuz franki, Angliya funt-sterlingi va Yaponiya ienasidir. Valyutalarni solishtirma og'irligi bu valyutalarni xalqaro savdo va to'lovlardagi solishtirma og'irliklariga tengdir. XVJ rasmiy ma'lumotlarida SDRdan faol foydalanadi. SDR har yili XVJ tomonidan kotirovka qilinadi.

Valyutalarni har - xil ishonchliligi, turli mintaqaviy manfaatlar uchta asosiy valyuta va valyuta kurslarini aniqladi.

Bir va bir nechta valyutalarga qattiq bog'langan valyutalar, valyuta kursini 1% atrofida tebranishiga yo'l qo'yiladi, agar milliy valyuta bir nechta valyutalarga bog'langan bo'lsa, bu to'g'ri "valyuta xaltasi" tanlanganligini ko'rsatadi yoki kurs o'rnatish asosida SDRdan foydalaniladi.

Bir yoki bir nechta valyutalarga nisbatan kursni tebranib turadigan valyuta;

Valyuta tebranishi har tarafga 2,25% gacha tebranishi mumkin bo'lgan valyutalardir. Ushbu guruhg'a 1979 yil barpo etilgan Yevropa iqtisodiy hamjamiyatiga a'zo davlatlar valyutalarini barqarorligini ta'minlash uchun mo'jallangan Yevropa valyuta tizimi ham kirar edi.

Yevropa valyuta tizimi mamlakatlar valyutalarini paritet turi (Paritetnaya setka) orqali bir-biri bilan bog'lar edi.

Asosiy (Markaziy) valyuta kursi maxsus birlik - Yevropa valyuta birligi Ekyu dan foydalanib aniqlanar edi. U qurilish tamoyili va printsiplari bo'yicha SDRga

jud a'xshash. Milliy valyuta kursi 2,25% atrofida tebranib turishi mumkin. Italiya lirasi uchun esa 6% tebranishga ruxsat etilgan edi.

Shunday qilib Yevropa hamjamiyati davlatlari o'z valyutalari bir-birlariga bo'lган nisbatini qat'iy nisbatda saqlab turar edilar. Boshqa mamlakatlar valyutalariga nisbatan birgalikda suzar edilar.

Erkin so'zib yuruvchi kursli valyutalar. Valyuta bozoridagi har kungi talab va takliflar asosida o'rnatiladi.

1991 yil Mastrix shartnomasini imzolanishi Yevropa hamjamiyati o'rniga Yevropa ittifoqini barpo etilishi, ittifof xududida yagona valyuta Evroni kiritilishi bilan yakunlandi. Yevropa ittifoqining yagona valyutaga o'tishi bir nechta bosqichdan iborat bo'lib, ittifoq ittifolkiga kirgan davlatning byudjeti tanqisligi ma'lum darajada bo'lishligi, iqtisodiy rivojlanishda infilyatsiya darjasini qat'iy talablarga javob bergen taqdirdagina umum Yevropa valyutasiga o'tishi mumkin bo'ldi.

Jahonning barcha boshqa davlatlari uchun esa erkin suzib yuruvchi kurs tizimi qo'llaniladigan bo'lindi.

9.2. Valyutalar kurslari.

Xorijiy valyuta - bu yangi g'oya emas. Har xil pullarni ayriboshlash, pulni vazifalaridan biri bo'lib, birinchi pul paydo bo'lган paytdan boshlab mavjud. Xorijiy valyutalar bilan bitim 1550 yillarda Lombardiya boshlangan deb hisoblash mumkin. Chet el valyutalarini sotib olish 1880 yilgacha oltin standarti joriy qilingungacha butunlay bugungiga mutlako o'xshamagan shaklda bo'lган edi.

XX asrda chet el valyutalari bilan bog'liq masalalar ikki bir biriga qarshi nuqtai nazarda xal qilinar edi: moliyalashtirish tizimi yoki suzib yuruvchi valyuta kursi tizimlari, ko'proq ikkala tizimni hisobga olib echilardi.

Masalan, siz yapon televizori sotib oldingiz. Xaridni qanday tulaysiz? Albatta o'z mamlakatingiz valyutasida, lekin ishlab chiqaruvchi firma o'z mexnati uchun o'z mamlakati valyutasida xak olgan. Ishlab chiqaruvchi mamlakati o'z valyutasida pul olish uchun sizning mamlakatingiz valyutasini uning mamlakati valyutasiga almashtirish bitimi valyuta birjasida amalga oshirilgan.

Valyuta birjas - milliy valyutalarni tashkil etilgan bozori.

Unda miliy valyutalarni bozordagi talab va taklif ta'sirida shakllangan bir - biriga bo'lgan nisbati - kursi bo'yicha erkin oldi - sotdisi amalga oshiriladi.

Valyuta kursi bu – nisbiy qiymat (xorijiy valyutaning milliy qiymati) ekanligi sababli iqtisodchilar uning o'zgarishlarini oldindan aytib berar va tushuntirar ekan, mamlakat iqtisodiyotini ham, mamlakat hududidan tashqaridagi iqtisodiyotni ham e'tiborga olishlari lozim. Masalan, iena AQSh dollariga nisbatan o'sishi mumkin, chunki AQShda foiz stavkalari pasaytirilgan, Yaponiyaning o'zida esa hech narsa o'zgarmagan. Valyuta kurslari harakati tovar va xizmatlar bozoridagi narx harakatidan ko'ra ko'proq boshqa moliyaviy vositalar bozoridagi narxning harakatiga o'xshab ketadi. Bu aksiyalar va qimmatli qog'ozlar kursi kabi «oldinga qaraydigan» narxlardir. Bu shuni anglatadiki, bugungi valyuta kursi ertaga ro'y berishi mumkin bo'lgan o'zgarishlarni hisobga olgan holda hisoblab chiqilgan. Mana shuning uchun ham valyuta kursini oldindan aytib berish qiyin. Valyuta kursi odamlarning ro'y berishi mumkin bo'lgan vaziyat haqida qanday o'ylashiga ham, ularning muayyan vaziyatda nima qilishiga ham bir xilda bog'liq bo'ladi. quyida keltirilgan omillar valyuta kursiga tez ta'sir ko'rsatadi.

Valyuta kursi bu – oldi-sotdi bitimlarida bir mamlakat pul birigining boshqa mamlakat pul birligida ifodalangan narxidir. Bunday narx erkin bozor sharoitlarida belgilangan valyutaga talab va taklifdan kelib chiqqan holda yoxud mamlakat hukumatining yoki uning bosh moliya-kredit organi, odatda markaziy banki tomonidan qat'iy tartibga solinadigan qaror bilan belgilanishi mumkin. Valyuta qiymati asosan valyuta kursining faqulodda oshib ketishiga yo'l qo'ymaslikka intiladigan moliya-kredit organlari rahbarligi ostida erkin bozor kuchlarining o'zaro aloqalari orqali belgilanadi. Valyuta kursi shakllanishining bunday shakli ba'zida «iflos suzish» deb ataladi.

Xorijiy valyutalarning milliy valyutadagi kursini belgilash *valyutalar kotirovkasi* deb ataladi. Turli banklar amaliyotida ikki xil kotirovka: to'g'ri va teskari kotirovka qo'llanadi. *To'g'ri kotirovkada* xorijiy valyutaning qat'iy belgilangan ma'lum bir qismi milliy pul birliklarida ifodalananadi. Buyuk Britaniya va qisman AQShda qo'llanadigan *teskari kotirovkada* milliy pul birligi xorijiy pul biliklarida ifodalananadi. Valyuta operatsiyalarini amalga oshiruvchi banklar valyutani

turli kurslarda sotib oladi va sotadi. Banklar xorijiy valyutani milliy valyutada sotadigan kurs (xorijiy valyutada to'lov hujjatlari) *sotuvchi kursi*, xarid qiladigan kurs esa – *xaridor kursi* deb ataladi. Ular o'rtasidagi farq bankning valyuta operatsiyalari bo'yicha faydasini tashkil qiladi.

To'lov hujjatlari bo'yicha *telegraf o'tkazmasi* valyuta kursi, *pochta o'tkazmasi* valyuta kursi, *veksellar* valyuta kursi, *cheklar*, *banknotalar* valyuta kursi farqlanadi. Ilgari, halqaro hisob-kitoblarda asosiy to'lov vositasi bo'lib o'tkazma veksel (tratta) xizmat qilgan paytlarda, valyuta kursi vekselli deb atalgan va xorijiy valyutadagi o'tkazma vekselning biron mamlakat miliy valyutasidagi narxini ifodalagan. Hozirgi paytda deyarli barcha valyuta hisob-kitoblari banklar orqali telegraf o'tkazmalari yo'lli bilan amalga oshirilmoqda.

Ayrim mamlakatlarning valyuta bozorlarida xorijiy valyutalarning milliy valyutaga nisbatan kursidan tashqari *kross-kurslar*, ya'ni xorijiy valyutalarning bir-biriga nisbatan kurslari ham belgilanadi.

Kross-kurslar bu – ikki xil valyuta o'rtasidagi nisbat bo'lib, ularning uchinchi valyutaga nisbatan kursidan kelib chiqadi. Masalan, agar London banki Germaniya markalarini AQSh dollariga sotadigan bo'sa, ko'rinish turibdiki, u kross-kurslardan foydalanadi.

Jahon bozoridagi operatsiyalarda ko'pincha AQSh dollari bilan kross-kurslardan foydalaniladi, chunki AQSh dollari nafaqat asosiy zaxira valyutasi, balki ko'plab valyuta operatsiyalarida bitimlar valyutaasi ham hisoblanadi. Masalan, frantsuz franklarini nemis markalari uchun sotib oluvchi dastlab frantsuz franklarini dollarga, so'ngra dollarni nemis markasiga sotib olish frank va marka o'rtasidagi kotirovkani topishdan osonroq bo'ladi. Tabiiyki, Parijda yoki Frankfurtda frantsuz frankining nemis markasiga nisbatan (yoki aksincha) kurini belgilab beradigan banklar mavjud. Biroq cheklangan bozor sharoitlarida bunday maxsus xizmatlar uchun banklar o'z kotirovkasiga marja¹³ kiritishi mumkin.

Albatta, agar FRG markalari uchun frantsuz franklarini sotib oluvchi xaridor xaridni AQSh dollari vositachilgisiz ham amalga oshirishi mumkin, bu operatsiya

¹³ Marja – savdo, birja, sug'urta va bank amaliyotida tovarlar narxi, qimmatli qog'ozlar kursi, foiz stavkalari va boshqa ko'rsatkichlar o'rtasidagi farqni belgilash uchun qo'llanadigan atama

qo'shimcha harajatlarga olib kelmaydi. U ikkita bitim o'rniga bitta bitimni amalgalashirish hisobiga tejab qolishdan tashqari, riskka uchramaslikka ham imkon beradi, chunki turli hamkorlar bilan ikkita konversiya operatsiyasini amalgalashirishning imkoniy yo'q. Shuningdek, valyuta kursi operatsiyalar yakunlanmasdan oldin o'zgarish xavfi ham mavjud, shunda hamkorlardan biri uchun bitimning bahosi juda katta bo'lishi mumkin va sotuvchi uchun uch-to'rtta bitim o'tkazish zarurati vujudga keladi.

Har qanday kross-kursni istalgan payt xorijiy valyutalarning milliy valyutaga nisbatan kursidan hisoblab chiqish yo'li bilan osongina olish mumkin.

Bitta valyutaning turli bozorlardagi kurslari esa unchalik bo'lmasada, farq qiladi, bu ularning valyuta arbitraji asosida doimiy teksilanishi sababli ro'y beradi

Valyuta arbitraji – ayni paytda turli mamlakatlarda mavjud bo'lgan bitta valyutaning kurslari o'rtaqidagi farq hisobiga foydalanish olish maqsadidagi bitimdir. Oddiy va murakkab valyuta arbitraji farqlanadi. *Oddiy* valyuta arbitrajida arbitrajchi ikki mamlakat valyuta bozorida qayd qilingan farqdan foydalanadi. Masalan, agar AQSh dollarining kursi Nyu-Yorkda 140,5 yapon ienasiga, Parijda - 140,75 ienana teng bo'lsa, yapon arbitrajchisining 1 mln. dollarni Nyu-Yorkda 140,5 mln. ienga sotib olishi va bir vaqtning o'zida uni Parijda 140,75 mln. ienaga sotishi ko'proq foyda keltiradi. Olingan foyda 25 ming ienani tashkil qiladi. *Murakkab* valyuta arbitrajida operatsiyalar turli valyuta bozorlarida bir nechta valyutalar bilan amalgalashiriladi.

Valyuta arbitrajini amalgalashirishda arbitrajchida barcha halqaro moliyaviy markazlar bilan rivojlangan kommunikatsiya tizimining, eng murakkab operatsiyalardan ham kutlayotgan natijalarni tezkor hisob-kitob qilishga imkon beradigan murakkab hisoblash texnikasi mavjudligi ko'zda tutiladi.

Valyuta arbitraji alohida milliy bozorlarda valyuta kurslarining bir xid bo'lishiga olib keladi. Moliyaviy kommunikatsiya tizimlari rivojlanishining hozirgi darajasida valyutalar kursi o'rtaqidagi farq yuzdan bir faoizdan ortmaydi.

Alohida bir arbitraj bitimi bo'yicha foyda foizining kichikligi bunday bitimlar sonining ko'pligi va kapital aylanmasi tezligining yuqoriligi hisobiga qoplanadi.

Valyuta operatsiyalariga qarab, quyidagi valyuta kurslari farqlanadi:

- naqd (kassa) bitimlarida - «spot» kursi;
- muddatli bitimlarda - «forward» kursi.

Kassa bitimlaridan foydalaniladigan kurs kassa kursi deb ataladi. **«Spot» kursi** - ikki biznes-kun ichida bitimni tartibga solish uchun joriy valyuta kursi (forward kursiga qarshi). Uning kotirovkalari haqidagi axborot bank ekranlari va gazetalarda ko'rsatiladi.

«Forward» kursi – u bo'yicha xorijiy valyuta shartnomasi kelajakda belgilangan kunda yakuniy tartibga solish uchun bugungi kunda amalgamashiriladigan kursdir. Forward kursi «spot» kursdan valyuta kurslari dinamikasi istiqbollari qanday baholanishiga qarab mukofot yoki chegirma (diskont) hajmiga farq qiladi.

1970-yillargacha valyuta kurslarini aniqlash uchun rasmiy asos bo'lib valyutalar tarkibidagi qat'iy belgilab qo'yilgan oltin miqdori xizmat qilgan.

Hozirgi paytda valyuta (oltin) pariteti – pul birliklarining metall tarkibi bo'yicha nisbati – real iqtisodiy ahamiyatini yo'qotgan. Qat'iy belgilab qo'yilgan valyuta kurslari o'rniga halqaro valyuta-moliya tizimiga «o'zgaruvchan» valyuta kurslari keldi, ular valyuta bozorlarida talab va taklifning o'zgarishi ta'siri ostida sezilarli tebranishlarga olib kelishi mumkin.

9.3. Valyuta operatsiyalari.

Valyuta birjasidagi kotirovka almashtirilayotgan valyutani xarid qobiliyati asosida aniqlanib, u o'z navbatida emitent mamlakatlardagi iqtisodiy vaziyat bilan chambarchas bog'likdir. Valyuta birjalaridagi operatsiyalar almashinayotgan valyutani boshqa valyutaga erkin almashuviga asoslanadi. Bir xil tipdag'i birjalar kadimdag'i savdo birjalariga ko'p jihatdan o'xshashdir.

Xorijiy valyuta birjasi bu butun dunyoni qamrab olgan valyuta sotuvchi va xaridorlari tizimi bo'lib dunyoning son sanoqsiz moliya markazlarida faoliyat ko'rsatadilar. Har kuni butun dunyoda taxminan 500 milliard AQSh dollari miqdorida valyuta bitimlari tuziladi. Ammo amalda xakikatdan ham valyuta almashinuvni juda kam bo'ladi. Telefon, Teleks va kompyuterlar lahza ichida bitimlarni muvofiqlashtirib amalga oshirishga yordam beradi.

Xorijiy valyutalarni almatirish asosiy markazlari London, Nyu-York va Tokiodadir. Xajmi jixatidan eng ko'p valyuta operatsiyalari kunning qoq yarmida Londonda, Amerika va Yevropadagi ishchi kunlari mos kelganda bo'lib o'tadi.

Valyuta bitimlari bu — belgilangan sanada shartnomaga kursi bo'yicha bitta valyutadagi qimmatli qog'ozlarni boshqa valyutadagi qimmatli qog'ozlarga ayirboshlash bo'yicha operatsiyalardir.

Valyuta operatsiyalari quyidagi turlarga taqsimlanadi:

- kassa yoki naqd operatsiyalar («spot» bitimlari), bunda xaridor sotuvchidan xorijiy valyutani (xorijiy valyutadagi to'lov hujjatlarini) milliy valyutada to'lov amalga oshirilgandan so'ng darhol oladi yoki bunda chet elga to'lovlari uning buyrug'i bo'yicha telegraf o'tkazmasi orqali 2 kundan kechikmagan holda o'tkaziladi;
- muddatli operatsiyalar (forward bitimlar), bunda xorijiy valyutaning oldindan belgilangan muddatda bu muddatning yakunida bitim tuzilgan paytdagi qayd qilingan kurs bo'yicha oldi-sotdisi amalga oshiriladi;
- «svop» operatsiyalari, ular ikki xil – naqd va muddatli bitimlarni birlashtiradi;
- arbitraj operatsiyalari, bunda bitim qatnashchilari foyda olish maqsadida turli valyuta bozorlarida valyuta kurslaridagi farqlardan foydalanadi.

Kassa bitimi bu – bugungi kun narxlarida amalga oshiriladigan bitim, bu erda bitta valyuta ikki kunlik muddat ichida boshqa valyutaani sotib oilsh uchun foydalaniladi. Kassa bitimlarida foydalaniladigan kurs kassa kursi deb ataladi. U bank ekranlarida va gazetalarda ko'rsatiladi.

Yana bir nechta umum qabul qilingan atamalar mavjud, masalan, «uzoq muddatli», «qisqa muddatli», «hisob-kitob» muddati va «to'lov muddati».

Xorijiy valyutada savdoni amalga oshiradigan bank makleri (yoki korporatsiya mijoji) bitimlarning natijalarini doimiy kuzatib borib, vaziyatga qarab o'z xulq-atvoriga tuzatishlar kiritadi. Maklerning (diler) holati netto asosida turli to'lov vositalaridan qat'i nazar turli valyutalar holatini aks ettiradi. Odatda u AQSh dollarida ifodalanadi.

Masalan, agar makler (diler) AQSh dollarini (funt) bilan ish qiladigan va kunni 5 mln. AQSh dollaridan boshlaydigan bo'lsa, u AQSh dollarini oshirishga o'ynaydi

deb hisoblanadi. Agar mijoz maklerdan 10 mln. dollar sotib olishni so'rasa va makler sotsa, bunda makler endi 5 mln. dollar pasaytirishga o'ynaydi. Albatta, mijoz amerika dollari uchun funt sterlingda to'laydi, shuning uchun makler endi funtni oshirishga ham o'ynaydi. Agar makler o'zining qisqa muddatli 5 mln. dollari bilan qoniqmasa (u amerika dollari yaqin vaqtida narxda o'sadi deb hisoblashi mumkin), u yo'qotishlarning oldini olish uchun banklararo bozorda 5 mln. dollar sotib olib, o'z pozitsiyasini «mustahkamlashi» mumkin.

To'lov muddati bu – valyuta shartnomasi bo'yicha to'lovlari kuni, ya'ni pullarni haqiqatda ayirboshlash ro'y beradigan kun. Kassa bitimlari uchun to'lov muddati 2 kun belgilangan.

Bunday bitimlarda eng katta potentsial risk shundaki, bitimda qatnashuvchi tomonlarda biri bitim shartlarini vaqtida bajara olmaydi yoki noto'g'ri summa ko'rsatilgan bo'ladi. Shuningdek, bitim haqida kelishib olish va amalda yakunlash o'rtasidagi vaqtida bitim qatnashchilaridan birining kasodga uchrash riski ham bor. Bitimning boshqa qatnashchisi, ehtimol, yangi hamkor bilan bitim tuxishga majbur bo'ladi va vaqt o'tishi bilan valyuta kursining o'zgarishi yangi risklariga uchrayshi mumkin bo'ladi.

Shunday bo'lishi mumkinki, bitta valyuta boshqa valyutaga nisbatan bir necha bir necha soat ilgari yetkazib berilishi mumkin. Bu sotish uchun valyuta yetkazib bergen hamkor kasod bo'lgan bitim qatnashchisidan to'lojni ololmaslik riskini vujudga keltiradi.

Muddatli bitimlar bo'yicha shartnomalar 1860-yillarda paydo bo'lган. AQShning g'arbiy va markaziy qismidagi fermerlar don hosilining bir qismini Chikago bozoriga kuzda yetkazib berishlariga to'g'i kelgan, bunda ular don sotuvchilardan optimal narx olishga intilganlar. Tabiiyki, mahsulot ortiqcha yetkazib berilgan paytlarda narx keskin pasaygan va fermerlar etishtirilgan don uchun biron-bir ma'qul keladigan narx ololmasdan, uni Michigan ko'liga to'kib yuborishga majbur bo'lgan. Keyingi bahorda ta'minot qisqargan, bug'doy narxi esa o'sgan.

Barqaror va foydaliroq savdo sharoitlari yaratish uchun Chikagolik savdogarlar guruhi 1848 yilda Chikago savdo palatasini (hozirda Chicago Board of Trade,

CBOT) tashkil qildi, hozirgacha dunyodagi muddatli bitimlarning eng yirik birjasi bo'lib kelayotgan CBOT dastlab faqat muddatli shartnomalar, ya'ni ta'minot kam bo'lган paytda yilning kechroq paytida shartnoma narxlarida bug'doy yetkazib berish shartnomalari tuzish bilan shug'ullangan. Biroq 1860 yilga kelib mahsulot yetkazib berish sanalari, sifati va hajmi standartlashtirilgan, bu savdogarlarga bir-biri bilan bug'doyni keyinroq etkzaib berish masalalarini erkin hal qilish imkonini bergen va zamonaviy muddatli bitimlarga asos solgan.

Asta-sekinlik bilan muddatli bitimlar bo'yicha kengroq tovarlar ro'yxatini, masalan, paxta, soya olinadigan dukkakli ekinlar, oltin va mis kabilarni ham qamrab ola boshlashan. Muddatli moliya bitimlar SVOT muddatli valyuta bitimlari Halqaro valyuta bozoriga (MVR) kiritilgan 1970-yillarning boshlarida paydo bo'lgan. Paydo bo'lgandan so'ng bu g'oya tez tatbiq etila boshladi. 1975 yil SVOT AQSh federal agentligi, Hukumat milliy ipoteka Assotsiatsiyasi (Government National Mortgage Association (GNMA), yoki Ginnie Mae) tomonidan berilgan garov hujjati bilan tasdiqlangan sertifikatlar asosida shartnoma tuzdi. 1976 yil yanvarda MVR uy oylik veksellarni yetkazib berishga shartnoma tuzdi. Shunday so'ng vaqt o'tishi bilan Chikagoda ham, muddatli bitimlar birjalarida ham yangi mahsulotlar uzlucksiz oqimi kuzatildi, ularning soni keskin o'sdi va dunyo bo'ylab keng tarqaldi.

Muddatli moliyaviy bitimlar sohasida savdo hajmi an'anaviy tovarlar bo'yicha shartnomalar hajmidan sezilarli ortdi. Ko'plab yangi shartnomalarning muvaffaqiyati cheklangan edi, lekin bozorda ommaviy bo'lган shartnomalar hajmi juda tez o'sdi. 1982 yilga kelib g'aznachilik veksellari bo'yicha muddatli bitimlar sohasida MVR savdo hajmi naqd to'lovli savdo bitimlari bozori hajmidan oshdi va mos ravishda 21 mlrd. dollarga qarshi 26 mlrd. dollarni tashkil etdi. Biroq 1966 yilga kelib u London halqaro moliyaviy fyucherslar birjasida (London International Financial Futures Exchange, LIFFE) kuniga 6 mlrd. AQSh dollarari va MBPda 90 mlrd. dollarlik shartnomalar tuzishga xizmat qilgan uch oylik evrodollar shartnomasining ommaviyligi o'sishi natijasida pasaydi.

Hozirgi paytda butun dunyoda muddatli moliyaviy bitimlar bilan savdo qiladigan ko'p sonli bozorlar mavjudligiga qaramay, ular asosan ochiq baqiriqli «tryum» modelidan foydalanadi. Ochiq baqiriqli bozorda har bir alohida «tryum»

(ichida olinadigan qator pog'onalar bo'lgan yumaloq platforma) turli shartnomalar bilan savdo qilish uchun foydalilanadi. Xaridor va sotuvchilar ular biznes yuritishga tayyor bo'lgan narxni «tryum»da hamma uchun eshittiladigan tarzda baland ovozda aniq qilib e'lon qilishlariga to'g'ri keladi. Buning natijasida barcha bitimlar ommaviy ravishda amalga oshiriladi. bu bilan, masalan, ulgurji savdogarlar brokerlar uchun ham sotuv, ham xarid narxini belgilab beradigan London fond birjasi ajralib turishini qayd etish joiz. Muddatli bitimlar bozorlarida barcha qatnashchilar potentsial jihatdan ham savdogar, ham brokerlar sanaladi.

Biroq agar bitimlar ikkita savdogar o'rtasida bevosita amalga oshirilsa, birja doimo bitimning ikkala tomoni uchun qarama-qarshi tomon sifatida faoliyat ko'rsatishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Sotuvchi birjada sotadi, xaridor esa birjada sotib oladi. Bu ikkita muhim jihatni nazarda tutadi.

- muddatli bitimlar bilan savdo qiluvchilar uchraydigan yagona kredit riski birjaning o'ziga aloqador, u marjalar farqi tizimi natijasida nolga yaqin;
- kredit risklari bo'yicha farqni qo'shish zaruratining yo'qligi sababli keltiriladigan narxlar molivaviy kelib chiqishidan qat'i nazar barcha uchun bir xil bo'ladi. Shuning uchun bozorlar bitimlar bo'yicha talab qilinadigan farqlarni taqdim eta oladigan barcha uchun teng asosda ochiqdir.

Komission to'lovlar va «svop» operatsiyalari

- Komission foizlar, qoidaga ko'ra, juda kichik bo'ladi. Biroq ko'pincha komission foizlarni shartnomaning ustiga yozib qo'yilgan narxi bilan taqqoslash noto'g'ri bo'lardi, chunki haqiqatda ularni odatda kamroq bo'ladi sug'urtalanadigan risk hajmi bilan taqqoslash lozim. Komission foizlar yo'qotishlardan sug'urtalash (xedjlash) samaradorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatadi.
- Brokerlar odatda komission foizlarni, ya'ni xarid va sotuv uchun komission foizlarni shartnomaga aylanma uchun AQSh dollari shartlarida belgilaydi. Narxlar yirik bitimlar tuzadigan asosiy mijozlar uchun 8 AQSh dollaridan narxi qimmatroq brokerlar orqali ishlaydigan kichikroq mijozlar uchun 100 dollargacha bo'lishi mumkin.

- «Tryumlar» bahosi birja tomonidan ham tartibga solinadi, biroq bunda u odatda brokerning komission foizlariga kiritiladi.
- «Svop» valyuta operatsiyalari bu – belgilangan muddat o'tgach sotib olish majburiyati bilan xorijiy valyutani «spot» shartlarida milliy valyutaga sotib olishdir. Operatsiyalar markaziy va tijorat banklari tomonidan halqaro hisob-kitoblar uchun zarur bo'lgan valyutaani xarid qilish, valyuta zaxiralarini diversifikatsiyalash joriy schetlarida belgilangan qoldiqlarni qo'llab-quvvatlash maqsadida amalga oshiriladi.
- «Svop» foizli operatsiyalarida bitim tomonlaridan birining qat'iy belgilangan stavka bo'yicha to'lovlar olish evaziga boshqa tomonga o'sishi yoki pasayishi mumkin bo'lgan LIBOR stavkasi bo'yicha foizlar to'lash majburiyati ko'zda tutiladi. Ssuda kapitallari bozorida kon'yunkturani aniqroq bashorat qilgan bitim qatnashchisi yutib chiqadi.
- Ko'p hollarda «svop» operatsiyalari oltin bilan o'tkaziladi. Bu holatda qimmatbaho metall belgilangan muddatda uni qayta sotib olish shartlarida, biroq o'rtacha foiz stavkasini qamrab olgan holda «spot» shartlarida sotiladi. «Svop» operatsiyalarini markaziy bank o'tkazadi, bu unga oltin zaxiralarini amalda kamaytirmasdan turib, to'lov balansi taqchilligini moliyalashtirish uchun kredit olishga imkon beradi.

Qisqacha hulosalar:

Valyuta jahon moliya tizimining muhum komponenti (tarkibiy qismi) bo'lib mamlakatlar orasida tovarlar xizmatlar va sarmoyalari bir biriga o'tishiga xizmat qiladi.

Valyuta xalqaro iqtisodiy ayriboshlash va boshqa xalqaro a'lomalarda qatnashib ular natijasida pullik hisob - kitob zaruriyatiga olib keladigan mamlakat pul birligidir.

Amaliyotda valyuta milliy banknot shaklida foydalaniladi. Hamda to'lov vositasi va kredit omillari hisobi (cheklar, trattalar, pul otkazish vositasi) bo'lishi mumkin.

Vositalarga xalqaro shartnomalar asosida hisob - kitob pul birligi sifatidagi hisob - kitob raqamlaridagi yozuv, hamma milliy valyutalar qog'ozdan.

Valyuta operatsiyalarini muvofiqlashtirishga birinchi marotaba ikinchi jahon urushi ohirlarida harakat qilindi.

1944 yili BMTning Bretton-wudzdag'i valyuta moliya anjumanida xalqaro valyuta jamg'armasi va valyuta tizimining qurish printsplari haqidagi bitim ishlab chiqildi va imzolandi.

Valyutalarni solishtirma og'irligi bu valyutalarni xalqaro savdo va to'lovlardagi solishtirma og'irliklariga tengdir. XVJ rasmiy ma'lumotlarida SDRdan faol foydalanadi. SDR har yili XVJ tomonidan kotirovka qilinadi
Valyutalarni har - hil ishonchliligi, turli mintaqaviy manfaatlar 3 asosiy valyuta va valyuta kurslarini aniqladi;

Valyuta tebranishi har tarafga 2,25% gacha tebranishi mumkin bo'lgan valyutalar.

Valyuta birjasi-milliy valyutalarni tashkil etilgan bozori.

Unda milliy valyutalarni bozordagi talab va taklif ta'sirida shakllangan bir-biriga bolgan nisbati-kursi boyicha erkin oldi-sotdisi amalga oshiriladi.

Biron bir yoki bir nechta kuchli konvertatsiya qilinuvchi valyutalarga bog'langan valyutalar va erkin suzib yuruvchi kursli valyutalar. Valyuta bozoridagi har kungi talab va takliflar asosida o'rnatiladi.

Nazorat savollari:

1. Valyuta haqida tushunchangizni ifoda eting.
2. Valyutaning milliy pul birligidan farqi nimada?
3. Valyutalarning oltin pariteti deganda nimani tukshunasiz?
4. Valyutalarni ayriboshlash printsiplarini qanday tashkil etiladi?
5. Valyuta haltasi qanaqa halta?
6. SDR nima, qanday kotirovkalanadi?
7. Rezerv valyuta qanaqa valyuta?
8. Bretton Vudz shartnomasining mohiyati qanday edi?
9. Bretton Vudz shartnomasining barbod bo'lishiga ni malar sabab bo'ldi?

10.O'zbekiston milliy valyutasi qachon muomalaga kiritilgan?

Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Birja va birja faoliyati to'g'risida" gi qonuni (yangi taxrir). 2001 y. 3 qismi.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining "O'zbekistonda birja va yarmarka savdosini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari haqida"gi qarori
3. "Davlat xaridlari tizimini optimallashtirish va ularga kichik biznes sub'ektlarini jalb qilishni kengaytirish haqida" gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 7 fevral 1474 – sonli qarori
4. Каменева. Н. Г. Организация биржевой деятельности - М.: Банки и Биржи ЮНИТИ, 2002, стр. 313.
5. Дегтярева О.И. Биржевое дело - М.:МАГИСТР 2010, . 623 с.
6. Yunusov M.P. Birja va yarmarka faoliyatini boshqarish. Ma'ruzalar matni, - T., TDIU, 2005. 24-2 betlar
7. www.yarmarka.ru
8. www.uzex.uz
9. www.xarid.uz.
10. www.Exchage.com

10 – mavzu. FOREX birjası

Reja:

- 10.1. FOREX bozori haqida tushuncha
- 10.2. FOREX bozorining xususiyatlari va unga ta'sir etuvchi omillar
- 10.3. FOREXda valyuta operatsiyalari uchqun bitimlar bitish shartlari

10.1. FOREX bozori haqida tushuncha.

Jahon valyuta bozori nufuzi juda katta, har kuni bu bozorda 4 trillion AQSh dollari atrofida valyutalar oldi-sotdi operatsiyalari amalga oshirilib, bu ko'rsatkich har yili 5 - 7% ga o'smoqda. Ta'kidlash joizki, bu ko'rsatkich jahonda amalga oshiriladigan tovar, qimmatli qog'ozlar, fyuchers birjalarining birgalikda qo'shib hisoblagan ko'rsatkichidan ham ko'pdır.

Taqqoslash uchun qimmatli qog'ozlar bozorida 300 milliarda AQSh dollari, valyuta fyuchersi bozorida esa 40 milliard AQSh dollari atrofida oldi-sotdi operatsiyalari amalga oshiriladi. Ya'ni Nyu-york fond birjasi – NYSE (New York Stock Exchange) ning 1 kunlik 1995 yil 27 dekabir 1995 yil ko'rsatkichi 347 million AQSh dollarni tashkil etgan bo'lsa, FOREX ning 1 kunlik ko'satkichiga tenglashishi uchun NYSE ga 8-10 xaftha kerak bo'lar ekan. Bundan tashqari Bank of Amerika e'lon qilgan tadqiqot natijalariga bir nazar tashlasak, FOREX xalqaro valyuta bozoridagi kunlik savdo hajmi 10 yilda 8 trillion AQSh dollarigacha o'sishi mumkinligi bashorat qilinganligini ko'rshimiz mumkin.

Valyuta bozori o'z mohiyatiga ko'ra aniq shartlar asosida amalga oshiriluvchi konversiya operatsiyalari majmui bo'lib, ularda bozor qatnashchilari, tomonlar oralarida amalga oshiriluvchi valyuta miqdori, ayriboshlash kursi, summasi, kuni hamda valyutalashuv sanasi o'z ifodasini topadi.

Konversiya operatsiyalariga nisbatan ingliz tilida **Foreign exchange operations qisqacha FOREX yoki FX atamasi qabul qilingan**. FOREX, toma'nodagi bozor emas. Uning biron - bir markazi yo'q. FOREX da savdo telefon aloqa yordamida va kompyuter tizimi terminallari vositasida amalga oshiriladi.

Valyuta kurslari davlat tomonidan tartibga solish siyosatining barbod bo'lisi (bu siyosat kutilgan natija berishi qiyin) FOREX bozoriga ko'plab professional birja ishtirokchilari bilan bir qatorda boshqa soha tabirkorlarining ham shiddat bilan kirib kelishlariga sabab bo'lmoqda. Bu o'rinda Bretton-Vuds shartnomasining barbod bo'lganligini eslashning o'zi kifoya.

FOREX bozoridagi valyuta tebranishlari kishilar, ya'ni bozor qatnashchilarida turli his-ehtiroslarni keltirib chiqaradi. Professional treyderlar uchun bu mo'maygina daromad manbai bo'lsa, korparatsiya yoki investitsiya fonlari menejerlari uchun esa birmuncha qaltislik, kutilajak daromadlar bobida esa noaniqlikdir.

Fikrimizning mohiyatini tushunish uchun esa FOREX bozoriga ta'sir etuvchi omillarga bir nazar tashlaymiz:

- to'lovlarning o'zaro muvozanatlari bo'lisi zarurati;
- iqtisodiy vaziyat;
- texnikaviy tahlil - grafiklar asosidagi prognoz – bashoratlar;

- siyosiy va ruhiy omillar va boshqalar.

FOREX bozoridagi joriy holatga ta'sir etuvchi bosh omil, davlatlararo sarmoya - kaptalning harakati zaruratidir. Valyuta operatsiyalarining eng ko'p hajmi ayni davlatlararo konversiya operatsiyalariga to'g'ri keladi.

FOREX bozori turli investorlarni ham o'ziga tortadi, keyingi yillarda professional investorlarning bozordagi nufuzi ancha ortdi. Bu bozorning barcha qatnashchilar, jumladan xususiy tadbirkorlar uchun ham borobar huquqiy asos yaratilaganligi xususiy tadbirkor - investorlarning FOREX bozoridagi soni barcha qatnashchilarga qaraganda sezilarli darajada oshgan. Bu valyuta bozoriga kirish uchun har bir tadbikor internet tarmog'iga ulangan kompyueri bilan birga o'ziga ma'qul diling firmasi bilan tuzilgan shartnomasi bo'lsa bas, FOREX bozorida bemalol faoliyat oblib borishi mumkin. FOREX nimasi bilan jozibali ekanligini bilish uchun uning hususiyatlarini sanab o'tishning o'zi kifoya qilsa kerak.

FOREX quyidagi xususiyatlarga ega:

- likvidlilik, ya'ni konversiya operatsiyalarini amalga oshirish kafolati – har bir operatsiya albatta oxiriga etadi, ochilgan pozitsiya albatta yopiladi va u yoki bu natija bilan tugatiladi;
- barcha bozor qatnashchilari uchun qatnashish imkoniyatining yuqoriligi, FOREX da savdolar haftada 5 kun, sutkasiga 24 soat davomida amalga oshirish imkoniyati natijasida qatnashchi istalgan voqealar rivojiga o'z ta'sirini ko'rsata olishi. Savdolarni ochlishi va yopilishi vaqt yo'q;
- Savdolarning egiluvchan tizimda tashkil etilganligi. Investitsiya menejerlari u yoki bu pozitsiyani ocha turib, o'z harakatlarini hohlagan vaqtida amalga oshirishlari mumkinligi. FOREX valyuta bozorida pozitsiya ochib investorlar, hohlagan vaqtlarida yopishlari mumkin, vaqt borasida hech bir cheklanishning yo'qligi investorlarni so'zsiz o'ziga tortadi;
- Bitimlar uchun to'lovlar strategiyasining egiluvchanligi, talab va taklif oralaridagi tafovutdan boshqa hech qanaqa harajatning yo'qligi;
- FOREX bozorining yo'naltirilganligi, valyutalar harakatlarini aniq va tushunarli ko'satkichlar - grafiklar yordamida ko'rinish turishi. Bozor qatnashchilari istagan vaqtida etarli vaqt mobaynida(5 daqiqalik, 15 daqiqalik, 1 soatlik, 4 soatlik,

1 kunlik, 1 haftalik, 15 kunlik, 1 oylik va yil chorakli va yillik grafiklarining doim kompyuter tizimida mavjudligi va uzluksiz yangilanib borishi) valyutalar kurslarini monitorda kuzatib borishlari imkoniyatining barcha uchun tengligi;

- marja miqdorining pastligi. FOREX bozoridagi kredit - “elka” miqdori faqat mijoz va bank yoki brokerlik firmasi oralaridagina kelishilganligi, mijozga kam mablag’ bilan bozorga kirish imkoniyatini beradi. Odatda treyderlar uchun kredit “elka” 1/1, 50/1, 100/1 nisbatlarda berilishi mumkin.

10.2. FOREX bozorining xususiyatlari va unga ta’sir etuvchi omillar

FOREX valyuta bozorining ijobiy hususiyatlarini tariflabgina qolmay, unga jiddiy yondashadigan bo’lsak quyidagilarni ko’rishimiz mumkin.

Birinchidan, FOREX ruletka-qimor o’yini emas, bu erdagи valyutalar kurslarining tebranishlari zamirida ma’lum qonuniniyatlar yotganini ko’rishimiz mumkin. Valyutalarning kurslari mamlakatlardagi iqtisodiy ko’satkichlar bilan bevosita bog’liq.

Ikkinchidan, bozor qatnashchilarining qaysi valyuta bilan ishlashni g o’zlari hal qiladilar va o’zaro aloqalarning mushkulligiga qaray, valyuta kurslarini tahlil etish va prognozlash mumkin. Chunki jahon valyuta bozoriga shubha bilan qarovchilar odatda, bu bozor haqida butunlay bexabar kishilar ekanligi keyingi paylarda o’tkazilgan kuzatuv, so’rov va boshqa taqiqotlar natijalarida ma’lum bo’lmoqda. Valyuta bozoridagi bevosita faoliyat bunday qarashlarni bartaraf etadi, chunki texnikaviy tahlil – grafiklar o’zida valyuta kurslariga ta’sir etuvchi omillarni yaqqol ko’satib turadi.

Tadbirkorlarning ayrimlari valyuta bozoridagi yutuq faqat boshqa qatnashchilarning yutqazuvlari tufayligina vujudga keladi, deb o’ylaydilar. Aytish kerakki, FOREX valyuta bozori qatnashchilarining hammasi ham valyuta kurs o’zgarishlari doirasidagina savdo qilmasdan, ko’pincha yirik qatnashchi guruuhlar uchun amalga oshiruvchi konversiya operatsiyalarini amalga oshirish, hamda boshqa maqsadlar uchun valyuta operatsiyalarini ayriboshlash uchun xizmat

qiladilar. Masalan eksport-import operatsiyalari to’lovlari, yirik investitsiya loyihalari, sayyoohlar uchun kurs tebranishlari hal qiluvchi ahamiyatga ega emas.

Mahsulotlarini xorijga sotgan tovar ishlab chiqaruvchilar xaridor mamlakat valyutasini oladilar, o’z mamlakatlaridagi ishchi xizmatchilarga ish haqini o’z mamlakatlari valyutasida to’lashlari kerak. Buning uchun esa chet el valyutasini ayriboshlashga to’g’ri keladi. Ayni shunay yirik kompaniyalar buyruqlariga muvofiq banklar yoki broker firmalar konversiyali valyuta operatsiyalarini amalgalashiradilar. Jahonning nufuzli-etakchi valyutalari suzib yuruvchi kurslar bo’yicha erkin konvertatsiyalanishi evaziga bunday operatsiyalarning o’zi mo’maygina daromad manbai bo’lishi mumkin. Jhon uzra kechayotgan moliyaviy inqiroz valyuta bozoriga ham o’z ta’sirini ko’rsatmasdan qolmaydi, lekin bozordagi yangi savdo texnologiyalarini qo’llashni kengaytirilishi bozor qatnashchilari uchun keng qo’shimcha imkoniyatlar yaratadi. Bu imkoniyatlarining biri horijda keng tarqalgan lekin bizda, kam foydalanilayotgan valyuta bozorining tez o’sib boryotgan FOREX birjasi imkoniyatlaridir. Respublikamiz yosh tabirkorlari uchun yana bir saboq bo’lur deb, birinchi navbatda valyuta oldi – sotdi bitimini tuzish texnologiyasi haqida quyidagilarni ma’lum qilmoqchimiz.

Avvalo FOREX bozorida faoliyat ko’rsatmoqchi bo’lgan yosh tadbirkorlar qanday qilib bitim bitish uchun pozitsiyalar ochishlari mumkin?

Monitorda o’z aksini topgan texnik taxlil valyuta juftligining o’sishini ko’rsatsa, sotib olish kerak bo’ladi. Doimo ask narxda sotib olish kerak bo’ladi. Valyutani sotib olish daganda abbreviaturada birinchi turgan valyutani sotib olinishini bildirsa, abbreviaturada ikkinchi turganini esa sotilyotganini bildiradi. Bu holda bitim bitib, sotib olinayotgan valyutangizni o’sishiga umid qilasiz, sotayotgan valyutangizni esa pasayishiga, ya’ni ikkinchi valyuta birligiga ko’proq birinchi valyuta birligi berilishini bildiradi, boshqacha qilib aytganda siz, valyutani qimmatroq sotib, arzonroq narxda sotib olishingiz mumkin, demak valyuta juftligi kursi o’sadi.

Agar valyuta juftligi kursi monitordagi jadvalda pasaysa, sotish kerak. Doimo Bid narxida sotiladi. Valyuta juftligi sotish – abbreviaturada birinchi turgan valyutani sotilishini bildirsa, abbreviaturada ikkinchi turganini sotib olinganini

bildiradi. Bu holda bitim bitib, ikkinchi valyutani qimmatroq sotib, birinchisini arzonroq sotib olinganini bildiradi, ya’ni valyuta juftligi kursi pasayadi.

10. 3. FOREXda valyuta operatsiyalari uchun bitimlar bitish shartlari.

FOREX savdolarida qatnashchi yangi pozitsiya ochishi uchun, diling firmasi bilan shartnoma shartiga muvofiq savdo platformasiga kirib, o’z hisob varag’ingizga kirib, monitordagi valyutalar savdo qilinishi mo’ljallangan juftlik kurslarining real vaqtda o’zgarib turuvchi jadvali diqqat bilan kuzatib boriladi. Monitorga bиринчи navbatda Yangi order –“Noviy order” darchasi chiqariladi, buning birnecha usullari mavjud:

- “obzor rinka”da, yoki «Terminal» darchasida sichqonni o’ng tugmasini bosib “Torgovlya” va menu kontekstida “ noviy order” ni tanlaysiz;
- F9 tugmasini bosasiz;
- Menyu punktida “Servis” - “ noviy order”ni tanlaysiz;
- Jadvalda sichqon o’ng tugmasini bosasiz va menu punktida paydo bo’lgan “Torgovlya”-“noviy order”ni tanlaysiz;
- sichqon chap tugmasini 1 lahzada ikki marotaba bosib “obzor rinka”da valyuta juftligini chiqarasiz.

Yuqorida sanab o’tilgan harakatlarning qaysi birini amalga oshirishingizdan qat’iy nazar monitorda «Noviy order» darchasi paydo bo’ladi. FOREX da bitim bitishning ikkita “Instant Execution”va «Ispolnenie po zaprosu» texnologiyalari mavjud.

“Instant Execution” - “Zudlik bilan ijro etilishi”ni bildiradi, ya’ni bitimni ijro etish uchun diling markazidan hech qanday valyuta kotirovkalar so’rab o’tirilmaydi. Sizning o’zingiz ularni «Noviy order» darchasida real vaqt tartibida ko’rib turasiz, monitordagi kotirovka sizga ma’qul bo’lsa, “Buy” – sotib olish, yoki “Sell” – sotishga sichqon tugmasini bossangiz, siz sotish yoki sotib olish uchun pozitsiya ochishingiz mumkin bo’ladi.

«Obzor rinka» dagi kotirovkalar “Instant Execution” texnologiyasida savdo qilinganda “ erkin suzib yuruvchi” harakteriga ega, ya’ni diling markazi bitimlar bitish uchun taklif etayotgan kotirovkalar hisoblanadi. «Ispolnenie po zaprosu»

texnologiyasi bo'yicha savdo qilinganda, esa «Obzor rinka» da aks etgan kotirovkalar indikativ bo'lib, ular bo'yicha bitimlar diling markazidan so'rab amalga oshiriladi. Bu holda «Noviy order» darchasi aktivlashtirilgandan so'ng "Buy" – sotib olish, yoki "Sell"- sotish tugmalari darhol ishlamaydi, qo'shimcha "So'rov" - "Zapros" tugmasi bosilgach, diling markazi sizga bitim bitish uchun kotirovka taklif etadi. Diling markazi taklif etgan kotirovka bir necha soniya ichida kuchga ega bo'ladi. "Buy" yoki "Sell" tugmasi bosilgandan so'ng, sizga sotish yoki sotib olish uchun pozitsiya ochiladi.

Bir oz bo'lsada tajribaga ega valyuta qatnashchisi uchun odatda, «Ispolnenie po zaprosu» texnologiyasi qulayroq hisoblanadi. Chunki, bozor qatnashchisi haqiqiy - real hisob schyoti ochganda bitimni amalga oshirish uchun bir necha soniya kifoya qiladi. «Ispolnenie po zaprosu»da savdo operatsiyasini amalga oshirish uchun sarflanadigan vaqt 30 - 40 soniyagachan cho'zilishi mumkin, bundan tashqari "Ispolnenie po zaprosu"da «Obzor rinka»dagi kotirovkalar indikativ – ko'rgazmagina bo'lib, sizning so'rovingiz bo'yicha bitim bitish uchun diling markazi taklif etgan kotirovkadan farq qilishi mumkin.

Demak, savdo bitimlarini "Instant Execution" texnologiyasida amalga oshirish imkoniyati diling markazlaridan qaysi birini tanlashda muhim shart hisoblanadi.

Bitimni amalga oshirgunga qadar «Noviy order» darchasida siz o'zgarishlar maydonida qator, o'zgarishlar qilinishi mumkin:

- "Simvol" – bitim bitishingiz mumkin bo'lgan valyuta juftli;
- "Ob'em" – bitim lotlari hajmi (miqdori);
- "Stop loss" – orderdagи "Stop loss" darajasi;
- "teyk profit" – orderdagи "Take profit" darajasi;
- "Kommentariy" – bitimdagi sizning sharhingiz.

Ochiq pozitsiyani "Terminal" darchasi, "Torgovlya" vkladka - qo'yilmasida yopish uchun esa, sichqon o'ng tugmasini bosamiz, - Monitorda paydo bo'lgan kontekst menyudan "Zakrit order"ni tanlab sichqon tugmasini bossangiz bas!. "Terminal" darchasidagi ochiq pozitsiyada sichqon chap tugmasini 1 lahzada ikki marotaba bosilsa, ham xuddi yuqoridagi natijaga olib keladi. Paydo bo'lgan «Noviy

order» darchasidagi “Zakrit # nomer pozitsii...”ni tanlaysiz. Agar “Ispolnenie po zaprosu” texnologiyasida ishlanganda avval, “Zapros” tugmasini bosib, bitim bitish uchun diling markazidan kotirovka darajasini bilib olishingiz zarur bo’lar edi. Faqat shundan keyingina “Zakrit # nomer pozitsii...” tugmasi aktivlashadi.

Sokin bozor sharoitda bitimlarni odatda, diling markazi taklif etgan kotirovkalar asosida amalga oshiriladi. Biroq muhim iqtisodiy yangiliklar ma’lum bo’lishi bilanoq, bozor o’zgarishlari shiddatli bo’ladi. Treyder bir to’htamga kelishi va qaror qabul qilshi uchun zarur bo’lgan bir soniya ichida diling markazi taklif etigan kotirovka tez eskiradi va treyder zarur harakatlarni amalga oshirolmaydi. Bunday hollarda taklif etilgan kotirovka bekor qilinib, “Requote” – qayta kotirovkalash darchasi paydo bo’lib, unda diling markazi treyderga bitim uchun yangi kotirovka taklif etadi.

FOREX valyuta bozorida bitimlar bitish jarayonida treyderlar uchun bitimlardagi pozitsiyani ochiq qoldirib – “tashlab” qo’yish, narx tebranishlaridagi qulay vaziyatda yana savdolarda qatnashish imkoniyatni beruvchi “Rending order” – “Otlojenniy order” bitim - shartnomasining mavjudligi treyderlarning uzoq vaqt monitor oldida o’tirib toliqishlaridan holos etuvchi muhitning yaratilganligi FOREX valyuta bozori jozibadorligini yanada oshiradi.

Buning uchun “Rending order” – “Otlojenniy order” bitimining 4 xili bo’lib, ularning barchasi treyderni qoniqtiruvchi foyda ”Take profit” yoki ”Stop loss” zarar chegarasida pozitsiyasini yopish imkoniyatini beradigan “modifikatsiya” – chegarali order ochishiga xizmat qiladi.

Yuqorida sanab o’tilgan FOREX valyuta bozori imkoniyatlaridan foydalanish, respublikamiz tadbirkorlari imkoniyatlarining chegaralarini kengaytirbgina qolmay, ularning jahon moliyaviy kengliklariga yanada chuqurroq kirib borishlariga ko’maklashdi. Ohir oqibatda, tadbirkorlarimizning FOREXga bo’lgan qiziqishlari ortishi va bu bozorda faoliyatlarini har tomonlamam kengaytishlari Prezidentimiz tomonidan 2008 yilgi ustuvor iqtisodiy masalalar, jumladan, aholi bandligini ta’minlash, shuningdek uning farovonligini oshirishning eng muhim yo’nalishi bo’lgan kichik biznes va hususiy tadbirkorlik, xizmat

ko'rsatish sohasi va kasanachilikni qo'llab-quvvatlash va rag'batlantirish vazifalarini hal etishga xizmat qiladi.

Qisqacha hulosalar:

Valyuta xalqaro iqtisodiy ayriboshlash va boshqa xalqaro aloqalarda qatnashib ular natijasida pullik hisob - kitob zaruriyatiga olib keladigan mamlakat pul birligidir.

Amaliyotda valyuta milliy banknot shaklida foydalaniladi hamda to'lov vositasi va kredit omillari hisobi (cheklar, trattalar, pul otkazish vositasi) bo'lishi mumkin.

1944 yili BMTning Bredton-vudzdagi valyuta moliya anjumanida xalqaro valyuta jamg'armasi va valyuta tizimining qurish printsplari haqidagi bitim ishlab chiqildi va imzolandi.

Valyutalarni solishtirma og'irligi bu valyutalarni xalqaro savdo va to'lovlardagi solishtirma og'irliklariga tengdir. XVJ rasmiy ma'lumotlarida SDRdan faol foydalanadi. SDR har yili XVJ tomonidan kotirovka qilinadi

Valyutalarni har - hil ishonchliligi, turli mintaqaviy manfaatlar 3 asosiy valyuta va valyuta kurslarini aniqladi;

Valyuta tebranishi har tarafga 2,25% gacha tebranishi mumkin bolgan valyutalar.

Valyuta birjasi-milliy valyutalarni tashkil etilgan bozori.

Unda milliy valyutalarni bozordagi talab va taklif ta'sirida shakllangan bir-biriga bo'lgan nisbati - kursi bo'yicha erkin oldi - sotdisi amalga oshiriladi.

Biron bir yoki bir nechta kuchli konvertatsiya qilinuvchi valyutalarga bog'langan valyutalar va erkin suzib yuruvchi kursli valyutalar. Valyuta bozoridagi har kungi talab va takliflar asosida o'rnatiladi.

Valyuta bozori o'z mohyatiga ko'ra aniq shartlar asosida amalga oshiriluvchi konversiya operatsiyalari majmui bo'lib, ularda bozor qatnashchilar, tomonlar oralarida amalga oshiriluvchi valyuta miqdori, ayriboshlash kursi, summasi, kuni hamda valyutalashuv sanasi o'z ifodasini topadi.

Konversiya operatsiyalariga nisbatan ingliz tilida Forin ekschanj operashinz qisqacha FOREX yoki FX atamasi qabul qilingan. FOREX, tom ma'nodagi bozor

emas. Uning biron - bir markazi yo'q. FOREX da savdo telefon aloqa yordamida va kompyuter tizimi terminallari vositasida amalga oshiriladi.

FOREX bozoriga ta'sir etuvchi omillarga bir nazar tashlaymiz:

- to'lovlarning o'zaro muvozanatli bo'lishi zarurati;
- iqtisodiy vaziyat;
- texnikaviy taqlil - grafiklar asosidagi prognoz – bashoratlar;
- siyosiy va ruhiy omillar va boshqalar.

FOREX bozoridagi joriy qolatga ta'sir etuvchi bosh omil, davlatlararo sarmoya - kaptalning qarakati zaruratidir. Valyuta operastiyalarining eng ko'p qajmi ayni davlatlararo konversiya operastiyalariga to'qri keladi.

FOREX bozori turli investorlarni qam o'ziga tortadi, keyingi yillarda professional investorlarning bozordagi nufuzi ancha ortdi. Bu bozorning barcha qatnashchilar, jumladan xususiy tadbirkorlar uchun ham borobar ququqiy asos yaratilaganligi xususiy tadbirkor - investorlarning FOREX bozoridagi soni barcha qatnashchilarga qaraganda sezilarli darajada oshgan. Bu valyuta bozoriga kirish uchun har bir tadbikor internet tarmoqiga ulangan kompyueri bilan birga o'ziga ma'qul diling firmasi bilan tuzilgan shartnomasi bo'lsa bas, FOREX bozorida bemalol faoliyat oblib borishi mumkin.

Nazorat savollari.

1. Xalqaro valyuta tizimi deganda nimani tushunasiz?
2. Valyuta kursi nima?
3. Valyutalar kotirovkasini ta'riflang.
4. Kross kurslar ahamiyati qanaqa?
5. Valyuta bitimi tushunchasiga nimalar kiradi?
6. Valyuta bitimlarii qanaqa xillarii bilasiz?
7. FOREX bozori mohiyatini tushuntirib bering.
8. “Bit” shartnomasining mohiyatini tushuntirib bering.
9. “ASK” shartrnomasining mohiyatini tushuntirib beriig.
10. FOREX bozori qanday maqsadlarga xizmat qiladi?

Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining “Birja va birja faoliyati to'g'risida” gi qonuni (yangi taxrir). 2001 y. 3 qismi.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining “O'zbekistonda birja va yarmarka savdosini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari haqida”gi qarori
3. “Davlat xaridlari tizimini optimallashtirish va ularga kichik biznes sub'ektlarini jalb qilishni kengaytirish haqida” gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 7 fevral 1474 – sonli qarori
4. Каменева. Н. Г. Организация биржевой деятельности - М.: Банки и Биржи ЮНИТИ, 2002, стр. 313.
5. Дегтярева О.И. Биржевое дело - М.:МАГИСТР 2010, . 623 с.
6. Yunusov M.P. Birja va yarmarka faoliyatini boshqarish. Ma'ruzalar matni, - Т., TDIU, 2005. 24-2 betlar
7. www.yarmarka.ru
8. www.uzex.uz
9. www.xarid.uz.
10. www.Exchage.com

11-mavzu. Bozor tizimida savdo uylari va ularning moddiy texnika bazasi.

Reja:

- 11.1. Birja savdosida savdo uylarining ahamiyati.
- 11.2. Savdo uylari klassifikatsiyasi
- 11.3. Birjalarning asosiy fondlari.

11.1. Birja savdosida savdo uylarining ahamiyati.

Savdo uylarini jahon bozor sistema tizimida paydo bo'lishi 19 asrni 2 - yarmiga to'g'ri keladi. Bu davr axborot o'zatishni yangi vositalariga asoslangan sanoat, fan va texnikani gurkirab taraqqiy etishi, savdo aloqalarini keng quloch yoyishi bilan izohlanadi.

Bu sharoitda tovar sotish va uni yetkazib berishni o'zi kamlik qilardi. Xaridorlarni jalb qilish, savdoni yangi usuli va shakllarini topish zarur edi. Tovar sotish, yukni tashib berish , uni sug'urta qilish, yuk kemalariga yetkazib berish,

transport dispetcherlik xizmati, axborot xizmati, tovarlarni jamlab sotish kabi xizmat turlari bilan to'ldirildi.

Yuqorida zikr etilgan xizmatlarni rivojlanishi tovar ishlab chiqaruvchilar bilan birgalikda ishlash zaruriyatini tug'dirdi. Bu aytib o'tilgan xizmatlarni kengaytirishgina emas, balki xaridorning shaxsiy extiyoj, xohishini qondirishga qaratilgan mahsulot texnik harakteriga ma'lum o'zgartirishlar kiritish orqali amalga oshirish imkoniyatini yaratdi. Savdo xodimlari shu yo'l bilan ishlab chiqarish tarkibiga ta'sir eta boshladilar. Ta'sir samarador bo'lishi uchun savdogarlar o'z pullarini ishlab chiqarishga sarflay boshladilar.

Shu tariqa savdo uylari savdo vositachi tarkib sifatida paydo bo'lib, ishlay boshladilar. 1917 yilgacha Rossiyada bir necha savdo uylari faoliyat ko'rsatar edilar. Ularni asoschilari ko'pchilikka tanish savdogar va tadbirkor kishilar edilar Rossiya savdo uylarining ayniqsa, tukimachilik va ozik-ovkat va boshqa iste'mol mollari bozoridagi faoliyatlari e'tiborga molik edi.

Savdo uyi yirik savdo tashkiloti bo'lib uning muhim xususiyatari; tovar ishlab chiqarish soxasiga faol kirib borish, ishlab chiqarish koperatsiyalarini tashkil etish va moliyaviy kredit operatsiyalarda qatnashishidir.

Dunyodagi savdo uylarining asosiy maqsadlari quyidagilar :

- vositachilik operatsiyalarini ijobiy takomillashtirish va kengaytirish asosida tashki iqtisodiy aloqalarni faollashtirish;
- jahon tovar bozorlaridagi kon'yunktura o'zgarishlariga tezlik bilan javob chora ishlab chiqish;
- raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarish va sotuvini tashkil qilish;
- kichik va o'rta firmalarini birlashtirib ulardag'i tovarlar sotuvini moliyalashtirish;
- reklama marketing xizmatlari, izlanishlari harajatlari va muomala harajatlarini kamaytirish ;
- mijozlarga keng kulamda qo'shimcha xizmat ko'rsatish bilan bilan oldi-sotdi jarayonini boyitish;
- ishlab chiqarish tarkibiga ta'sir ko'rsatish jumladan, bu ishni savdo sarmoyasini ishlab chiqarishga investitsiya qilish orqali amalga oshirish.

Savdo uylari iqtisodiyot taraqqiyotining o'tish davrida bir tarafdan egalariga eng ko'p savdo foydasini keltirib boshqa tarafdan bozorni xilma-xil tovarlar bilan boyitib, o'z mamlakatlarini eksport pozitsiyalarini mustaxkamlab, ayniqsa samarali faoliyat ko'rsatadilar.

Savdo uylarini rivojlanish tarixini ko'zdan kechirib, birinchi galda qonunchilikka e'tiborni qaratish mumkin. Bir qator Braziliya, Buyuk Britaniya, Germaniya, Xindiston, Frantsiya va boshqa davlatlarda savdo uylarinig mamlakat eksport siyosatini va iqtisoddagi katta ahamiyatini hisobga olib maxsus qonunchilik aktlari va me'yoriy hujjatlar qabul qilingan. Ularda savdo uylari faoliyati davlat tomonidan muvofiqlashtirilib, savdo uylariga nisbatan ma'lum ustunlik va imtiyozlar ko'zda tutilgan. Rossiya qonunchiligida "Savdo uyi" degan tushuncha yo'q. Shu bilan birga amaldagi qonunlarda savdo uylari faoliyatini tashkil etish, va tartibga solish nuktai nazardan xech qanday qanday tuskinliklar yo'q.

Sobik SSSR qonunchiligida savdo uylari birinchi bor, SSSR Ministrlar Sovetining 1988 yil 2-dekabrdagi 1405- raqamli "Davlat korxona va muassasa tashkilotlari tashki iqtisodiy aloqalarni yanada rivojlantirish haqida"gi qarorida tilga olingan edi. SSSR Ministrlar Sovetining 1990 yil 20-iyuldagagi 712-raqamli SSSR xududida xorijiy valyutaga chakana savdo xizmatini yanada takomillashtirish qarori chikishi bilan savdo uylari tuzish uchun ancha jiddiy huquqiy asos paydo bo'ldi.

11.2. Savdo uylari klassifikatsiyasi.

Amaldagi qonunlari bir-biridan quyidagilar bilan farqqiluvchi savdo uylar ishslashlari uchun imkoniyat beradi:

- Tashkiliy huquqiy maqomi;
- Faoliyat tasnif, ya'ni maqsadi;
- Harakat kulami;
- Aloqalari shakli;
- Savdo operatsiyalari tasnifi bilan.

Tashkiliy huquqiy makomi bo'yicha yopiq xildagi aksiyadorlar jamiyatiga tenglashtirilgan ma'suliyati cheklangan, o'rtoqchilikka va ochiq yoki yopiq turdag'i aksiyadorlar jamiyatlar qatoridagi savdo uylarini kiritish mumkin, ularga:

- o'z hisobidan o'z hisobiga savdo qiluvchi yirik savdo firmalari;
- axyon-axyonda savdo operatsiyalari bilan birga o'z hisobi uchun ishlovchi an'anaviy vositachi yirik brokerlik firmalari. Ular broker firmalarining aloxida xili bo'lib, birjaviy va birjadan tashqaridagi mollar bilan ulgurji, mayda ulgurji va chakani savdo operatsiyalarini olib boradilar.
- Kuchli birjalarni xosila tashkilotlari-brokerlik idoralar ishtirokida Mutaqil savdo faoliyati va davlat ro'yxatidagi tovarlar (Birjada predmeti sifatida ma'lum tovar guruhlari savdosi ta'qiqlashishi tabiiy xoldir) yuzasidan savdolashuvni tashkil etishlari mumkin. Bunday xil savdo uylari birja ro'yxatiga kirmagan tovarlar birjasiga aylanib kolishi mumkin. Bunaka savdo uylari Rossiya tovar xom ashyo birjasida mijozlar aloqalarini buzmay, brokerlar manfaatlariga sherikchilik qilmasdan, birja ro'yxatiga kiritilmagan tovarlarni birjani o'zidan olib chikish uchun tashkil etilgan edilar. Masalan Brokerlik savdo uyi, Rossiya birja savdosi uyi.

- Savdo uyi nomi bilan nomlangan birjalar (Kamskiy savdo uyi "Universal birjasi").
- Ilgarigi davlat tashqi iqtisodiy tarkibi negizida tuzilgan tashqi iqtisodiy firmalar, ko'pincha qo'shma korxona shaklida bular edi, Bevosita birja faoliyatiga ularni odatda aloqalari yo'q.

Savdo uylarini faoliyatları harakteri bo'yicha, ya'ni maqsadlari bo'yicha ikkita toifaga bo'lish mumkin:

Tor doirada ixtisoslashgan savdo uylari, ular odatda, tor, qisqa ro'yxatli, kam sonli, bir xil tovarlar bilan savdo qiladilar, ularni ta'sischilari birinchi galda, o'zaro jahon bozoridagi o'z raqobatdoshini bartaraf qilish, kuch-e'tiborni bir joyga tuplab tashki savdo siyosatini olib borishga intiladilar, tor doirada ixtisoslashtirilgan savdo uyini ta'sischisi bor yo'g'i bitta yirik tovar ishlab chiqaruvchi bo'lishi mumkin, u shu yo'l bilan o'zini mol sotish siyosatini faollashtirishiga umid bog'laydi.

Ixtisoslashgan savdo uylari jahon bozoridagi qattiq raqobat, ichki bozordagi talab to'lovlarini cheklanganligi va narxlar erkinligi sharoitida texnik murakkab mahsulotlarni sotish kiyinchiliklariga javob harakati maxsulidir.

Bir xil turdag'i mollarni turli xil o'zgartirishlar va takomillashtirish va yangi dizayn bilan sotishni kengaytirishga yunaltirilgan - Diversifikatsiya faoliyatli savdo uylari .

Universal savdo uylari, keng doiradagi tovarlar sotishga xizmat va asosiy faoliyat turlarini mumkin kadar oshirishga muljallangan bo'ladilar, ular ko'prok ichki bozorda faoliyat ko'rsatib, boshqa savdo-vositachi tashkilotlar bilan raqobatlashadilar.

Hozirgi vaqtida universal savdo firmalari o'z faoliyatida tashqi savdo bilan cheklanib qolmay, biznesning turli soxalariga kirib bormoqdalar, jumladan ishlab chiqarishni yangi tarmoqlarini rivojlantirish, qo'shma korxonalar tuzish, qarz berish (kredit) soxasi va boshqalarda faoliyat ko'rsatmoqdalar. Bugun ular quyidagi funktsiyalarni bajariyaptilar: Savdo bitimlari tuzish, tovarlarni saqlash, egasiga yetkazish, moliyaviy operatsiyalar, investitsiyalar, qo'shma korxonalar barpo etish, yuk tashish, marketing, bozorni tadqiq etish, axborot soxasidagi faoliyati, maslahat-konsalting, texnik yordam ko'rsatish va boshqalar.

Faoliyati yo'naliishlari bo'yicha universal savdo uylarini uchga bo'lish mumkin:

Savdo operatsiyalari (tovar sotish va yetkazib berish, jumladan o'z omborlaridan to'g'ridan-to'g'ri tez yuk tashish, tovarlarni jamlab tashish, sotilayotgan tovarlar, jixozlar va texnikadan foydalanish bo'yicha texnik va maslahat yordami, ularni o'rnatish, montaj qilish va sinab ko'rish, savdo ko'rgazmalarini tashkil etish va x.k.).

Moliyaviy operatsiyalar (tijorat, kredit, karzlar berish, innovatsiya qilish, lizing, qo'shma korxonalar tuzish kafolatlari berish va x.k.).

Axborot xizmati (bozorni tadqiq etish, axborot yig'ish taxlil etish va berish).

Universal savdo uylari savdo uylarining bir turi bo'lib, o'zlari mustaqil mahsulot ishlab chiqarmaydilar. Ular faqat tovar sotadilar. Universal savdo uylari moliya tashkiloti funktsiyasini bajaradi, lekin bu bank emas, axborot bilan ishlasada,

lekin axborot agenligi emas, ya’ni uni savdo faoliyatini moliyaviy axborot soxasidagi faoliyatlar bilan to’ldiradilar.

Harakat ko’lami bo’yicha savdo uylari mintaqaviy, maxalliy, federal, umummanfaatli va munitsipial ya’ni biror boshqarish tashkiloti yoki xudud tasarrufida.

Savdo shakli bo’yicha savdo uylari ulgurji, mayda ulgurji va chakana, komission, muqobil va konsignatsiyaga savdo qiluvchi va boshqalar.

Aloqa shakllari bo’yicha savdo uyini boshqa xo’jalik sub’ektlari bilan agentlik bitimi, hamkorlik bitimi, hamda oldi sotdi kontraktlari, konsignatsiya bitimlari ya’ni kontrakdagi bir taraf boshqa tarafga o’z nomidan xorijdagi ombori konsignat tovarlari hisobidan tovar sotadi va aloqani boshqa shakllari bilan shug’ullanadilar.

Savdo uylari o’z faoliyatini biron bir tovar guruhi bilan cheklamay, bir vaqt ni o’zida xo’jalik aloqalarini turli shakllaridan foydalanib, o’zaro hisob-kitob va samaradorlik bilan bog’lik butun kompleks bitimlar bilan savdo qiladilar.

11.3. Birjalarining asosiy fondlari.

Birja va birja tizimi korxonalarining moddiy texnika manbalari ularning samarali faoliyat ko’rsatishlari uchun zarur bo’ladigan asosiy, aylanma fondlari va hamda boshqa turdagи mulklaridan iborat bo’ladi.

Birja va birja tizimi korxonalarining asosiy fondlariga, ularning imoratlari, inshootlari, transport, kommunikatsiya-kompyuter vositalarini kiritish mumkin. Keyingi davrda muvofaqqiyatli faoliyat olib borish uchun asosoiy fondlar tarkibida kommunikatsiya-kompyuter vositalarining salmog’i ortib bormoqda.

Xo’jalik aloqalar intensivligi oshgan hozirgi davrda kompyuter-kommunikatsiya vositalari quyidagi asosiy vazifalarni bajaradilar:

- Prognozlash uchun statistika ma’lumotlarini jamlash;
- Birja vedomostlari (Prayce list)ni shakllantirish;
- Kotirovka ma’lumotlari (Birja listingi) ni tayyorlash;
- Bitimlarni ro’yxatga olib-qayd qilish;
- Elektron tablodan foydalanish;
- Boshqa birjalararo buyurtmalari harakatini ta’minlash;

- Auktsion (kim oshdi) savdolarini o'tkazish;
- Brokerlararo bitim shartlarini muvofiqlashtirish;
- Turli-tuman erkin mazmundagi axborot-informatsion ma'lumotlri tayyorlash va xakazo.

Birjalarning ichki faoliyatlarini amalga oshirishda brokerlarning avtomatlashtirilgan ish joylarini (ruscha talqini – avtomatizirovannoe rabochee mesto brokera, qisqacha – ARM) ahamiyati benixoya kattadir. Demak, birja asosiy fondlari tarkibida shaxsiy kompyuterlar, har bir shaxsiy kompyuterlarni bir-birlari bilan bog'lovchi aloqa vositalarining nufuzi kattadir. Chunki, zamonaviy birjalar elektron savdo tizimi orqali butun sutka davomida, kechayu-kunduz, aniq vaqtda amalga oshiriladi. Yer kurrasining qayerida joylashganligidan qat'iy nazar savdo aloqalarini o'rnatish imkoniyati faqat kompyuter-kommunikatsiya vositalari yordamidagina amalga oshirilishi mumkin.

Birja va birja tizimi korxonalarining aylanma fondlariga ularning nizomida aylanma mablag' sifatida foydalnishi ko'zda tutilgan mablag'lari (hissalari - paylari)ni kiritish mumkin. Bunday korxonalarining aylanma mablag'lari manbalari quyidagilar hisobiga shakllanadi:

- Birja savdosi qatnashchilarining a'zolik badallari (ta'sis va yillik badallari);
- Bir marotaba savdo qilish xuquqini beruvchi-kirish tolovleri;
- Birja bitimlaridan yig'iladigan yig'im tushumlar;
- Tovar variantlari (olib ketilmagan tovarlar) savdosidan tushgan tushumlar;
- O'z aylanma mablag'lari hisobidan berilgan kredit-qarzlaridan tushadigan foiz tushumlari;
- Ixtiyoriy badallar, to'lovlar va boshqa qonuniy taqiqlanmagan tushumlar.

Birja va birja tizimi korxonalarining aylanma mablag'lari qatoriga ular tasarruflaridagi tovar zahiralarini ham kiritish mumkin.

Qisqacha xulosalar:

Savdo uyi yirik savdo tashkiloti bo'lib uning muhim hususiyatari;

- tovar ishlab chiqarish sohasiga faol kirib borish, ishlab chiqarish koperatsiyalarini tashkil etish va moliyaviy kredit operatsiyalarda qatnashishidir.

Dunyodagi savdo uylarining asosiy maqsadlari quyidagilar :

- vositachilik operatsiyalarini ijobiy takomillashtirish va kengaytirish asosida tashqi iqtisodiy aloqalarni faollashtirish;

- jahon tovar bozorlaridagi kon'yuktura o'zganishlariga tezlik bilan javob choralari ishlab chiqish;

- raqobatbardosh tovarlar ishlab chiqarish va sotuvni tashkil qilish;

- kichik va o'rta firmalari birlashtirib ulardagi mollarni sotuvini moliyalashtirish;

- reklama marketing xizmatlari harajatlari va muomala harajatlarini kamaytirish;

- mijozlarga keng ko'lamma qo'shimcha xizmat ko'rsatish;

- sotish bilan oldi-sotdi jarayonini boyitish;

- ishlab chiqarish tarkibiga ta'sir ko'rsatish jumladan savdo sarmoyasini ishlab chiqarishga investitsiya qilish orqali.

Savdo uylari iqtisodiyot taraqqiyotining o'tish davrida bir tarafdan egalariga eng ko'p savdo foydasini keltirib boshqa tarafdan bozorni xilma-xil tovarlar bilan boyitib o'z mamlakatlarini eksport pozitsiyalarini mustahkamlab ayniqsa samarali faoliyat ko'rsatadilar.

Amaldagi qonunchilik bir-biridan quyidagilar bilan farq qiluvchi savdo uylar ishlashlari uchun imkoniyat beradi:

- Tashkiliy xuquqiy maqomi;

- Faoliyat tasnifi ya'ni maqsadi;

- Harakat ko'lami;

- Aloqalari shakli;

- Savdo operatsiyalari tasnifi bilan bir – birlaridan farq qiluvchi savdo uylari.

Birja va birja tizimi korxonalarining moddiy texnika manbalari ularning samarali faoliyat korsatishlari uchun zarur bo'ladigan asosiy, aylanma fondlari va hamda boshqa turdagи mulklaridan iborat bo'ladi.

Nazorat savollari:

1. Savdo uylarini birja savdosidagi ahamiyati qanday?
2. Savdo uylarini klassifikatsiyalab bering
3. Savdo uylarini vazifalari nimalardan iborat?
4. Savdo uylari tarkibi qanday?
5. Savdo uylarining boshqaruv tashkilotlarini tavsiflab bering
6. Savdo uylari iste'mol bozorini qanday qilib tovarlar bilan boyitadi?
7. Savdo uylarining moliyaviy operatsiyalardagi qatnashishlari qanday haraketrga ega bolmog'i darkor?
8. Savdo uylarining kichik biznes sub'ektlariga qanaqa ta'siri bor?
9. Xalqaro savdo uylari qanqa tashkilot?
10. Savdo uylarining tashkiliy –huquqiy shakllari qanaqa korinishga ega bolishlari mumkin?

Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining “Birja va birja faoliyati to'g'risida” gi qonuni (yangi taxrir). 2001 y. 3 qismi.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining “O'zbekistonda birja va yarmarka savdosini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari haqida”gi qarori
3. “Davlat xaridlari tizimini optimallashtirish va ularga kichik biznes sub'ektlarini jalb qilishni kengaytirish haqida” gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 7 fevral 1474 – sonli qarori
4. Каменева. Н. Г. Организация биржевой деятельности - М.: Банки и Биржи ЮНИТИ, 2002, стр. 313.i birji” -2003. 135-147 betlar
8. Дегтярева О.И. Биржевое дело - М.:МАГИСТР 2010, . 623 с.
9. Yunusov M.P. Birja va yarmarka faoliyatini boshqarish. Ma'ruzalar matni, - T., TDIU, 2005. 24-2 betlar
10. www.yarmarka.ru
11. www.uzex.uz
12. www.xarid.uz.

12- Mavzu. Yarmarka faoliyatini tashkil etish va boshqarish.

Reja:

- 12.1. Yarmarka faoliyatining mohiyati va evolyutsiyasi.
- 12.2. Yarmarka faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari.
- 12.3. Yarmarkalarda savdolashuv turlari va vazifalari.

12.1. Yarmarka faoliyatining mohiyati va evolyutsiyasi.

Yarmarka savdosi keng iste'mol tovarlari va sanoat texnika mahsulotlarini qisqa muddatli, vaqt-i-vaqti bilan qaytarilib turuvchi, oldindan namunalarini ko'rib, tanlab olish orqali amalga oshiriladigan hamda oldi-sotdi kontraktlari tuzish bilan yakunlanadigan ulgurji savdoning turidir.

Yarmarka faoliyatini printsiplari tashkil etiladigan har bir yarmarka ko'rgazmalarning tuzilishi va faoliyatlarini tashkil etilishi maqsadlari bilan chambarchas bog'liqlikda olib boriladi, shuning uchun yarmarka savdosi ko'rgazmali savdo bilan birgalikda bog'liq xolda, yaxlit tushuncha sifatida talqin etilmokda.

Yarmarka savdosi Biz yashab turgan makonda uzoq tarixiy ildizlarga egadir: Masalan Rossiyada bu savdo usuli an'anaviy savdo usuli bo'lib kelganligiga juda ko'p dalillar mavjud. 1641 yildayoq Podshox Ivan Fedorovich farmoni bilan Makarev ibodatxonasi (Nijniy Novgorod shaxri yakinida) devorlari yakinida Birinchi Butun Rusiya savdo yarmarkasi tashkil etilgan edi.

Yarmarka qatnashchilari orasida badavlat Rus savdogarlari, Xitoy, Xindiston, Buxoro, Toshkent savdogarlari bo'lib, ular oltin, mo'yna, ipak, kumush, marvarid, zigir va boshqa ko'p noyob tovarlar bilan savdo qilar edilar. 1816 yilgi mexmonlar uchun muljallangan saroyning yong'in natijasida barbod bo'lidan so'ng, yarmarka savdosi, azim shahar nijniy Novgorodda ataylab toshdan qurilgan saroyda o'tkaziladigan bo'ldi va aynan 1822 yildan e'tiboran Nijniy Novgorod

yarmarkasining yilnomasi boshlandi. Nijniy Novogroddagi yarmarka faqat savdo markazi bo'libgina qolmay, u Rossiya santalatining sanoat va madaniyat chorrasasiga aylandi. 1896 yili Buyuk Rossiya tadbirkori bo'lmish Savva Timofeevich Morozov raisligida Birinchi butun Rossiya Savdo-sanoat ko'rgazmasi ish boshladi.

XIX asrning boshlarida yana bir mashxur Irbit (Perm guberniyasida) yirik yarmarkasi paydo bo'ldi. Bu davrda Sibiriyada oltin qazish sanoati gurkirab rivojlanishi bilan e'tiborni o'ziga tortdi va bu o'z navbatida yarmarka faoliyatini rivojini tezlashtirdi.

Ulug' Oktyabr inqilobidan so'ng biroz, NEP yillari faollashuvini e'tiborga olmasa, yarmarka savdosi asta sekin unutila bordi.

Azaldan Markaziy Osiyoda keng tarkalgan savdo turlaridan yarmarka savdosi bo'lib, hozirgi Mutaqil Davlatlar Hamdustligi (MDH) hududida Oktyabr tuntarishigacha Turkiston, Semipalatinsk, Akmola viloyatlarida 450 ta yarmarkalar mavjud bo'lib ularni shartli ravishda 3 guruuhga bo'lish mumkin edi.

1. Uzoq tarixiy ildizga ega, 1643 yilda paydo bo'lib, Rossiya va Markaziy Osiyo xalqlari urtasida tabiiy Tovarlarni ayriboshlash faoliyatning asosini tashkil etib, 20 asrga kelib, Garbiy Sibir, Buxoro xalqlarining tovar bilan o'zaro ta'minlash kanaliga aylangan Irbit va Buxoro yarmarkalari.

2. 19 asrning oxiri 20 asrni boshlarida Prijivalsk atrofida paydo bo'lган va G'arbiy Xitoy va Markaziy Osiyo oralarida savdo alaokalarida ulkan ahamiyatga ega bo'lган, har yili 15 iyundan 15 avgustgachan o'tkaziladigan Karkara yarmarkasi.

3. Karakara yarmarkasida savdo operatsiyalari uchun temiryo'l va sug'urta tarifining 20% chegirtma, imtiyoz sifatida berilardi. Bu yarmarka savdo oborotining salmokli qismini chorvachilik va muyna mahsulotlari tashkil etar edi. Bu guruuh yarmarkalariga Toshkent, Avliyoota, Norin, Oktepa va Ayil viloyatlaridagi katta-kichik yarmarkalarni kiritish mumkin.

4. Markaziy Osiyonи xo'jalik taraqqiyoti yillarida vujudga kelgan yarmarkalar qatoriga Kizilurda, Suvsamir yarmarkalarini kiritish mumkin. Bu erda asosan shahar va qishloq aholisi o'zaro tovar ayriboshlash operatsiyalari amalga oshirilib, shu

bilan birga yarmarkada kushni mamlakatlar savdogarlari ham ishtirok etardilar, ular esa, o'z navbatida aholini tijorat faolligini oshishiga, mamalakatlarora savdo aloqalarining rivojlanishi va mustaxkamlanishiga xizmat qilar edilar.

Yarmarka faoliyatini qayta tug'ilishi Rossiyada 1991 yilga to'g'ri keladi. 1993 yilni o'zidayoq Butunrossiya Aktsiyadorlar jamiyatiga aylangan Nijniy Novgorod yarmarkasiga Madridda, ilgari faqat dunyoning to'rttagina, Yaponiya, Germaniya, Meksika, Ispaniya kabi malakatlar kompaniyalari sazovor bo'lган “Yevropa Arki Oltin Yulduzi” oliv mukofoti topshirildi.

Rossiyada yarmarka savdosi tijorat aloqalarining tashkiliy shakli sifatida keng quloch yozdi. An'anaviy yarmarka savdosi “Ko'rgazma savdo” va “Ko'rgazma salon”lar ko'rinishidagi tashkiliy shakllar orqali bozorda o'z o'rniga ega bo'la boshladilar.

Yarmarka faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilar:

- Namoyish etilayotgan namunalar bo'yicha tovarlarni ulgurji sotish;
- Savdoni ma'lum muddatda takrorlanib turishi;
- Avvaldan savdo o'tkazish joyi va muddatini kelishib olinishi;
- Bir vaqtda sotuvchi va xaridorlarni savdoda ommaviy qatnashishlari.

Odatda savdoni bir vaqtda va ommaviy o'tkazilishi yarmarka (Ko'rgazma) ta'sischilari va maxalliy xokimiyat tashkilotlari kelishuviga muvofiq amalga oshiriladi. Natijada savdo muddati, sharti va tartibi ko'rsatilgan maxsus hujjat imzolanadi, hamda o'tkaziladigan tadbir mas'ul shaxslari taynlanadi.

Ko'rgazmali va birja faoliyatini amalga oshirishda uchta muhim bosqich mavjud: Savdolar boshlanishidan oldingi, tashkiliy va so'nggi savdolar tugagandan keyingi xulosalar chiqarish bosqichi.

Savdo boshlanishidan oldingi bosqich savdo haqidagi qaror va buyruqni qabul qilish kabi ishlar bilan boshlanib, yarmarka komiteti va ishchi guruhi shakllanadi. Bu bosqichda yarmarka haqida nizom ishlab chiqilishi va qatnashchilarga yarmarkada qatnashish shart-sharoitlari haqida axborot jo'natilishi ko'zda tutiladi.

Ishchi guruh shuningdek, reklama materiallari, yarmarkaga taklifnomalar, mexmonlarni joylashtirish kabi tashkiliy masalalar bilan shug'ullanadilar.

Yarmarkada qatnashish shartlari haqida reklama prospektlari, broshyurlar nashr ettirilib, unda yarmarkada qatnashish narxlari, pavilonlarni ijara narxlari, reklama materiallaridan foydalangan xolda sirtqi qatnashish shartlari o'z aksini topadilar.

Yarmarka qatnashchilari qatnashishlari shaklidan qat'iy nazar yarmarka ochilishidan 15 kun ilgari qatnashish haqida rekvizitlari va o'zлari haqidagi zarur, bat afsil ma'lumotlar ko'rsatilgan ariza berishlari va ro'yxatdan o'tkazish uchun badal tulashlari kerak bo'ladi. Arizada o'zlarini talablari ya'ni qancha pavilon kerakligi, qancha mahsulot namoysh etishlari haqida ham zarur ma'lumotlar bo'lishi kerak.

Yarmarka o'tkazishdagi asosiy daromad manbai bo'lib, yarmarka qatnashchilarining badallari ,omborlar, transport vositalari va ekspozitsiyalar ijarasi to'lovlari, ko'rsatiladigan boshqa xizmat turlari uchun (texnik-informatsiya xizmati, transport-ekspeditsiya ishlari, ortish-tushirish va boshqa tijorat harakteridagi ishlar uchun) to'lovlari bo'lishi ko'zda tutiladi.

Yarmarkalar ichida Savdo-sanoat yarmarkasi o'ziga xos xususiyatlari bilan boshqa yarmarkalardan ajralib turadi. Savdo – sanoat yarmarkalarida tovar ishlab chiqaruvchi sanoat korxonalari takliflari benixoya kengligi va qatnashchilar sonini cheklanmaganligi bilan ko'prok, ko'rgazmaga o'xshab ketadi.

Bunda ma'lum vaqtida notijorat tashkilotlari va boshqa barcha fukarolarni ham ko'rgazmaga bemalol kiritilishi yarmarka harakterini va shartlarini o'zgartirmaydi.

Quyidagi jadvalda tijorat yarmarkasi va savdo-sanoat yarmarkalarining bir-birdan farqi va o'xshashliklari xarakteri ko'rsatilagan:

Nº	Xususiyatlari	Savdo yarmarkasi	Savdo-sanoat yarmarkasi
1	Huquqiy va jismoniy shaxslar tomonidan tashkil etilib, tashkillashgan bozor qatnashchilari uchun mo'ljallangan.	Xa	Xa
2	Faoliyat muddati cheklangan.	Xa	Xa
3	Faoliyati mukum joyda va vaqt-i-vaqt bilan takrorlanib turadi.	Xa	Xa
4	Yarmarkaga kirish faqat maxsus taklifnomalar bilan tartibga solinadi.	Xa	Xa
5	Ko'p sonli eksponatlar uchun mo'ljallangan.	Xa	Xa

6	Takliflar haqiqiy ob'ektivligi bilan ajralib turadi.	Xa	Xa
7	Takliflar faqat bir tarmoq korxonalarini tamonidan taqdim etiladi.	Xa	Yo'q
8	Namunalar bo'yicha to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar vazifasi qo'yiladi.	YO'Q	Xa
9	Axborot tarqatishdan pirovard maqsad namunalar bo'yicha savdoni rag'batlantirishdir.	Xa	Yo'q
10	Odatda hamma jismoniy shaxslar, qiziqqan fuqarolar uchun bemalol yarmarkaga kirish ruxsat etiladi.	Yo'q	Xa
11	Yarmarkaga kirish qiziqqan fuqarolar, xususiy shaxslar uchun faqat ba'zi alohida ruxsat etilgan xollardagina ruxsat etiladi.	Yo'q	Xa
12	Bevosita oxirigi iste'molchiga tovar sotish odatdagi oddiy xol.	Xa	Yo'q
13	Tovar ko'p xollarda oraliq iste'molchilarga sotiladi.	Xa	Yo'q

Yarmarka tugagandan keyingi uning salbiy va ijobiy taraflarini aks ettirib xulosalar chiqarish ishlarini tashkil etish juda muhim, mas'uliyatli bosqich hisoblanadi. Chunki aynan mana shu yarmarkalar o'tkazishdagi oxirigi bosqich ishlari kelgusi yarmarkalar o'tkazish strategiyasini belgilash uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Yarmarkalarni tashkiliy tuzilishi yarmarka komitetini uning ishchi organi bo'lган ijrochi guruhi bilan doimiy aloqada ishlashini taqazo qiladi. Har bir yarmarka komiteti a'zosi xal qiluvchi ovozga ega bo'ladi. Tashkiliy komitet Rais boshchiligida faoliyat ko'rsatadi. Ba'zi ulkan Yarmarkalarda rahbarlik funktsiyasini ijrochi Direktsiya tamonidan, Bosh direktor boshchiligida amalga oshiriladi. Bosh direktor yarmarkaning barcha operativ boshqaruvini o'z qo'liga olib, uning ish tartibi, turli xizmatlar ishlarini boshqarish bilan bir qatorda yarmarakaga namuna tovarlarini olib kelish, joylashtirish va saqlash masalalarini xal qilish bilan shugullanadi. Bosh direktor tasarrufida bir qator yarmarka faoliyati uchun zarur bo'lган, texnik, yuridik-huquqiy, meditsina, transport, moliya, reklama-axborot va nashriyot, mexmonxona va umumiy xo'jalik bo'lislari bo'lishi mumkin.

Yarmarkaga keltirilgan Namunaviy tovarlarning eng yaxshisini tanlab olish uchun yarmarka komiteti tanlov komissiyasini tashkil etishi mumkin va bu ishga sanoatchilar, olimlar va biznesmenlar, davlat boshqaruvi tashkilotlari vakillarini taklif etishlari mumkin. Bu zikr etilgan yarmarkalarini tashkil etish tartibi taxminiy

bo'lib ma'lum sharoitda, yarmarka oldiga qo'ygan vazifalarni hisobga olgan xolda, uning shakli va mazmuniga zarur o'zgartirishlar kiritish mumkin.

Yarmarka faoliyatini asosiy maqsadi - sotuvchi va xaridor o'rtalarida to'g'ridan-to'g'ri aloqalar o'rnatish yoki kontraktlar imzolash va tovarlarni ulgurji savdosidir.

Yarmarkalar faoliyatining predmeti bo'lib, shartnomalar tuzuvchi xaridor va tovar sotuvchi tomonlarni ishchan aloqa o'rnatishlari uchun har taraflama kompleks xizmat ko'rsatish, kon'yunktura axborotni tayyorlash, taxlil etish, reklama xizmatini tashkil etish orqali ulgurji savdolashuv jarayonini tartibga solib turishdir.

Ko'rgazma - savdoni, yarmarka savdodan farqi, uning ilmiy - mavzuviy yo'nalishga egaligidadir.

Jahonda har yili ko'plab mavzular yunalishlar bo'yicha turli tuman shaklda ko'rgazma va ko'rgazma-savdolar o'tkaziladi. Ular ichida Gannover, Nijniy Novgorod shaharlardagisi ekologiya masalalariga bag'ishlangan bo'lsa, Moskva va Dyusseldorf shaharlarida o'tkaziladigan ko'rgazmalar metallurgiya va mashinasozlik sanoati yutuk va muammolariga bagishlangandir.

Ko'rgazma faoliyatini bosh maqsadi aniq bir korxona yoki soxa korxonalari ishlab chiqargan yangi tovarni taqdimoti, korxonaning kelgusidagi rejalar, imkoniyatlari haqida axborot tayyorlash, ularni namoyishini tashkil etish bilan bir qatorda sotuvchi va xaridor o'rtalarida doimiy, ishchan aloqalarni o'rnatishga yordam berishdan iboratdir. Ko'rgazma savdo bozorga yangi kirib kelayotgan tovarlarga bo'lган talab va taklif munosabatlarini sinab ko'rish shakli bo'lib, ularni xayotiylik davrini aniqlash, ommaviy ishlab chiqarishga tayyorlash uchun boshlag'nich axborotlar manbai bo'lib xizmat qiladi.

12.2. Yarmarka faoliyatining o'ziga xos xususiyatlari.

Ko'rgazma-savdonin predmeti bo'lib, yangi ishlab chiqarilayotgan tovarlar yuzasidan namoysh-taqdimot ishlarini amalga oshirish, ushbu tovarlar bo'yicha savdo bitimlarini tuzish va hamda soxaning etakchi mutaxassislarini jalb qilib, tijorat va ilmiy-texnika axborotini tayyorlab berish hisoblanadi.

Yarmarka (ko'rgazma) savdoning o'ziga xos xususiyatlari quyidagilardan iborat:

1. Biror bir tovar va biror bir soxa mahsulotga ixtisoslashgan maxsus yarmarka(ko'rgazma) va yarmarkaning ham sanoat, ham qishloq xo'jalik mahsulotlari bilan savdo qiluvchi universal harakterga ega bo'lishi.

2. Xalq xo'jaligi tarmoqlari bo'yicha yarmarka(ko'rgazma)lar tarmoq, tarmoqlararo yarmarkalarga bo'linadi. Tarmoqlararo yarmarkalar bir tarmoq emas balki, birnecha tarmoqlar birlashtirilganda ishlab chiqargan mahsulotlari yuzasidan faoliyat ko'rsatadilar masalan: Meditsina texnikasi, mashinasozlik, biokimyo, kosmosni tadkik etish sanoati va boshqa birlashgan sanoat kompleksi mahsulotlarini namoyish etilishi mumkin. Texnik murakkab mahsulotlar savdosi, soxa mutaxassislari ishtiroki va maslaxatisiz tashkil etilishi ancha qiyinchiliklar tug'dirib, yarmarka samaradorligini pasayishiga olib keladi.

3. Yarmarka va ko'rgazmalar xududiy xususiyatlari va faoliyat ko'lami, tovar ayrboshlash xajmiga qarab, xalqaro, butun mamlakat, xududlararo, maxalliy-regional(xududiy) bo'lishlari mumkin.

Bozor iqtisodi sharoitida tashkiliy yangi yarmarka-ko'rgazmali savdo tashkilotlari vujudga kelmoqdalar. Masalan: "O'zko'rgazmasavdo", "O'zekspomarkaz" aksionerlik jamiyatlari shular jumlasidandir.

Bu borada mamlakatimizning eng muhim iqtisodiy hamkor bo'lmish Rossiya Federatsiyasining tajribalari ayniqsa, diqqatga sazovordir. Nijniy Novgorod shaxridagi "Butunrossiya yarmarka-ko'rgazma kompleksi" aksioner jamiyat, "LenEkspo" Tashqi savdo birlashmasi, "Sibirskaya yarmarka" xududiy tijorat markazlari shular jumlasidan bo'lib, faqat "Nijnegorodskaya yarmarka"ning o'zi 1999 yilda Rossiya va boshqa mamlakatlar tadbirkorlari, sanoat xodimlari va tijoratchilari ishtirokida 20 dan ortik xalqaro ko'rgazma-yarmarkalar tashkil etgan.

"Ekologiya, Resurslartejamkorligi, Metrologiya", "Meditina-99", "Avtoservis", "Tara, Tovarlar o'rami, ombor" va boshqa nomlar bilan atalgan mavzuviy xalqaro ko'rgazmali - savdo tadbirlari, amaliy, ilmiy va tijorat manfaatlarini o'zida aks ettirdi. Masalan "Tara, tovar urami, ombor" deb nomlangan ko'rgazmada 98 qatnashchi ishtirok etib, ular orasida Avstriya, Germaniya,

Frantsiya, AQSh, Gollandiya kabi mamlakatlardan xorijiy firmalar o'z ekspozitsiyalari bilan qatnashdilar. Ko'rgazma ekspozitsiyalari sifatida, tovarlarni iste'mol o'ramiga o'rovchi mashina va avtomatlar, turli-tuman (polimer platmassa, qog'oz, to'qima, shisha, metal) taralar, ombor jixozlari, ko'tarish-tushirish mexanizmlarini namoyish etildi. Bunday ko'rgazmalar turli mamlakatlar, malakatlarning alohida xududlari sanoatlari potentsiali, faoliyatları ko'lamini, ko'p qirrali va o'zaro manfaatli hamkorlik imkoniyatlari, asosiysi, xudud xo'jaligini, tadbirkorlik tashabbuslari muvafaqqiyatlari rivojlanishi istiqbollarini belgilab berishga har taraflama yordam beradi.

Keskin raqobatchilik sharoitida marketing va kon'yunktura tadqiqotlariga tayangan holda, ulgurji savdo turlarini doimiy izlab topish, ko'pgina tijorat firmalarga tovar bozorida mustaxkam pozitsiyani egallashining bosh omili bo'lib xizmat qiladi. Aynan ulgurji savdoni samarali shakli bo'lgan ko'rgazma, yarmarka, birja va auktsionlarda qatnashishgina savdo bilan shug'ullanuvchi har qanday korxona va tashkilotlarga tijorat faoliyatining barcha yunalishlari va soxalarida muvafaqqiyat qozonish imkoniyatlarni ohib beradi.

Ulgurji savdoning turli shakli, shamoyillari orasida eng muhimlari kursimizning avvalgi boblarida bir necha marotaba uqtirib o'tganimizdek, birja va yarmarka savdolaridir.

Tarixan ulgurji savdoning eng birinchi shakli deb, karvon faoliyatini ta'kidlab o'tishimiz mumkin. U axyon-axyonda sodir bo'lishi, muqim bir joy va qonun-qoidalarining yo'qligi bilan harakterli edi.

Karvon savdosi o'rniga yarmarka savdosi keldi. Urta asrlarda kichik va katta yarmarkalar paydo bo'la boshladilar. Yarmarka faoliyatining harakterli tarafi shundan iborat ediki, savdo qatnashchilari savdo o'tkaziladigan vaqt va joyi haqida avvaldan kelishib olinadiganligi bilan boshqa ulgurji savdo turlaridan farq qiladigan bo'ldi.

"Yarmarka" so'zining ma'nosi nemis tilidan tarjima qilinganda "Yar"-“yil”, "marka" – "tovar xili" degan ma'noni bildirib, har yili o'tkaziladigan bozorni anglatadi.

Ulgiji yarmarkalar amalga oshiriladigan operatsiyalar mazmuniga qarab quyidagi turlarga bo'linadi;

- Chakana savdo korxonalari tashabbusi bilan tashkil etiladigan ulgurji xarid yarmarkalari;
- Ortiqcha tovarlarni sotish uchun tashkil etiladigan yarmarkalar;
- Ham yangi tovarlar xarid qilinishi uchun, ham ortiqcha tovarlarni sotish uchun tashkil etiladigan, ko'p mazmundagi operatsiyalar o'tkazilishi mo'ljallangan yarmarkalar.

Xududiy xususiyatlariga ko'ra yarmarkalar:

- Tuman yoki viloyat miqyosidagi maxalliy yarmarkalar;
- Tumanlararo, viloyatlararo bir mamlakat miqyosidagi yarmarkalar;
- Xalqaro (Xorijiy mamlakatlar, bir necha mamlakatlarning olgan kompaniyalar ishtirokidagi) yarmarkalar.

Assortiment xususiyatlariga ko'ra:

- Univesal yarmarkalar (ham oziq - ovqat, ham sanoat tovarlari takdimotida);
- Bir xil tovar assortimentlariga ixtisoslashtirilgan yarmarkalar;
- Aniq maqsad va vazifalarni bajarishga yunaltirilgan mavzuviy yarmarkalar.

XII-XIII asrlarda Yevropada o'tkazilgan yarmarkalarda imzolangan savdo bitimlari yuzasidagi hisob-kitob ishlari darxol shu erving o'zida yoki to'lov majburiyatilari ma'lum vaqtdan keyin, kelishilgan muddat ichida amalga oshirish sharti bilan amalga oshirilar edi.

Ba'zi yarmarkalarda tovarlarga ma'lum standart talablari o'rnatilgan bular va keyinchalik tovar namunalarini namoyish qilish orqali, faqat mavjud-bor, naqd tovarlar yuzasidan savdo operatsiyalar amalga oshirilar edi.

U paytdagi yarmarkalarda savdo ko'pincha aynan shu yarmarka doirasidagi ichki qonun-qoidalar, tartib ustivorligida o'tkazilar edi. Masalan: Yarmarkada bitilgan savdo bitimlarda kontragentlar o'rtalaridagi munosabatlar Angliya savdo kodeksida odatda, boshqa savdo turlarida ko'zda tutilgan tovarlar oldi-sotdi kontraktlari standart shakllari, veksellar, ombor kvitantsiyalari kabi hujjalr bilan tartibga solinar edi. Bu kodeksi buzgan yarmarka qatnashchilari albatta

jazolanardilar, xatto savdogarlar-tijoratchilar jamiyatlaridan xaydalishlari xavfi ham bor edi.

Yarmakalarda vujudga kelgan kelishmovchiliklar va qarshiliklarni odatda yarmarka sudi tomonidan xal qilish otdati mavjud edi. Yarmarka sudi hozirgi Arbitrajlarning avvalgi ko'rinishi bo'lib, xalq orasida ularni "tovoni chang kishilar sudi" deb atadilar, chunki savdogarlar uzoq yo'l yurib, doim oyoq kiyimlarining poshnasi tovani ko'pincha loy tekkan bo'lar edi.

Har qalay yarmarka savdosida biror bir tovar turiga ixtisoslashgan savdo qatorlari, bozordagi talab va taklif ruxini xis etuvchi, kasb maxorati sir-as'rorlaridan xabardor sotuvchilar, savdo operatsiyalarini tezkorligi bilan boshqa savdo turlaridan farq qilib turardi.

Yarmakalar ma'lum vaqtidan so'ng takrorlanib turuvchi tijoratchilar sanoatchilar, savdo xodimlarini ulgurji oldi-sotdi operatsiyalarini amalga oshirish uchungina emas, balki boshqa mavzularda ham o'zaro manfaatli muzokaralar olib borish uchun o'ziga xos yig'ilish-qurultoy vazifasini bajarar edi.

Yarmakalarda savdo bitimlari(oldi-sotdi, pudrat shartnomalari) asosan savdolashuv orqali bitiladi, bu erda sotuvchi, xaridor yoki pudratchi, buyurtmachi avvaldan aniqlangan tovar xususiyatlari, ularni texnik-iqtisodiy ko'rsatkichlari, ish kullamini e'lon qilib, ular yuzasidan o'ziga xos tanlov tashkil etadi. Kim eng manfaatli, eng qulay shartlarda taklif kirlitsa, muzokaralar boshlaydi va ko'pincha shartnoma-bitimlar kontragenti sifatida imzolashi bilan yakunlanadi.

Yarmarka savdolashuvining quyidagi turlari mavjud:

1. Ochiq savdolashuv; bunda ko'pincha uncha murakkab bo'limgan sanoat dastgohlari, jihozlari, tovarlari yuzasidan bo'lib, odatda barcha qatnashish istagini bildirganlar qatnashishlari mumkin.
2. Malakaviy saralash sharti bilan o'tkaziladigan, Ochiq savdolashuv bo'lib, bu odatda ikki bosqichda o'tkaziladi, birinchi bosqichda barcha qatnashchilar qatnashib, ikkinchi bosqichga faqat tanlov me'yoriy shartlariga javob bergen qatnashchilargina taklif etiladi va savdo natijalari yarmarka qatnashchilarining barchasiga e'lon qilinadi.

3. Yopiq savdolashuv. Bu savdolashuv turiga faqat qatnashchilar maxsus taklifnomalar (Turli me'yor, miqyos talablariga javob bera oladigan, noyob tovar yuzasidan olib boriladigan savdolashuv bo'lib, qimmatli yuqori texnik ko'rsatkichlarga ega dastgoh jixozlar ishlab chiqarish, murakkab loyixalarni amalga oshirish tajribasiga ega, obro'li firma va kompaniyalar) asosida kiritiladilar.

4. Bir marotaba o'tkaziladigan savdalashuv turi, bunda faqat shu yarmarkada yoki faqat ma'lum tovar yuzasidan bir marotaba savdolashuv huquqiga (litsenziyaga) ega qatnashchilar oralardagi savdolashuv.

Yarmarka faoliyatini ng asosiy vazifalari, faoliyatini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar tavsioti.

O'zbekistonda yarmarka faoliyatini takomillashtirish tamoyillari haqida ba'zi fikrlarimizni bayon etmoqchimiz.

Mamlakatimiz mutaqillikka erishgach, olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar natijasida yarmarka savdosi misli ko'rilmagan darajada roivojlanish yo'lini bosib o'tmoqda, u sifat ko'rsatkichi bo'yicha yangi bosqichga ko'tarildi. Masalan, Respublikamiz Prezidenti tashabbuslari bilan tashkil etilgan "O'zko'rgazmasavdo" xalqaro yarmarka savdo markazi malakatimiz eksport soloziyatini oshirish va bozor infratarkibini rivojlanishiga xizmat qiladi.

Xalqaro yarmarka savdo markazi ochiq turdag'i aksiyanterlik jamiyati ko'rinishishidagi xo'jalik sub'ekti bo'lib, uni ta'sischilari "Karvon bozori" Yopiq turdag'i aksiyanterlik jamiyati, O'zbekiston Respublikasi Davlat mult qo'mitasi va Toshkent shahar Hokimiyyati hisoblanadi.

Ta'sis hujjatlarida Xalqaro yarmarka savdo markazi oldiga quyidagi vazifalar qo'yilgan:

- Mintaqaviy, xalqaro, milliy va mavzuviy ko'rgazma va yarmarkalarni tashkil etish;
- Mamlakatimiz va xorijiy firmalarga hamkorlar topish va hamkorlik aloqa, kontraktlar tuzishga ko'maklashish;
- Mahsulotlar va katologlar yarmarka takdimotini, reklama-namoyishini tashkil etish;

- Tashqi savdo, informatsiya, konsalting, marketing va eksport-import operatsiyalar imzolash va ijro etish bo'yicha turli xizmat turlarini ko'rsatish;
- Imzolangan kontraktlar yuzasidan statistika hisobini olib borish, ularni ro'yxatdan o'tkazib-qayd qilish, xulosalar chiqarish kabi ishlarni bajarish;
- Mahsulotlarni bojxona to'lovlaridan tozalash va boshqa bojxona rasmiyatchilik ishlarni bajarish;
- Mijozlarga bank xizmati ko'rsatish;
- Yarmarka qatnashchilariga turli transport-ekspeditsiya xizmatlarini ko'rsatish;
- Mahsulotlarni transportirovkasi, saqlash, yetkazib berish jarayonida sug'urtalash;
- Zamonaviy aloqa va telekommunikatsiya vositalari bilan ta'minlashni tashkil etish;
- Zamonaviy namoysh xonalaridan tortib, to qabul marosimlari, banketziyofat, prezentatsiya-takidimot tadbirlarini tashkil etishga ko'maklashishi va boshqalar.

“O’zko’rgazmasavdo” xalqaro yarmarka savdo markazi o’z faoliyatini to’liq amalga oshirish uchun ixisoslashgan sho’ba korxonalar tashkil etgan va Markaziy Osiyoda tengsiz soloziyatga ega yarmarka kompleksiga egadir.

Kompleks quyidagi bo’lim va inshootlardan tarkib topgan:

- Umumiy maydoni 10000 kv. metr ikkita yopiq ko’rgazma pavilonlar;
- Umumiy maydona 2500 kv. metr bo’lgan bitta ochiq ko’rgazma paviloni;
- Bojxona ombori;
- Konferents-zal;
- Ma’muriy va ofis xonalari;
- VIP-mexmonlar uchun restoran;
- Tantanavor choralar uchun banket zali;
- Internet-kafe;
- Sport zalari;

- Avtoulovlar uchun to'xtash va vaqtinchalik saqlash uchun maxsus ajratilgan joy.

“O’zko’rgazma savdo” Xalqaro yarmarka savdosi markazining butun xudud maydoni 7 gektarni tashkil etadi.

Ko’rgazma markazida tashkil etilgan 2001 yilning o’zidayoq e’tiborga molik tadbir choralar o’tkazildi. Masalan: 2001 yilning oktyabr oyida “O’zbekistonning eksport soloziyati” mavzusida yirik ko’rgazma o’tkazilib unda respublikamizda tadbirkorlari va qo’shma korxonalar tamonidan ishlab chiqarilayotgan jahon andozalariga mos mahsulotlar namoysh qilindi. Bundan tashqari:

- Toshkent shaxri va Respublikamiz viloyatlaridagi xususiy, aksiyanterlik jamiyatlari, davlat va qo’shma korxonalar tomonidan ishlab chiqarilayotgan mebellar namoyshi uchun “Mebel-2001” tarmoq ko’rgazmasi;
- Sazovot, meva va ularni qayta ishlash mahsulotlari namoyishi “Agromahsulot-2000-2001” Xalqaro yarmarka-savdosi;
- 2001 yil mart oyida Toshkent shahar Tovar ishlab chiqaruvchi va tadbirkorlar palatasi bilan hamkorlikda eng yaxshi tadbirkor va hunarmand tanlov - konkursi tashki etildi va uni a’lo darajada o’tkazganligi uchun “O’zEkspo” sho’ba korxonasi maxsus diplom bilan taqdirlandi.
- Toshkent shaxri hokimiyati va Germanining Gyote instituti tashabbusi bilan “Berlin shaxri arxitekturasi va shahar qurilishi” mavzusida ko’rgazma-seminar o’tkazildi.

Respublikamizning muhim strategik o’rnini hisobga olib, uni tobora ortib borayotgan xalqaro aloqalarini mustaxkamlash va Sharq bilan G’arb mamlakatlar o’rtalarida o’zga xos savdo ko’priga vazifasini bajaradi.

“O’zko’rgazmasavdo” OAJ faoliyatini kengaytirish maqsadida Respublikamiz xukumati Farmoyishi bilan Xalqaro yarmarka savdosi markazining sho’ba korxonalari Respublikamizning 8 ta viloyatlarida tashkil etildi.

Yarmarkalarning huquqiy asoslari.

Kursimizning avvalgi mavzularini bir necha marotaba ta’kidlab o’tganimizdek, yarmarkalar mulkchilik shaklining turidan qat’iy nazar, qaysi

mamlakat xududida tashkil etilsa, o'sha mamlakat amalidagi qonunlar doirasida faoliyat ko'rsatadi.

Bizning mamlakatimizda ham mutaqillikning dastlabki yillaridayoq birja va yarmarka faoliyatini tartibga soluvchi turli qonun va xukumat qarorlari qabul qilingan ulardan ba'zilarini sanab o'tishimiz joiz bo'ladi. Masalan: O'zbekiston Respublikasining "Birja va Birja faoliyati to'g'risida"gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001 yil 27 apreldagi "Birja va ulgurji savdoning yanada takomillashtirish haqida" gi, 2001 yil 1 may 198 raqamli "Birja va ulgurji savdo tizimini takomillashtirish haqida" gi Farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2002 yil 13 noyabrida 391 raqam bilan qabul qilingan "Yarmarka faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarorlari shular jumlasidandir.

Jahondagi ko'pchilik mamalakatlar qonunchiligidagi Birja va yarmarka savdosini tartibga solishda ko'p o'xshash va to'la mos tushadigan bandlari mavjud. Masalan, O'zbekiston respublikasi va Rossiya Federatsiyasi Fuqarolik kodekslari bandlarida huquqiy va jismoniy shaxsilarga berilgan ta'riflar to'la bir-biriga mos tushadi. Huquqiy shaxs deb – xo'jalik tasarrufida mulki bo'lgan va uni operativ boshqarish huquqiga ega, hamda ular natijalari yuzasidan o'z mulki doirasida javobgarlikni o'z zimmalariga olgan tashkilot tushuniladi. Bunday tashkilotlar o'z nomidan mulkiy va nomoddiy majburiyatlar olishi va ular yuzasidan sud organlarida da'vogar va javobgar bo'lishlari huquqiga egadirlar.

Huquqiy shaxsning huquqiy shaxs sifatida o'z zimmalariga olgan huquq va majburiyatlar ta'sis hujjatlarida o'z aksini topgan va maqsadlariga mos bo'lishi kerak. Mulkchilik shakllariga muvofiq, bu huquq va majburiyatlar Davlat, Xususiy va Munitsipal bo'lishlari mumkin.

Bu xolda Davlat va munitsipal huquqiy shaxs mulklari, shu shakl korxonalar mulki bo'lib, ularning xo'jalik yuritishi ixtiyorida bo'ladi.

Faoliyatlar yunalishlari bo'yicha huquqiy shaxslar tijorat yoki notijorat huquqiy shaxslar bo'lishlari mumkin.

Asosiy maqsadlari foyda olish bo'lgan yarmarkalar quyidagi tashkiliy-huquqiy shakllarda tashkil etilishilari mumkin.

• Xo'jalik sherikchiligi (To'la sherikchilik, Ishonchga asoslangan sherikchilik).

• Xo'jalik jamiyatlar (Ochiq va Yopiq turdag'i aksionerlik jamiyatlar, Mas'ulyati cheklangan yoki qo'shimcha mas'ulyatli jamiyatlar);

• Ishlab chiqarish shirkatlari (kooperativlari);

• Biror bir yuqori tashkilotga bo'yisunuvchi (Davlat, munitsipal) korxonalar.

Bizning mamlakatimizda Mas'ulyati cheklangan tijorat jamiyatlar ko'prokq rivojlangan mulkchilik shakllari hisoblanandi.

Notijorat tashkilotlari (matlubot jamiyatlar, ijtimoiy, diniy, insonparvarlik tashkilotlari, jamiyatlar, fondlari va boshqalar) asosiy maqsadlari foyda olish bo'lmay, balki yarmarka va ko'rgazmalar tashkil etishlaridan maqsad nizomlarida kayd etilgan vazifalarni amalga oshirishdir.

Yarmarka va ko'rgazma markazlari ta'sis hujjatlarida taxminan quyidagi ko'rinishda bo'lishi maqsadga muvofiqdir:

Huquqiy shaxsning nomlanishi (tashkiliy huquqiy shakli ko'rsatilishi shart), joylashgan manzili, asosiy faoliyati turi, boshqarilishi tartibi, boshqaruv tashkilotlarini taynlash yoki saylash tartiblari, ular xal qilishlari mumkin bo'lgan masalalar doirasi, korxonani tugatilishi tartibi va boshqalar;

12.3. Yarmarkalarda savdolashuv turlari va vazifalari.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining qarori bilan tashkil etilagan Ochiq turdag'i aksionerlik "O'zko'rgazmasavdo" Xalqaro yarmarka savdo Markazi oldiga quyidagi vazifalar qo'yilgan:

• Mintaqaviy, xalqaro, milliy va mavzuviy ko'rgazma-yarmarkalarni tashkil etish;

• Mamlakatimiz va xorijiy firmalarga hamkorlar topish va hamkorlik aloqa, kontraktlar tuzishga ko'maklashish;

• Tashqi savdo, informatsiya, maslahat, marketing va eksport-import operatsiyalar imzolash va ijro etish bo'yicha xizmat turlarini ko'rsatish;

• Mamlakatimiz ilg'or texnologiya, ilm-fan, ishlab chiqarish-sanoat sohalaridagi yutuqlarni informatsiya va reklama ta'minotini amalga oshirish;

- Xalqaro ko'rgazma va yarmarkalarda mamlakatimiz sanoat ishlab chiqaruvchilarini ishtirokini tashkil etish;
- Keng spektrli bojxona hujjatlarini rasmiy lashtirish, transport-ekspeditsiya xizmati, sug'urta, bank operatsiyalari va boshqa xizmat turlarini ko'rsatish.

Respublika xalqaro yarmarka savdo markazi “O’zko’rgazmasavdo” infratarkibiga quyidagi talablar qo'yilgan:

- Infratarkib, mijozlar boshqa talablarini qoniqtiruvchi va uni sotuvchisi (mulk egasi)ga foyda keltiruvchi mahsulot bo'lishi kerak.
- Infratarkib mamlakatimiz sanoat ishlab chiqaruvchisi va ularni xorijiy hamkorlari urtasidagi savdo-vositachiligi faoliyatida mintaqaviy ko'lamida o'z o'rnini to'la xajmda to'ldirishi kerak.
- Infratarkib rakabatbardosh bo'lishi, o'z mijozlariga jahon andozalariga mos xizmatlar ko'rsatishni ta'minlashi kerak.
- Infratarkib tovar va xizmatlar taqchilligiga to'sqinlik qilishi va raqobatchilik muhitini vujudga keltirishi kerak.
- Infratarkib mamlakat xo'jalik sub'ektlari va ularni xorijiy hamkorlari o'rtasidagi aloqalarni yo'lga qo'yishi va mustaxkamlashiga ko'maklashishi kerak.

“O’zko’rgazmasavdo” OTAJ barpo etishdan asosiy maqsad, turli mahsulot va xom ashyolar, jixozlar va texnologiya hamda keng iste'mol tovarlari yarmarka faoliyatini o'tkazish bo'yicha zamonaviy tizimni tashkil etishdir.

Yarmarka faoliyatini tashkil etish mamlakatda vujudga kelgan siyosiy iqtisodiy vaziyat, mamlakatning iqtisodiy saloxiyati bilan chambarchas bog'liqlikda bo'lishi tabiiy xoldir. Bunga yaqqol misol sifatida 2002 yil 13 noyabrya O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 391 raqamli “Yarmarka faoliyatini tashkil etishni takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida”gi qarorini ko'rsatish mumkin.

Qarorda jumladan shunday iboralar mavjud:

Aholining to'lovga qodir talabini yanada to'laroq qondirish, ichki iste'mol bozorining barqaror faoliyat ko'rsatishini ta'minlash, uni Vatanimizda ishlab chiqarilgan yukori sifatli raqobatbardoshli tovarlar bilan to'ldirish, ishlab chiqaruvchi korxonalar bilan savdo tashkilotlari o'rtasida barqaror aloqalarni o'rnatish maqsadida, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining Iste'mol

tovarlari ishlab chiqarish va savdo kompleksi xuzurida Yarmarka savdolari o'tkazish bo'yicha respublika kengashi tashkil etilsin.

Respublika kengashi tomonidan uning vakolotlari doirasida qabul qilingan qarorlari, mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar, barcha xo'jalik yurituvchi sub'ektlar uchun majburiy hisoblanadi.

Vazirlar Maxkamisining qarorida Yarmarka savdolari o'tkazish bo'yicha respublika kengashining asosiy vazifalari etib belgilangan bo'lib ularga quyidagilar kiritilgan:

- Respublikaning iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi korxonalari bilan savdo tashkilotlari urtasida mustaxkam, uzoq savdo-iqtisodiy aloqalarni o'rnatishda, ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlari mexanizmini takomillashtirish bo'yicha takliflar tayyorlashda ko'maklashish;

- Iste'mol tovarlari sotish bo'yicha doimiy ishlovchi va mavsumiy ulgurji yarmarkalar faoliyatini muvofiqlashtirish;

- Ichki iste'mol bozorining ahvolini taxlil qilish va iste'mol tovarlarining aholi ko'plab talab qiladigan, ilgari respublikada ishlab chiqarilmagan, yangi turlarini ishlab chiqarishni tashkil etish bo'yicha tavsiyanomalar ishlab chiqish;

- Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish bilan bog'liq bo'lган yangi texnologiyalarni, asbob-uskanalarni va "nou-xau"larni namoyish qilish bo'yicha ko'rgazmalar hamda ko'rgazma – savdolar tashkil etish;

- Oziq-ovqat tovarlari, engil sanoat buyumlari, boshqa nooziq-ovqat tovarlar sotish bo'yicha yarmarka kumitalarining faoliyatini muvofiqlashtirish; - Ishlab chiqaruvchi korxonalar tomonidan o'zi ishlab chiqargan iste'mol tovarlarining firma savdosи shaxobchaalrini yanada rivojlantirish bo'yicha takliflar kiritish;

- Respublika ulgurji yarmarkalarni o'tkazish muddatlari va tartibini, yarmarkalar ishida qatnashish uchun jalg etiladigan ishlab chiqaruvchi korxonalar doirasini aniqlash;

- Respublika kengashi tarkibida asosiy tovar guruhlari - oziq-ovqat tovarlari, engil sanoat tovarlari va nooziq-ovqat tovarlari bo'yicha doimiy ishlovchi yarmarka qo'mitalari tashkil etilishi ko'zda tutilgan bo'lib, ular o'z mazmuni bo'yicha

respublikamizda izchil amalga oshirilayotgan iqtisodiy islohotlar talablariga to'la mos keladi.

Yarmarka qo'mitalariga:

- Doimiy ishlovchi ulgurji yarmarkalar hamda iste'mol tovarlari ko'rgazma-savdolarini tashkil etish va o'tkazish;
- Savdo tashkilotlari bilan tovar yetkazib berish shartnomalari tuzish maqsadida iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi korxonalarining, shu jumladan kichik va xususiy biznes korxonalarining keng doirasini ulgurji yarmarkalarda qatnashishi uchun jalb qilish;
- Iste'mol tovarlarining tegishli nomenklaturasi bo'yicha respublika aholisi extiyojlarini aniqlash hamda ularni respublika korxonalarida ishlab chiqarish yuzasidan buyurtmanomalarini joylashtirishga ko'maklashish;
- Viloyat xokimliklari bilan birgalikda iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchilar va ularni xarid qiluvchilarining ulgurji yarmarkalarda ishtirok etishi bilan bog'liq tashkiliy masalalarni xal etish kabi vazifalarni amalga oshirishlari ko'zda tutilgan.;

Qarorda, jumladan "O'zbeksavdo" aksiyadorlik kompaniyasi ijro apparati tarkibida Yarmarka faoliyatini muvofiqlashtirish boshqarmasi tashkil etish, unga Yarmarka savdolari o'tkazish bo'yicha respublika kengashining ishchi organi funktsiyasi bajarish masalari bilan shug'ullanishni yuklash mo'ljallangan.

Vazarlar Maxkamasining Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish va savdo kompleksi O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi va boshqa manfaatdor tuzilmalar bilan birgalikda Yarmarka savdolari o'tkazish bo'yicha respublika kenggashi to'g'risidagi Nizomni hamda Yarmarka qo'mitasi to'g'risidagi Namunaviy nizomni ishlab chiqish va belgilansgan tartibda tasdiqlash masalalari yuzasidan ham tegishli idora va tashkilotlarga ko'rsatmalar bergenligini e'tiborga olsak, respublikamizda yarmarka savdosiga berilayotgan ahamiyatni naqadar kattaligini xis etish mumkin.

Birinchi galdeg'i vazifalar qatorida Vazirlar Maxkamasining qarori asosida, Yarmarka o'tkazish bo'yicha respublika kengashi, yarmarka qo'mitalari, vazirliklar, idoralar, uyushmalar, korporatsiyalar, kompaniyalar, xo'jalik birlashmalar va mulkchilik shakllaridan qat'iy nazar korxonalar ishtirokida:

- Iste'mol tovarlari yetkazib berish yuzasidan shartnomalar tuzish bo'yicha ulgurji yarmarkalar o'tkazish jadvalini ishlab chiqqanlar va tasdiqlaganlar;
- 2003 yidan boshlab doimiy ishlovchi ulgurji yarmarkalar bilan bir qatorda mavsumiy (kuz-qish, bahor-yoz) hamda ixtisoslashtirilgan yarmarkalar o'tkazilishini ta'minlash ko'zda tutilgan.

Ayni vaqtida yarmarka kengashi xaridorgir iste'mol tovarlarining aniq turlari va nomenklaturasini ishlab chiqarish yuzasidan buyurtmalarni shakllantirish va respublika korxonalarida joylashtirish ishlarini faollashtirmoqdalar.

Toshkent, Urgench, Buxoro, Samarcand va Farg'ona shaharlarida doimiy asosda iste'mol tovarlari sotish bo'yicha mintaqaviy ulgurji-chakana savdo yarmarkalari tashkil etilanligini hisobga olsak, yarmarka savdosi ko'lami butun respublika aholisini qamrab olishi va aholining turmush darajasini izchil oshirib borishga xizmat qiladi.

Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi, viloyat va Toshkent shahar xokimliklari, O'zbekiston aloqa va axborotlashtirish agentligi mintaqaviy ulgurji-chakana savdo yarmarkalari faoliyatini tashkil etishda har tomonlama ko'maklashmokdalar, doimiy ravishda faoliyat ko'rsatuvchi yarmarka savdosi bo'yicha kengashlarini zarur binolar, zamonaviy savdo-texnologiya asbob-uskunalari, aloqa tizimlari bilan ta'minlash ishlari amalga oshirilmokda.

Uyushmalar, korporatsiyalar, kompaniyalar, xo'jalik va jamoat birlashmalariga, iste'mol tovarlari ishlab chiqaruvchi korxonalarga:

- Doimiy ishlovchi ulgurji yarmarkalar va iste'mol tovarlari ko'rgazma-savdolarini tashkil etish va o'tkazishda faol qatnashish;
- Shartnomalarning ustuvor ravishda doimiy ishlovchi ulgurji yarmarkalarda tuzilishini va o'z mahsulotlari sotilishini ta'minlash tавсиya qilingan.

Bundan tashqari, qarorda 2003 yil 1 yanvardan 2004 yil 31 dekabrgacha ulgurji savdo korxonalarining respublikada ishlab chiqariladigan iste'mol tovarlarini sotishdan olingan tushumlaridan 2 foizli, uzoq va tog'li tumanlarda esa 1 foizli stavka bo'yicha yagona soliq olinishi ham ko'zda tutilgan bo'lib, oxir oqibatda, yarmarka savlosining respublikamizda taraqqiyot etishini ta'minlashda asosiy tayanch vazifasini bajarishiga umid bog'lanadi.

Qisqacha hulosalar:

Yarmarka savdosi keng xalq iste'mol tovarlari va sanoat texnika mahsulotlarini qisqa muddatli, vaqtı-vaqtı bilan qaytarilib turuvchi, oldindan namunalarini ko'rib, tanlab olish orqali amalga oshiriladigan hamda oldi-sotdi kontraktlari tuzish bilan yakunlanadigan ulgurji savdoning turidir.

Yarmarka savdosi biz yashab turgan makonda uzoq tarixiy ildizlarga egadir. Masalan, Rossiyada bu savdo usuli an'anaviy savdo usuli bo'lib kelganliga juda ko'p dalillar mavjud. 1641 yilda Podshox Ivan Fedoroviya farmoni bilan Makarev ibodatxonasi (Nijniy Novgorod shaxri yaqinida) devorlari yaqinida birinchi Butun Rusiya savdo yarmarkasi tashkil etilgan edi.

Markaziy Osiyoda avvaldan keng tarqalgan savdo turlaridan hisoblangan, ushbu xududda Oktyabr to'ntarishigacha 450 dan ortiq turli tuman yarmarkalar faoliyat ko'rsatib kelganlar. Ularni shartli ravishla 3 guruhga bo'lish mumkin bo'lган.

Uzoq tarixiy ildizga ega bo'lган hozirda unutilgan, Markaziy Osiyo va Rossiya xalqlari o'rtalarida tovarlar ayriboshlashning asosiy kanali bo'lib xizmat qilgan. Irbir va Buxoro yarmarkalari.

XIX asr oxiri, XX asrining boshida paydo bo'lган Qarqara yarmarkasi. Bu yarmarka g'arbiy Xitoy va Markaziy Osiyo xalqlari o'rtalarida tovar ayriboshlash uchun xizmat qilgan.

Oktyabr to'ntarishidan so'ng, xo'jalik tiklanishi va taraqqiyoti bilan bog'liq, shahar bilan qishloq aholilari o'rtalarida tovar ayriboshlash vositasi vazifasini o'tagan Qizilo'rda va Suvsamir yarmarkalaridirlar.

Yarmarka savdosining o'ziga xos xususiyatlari quyidagilar:

- Namoysh etilayotgan namunalar bo'yicha tovarlarni ulgurji sotish;
- Savdoni ma'lum muddatda takrorlanib turishi;
- Avvaldan savdo o'tkazish joyi va muddatini kelishib olinishi;
- Ommaviy bir vaqtda sotuvchi va xaridorlarni savdoda qatnashishi.

Odatda savdoni bir vaqtda va ommaviy o'tkazilishi yarmarka (ko'rgazma) ta'sischilari va maxalliy xokimiyat tashkilotlari kelishuviga muvofiq amalga

oshiriladi. Natijada savdo muddati, sharti va tartibi ko'rsatilgan maxsus hujjat imzolanadi, hamda o'tkaziladigan tadbir mas'ul shaxslari tayinlanadi.

Ko'rgazmali va birja savdosini amalga oshirishda uchta muhim bosqich mavjud:

- Savdolar boshlanishidan oldingi;
- Tashkiliy;
- so'nggi savdolar tugagandan keyingi hulosalar chiqarish bosqichi.

Yarmarka savdolashuvining quyidagi turlari mavjud:

1. Ochiq savdolashuv. Bunda ko'pincha uncha murakkab bo'limgan sanoat dastgohlari, jixozlari, tovarlari yuzasidan bo'lib, odatda barcha qatnashish istagini bildirganlar qatnashishlari mumkin.

2. Malakaviy saralash sharti bilan o'tkaziladigan Ochiq savdolashuv bo'lib, bu odatda ikki bosqichda o'tkaziladi, birinchi bosqichda barcha qatnashchilar qatnashib, ikkinchi bosqichga faqat tanlov me'yoriy shartlariga javob bergen qatnashchilargina taklif etiladi va savdo natijalari yarmarka qatnashchilarining barchasiga e'lon qilinadi.

3. Yopiq savdolashuv. Bu savdolashuv turiga faqat qatnashchilar maxsus taklifnomalar (turli me'yor, miqyos talablariga javob bera oladigan, noyob tovar yuzasidan olib boriladigan savdolashuv bo'lib, qimmatli yuqori texnik ko'rsatkichlarga ega dastgox, jihozlar ishlab chiqarish, murakkab loyihalarni amalga oshirish tajribasiga ega obro'li firma va kompaniyalar) asosida kiritiladilar.

4. Bir marotaba o'tkaziladigan savdolashuv turi, bunda faqat shu yarmarkada yoki faqat ma'lum tovar yuzasidan bir marotaba savdolashuv xuquqiga (litsenziyaga) ega qatnashchilar oralardagi savdolashuv.

Nazorat savollari:

1. Yarmarka faoliyatining birja savdosi bilan qanday o'xshashliklari va farqlarini bilasiz?
2. Markaziy Osiyo va Rossiyadagi tarixiy yarmarkalar nomlarini birma-bir eslang.
3. Yarmarkalarda savdolashuvning qanaqa turlarini bilasiz?

4. Yarmarkalardagi savdolashuv qanaqa vazifalarni bajarishga yo'naltirilgan bo'ladi?
5. Yarmarka savdosi vazifalarining asosiy tavsiloti nimalardan iborat?
6. Yarmarka savlosini tartibga soluvchi me'yoriy hujjatlar qanaqa vazfalarini bajarishga yo'naltirilgan bo'ladi?
7. Yarmarka savdo bo'yicha kengash qanaqa tashkilotlar qatoriga kiradi?
8. Yarmarkalarning maxalliy boshqaruv tashkilotlari bilan munosabatlari qanday amalga oshiriladi?
9. Yarmarkalarda savdolashuv qanday usullarda olib boriladi?
10. Yarmarkalarda yopiq savdolashuv usullar qachon qo'llaniladi?

Tavsiya etilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Birja va birja faoliyati to'g'risida" gi qonuni (yangi taxrir). 2001 y. 3 qismi.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining "O'zbekistonda birja va yarmarka savdosini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari haqida"gi qarori.
3. "Davlat xaridlari tizimini optimallashtirish va ularga kichik biznes sub'ektlarini jalb qilishni kengaytirish haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 7 fevral 1474 – sonli qarori.
4. Каменева. Н. Г. Организация биржевой деятельности - М.: Банки и Биржи ЮНИТИ, 2002, стр. 313.
5. Дегтярева О.И. Биржевое дело - М.:МАГИСТР 2010, . 623 с.
6. Yunusov M.P. Birja va yarmarka faoliyatini boshqarish. Ma'ruzalar matni, -T., TDIU, 2005. 24-2 betlar.
7. www.yarmarka.ru
8. www.uzex.uz
9. www.xarid.uz.
10. www.Exchage.com

13-Mavzu. Yarmarka faoliyatini tashkil etish tarixi va rivojlanishi tamoyillari.

Reja:

- 10.1. Yarmarka faoliyatini tashkil etish maqsad va vazifalari.
- 10.2. Xalqaro yarmarka savdosi markazi tashkil etishning shart-sharoitlari.
- 10.3. Xalqaro yarmarka savdosi markazi faoliyatiga qo'yiladigan asosiy talablar.

13.1. Yarmarka faoliyatini tashkil etish maqsad va vazifalari.

Avvalgi mavzularda aytganimizdek, yarmarkalar kelishilgan bir vaqtida o'tkazilib turuvchi savdogarlar va tovar ishlab chiqaruvchi sanoatchilarining o'ziga xos yig'ini - kurultoyi bo'lib, ko'pgina xollarda ulgurji savdo qilish maqsadida o'tkaziluvchi tadbir sifatida qaraladi. Yarmarkalar o'zining uzoq taraqqiyot yo'lini bosib o'tdi, avval tovar harakati uchun karvon yo'llari paydo bo'ldi. Manzildan-manzilga ko'chib yurishda karvon yo'lida turli xolatlar vujudga kelishi mumkin va tabiiy edi (Tovar egasining kasal bo'lib qolishi, rejaning o'zgarishi, siyosiy va iqtisodiy voqealar yuz berishi), ushbu ahvoldan chiqishning eng ma'qul yo'li ko'pincha, bor molni-tovarni sotib yuborish bo'lar edi. Bu sotib yuborish katta samarani ko'zlab, kim oshdi qonun-qoidalari asosida, mol-tovar namunalarini ko'rsatish orqali amalga oshirilar edi.

Yarmarkalar buyuk davlat Rossiya hayotida ham juda katta ahamiyat kasb eta boshladi va 19-asrga kelib, ular butun savdoni nizom-tamoyillarini o'rnatuvchisiga aylangan edi. "G'arb bilan Sharq uchrashuvchi" deb nom olgan bu yarmarkalardagi tovaraylanma xajmi o'sha vaqtdagi qadr-qimmati juda baland bo'lgan Rossiya rubli hisobida yarim milliardni tashkil etdi.

Yarmarka Yevropaliklar tasavvurida butun bir "shahar" bo'lib, bu shahar ko'chalari keng, elektr yoritkichli, son-sanoqsiz magazin va turli idoralarni birlashtiruvchi yagona organizm sifatida faoliyat ko'rsatar edi. Faqat Nijniy Navogoroddagi yarmarkada sakkizta maydon - xiyobonlar bo'lib, ular atrofida to'qqizta bank muassasalari, dallollar idoralari, mexmonxonalar, teatr va restoranlari mavjud edi. Ikki daryoning soxillarida kemalar to'xtashi uchun moslashtirilgan joylar-pristanlar bor bo'lib, yarmarka "aholisi" 400 ming kishini tashkil etar edi. Yarmarka ziyraklik bilan jahon va Rossiya bozoridagi o'zgarishlarga o'z ta'sirini ko'rsatar edi. Ammo 20-asrga kelib, Oktyabr inqilobi natijasida Rossiyaning o'ziga

xos hamyoniga aylangan Nijniy Novgoroddagi yarmarkasi inqirozga uchray boshladi. U asr davomida bir necha marotaba o'z faoliyati yunalishini o'zgartirdi.

Yarmarkalarining vazifa va maqsadlari ular amalga oshirayotgan operatsiyalarda yaqqol ko'zga tashlanadi.

Yarmarkada tovar ishlab chiqaruvchi va savdogar (yoki iste'molchi) bir birlari bilan uchrashib, to'g'ridan - to'g'ri, mustaxkam aloqalar o'rnatishlari uchun asos yaratish.

Yarmarkalarning asosiy vazifasi ulgurji savdoni tashkil etish bo'lib, mamlakatimizda vujudga kelgan iqtisodiy vaziyatda yarmarkalarning ham asosiy vazifalari o'tkazilayotgan islohotlarga mos ravishda bo'lishi ko'zda tutilgan:

- Xalqaro, milliy, xududiy, mavzuviy, ko'rgazma-yarmarkalarni tashkil etish va o'tkazish;
- Xorijiy va maxalliy firmalarga mamlakat ichkarisida, xorijda hamkorlar izlab topish va ishchan aloqalar o'rnatish;
- Import-eksport kontraktlari imzolash va ijrosi yuzasidan konsalting, marketing, informatsiya, tashqi savdo va boshqa xizmat turlarini ko'rsatish;
- Vatanimiz fani, sanoati, texnologiyasi eng yaxshi yutuqlarini informatsiya va reklama ta'minotini amalga oshirish;
- Mamlakatimiz tovar ishlab chiqaruvchilari va tadbirkorlarini xalqaro yarmarka va ko'rgazmalarda ishtirok etishini tashkil etish;
- Mijozlarga turli xildagi keng ko'lAMDAGI bojxona rasmiyatichiligi, transoprt-ekspeditsiya xizmati, sug'urtalash, bank operatsiyalari va boshqa xizmatlar ko'rsatish;
- Boshqa qonun bilan ta'qilangan barcha xizma turlarini ko'rsatish.

13.2. Xalqaro yarmarka savdosi markazi tashkil etishning shart-sharoitlari.

Bugun mamlakatimizda chuqur bozor isloxitlari o'tkazidayotgan bir paytda xo'jalik sub'ektlarining mulkchilik shaklidan qat'iy nazar, tashqi iqtisodiy aloqalarini jadallashtirish va boshqa xorijiy mamlakatlar korxona va tashkilotlari bilan savdo va boshqa hamkorlik aloqalarini kengaytirish vazifasi ko'ndalang bo'lib turibdi.

Respublikamizda xalqaro yarmarka savdosi markazi tashkil etish uchun quyidagi shart-sharoitlar mavjuddir:

- Ko'rgazmali-yarmarka savdo tizimining rivojlanmagani;
- mamlakatimiz xo'jalik sub'ektlarining xorijiy hamkorlari bilan markazlashtirilgan muntazam aloqalarini o'rnatilmaganligi;
- mavjud ko'rgazmali-yarmarka savdosi infratarkibi tomonidan ko'rsatilayotgan xizmat darajasining pastligi;
- mamlakatimiz xo'jalik sub'ektlarini tashqi iqtisodiy faoliyatlarini jadallashtirish zaruriyati;
- mamlakatimizga sanoat barcha tarmoqlarini rivojlantirish uchun xorijiy investitsiyalar, texnologiyalarni jalg etish ;
- respublikamiz bozoriga turli xil zarur, o'zimizda yo'q mahsulotlarni keltirish uchun sharoit yaratish;
- mamlakatimiz sanoatining ba'zi tarmoqlarini eksportga yo'naltirilganlik darajasining pastligi va boshqalar mamlaktimizda yarmarka va ko'rgazmali ulgurji savdo infratarkibini yanada rivojlantirish zaruriyatini kun tartibiga ko'ndalang qilib kuydi.

13.3. Xalqaro yarmarka savdosi markazi faoliyatiga qo'yiladigan asosiy talablar.

Yarmarka majmui, markazlariga bozor iqtisodiy sharoitida qo'yiladigan talablarni quyidagicha ifoda etish mumkin.

- Yarmarka-ko'rgazma infratarkibi, mijozlar bosh talablarini qoniqtiruvchi va o'z egasiga foyda keltiruvchi ob'ekt (mahsulot) bo'lishi kerak.
- infratarkib mamlakatimiz sanoat ishlab chiqaruvchisi va ularni xorijiy hamkorlari o'rtasidagi savdo-vositachiligi faoliyatida mintaqaviy ko'lAMDAGI o'z o'rnini to'la to'ldirishi kerak.
- infratarkib raqobatbardosh bo'lishi, o'z mijozlariga jahon andozalariga mos xizmatlar ko'rsatishni ta'minlashi kerak.
- infratarkib tovar va xizmatlar taqchilligiga to'sqinlik qilishi va raqabotchilik muhitini vujudga keltirishi kerak.

Yarmarka savdosi kompleksi o’z tassarrufidagi texnik va texnologik quvvatlarni kompleks asosiy faoliyati bilan bog’liq bo’lgan barcha operatsiyalarni bajarilishini ta’minlashi zarur.

Masalan:

- kompleks tarkibidagi avtoxo’jalik Ekzebitorlarga transport-ekspeditsiya operatsiyalarini barcha xillarini ko’rsatadi;
- kompleks bojxona xizmati bojxona rasmiyatichiligi bilan bog’liq bo’lgan barcha xizmat turlarini mijozlarni talab va buyurtmalariga muvofiq amalga oshiradi;
- kompleks informatsiya ta’minoti xizmati mijozga zarur bo’lgan barcha informatsiya, joriy axborot yig’ish hamda konkret mahsulot yuzasidan bozor talabi va takliflari kon’yunkturasining taxlili bilan shug’ullanadi.

Bulardan tashqari yarmarka kompleksi mijozlar va qatnashchilarga, mexmonlarga madaniy xordiq chiqarish, maishiy xizmat turlarini ko’rsatishi kerak.

Yarmarka savdo kompleksi majmui va infratarkibi to’la o’z-o’zini moliyalashtirish va ta’minlash printsiplariga rioya qilishi davr talabi va muvafaqqiyat garovidir.

Qisqacha hulosalar:

Respublikamiz Prezidenti tashabbuslari bilan tashkil etilgan “O’zko’rgazmasavdo” xalqaro yarmarka savdo markazi mamlakatimiz eksport soloziyatini oshirish va bozor infratarkibini rivojlanishiga xizmat qilishi kerak.

Ta’sis hujjatlarida xalqaro yarmarka savdo markazi oldiga quyidagi vazifalar qo’yilgan:

- Mintaqaviy, xalqaro, milliy va mavzuviy ko’rgazma va yarmarkalarni tashkil etish;
- Mamlakatimiz va xorijiy firmalarga hamkorlar topish va hamkorlik aloqa, kontraktlar tuzishga ko’maklashish;
- Mahsulotlar va katologlar yarmarka taqdimotini, reklama - namoyishini tashkil etish;

- Tashqi savdo, informatsiya, konsalting, marketing va eksport-import operatsiyalar imzolash va ijro etish bo'yicha turli xizmat turlarini ko'rsatish;
- Imzolangan kontraktlar yuzasidan statistika hisobini olib borish, ularni ro'yxatdan o'tkazib qayd qilish, xulosalar chiqarish kabi ishlarni bajarish;
- Mahsulotlarni bojxona to'lovlaridan tozalash va boshqa bojxona rasmiyatchilik ishlarni bajarish;
- Mijozlarga bank xizmati ko'rsatish;
- Yarmarka qatnashchilariga turli transport-ekspeditsiya xizmatlarini ko'rsatish;
- Mahsulotlar transportirovkasi, saqlash, yetkazib berish jarayonida sug'urtalash;
- Zamonaviy aloqa va telekommunikatsiya vositalari bilan ta'minlashni tashkil etish;
- Zamonaviy namoysh xonalaridan tortib, to qabul marosimlari, basket-ziyofat prezentatsiya tadbirlarini tashkil etishga ko'maklashishi va boshqalar.

Yarmarkalarning xuquqiy asoslari.

O'quv qo'llanmamizda bir necha marotaba ta'kidlab o'tkanimizdek, yarmarkalar mulkchilik shaklining turidan qat'iy nazar, qaysi mamlakat xududida tashkil etilsa, o'sha mamlakat amalidagi qonunlar doirasida faoliyat ko'rsatadi.

Bizning mamlakatimizda ham mutaqillikning dastlabki yillaridayoq birja va yarmarka savdosini tartibga soluvchi turli qonun va xukumat qarorlari qabul qilingan ulardan ba'zilarini sanab o'tishimiz joiz bo'ladi.

Masalan: O'zbekiston Respublikasining "Birja va birja faoliyati to'g'risida" gi qonuni, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2001 yil 27 apreldagi "Birja va ulgurji savdoning yanada takomillashtirish haqida" gi, 2001 yil 1 may 198 raqamli "Birja va ulgurji savdo tizimini takomillashtirish haqida" gi farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2002 yil 13 noyabrida 391 raqam bilan qabul qilingan "Yarmarka savdosini tashkil etishni takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" gi qarorlari shular jumlasidandir.

2003 yil 1 yanvardan 2004 yil 31 dekabrgacha ulgurji savdo korxonalarining respublikada ishlab chiqariladigan iste'mol tovarlarini sotishdan olingan

tushumlaridan 2 foizli, uzoq va tog'li tumanlarda esa 1 foizli stavka bo'yicha yagona soliq olinishi ko'zda tutilib, yarmarka savdosining respublikamiz taraqqiy etishini ta'minlashda asosiy tayanch vazifasini bajarishiga umid bog'lanadi.

Nazorat savollari:

1. Yarmarka savdosi tashkilotlari oldiga bozor ikisodiyoti sharoitida qanday vazifalar qo'yilgan?
2. Xalqaro yarmarka savdo markazi (kompleksi) ilgari ma'lum bo'lgan O'zbekiston SSR xalq xo'jaligi yutuklari ko'gazmasidan nimalari bilan farq qiladi?
3. Nijniy Novgorod yarmarkasi qurulishiga qanday ahamiyat berildi va uning Rossiya xalqlari xayotidagi roli nimalardan iborat bo'ldi.
4. Toshkentda "Xalqaro ko'rgazma savdo markazi" tashkil etish uchun qanday shart – sharoitlar mavjud edi?
5. Tashkil etilajak "Xalqaro ko'rgazma savdo markazi" oldiga prezidentimiz tomonidan qanday vazifalar qo'yildi?
6. Ko'rgazma savdosi qatnashchilariga qanday imtiyozlar beriish ko'zda tutilgan?
7. Viloyatlarda tashkil etilishi mo'ljallangan ko'rgazma savdo markazlari qanaqa vazifani bajarishiga xizmat qiladi?
8. Yarmarka savdosi va xududlarning iqtisodiy – ijtimoiy holati bilan qanday bog'liklik mavjud?
9. 2011 yilga mamalakatimiz iqtisodiy – ijtimoiy rivojlantirishning ustuvor vazifalarida yarmarka va ko'rgazmalarga qanday ahamiyat berilgan?
10. Birja savdo tizimida ko'rgazmali – yarmarka savdosi qanday o'rinn egallaydi?

Tavsiya etilgan adabiyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Birja va birja faoliyati to'g'risida" gi qonuni (yangi taxrir). 2001 y. 3 qismi.
2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining "O'zbekistonda birja va yarmarka savdosini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari haqida"gi qarori
3. "Davlat xaridlari tizimini optimallashtirish va ularga kichik biznes sub'ektlarini jalb qilishni kengaytirish haqida" gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 7 fevral 1474 – sonli qarori

7. Каменева. Н. Г. Организация биржевой деятельности - М.: Банки и Биржи ЮНИТИ, 2002, стр. 313.
8. Дегтярева О.И. Биржевое дело - М.:МАГИСТР 2010, . 623 с.
10. Yunusov M.P. Birja va yarmarka faoliyatini boshqarish. Ma'ruzalar matni, -T., TDIU, 2005. 24-2 betlar
11. www.yarmarka.ru
12. www.uzex.uz
13. www.xarid.uz.
14. www.Exchage.com
15. “O’zko’rgazmasavdo” OTAJ reklama bo’limi materiallari.
16. Htpp\| Yarmarka. Ru. Internet sayti materiallari.

14- mavzu. Zamonaviy yarmarkalar va xalqaro savdoni tashkil etish.

Reja:

- 10.1. Yarmarka va ko’rgazmalarni tashkil etishning yangi davrdagi o’ziga xos xususiyatlari.
- 10.2. Qishloq xo’jaligi mahsulotlari yarmarksi va ko’rgazmalarining o’ziga xos xususiyatlari.
- 10.3. Zamonaviy yarmarkalarda savdolashuvning auktsion turi va auktsionli savdoni tashkil etish.
- 14.4. O’zbekiston Respublikasida xalqaro paxta yarmarkasi.
- 14.5. Xalqaro sanoat yarmarkasi va koperatsion birja.

10.1. Yarmarka va ko’rgazmalarni tashkil etishning yangi davrdagi o’ziga xos xususiyatlari.

Tovarlar bozorida kon'yunktura va marketing tadqiqotlari natijalaridan foydalangan xolda, ulgurji savdoning yangi shakl va usullarini qo'llashgina firma va korxonalarga mustaxkam pozitsiyalarni egallash imkoniyatini beradi. Xususan yarmarka, ko’rgazmalarda, birja va auktsionlarda ulgurji savdoning samarali

usullaridan foydalanib muntazam ishtirok etish tijorat faoliyatining barcha yunalishlarida peshqadamlik qilib borishning muhim garovidir.

Turli shakldagi ulgurji savdolari ichida eng muhimi va zamonaviysi yarmarka va ko'rgazmali savdolar bo'lib, ular faoliyatilari yunalishlarini tarixiy nuqtai nazardan Nijniy Novgorod yarmarkasi faoliyati misolida yaqqol ko'rishmiz mumkin.

Yarmarka va ko'rgazmalarining samarasi ko'p jihatdan ularning tijorat xizmatlari tarkibida informatsiya xizmatining tashkil etilganligi, bozordagi vujudga kelgan vaziyat va xolatlar haqida o'z vaqtida va to'liq axborotni tashkilotchilarga yetkazilib berishishi imkoniyatlariiga bog'liqdir.

Keng ma'noda informatsiya yoki axborot deganda, shaklidan qat'iy nazar voqeа, hodisa, yuz berayotgan jarayonlar, dalillar, shaxslar haqidagi yangilik unsuriga ega xabar, ma'lumot tushuniladi. Shuning uchun ham tovar va xizmatlar bozoridagi vaziyatni harakterlovchi xabar va ma'lumotlar tijorat max'lumotlari ichida eng muhimi hisoblanadi.

Tijorat informatsiyasini yig'ish zaruriyati quyidagilar bilan bog'liqdir:

- Aholi talabi va unga ta'sir etuvchi omillar;
- Tovarlar taklifi;
- Ulgurji xaridorlar;
- Korxona raqobatbardoshligi va saloxiyati (potentsial) imkoniyatlari bilan bog'liqdir.

Qaror qabul qilish uchun aholi talabi, ularga ta'sir etuvchi omillar, yarmarka qatnashchilari va ekzebitorlari taklifi haqidagi ma'lumotlar nixoyatda muhim hisoblanadi. Talabni o'rganish uni joriy o'zgarishlarini aniqlashga, xarid qilish motivlarini, taklif etilayotgan tovarlarni narxlari nechog'lik o'z xususiyatlariiga va yarmarka qatnashchilari xarid qudratlariga mos bo'lishliligi darajalarini aniqlashga yordam beradi.

Yarmarka qatnashchilari - xaridorlar talablarini belgilovchi omillar qatoriga, ularning molivayiy imkoniyatlari va bozordagi raqobatbardoshlik axvoli, faoliyatining ixtisoslashuvi, mutaxassislarining malaka darajasi, faoliyat

ko'rsatayotgan xudud aholisining tarkibi, ularni urf-odati, milliy an'analari, ularni daromadlari darajasi va boshqalarni kiritish mumkin.

Yig'ilgan informatsiya - axborotni o'z vaqtida qayta ishlash, taxlili qilish qayta realizatsiya qilish uchun xarid qilinayotgan tovar assortimenti va xajmini aniq belgilashga yordam beradi va yarmarka, ko'rgazma qatnashchilari zarar ko'rish qaltisliklarini kamaytiradi.

Zamonaviy yarmarka va ko'rgazmalarining o'ziga xos xususiyatlaridan yana biri ular ilmiy-texnika taraqqiyoti, informatsion texnologiyalar rivojlanagan bir davrda amalga oshirilmokda, bunda har qanday faoliyat turida bo'lgani kabi, yarmarka va ko'rgazmalardagi tezkor va to'la informatsiyaning ahamiyati nixoyatda katta. Bunaqa informatsiyalar na milliy, na vaqt, na makon chegaralarini tan olmaydi.

Zamonaviy yarmarka ko'rgazmalar xususiyatlarini tariflamoqchi bo'lsak yana bir marotaba Nijniy Novogrod yarmarkasining 2002 yilga mo'ljallangan tabirlar mavzusiga bir nazar tashlasak bo'ladi:

Umumi nomi "Forum 2002" da quyidagi ko'rgazmalar rejalashtirilgan edi:

- 11-14 aprelda "Rossiya mebellari" mavzusida mamlakat mebel ishlab chiqarish sanoati mas'ul xodimlari ishtirokidagi konferentsiya.
- 14-17 mayda "Buyuk daryolar- ICEF". U Xalqaro ilmiy-sanoat forumi, "Buyuk daryolar xavzalari va kirgoklari xududlarining rivojlanishi" mavzusidagi konferentsiya.
- 29-may-2 iyun 111inch Butun Rossiya avtoforumi. "Rossiya avtomobil sanoati rivojlanishi muammolari i istiqbollari" mavzusidagi konferentsiya, "Avtosalon" Rossiya avtomobillari maxsus ko'rgazma.
- Avto komponentlar, Avtotexxizmat, Motovelotexnika, Avtomobilarga yoqilg'i quyish shaxobchalari. Garajlar va to'xtash joylari, Logistika, Svarka kabi mavzularda uchrashuvlvr suxbalar, anjumanlar o'tkazildi.
- "Yagona Rossiya", Butunrossiya ilmiy sanoat formumi.
- 4-9 sentyabrda "Interkontakt" konferentsiyaning xalqaro qismi. Dasturda degustatsiya tanlovi o'tkazilishi ko'zda tutilgan.

- 25-28 sentyabrda “ Tarbiya. Maorif, Karera” mavzusida 11- Xalqaro forum dasturida, o’quv texnikasi, tarbiya va ta’lim berishning yangi texnologiyasi va usullari. Yangi o’quv qo’llanmalari, bo’sh lovozimlar ko’rgazmalari.

- 11-13 oktyabrda “ Zoodunyo” mavzusidagi xayvonot i va uy xayvonlari (Itlar, mushuklar va b.) ko’rgazmalari o’z faoliyatlarini olib bordilar.

Nijniy Novgorod yarmarkasining internetdagi saytidan ma'lum bo'lishicha reja to'la bajarimokda, ustiga -ustak yanada boyitilmokda masalan: 24 inyunda rejadan tashqari Xitoy Xalq Respublikasi rasmiy delegatsiyasi tashrif buyurdi. 23 iyundan “ Yarmarkada o’ynab qol!” mavzusida Rossiya yoshlar madaniyat markazi o’zining doimiy yarmarkadagi dasturlarini boshlab yubordi. Dasturda Gala-kontsert, “Buyuk Volga” davra suhbati, A.D.Saharov nomli san’at bayrami, davrimizning mashxur musiqachilari ishtirokidagi bayram tantanalari, Volgabo’yi federal okrugidagi Rossiya Prezidenti Vakili S.V.Kirienko ishtirokidagi davra suhbati va boshqalar o’tkazildi. Bularning hammasi Nijniy Novgoroddagi yarmarka Rossiya xalqi xayotidagi ahamiyati nixoyatda kattaligini ko’rsatib turishi bilan birga uning kelajagi ham ana shu yarmarka bilan bog’liqligini yana bir bor tasdiqlamokda.

Tadbirlarni nechog’lik jiddiy tashkil etilayotganligini faqat, “AVTOFORUM-2002” dasturidagi eksponatlar tasnifi bilan ifoda etish bilan tasavvur etish mumkin, Rossiya avtomobillari, Xorijiy Avtomobillar, Yukbop, engil avtomobillar, Avtobuslar, maxsus va Ixtisoslashtirilgan avtotexnika, Elektromobillar, Turli Tyuning namunalari, avtodizayn, texnologiya va loyixalar ko’rgazmasi, Menejment ishlovlari-ishlab chiqarishni tashkil etish, sifatni boshqarish va boshqa mavzulardagi eksponatlar namoyish etildi.

“ Avtotexxizmat” mavzusidagi dasturda esa: Texnik xizmat shaxobchasi; Remon, xizmat, yoqilgi kuyish shaxobchalari; Moy almashtirish, tozalash, g’ildirak yamash, G’ildirak protektorini tiklash; Nazorat asboblari, kompressorlar, uskana, materiallar, Avtomobilarni remont qilish bo'yicha adabiyotlar, yo'l va yo'l qurilish texikalari , harakat xavfsizligi anjomlari, yo'l ko'rsatkichlari, avtomobillar aksessuarlari va boshqalar namoyish etildi.

Yarmarka qatnashchilari uchun urnatilgan to’lovlar ham ramziyiligi bilan mashxur bo’lib, ishtirokchilar doirasini kengligini ta’minlaydi. Masalan har bir

yarmarka qatnashchisidan faqat 50 shartli AQSh dollari miqdorida to'lovlar talab qilinadi. ishtirokchi taxminan shu pul miqdorida baholangan yarmarka haqidagi ma'lumotlar, qatnashchilar haqidagi ma'lumotlar, beydik (daftar, qalam, jomadoncha), hamda yarmarkada rejalashtirilgan qatnashchilar ma'ruzalari mantlari bilan ta'minlanadilar.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, yarmarka va ko'rgazma savdosi, savdo qatnashchilari xohish-istiklariga, mamlakatda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar, iqtisodiy va sisyosiy hayotda yuz berayotgan an'ana va yo'naliishlarga muvofiq bozor sharoitida muhim xo'jalik sub'ekti sifatida faoliyat ko'rsatishi mo'ljallangan.

10.2. Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yarmarksi va ko'rgazmalarinng o'ziga xos xususiyatlari.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari ham oldi-sotdi shartnomalarining barcha ko'rinishlari predmeti bo'lib, ularini ulgurji savdosi, yarmarka va ko'rgazmalari qator o'ziga xos xususiyatlari bilan ajralib turadi. Birinchidan, qishloq xo'jaligi mahsulotlarining ko'pchiligi tez buziluvchi mahsulotlar turiga kirib, darxol iste'mol qilishni yoki qayta ishlashni talab etilishi bilan boshqa-sanoat mahsulotlaridan farq qiladi. Shuning uchun mahsulot ishlab chiqaruvchi uni uzoq vaqt saqlab turish imkoniyatiga ega emas.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini shartli ravishda dehqonchilik mahsulotlari yarmarkasi va chorvachilik mahsulotlariga bo'lish mumkin.

Dehqonchilik mahsulotlari yarmarkasini: a) Meva sabzavotlar yarmarkasi; b) Texnik xom roshyo (Paxta, zig'ir, kanop, yog'li, dukkakli va boshqalar) mahsulotlari yarmarkalariga ajratib o'rganish maqsadga muvofiqli.

Chorvachilik mahsulotlari yarmarkasi ko'pinchao' noyob zotlik chorvalar (Otlar, sigir, qora mol, cho'chqa, parranda, quyon va boshqalar) ko'rgazmalarini va an'anaviy yillik mavsumiy maxsuldar chorvalar ko'rgazma-yarmarkalaridan iboratdir.

Bundan tashqari qishloq xo'jalik mahsulotlari ayrim xollarda boshqa tarmoq qayta ishlash sanoati mahsuloti sifatida o'tkaziladigan yarmarka va ko'rgazmalar predmeti bo'lishi mumkin.

Qishloq xo'jaligi mahsulotlari yarmarkalarini tashkil etish tamoyillarini o'rghanishda quyidagilarni sanab o'tish kifoya qiladi:

Meva-sabzovotlar yarmarkasi tashkilotchilari ko'pincha ko'rgazmaga, yarmarkaga, savdo tashkilotlari bilan bir qatorda ushbu mahsulotlari kayta ishlovchi sanoat korxonalarining vakillarini ham taklif etadilar. Ayrim xollarda o'tkaziladigan yarmarka va ko'rgazmalar tashabbuskorlari, ayni shu qayta ishlash sanoati mutaxassislari ta'sischilari bo'lishlari ular uchun zarur bo'lgan xom ashyo manbalarini aniqlash va ular bilan uzoq mudatli shartnomalar tuzish imkoniyatini yaratadilar.

An'anaviy qishloq xo'jalik mahsulotlari yarmarkalari qayta ishlash sanoati korxonalari bilan bir qatorda qayta ishlash va mahsulotlarni saqlashning yangi ilg'or texnologiyalarini keng jamoatchilik va mutaxassislarga tashnishtirish maqsadida maxalliy davlat boshqaruvi tashkilotlari tashabbusi bilan tashkil etilib, yangi texnologiya va noyob loyixalarini tadbiq etish bo'yicha turli imkoniyatlardarajasini yaratadi, potentsial investorlarni jalg etish uchun reklama vazifasini o'taydi.

O'ta noyob zotlik chorvachilik mahsulotlari yarmarka-ko'rgazmalarida odatda, taklif etilganlar (Badavlat kishilar, kolleksionerlar, seleksionerlar, naslchi-Genetiklar, olimlar, soxa mutaxassislar) ishtiroy etishlari mumkin. Chunki, bu yarmarka va ko'rgazmalarni tashkil etish Chorvani ovqatlantirish tartibi, parvarish qilish va xavfsizligini ta'minlash bilan bog'liq ancha qimmatli harajatlarni talab etish bilan birga qatnashchilir tomonidan maxsus bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlarini taqazo etadi.

10.3. Zamonaviy yarmarkalarda savdolashuvning auktsion turi va auktsionli savdoni tashkil etish.

Ulgurji savdoning xalqaro miqyosidagi keng tarqalgan usullaridan biri real tovarlarni o'ziga xos - individual xususiyatlari bilan sotishga ixtisoslashgan auktsion savdodir. Xalqaro savdoda auktsion usulda sotiladigan tovarlar namenklaturasi bir oz cheklanganligi bilan ajralib turadi. Auktsion savdo predmeti bo'lib ko'pgina xollarda, mo'yna, choy, qo'y yungi, gullar, kauchuk, teri, antikvariat buyumlar, muzey eksponatlarning nusxalari bo'lishi mumkin. Jahonda ishlab chiqarilgan qo'y

yungining taxminan yarimi auktsion savdo yordamida sotiladi. Bu boradi Sidney shaxrida amalga oshiriluvchi Avstraliya va Yangi Zellandiya auktsionlarining nufuzi ayniqsa ahamiyatlidir. An'anaviy choy auktsionlari odatda, Kalkutta (Xindiston), Jakarta (Indoneziya), Mombas (Keniya), Kolombo (Shri-Lanka) da bo'lib o'tadi. Kauchuk bo'yicha auktsion markazi bo'lib, Singapur tanilgan bulsa, Muyna Sankt-Peterburg, antikvariat auktsioni Londondagi Kristi (Christie) va Sotbi (sothby) auktsionlari hisoblanadi.

Auktsionda sotiladigan tovarlar ommoviy yoki noyob yagona tovarlar turlari yuzasidan bo'lishlari mumkin. Ularni xususiyatlari bobida alohida bir tan olingan mezonni aytish mushkul bo'lganligi sababli ularni avvaldan namoysh qilib ko'rsatish va xaridorlarni sinchiklab ko'riganidan o'tkaziliishi bilan ajralib turadi.

Auktsion savdoni an'anaviy-muntzam va axyon – axyonda o'tkaziladigan nomuntazam savdo turlari mavjuddir.

Muntazam o'tkaziluvchi auktsionlar otdatda ma'lum bir joyda, ixtisoslashgan firmalar tomonidan bir yilda, bir marotaba yoki bir chorakda bir marotaba o'tkaziladi. Odatda ko'pincha bunday tovarlar boshqa usulda sotish imkoniyatlari cheklanganlikda qo'llaniladi.

Auktsionga qabul qilingan tovarlar partiya (Lot) sifatiga karab sortlarga ajratiladi, har bir partiyadan namunalar olinib ularga maxsus raqamlar berib belgilanadi, so'ng ularni katologlari chop etilib, auktsionga olindinroq kelib tovar bilan tanishuvchi potentsial xaridorlarga jo'natiladi.

Auktsiondagи savdolashuv odatda, yo kim oshdi savdosi, yoki narxni pasayib borishi (Golland auktsioni) usuli bilan harakterlidir. Narxni asta sekin oshib borishi imo-ishora yoki "baqirib" amalga oshiriladi. Eng yuqori yoki sotish uchun rozilik berilgan eng past narx belgilangan daraja – optimal narx yuzaga kelguncha savdoshashuv davom ettiriladi yoki sotuvchi o'z tovarini sotuvdan olishi bilan savdo tugallanadi.

Auktsion savdoda yana bir usul xaridor nomi e'lon (oshkor) qilinmasdan sotilishi ham qo'llaniladi, bu usul qo'llanilagnda o'ta noyob yoki o'ta qimmat tovarlar savdosida maxsus belgilar orqali amalga oshiriladi. Bunda tovarni ohirigi bahosi e'lon qilinadi, kim xarid qilganligi pinxon qoladi.

Auktsion savdoning mohiyatini yanada chuqurroq tushunish uchun mo'yna savdosi misolida savdo tartibini ko'rib chiqish kifoyadir. Mo'yna murakkab xususiyatlari tovarlar sarasiga kiradi. Chunki, mo'yna sifatiga bo'lgan yondashuv individual bo'lganligi, rangi, yungi, o'lchamlari har xilligi sababli, uni sifat ko'rsatkichlarini baholash fakt, organoleptik usulda sub'ektiv harakterda bo'ladi. Savdoni auktsion shakli kon'yunkturani belgilovchi omil bo'lib, talab va narx darajasini to'g'ri belgilashda juda qo'l keladi. Auktsion savdoni afzallikllaridan yana biri qisqa vaqtida katta xajmdagi tovarlarni sotish va ayni shu vaqtida bozordagi mavjud talab va taklif nisbatlarini aniqlashga xizmat qiladi. Muyna savdosi auktsionlari yillik jadvalini otdatda Xalqaro muyna federatsiyasi (XMF) bilan auktsion savdo firmalari o'zaro kelishilgan xolda belgilaydilar. Xaridor avvaldan savdoga qo'yiladigan tovarni ko'zdan kechiradi, agar xaridor bozordagi mo'ljalnarxni eng yuqorisiga rozi bo'lsa, shu zaxotiyoy tovar uning tasarrufiga o'tishi ham mumkin.

Muyna bozori kon'yunkturasi har mavsumda har xil bo'lishi mumkin, shuning uchun bozor sub'ektlari strategiyasi ham har xil bo'lishi tabiiy, AQSh va Uzoq sharq mamalakatlari bu borada faollik ko'rsatadilar, Sankt-Peterburg auktsionni bahosi ta'siri ancha vaqtgacha, boshqa mo'yna auktsion markazlarida sezilib turadi. Jahon auktsionlarida ishlab chiqarilgan mo'ynaning qariyb 90% i sotilib, ularni deyarli hammsi xom ashyo sifatida bo'ladi. Faqat qorako'l terisigina oshlangan va bo'yalgan bo'lishi mumkin. Har yili sankt-Peterburg mo'yna auktsionnini qariyb 700 xaridor ziyorat qilib, savdo ishlarini amalga oshirib o'z yurtilariga qaytadilar.

Eksportbop mo'ynalar otdatda mahsulot etishtirib beruvchi xo'jaliklarda qabul qilinadi, yoki shahar mo'yna saroyida, sovutkichi bor matbuot jamiyatlari xo'jaliklarda amalga oshirilib, sortlarga ajratiladi. Tovarni auktsionga tayyorlash auktsion o'tkazishning muhim qismi bo'lgan ixtisoslashgan beshta sektsiyalarda amalga oshiriladi.

Maxsus komissiya tovarni xususiyatlarga (rangi, o'lchami, terini ishlovi, tashqi ko'rinishi) qarab savdo lotlariga ajratadilar. Bitta lotda tovarlar mumkin kadar bir xil xususiyatlarga ega bo'lishlari kerak.

Lotlar bo'yicha katologlar tayyorlanadi.

Bir xil lotlar stringlarga birlashtiriladi va bittadan namunasi tanlab olinadi. Muyna tayyorlanishi jarayonida bir stringda norka mo'ynasida 40 dona, yungi uzun mo'ynalar uchun 20 dona, bulsa, Sobol mo'ynasining har biri alohida string bo'lib shakllantiriladi.

Muyna assortimentini aniqlashda, albatta bozordagi vujudga kelgan vaziyat hisobga olinadi.

Tovarni hammasi tayyor bo'lgandan so'ng xaridorlarga auktsion kataloglar va hamda auktsion shartlari va boshqa zarur informatsiyalar jo'natiladi.

Tovarni tayyorlash jarayoni to'la tugagandan so'ng, mo'yna namunalari maxsus zalda namoysh uchun qo'yiladi, tovarni kolgan qismi maxsus o'rovlerda tovar omborlarida saqlash uchun jo'natiladi. 8-10 kun mobaynida xaridorlar tovar namunalari bilan tanishishlari va uni sifatiga baho berishlari mumkin. Zarur bo'lsa, xaridorlar omborda saqlanayotgan tovarni partiyasini hammasi stringini ko'rish istagini bildirishlari ham mumkin.

Odatda auktsionlarda doimiy xaridorlar qatnashadilar va ularni auktsion tashkilotchilari taklifnomalari asosida savdoga qo'yilgan tovarlar bilan xech bir to'siqsiz tanish imkoniyati yaratiladi. Sankt-Peterburg auktsionining doimiy qatnashchilari Yaponiya va Koreya respublikasi biznesmenlari tashkil etadilar. Norka muynasi Italiyaliklar, Sobol esa AQSh liklarda katta talabga egadirlar.

Ochiq auktsion savdo odatda 4-5 kun davom etadi. Savdo ingliz tilida olib boriladi, har 1,5-2 soatda auktsionator (auktsionni olib boruvchi klerk-xizmatchi almashinib turadi. Auktsionatorni o'ng va chap taraflarida auktsion zalni, ma'lum sektor bo'laklarga bo'lib olib kuzatuvchi xodimlar-xizmatchilar joylashib kuzatadilar. Auktsion jarayonida birinchi boshlang'ich narxni maxsus komissiya tomonidan belgilangan limit narxdan boshlanadi. Sotuvchi o'z xolicha narx qo'yish huquqiga ega emas, u faqat o'z vakolatlari doirasida auktsion uchungina mas'uldir. Auktsion narxiga ta'sir etuvchi omillar xilma-xil va murakkabdir, bozordagi talab va taklifdan tashqari, avvalgi auktsion narxlari, boshqa auktsionlardagi shu tovar narx kotirovakalari hisobga olinadi va bu narx jahon narxlaridan past yoki baland bo'lishi oddiy xoldir. Narxlar AQSh dollarি hisobida

har bir teri va mo'yna uchun aniqlanib, tovar yetkazib berishning FOB shartida belgilanadi. Narx darajasi, sotish taktikasi va mo'yna bozoridagi vaziyat, har bir auktsion boshlanishidan 1-23 kun oldin muxokama qilinishi mumkin. Tovarlar sotish navbatni auktsionator – firma tamonidan belgilanadi. Eng yukori narx taklif etgan xaridor tovarni sotib olgan hisoblanadi, Yog'och bolga zarbi tovushi esa, lot sotilganini bildiradi.

Savdo tugaganidan so'ng auktsion faoliyatini o'tkazgan tashkilot buxgalteriya va valyuta-moliya bo'limi zarur barcha hujjatlarni tayyorlab beradi. Sotilgan tovar, tovar katologini ma'lum varag'i (shu tovarga tegishli) buxgalteriyaga jo'natiladi, u erda xaridorga chek va tovar spetsifikatsiyasi, (xarid qilingan lot raqami yozilgan) beriladi.

Sankt-Peterburgdagi auktsion valyuta - moliya shartlari xaridorni to'lov qobiliyati haqidagi kafolotlarni talab qilmaydi, bu esa o'z navbatida auktsionda barcha qatnashchilar uchun bir xil imkoniyatlar mavjudligini, kontragentlarga bo'lган yuqori darajadagi ishonchni bildiribgina qolmay, auktsion tashkilotchilari obro'siga obro' qo'shadi.

Xarid tovarlari uchun hisob-kitob mezonini konvertatsiyalanuvchi valyutada xarid kunidagi valyuta kotirovkasi bo'yicha aniqlanadi va asosan naqd pul hisobida tovar narxining to'la miqdori to'lovi va harajatlarni transport vositasiga ortishgacha bo'lган qismi olinadi. Hisob-kitob naqdsiz amalga oshirilganda, telegraf yoki chaqirib olish huquqsiz ochilgan akkreditiv usullaridan keng foydalilanadi.

Tovar qiymati degan tushuncha quydagilarni bildiradi: xarid qilingan mo'yna (tovar) narxi, Auktsion yig'imi yoki komission yig'imi - 2 % miqdorida, Xalqaro mo'yna Federatsiyasiga – 0,6 % miqdordagi to'lovlar tushuniladi.

To'lov transport - ekspeditsiya xizmati bo'limiga kelib tushishi bilanoq, tovar instruktsiya –ko'rsatmaga muvofiq xaridor manziliga jo'natiladi.

Jo'natiladigan tovarlarining asosiy qismi, Xelsinki avtotransporti xissasiga to'g'ri keladi.

Sankt-Peterburg mo'yna auktsionini o'tkazish mexanizimi o'ziga xos xususiyatlarga ega. Bu auktsionga boshqa auktsionlarga qaraganda o'ta puxta tayyorgarlik ko'rildi, auktsion paytida va undan keyin anglashuvmovchiliklar,

tovar sifatiga reklamatsiyalar mutlaqo yo'q. Shuning uchun ham auktsiondag'i narxlar boshqa auktsionlardagi narxlarga nisbatan bir oz yuqori bo'lsa ham mijozlar soni doim oshib bormoqda.

10.4. O'zbekiston Respublikasida xalqaro paxta yarmarkasi.

Toshkentda Xalqaro O'zbekiston paxta yarmarkasining an'anaviy tarzda o'tkazilishi mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli iqtisodiy islohotlar, shu jumladan paxtachilik sohasidagi tub o'zgarishlarning natijasidir. Yarmarka birinchi marta 2005 yilda Prezident Islom Karimov tashabbusi bilan tashkil etilib, mamlakatimizda paxtani ishlab chiqarish, qayta ishslash va sotish borasidagi xalqaro hamkorlikni rivojlantirishda yangi bosqichni boshlab bergen edi. O'tgan yillar mobaynida unda ishtirok etayotgan xorijiy ishbilarmon doiralar vakillarining soni muttasil ortib borayotgani O'zbekistonning jahon paxta bozoridagi nufuzi yanada oshayotganligining yaqqol dalilidir.

Masalan, 2005 yilning kuzida o'tgan Toshkent yarmarkasiga 30 mamlakatdan paxta savdosi bilan shug'ullanadigan 169 vakil kelgan bo'lsa, 2006 yili unga 36 davlat, jumladan, Belarus, Vietnam, Hindiston, Eron, Malayziya, Pokiston, Turkiya, Ukraina va Frantsiya kabi mamlakatlardan 250 dan ortiq vakil tashrif buyurdi. Shunisi e'tiborliki, bu borada mamlakatimiz korxonalari bilan hamkorlik qilish istagini bildirayotgan firma va kompaniyalar orasida Janubi-Sharqiy Osiyo kompaniyalari ko'pchilikni tashkil qiladi. Ushbu mintaqqa jahon to'qimachilik sanoatining markaziga aylanib bormoqda.

Ta'kidlash lozimki, o'tgan yillari paxta hosilining yarmarkaga qo'yilgan qismlari to'la sotildi. Bu o'zbek paxtasiga jahon bozorida talab kattaligi va uning taklif etilayotgan hajmi har doim to'la xarid qilinayotganini tasdiqlaydi. O'zbekiston dunyoda paxta eksporti bo'yicha ikkinchi o'rinni egallab kelmoqda. Toshkentda o'tajak ushbu xalqaro tadbirlar esa o'zbek paxtasining jahon bozoriga yanada jadal kirib borishi va kelajakda barqaror iqtisodiy aloqalar o'rnatilishi uchun samarali vosita bo'lib xizmat qiladi.

Iqtisodiyotning globallashuvi sharoitida har qanday mahsulot avvalo raqobatbardosh bo'lishi kerak. So'nggi yillarda mamlakatimizda etishtirilayotgan paxta tolasi ham toifasi, ham mikroneyri bo'yicha eng sifatli deb e'tirof etilayotgani va shu bois, ayniqsa, yuksak qadrlanishi – Prezidentimiz Islom Karimovning paxtachilikni rivojlantirishga oid farmon va qarorlari ijrosining amaldagi samaralaridandir. Davlatimiz rahbarining bu sohadagi siyosati barqaror ishlab chiqarish hajmlarini saqlash va paxtamizining xalqaro savdosi uchun raqobat muhitini yaratishga asoslangan.

Istiqlol yillarida paxtani etishtirish va qayta ishlashga yondashuv tubdan o'zgardi. Olimlarimiz yangi navlarni yaratishda, birinchi navbatda, xalqaro bozor talablarini hisobga olmoqda. Mamlakatimizda asosan tezpishar, tola chiqishi 40 foizgacha bo'lган navlar maxalliylashtirilgan. O'tgan yillar mobaynida mavjud paxta tozalash va uni qayta ishlash korxonalari modernizatsiya qilindi. Bu esa tola chiqishi va sifatini oshirish imkonini bermoqda. Tolani sinashning dunyodagi eng ilg'or uslubi HVI-test hisobiga uni sertifikatlash mexanizmi xalqaro standartlar darajasiga yetkazildi.

Endilikda iste'molchilarga mahsulotni jo'natish hududiy paxta terminallari orqali amalga oshirilmoqda.

Izchillik bilan amalga oshirilayotgan bunday chora-tadbirlar mamlakatimizning eksport bozori geografiyasi yanada kengayishiga xizmat qilmoqda. Bugun O'zbekiston paxta tolasi Xitoy, Rossiya, Eron, Bangladesh, Pokiston, Koreya Respublikasi, Vietnam singari ko'plab mamlakatlarga eksport qilinmoqda. Janubi-Sharqiy Osiyoda jadal rivojlanayotgan to'qimachilik sanoatining o'zbek paxtasiga ehtiyoji muntazam oshib bormoqda. Mazkur mintaqadan yarmarkada qatnashayotgan treyderlar sonining oshayotgani ham buni tasdiqlaydi.

Xalqaro ekspertlar fikricha, an'anaviy yarmarkani o'tkazish uchun yilning eng qulay, ya'ni paxta tolasi bozorida savdo faollashgan payti tanlangan. Unda bevosita ishtirok etish xorijlik ishbilarmonlarga o'zbekistonlik hamkorlar bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqalarni keng yo'lga qo'yish va yanada mustahkamlash imkonini beradi. Bunday hamkorlik esa yuksak samaralar berishi tabiiy.

10.5. IV Xalqaro sanoat yarmarkasi va koperatsion birja

Xalqaro sanoat yarmarkasi va Kooperatsiya birjasi (XSYaKB) tarixi

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.11.2007 yildagi PF-3937-sonli "Ichki tarmoq va tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini yanada kuchaytirish to'g'risida"gi farmoyishiga muvofiq tashkil etilgan Respublika sanoat yarmarkasi va Kooperatsiya birjasini o'tkazishdan boshlanadi. O'zbekiston Respublikasidagi katta va kichik korxonalar o'z mahsulotlarini nafaqat umumrespublika miqyosida namoyish qilish, balki, shuningdek, ishlab chiqarishdagi innovatsiyalar va yangiliklar, boshqa tarmoqlar va korxonalar erishayotgan yutuqlar, ishlab chiqarilayotgan materiallar, butlovchi qismlar va h.k. uchun yaqin istiqboldagi talabni aniqlash imkoniyatiga ham ega bo'lishdi.

Uzoq muddatli ishonchli sheriklarni topish, ishlab chiqarish ular bilan shartnomalar tuzish va o'zi ishlab chiqargan mahsulotlarni sotish, keyingi yilga buyurtmalar portfelin shakllantirish uchun yaxshi imkoniyat paydo bo'ldi.

Yarmarkani o'tkazishning birinchi yilida bunday kooperatsiya natijasida import o'rmini bosuvchi mahsulotlarni yetkazib berish bo'yicha umumiyligi 1 trillion so'mlik shartnomalar tuzildi. Bu shartnomalar korxonalarga tejab qolning erkin valyuta mablag'larini respublikada ishlab chiqarilmaydigan yangi asbob-uskunalar, texnologiyalar, materiallar va ishlab chiqarish-texnologik maqsadidagi boshqa mahsulotlarni xorijdan sotib olishga sarflash imkonini berdi. Buning natijasida erishilgan samaraning salmog'i ikki baravarga oshdi. 2009 yilda Respublika sanoat yarmarkasi va Kooperatsiya birjasi vakolatlari sezilarli darajada oshirildi – unga xalqaro ko'rgazma mavqeい berildi. Ta'kidlash joizki, xorijiy xaridorlarning ko'rgazmadagi ishtiroki mahsulotlarga bo'lgan talabni oshiradi, xorijiy hamkorlar bilan birga mahalliy xomashyo resurslarini qayta ishslash bo'yicha jarayonlarini tashkil qilish bilan bog'liq potentsial imkoniyatlarni ro'yobga chiqarish, sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish va tovarlarni eksportga yo'naltirish imkonini beradi.

XSYaKBning asosiy maqsadlari va vazifalari sifatida quyidagilar belgilangan:

- o'zi ishlab chiqargan mahsulotlarni mijozlarga yetkazib berish bo'yicha shartnomalar tuzish, mahsulotlarni yetkazib berish, shu jumladan, ularni eksport qilish bo'yicha buyurtmalar portfelini shakllantirish;
- iqtisodiyotning real sektori korxonalariga qayta ishlangan xomashyo, materiallar va butlovchi qismlarni, tayyor mahsulotlarni ishlab chiqarishda va yetkazib berishda uzoq muddatli xo'jalik aloqalarini o'rnatishda, shuningdek tarmoq ichidagi, tarmoqlararo va xalqaro kooperatsiyani rivojlantirish asosida yangi mahsulot turlarini o'zlashtirishda ko'maklashish;
- sanoat kompleksi uchun hududiy bozorga samarali mahalliy va xorijiy texnologiyalarni, materiallar, uskunalar va jihozlarni olib kirish va targ'ib qilish;
- xorijiy hamkorlar bilan eksport-import kelishuvlarini ko'paytirish orqali mahalliy tovarlar va xizmatlarni eksport qilishning bozor printsiplari va mexanizmlarini rivojlantirish;
- xorijiy xaridorlar va O'zbekiston Respublikasida mahsulot ishlab chiqarishni tashkil qilishni mo'ljallayotgan potentsial xorijiy hamkorlarni jalb qilish.

O'tkazilgan yarmarkalar shuni ko'rsatdiki, mamlakatimizda sanoat korxonalari kooperatsiyasining mazmun-mohiyati tobora chuqurlashib bormoqda, sanoatning tayanch tarmoqlari va kichik biznes vakillarining o'zaro munosabatga kirishishi ishlab chiqaruvchilarining mahsulotlarni ishlab chiqarish va yetkazib berish, texnik talablarni o'rganish va bozorda talab qilinayotgan yangi tovarlarni o'zlashtirishning keng imkoniyatlarini ochib bermoqda.

Mahsulotlarni xarid qilish bo'yicha tuzilgan shartnomalar umumiy soni va qiymatining o'sib borishi buni tasdiqlaydi.

Diagrammadan ko'rinish turganidek, XSYaKB ishtirokchilarining soni, ayniqsa oxirgi yillarda, sezilarli ravishda oshib bormoqda. Jumladan, agar 2007-2009 yillarda ishtirokchilar sonining yillik o'sishi 23-26 % ni tashkil etgan bo'lsa, 2010 yilda mazkur ko'rsatkich 90 % ga teng bo'ldi.

2010 yilning 26-30 oktyabr kunlari o'tkazilgan IV XSYaKB natijalariga to'xtalib, quyidagilarni sanab o'tish mumkin: ko'rgazmada respublikamizning 715 korxonasi ishtirok etib, ekspozitsiyalarning umumiy maydoni 20 ming kv. metrni tashkil qildi. Sanoat tarmoqlari va kichik biznes korxonalarining 48 prezentatsiyasi

o'tkazildi, jami 3098 shartnoma tuzilib, ularning umumiy qiymati 2.6 trln. so'mni tashkil qildi. Buning natijasida bundan oldingi yarmarka ko'rstkichlari 1.4 baravarga oshirildi.

2011 yilda 200 ga yaqin oldin import qilingan mahsulot turlarini o'zlashtirish bo'yicha kelishib olindi. Ularning jumlasiga GM, MAN, SAM avtomobil oilalariga mansub yangi modellar uchun butlovchi qismlar, avtomobil motorlari, KLAAS traktorlari, diodli va lyuminetsent lampalar va yoritgichlar, fermer xo'jaliklari uchun chorvachilik majmualari uskunalari (xonachali batareyalar), terini qayta ishslash mahsulotlarining katta assortimenti, qurilish mollari mahsulotlari va boshqalar kiradi.

2010 yilda yarmarka ishida 51 xorijiy mamlakatdan 750 xorijiy kompaniya va tashkilot ishtirok etdi: 2.7 mlrd. dollar qiymatidagi eksport kontraktlari tuzildi. Bu 2009 ko'rsatkichlaridan 20% ga oshiqdir. Yarmarka ishtirokchilari uchun mo'ljallangan O'zbekistonning 600 korxonasi tomonidan ishlab chiqariladigan 6 mingdan ortiq mahsulot turlarini qamrab olgan "O'zbekiston sanoat mahsulotlari" katalogi nashr qilindi. Ishlab chiqarish va sanoat kooperatsiyasini rivojlantirishda alohida ajralib turganlar sertifikatlar va maxsus sovg'alar bilan taqdirlandi.

"XSYaKB da mahsulotni ta'sirchan taqdim etish va korxonani mazmunli prezentatsiya qilish" nominatsiyasi bo'yicha "O'zbekneftegaz" MXK, "O'zbekiston havo yo'llari" MAK va «Peng-Sheng» AK g'olib chiqdilar. "Ishlab chiqarishni mahalliy lashtirish bo'yicha tizimli va ta'sirchan faoliyati, mahalliy xomashyo zaxiralarini qayta ishslashga jalb etish va uzoq muddatli kooperatsiya aloqalarini rivojlantirgani uchun" nominatsiyasi bo'yicha – Navoiy tog'-metallurgiya zavodi, Olmaliq tog'-metallurgiya zavodi va Toshkent quvur zavodi.

"Ishlab chiqarishni texnik va texnologik modernizatsiyalash sohasidagi tizimli faoliyati, tashqi bozorlarda raqobatbardosh mahsulotning sifati va hajmlarini oshirganligi uchun" nominatsiyasi bo'yicha – O'zbekiston Aloqa va informatizatsiya agentligi, "Fayz" XK, "Sovplastital" QK. "Faol marketing strategiyasi, mahsulotni tashqi bozorga chiqarishga qaratilgan izchil va ta'sirchan faoliyati, sanoat kooperatsiyasiga milliy va xorijiy hamkorlarni keng jalb etgani uchun"

nominatsiyasi bo'yicha – "O'zkimyosanoat" DAK, "O'zmetkombinat" OAJ va "O'zeltexsanoat" uyushmasi. "Kooperatsiya aloqalarini kengaytirishga qaratilgan tizimli faoliyati, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik korxonalarini sanoat kooperatsiyasiga faol jalgan etgani uchun" nominatsiyasi bo'yicha – "O'zavtoprom" AK, "O'zbekenergo" DAK va "O'zbekcharmpoyabzali" uyushmasi. Shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Savdo-sanoat palatasi tomonidan kooperatsion aloqalarni rivojlantirishda faol ishtirok etayotgan kichik biznes tashkilotlari va sub'ektlari mukofotlandi. Ularning ichida Qishloq va suv xo'jaligi vazirligi, "Qarshiradiator" QK, «Avesto Shams» XK, «Mexmash» OAJ, «Apiteks» MChJ va «Xorezm Antikor Invest» IChKlar bor. Hozirga paytda XSYaKB uzluksiz asosda faoliyat ko'rsatib, u ikki bosqichda o'tkaziladi. Yilning birinchi yarmiga to'g'ri keladigan **ilk bosqichda** hududiy va sanoat yarmarkalari o'tkaziladi. Bu yarmarkalarda, odatda, joriy yil uchun shartnomalar va sanoat mahsulotlarining yangi turlarini o'zlashtirish bo'yicha dastlabki kelishuvlar tuziladi.

Ikkinchi bosqichda – XSYaKB o'tkazilishi paytida, yuqorida o'tkazilishi paytida, yuqorida zikr etilgan kelishuvlar mahsulot yetkazib berish bo'yicha shartnomalarga aylanadi va ishlab chiqaruvchilarning keyingi yil uchun buyurtmalari portfelin shakllantiradi. Bu tadbirlar oralig'ida korxonalar yangi mahsulot turlarini ishlab chiqarish masalalarini hal qiladi, tajriba partiyalari tayyorlanadi va buyurtmachilar bilan kelishib olinadi, mahsulotning texnik parametrlari talab qilinadigan sifat darajasiga olib chiqiladi. Shu bilan birga, aytib o'tish joizki, maydonlarning cheklanganligini hisobga olgan holda, ikkinchi bosqichda ishtirok etuvchi korxonalarni tanlab olish nomzodlarning birinchi bosqich yakunlari bo'yicha muvaffaqiyatli ishtirokidan kelib chiqqan holda amalga oshiriladi.

Hozirgi vaqtida XSYaKB ishtirokchilari tasarrufida tadbirni muvaffaqiyatli o'tkazish uchun barcha sharoitlar, shu jumladan, "O'zekspomarkaz" milliy ko'rgazma markazining xalqaro darajadagi 4 ta paviloni, ikkita atriumi, 4 ta ochiq maydonchasi, konferents-zallarga ega Xalqaro savdo markazi, mehmonxona majmuasi, jamoat ovqatlanish joylaridan iborat yaxlit infratuzilmasi mavjud.

XSYaKB doirasida tuzilgan shartnomalar yarmarka Direktsiyasi tomonidan ro'yxatga olinib, monitoring qilib boriladi. Bu shartomalarning qat'iy bajarilishi uchun qo'shimcha kafolat sifatida xizmat qiladi. Bundan tashqari, XSYaKB doirasida asbob-uskunalar, butlovchi qismlar, qayta ishlangan xomashyo va materiallar sotib olish to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar asosida, qo'shimcha tenderlarsiz amalga oshiriladi (12.11.2007 yildagi PF-3937).

Vazirlar Mahkamasining 03.03.2011 yildagi 59-sonli qaroriga muvofiq joriy yilda hududiy va tarmoq sanoat yarmarkalari aprel-iyun oylarida bo'lib o'tadi (jadval ilova qilinadi). Xalqaro sanoat yarmarkasi va Kooperatsiya birjasi esa, joriy yilning 25-29 oktyabr sanalarida o'tkaziladi.

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlariga ko'maklashish maqsadida XSYaKB Direktsiyasi tomonidan 2011 yildagi XSYaKBga tayyorgarlik ko'rish uchun metodik tavsiyanomalar ishlab chiqildi va tarqatildi. Ushbu materiallar o'z ichiga normativ-huquqiy baza, prezentatsiyalarni tayyorlash va o'tkazish, ko'rgazmalarda ishtirok etish va mahsulotni Katalogga qo'shish uchun turli formalarni to'ldirishdan tortib, korxonalar o'rtasida barqaror kooperatsion aloqalarni o'rnatish, bu jarayonga kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlarini faol jalg qilishgacha bo'lган tavsiyalarni qamrab oladi.

O'tgan yildagi kabi, bu yil ham «O'zbekiston sanoat mahsulotlari katalogini» chiqarish ko'zda tutilgan. Mazkur katalog bilan ham nashriy ko'rinishda, ham XSYaKB Direktsiyasining rasmiy saytida (www.cooper.uz) tanishish mumkin bo'ladi.

Ishlab chiqariladigan mahsulot haqida ma'lumot qo'shish uchun korxonalar ilova qilingan formani to'ldirishi va uni XSYaKB direktiyasiga jo'natishi lozim. Namoyish qilinayotgan mahsulotlarin sotib olishga, shu bilan birga, ishlab chiqarishni O'zbekistonda tashkil qilish orqali import o'rmini bosuvchi va eksportga yo'naltirilgan eng ko'p talab qilinuvchi mahsulotlarni ishlab chiqarish bo'yicha sanoat kooperatsiyasida qatnashishga qiziqish bildirayotgan xorijiy hamkorlarni jalg qilish bo'yicha faol ish olib borilmoqda.

2011 yilning "Kichik biznes va xususiy tadbirkorlik yili" deb e'lon qilinishi munosabati bilan XSYaKB ishtirokchilarining ushbu toifasiga alohida e'tibor

qaratiladi. Xususan, ular ijara beriladigan ko'rgazma maydonlari uchun haq to'lashdan ozod etiladi, vazirlik va idoralar, banklar, sug'urta kompaniyalari, standartlashtirish va sertifikatlash sohasiga ixtisoslashgan tashkilotlar mutaxassislari ularga tegishli maslahatlar berishadi. 2011 yil Xalqaro sanoat yarmarkasi va Kooperatsiya birjasida qatnashishga O'zbekiston Respublikasining barcha sanoat korxonalari va xorijiy hamkorlar taklif qilinadi.

Xalqaro sanoat yarmarkasi va kooperatsiya birjasiga tayyorgarlik ko'rish

Ko'rgazmalar va yarmarkalar – hamkorlar, shu jumladan xorijiy hamkorlarni qidirishning eng unumli va samarali yo'llaridan biridir. Dunyoning har xil o'lkalarida turli yarmarkalar va ko'rgazmalar o'tkazishning asrlar davomidagi tajribasida bu narsa o'z tasdig'ini topgan.

Lekin ko'zlangan ko'rgazmada qatnashishdan amaliy naf ko'rish uchun maxsus tayyorgarlik shlarini olib borish talab qilinadi. o'rgazmada qatnashish haqida qaror qabul ilingandan keyin quyidagi asosiy o'nalishlarda tegishli tadbirlarni amalga shirish kerak bo'ladi:- ko'rgazmaga tayyorgarlik ko'rish, unda qatnashish va ko'rgazma yakunlangandan keyin bajariladigan ishlarni **bosqichma-bosqich rejalashtirish;**

Birinchi bosqich - ko'rgazma ishi boshlanishidan oldin o'z mahsulotingiz haqida har tomonlama to'liq a ishonchli ma'lumotlarni tayyorlash;

- o'z stendingizga potentsial xaridorlarni jalb qilishning aniq va samarali yo'llarini aniqlab olish;

- tegishli tarzda xodimlarni tanlab olishni tashkil qilish va ularni ko'rgazmada ishlash uchun maqsadli ravishda tayyorlash;

- ko'rgazmada erishilgan natijalarni operativ qayta ishslash va tahlil qilishni tashkil qilish va b. Ko'rgazmada qatnashishdan maksimal darajada foyda olish uchun ishlarni quyidagi bosqichlarda amalga oshirish tavsiya qilinadi: Birinchi bosqich – oldin o'tkazilgan boshqa shu kabi ko'rgazmalar haqida imkon darajasida to'liq ma'lumotlarni to'plash.

Bu ishni oldin o'tkazilgan yarmarkalarning tashkilotchisiga, ya'ni Xalqaro sanoat yarmarkasi va Kooperatsiya birjasi direktsiyasiga murojaat qilgan holda oson amalga oshirish mumkin. Rejalashtirilgan maqsadlaringizga erishish uchun hududiy

va tarmoq sanoat yarmarkasi ishtirokchilari bo'lgan tarmoq korxonalari ro'yxatini oldindan aniqlab olish kerak bo'ladi.

Shuningdek, bu muddatlar ichida hududiy va tarmoq sanoat yarmarkalariga taklif qilinishi kerak bo'lgan korxonalar, tashkilotlar, kichik biznes va xususiy tadbirkorlik sub'ektlari ro'yxatini tuzish, bu ro'yxatni Vazirlar Mahkamasining tegishli majmuasi bilan muvofiqlashtirish va takliflarni Direktsiyaga yo'llash lozim (tarmoq sanoat yarmarkasi ishi boshlanishidan 20 kun oldin). Tarmoq yarmarkasi ochilishidan 15 kun oldin ishtirokchilar tomonidan Direktsiyaga tegishli shakldagi ariza taqdim qilinadi va unga ko'rgazmaga qo'yiladigan mahsulotlar nomenklaturasi, stend eskizi, tarmoq yarmarkalariga taklif qilingan tashkilotlar va xorijiy korxonalar ro'yxati ilova qilinadi.

Ikinchi bosqich – ekspozitsiyani tayyorlash. Bu keng qamrovli tushuncha o'z ichiga bir qancha juda muhim parametrlarni qamrab oladi, jumladan:

- sizga kerak bo'ladigan maydon o'lchamlarini aniqlashtirish;
- stendingizning joylashish erini va uni bezatish yo'llarini belgilab olish;
- ko'rgazmada qatnashish shartlarini aniqlashtirib olish;
- zarur bo'ladigan asbob-uskunalar va eksponatlarni yetkazish yo'llari va vaqtini aniqlash. Tadbirning reklama kampaniyasi va korxona (firma) ni taqdim qilish usuli sifatidagi ahamiyatini hisobga olgan holda, stend kompozitsiyasining umumiyligi dizayniga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiq.

Stendlarda, albatta, korxona tomonidan ishlab chiqariladigan mahsulotlar, shu jumladan mahalliylashtirish dasturlari doirasida o'zlashtirilgan, o'zlashtirilishi kutilayotgan, hozirgi vaqtda import qilinayotgan va boshqa tarmoqlarda o'zlashtirilishi taklif qilinayotgan mahsulotlar namoyish qilinadi. Stendlarda tarqatma materiallarning (firmanın tovar markası bo'lgan bukletlar, prospektlar, proektlar bo'yicha takliflar), shuningdek korxona, u ishlab chiqaradigan mahsulotlar, kooperatsion aloqalarni rivojlantirish istiqbollari haqida batafsil ma'lumot beruvchi boshqa materiallarning ham bo'lishi maqsadga muvofiq.

Uchinchi bosqich – tashrif buyuruvchilar bilan bevosita muloqot olib borishga javobgar xodimlarni tanlab olish. Ko'rgazma va yarmarkalarda ishtirok etish sizning mahsulotingiz xaridorlari bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqalarni o'rnatish

imkoniyatini beradi. Korxonaning ko'rgazmadagi muvaffaqiyati yoki muvaffaqiyatsizligi ko'p jihatdan unda ishlovchi xodimlar ishiga bog'liq bo'ladi. Ko'rgazma ishiga jalb qilingan xodimlar har qanday holatda zarur bo'lgan quyidagi sifatlarga ega bo'lishi kerak:

- professional chuqur bilim;
- ozodalik va tashqi ko'rк;
- o'z fikrlarini aniq va tushunarli yetkazib berish va tashrif buyuruvchilar savollariga to'la-to'kis javob berish qobiliyat;
- zukkolik va hushmuomalalik;
- xorijiy tillarni bilish.

Ko'rgazmaga tayyorgarlik ko'rish davridayoq xodimlar vazifalarini imkon darajasida konkretlashtirish kerak bo'ladi. Stendni loyihalash jarayonida har bir xodimning o'rnini aniqlashtirib olish zarur. Stendda xizmat ko'rsatuvchilar ekspozitsiyani tomosha qilishga xalaqit bermasliklari kerak.

Xodimlar qaerda turishidan qat'i nazar, ularning umumiy ko'rinishi – "Xush kelibsiz!" deb turgandek bo'lishi kerak. Xodimlarning kiyimi jozibador va qulay bo'lishi lozim. Xodimlar va tashrif buyuruvchilarining farqlanib turishi uchun kiyimlar firmani ajratib turuvchi alohida belgilar bilan bezatilishi lozim. Sur'atkashlar va jurnalistlar murojaat qilganda, xushmuomalalik bilan ular qaysi nashrdan ekanligini bilib olish va bu haqda matbuot bilan aloqalar uchun mas'ul hamkasbiga xabar berish kerak bo'ladi. Ular bilan keyingi ishni davom ettirish ushbu xodimning professional vazifasidir. Fotomuxbir kadriga tushadigan xodim eksponatlar yoki kompaniya nomini to'sib qo'ymasligi kerak. Shu bilan birga, u stendning mehmondo'st egasi sifatida ko'rinishi zarur. Ko'rgazma savdoni harakatlantiruvchi kuch hisoblanadi. Bundan kelib chiqan holda, har bir tashrif buyuruvchi bilan muloqot qilish, korxona va uning mahsulotlariga har qanday qiziqish va umumiy mehmondo'stlik – tovarning sotilishiga yoki uning sotilishi uchun zamin yaratilishiga sabab bo'lishi kerak. Bevosita muloqot qilishning aniq natijasi esa, ko'rgazmadan keyin ish yuzasidan muzokara o'tkazishga kelishib olish yoki, hech bo'limganda, mahsulotingizning potentsial xaridori to'g'risida ma'lumot to'planishi bo'ladi.

To’rtinchi bosqich o’z stendingizda tashrif buyuruvchilarni qabul qilish bilan bog’liq. Buni ikki xil yo’l bilan amalga oshirish mumkin:

a) birinchidan, bu oldindan rejalashtirilgan va vaqtি belgilangan uchrashuvdir. Odatda bunday uchrashuv oldindan tanish bo’lgan mijoz bilan o’tkaziladi. Shuning uchun bunday uchrashuvga hamma narsa, ya’ni hujjatlar, muzokaralar xonasi, stol va h.k., oldindan tayyorlab qo’yilishi lozim.

b) ikkinchi holatda uchrashuv haqida oldindan kelishilgan bo’lmaydi, ammo tashrif buyuruvchi sizni qiziqtirishini va u bilan suhbat foydali bo’lishi mumkinligini sezib turasiz. Agar siz (yoki sizning xodimlaringiz) boshqa muzokaralar o’tkazmayotgan va qabul uchun bo’sh xona yoki muzokaralar stoli mavjud bo’lsa, suhbatni shu zahotiyoy o’tkazgan ma’qul. Chunki keyinchalik tashrif buyuruvchi qaytib kelmasligi mumkin. Agar uni o’sha paytning o’zidayoq qabul qilishning imkoniyati bo’lmasa, unda u bilan keyinroq uchrashuv o’tkazishni kelishish, lekin shunda ham uchrashuvni imkon qadar o’sha kunning o’zidayoq amalga oshirishga harakat qilish lozim.

Beshinchi bosqich – ko’rgazmaga mos ravishda esdalik sovg’alarini tayyorlash. Ular albatta reklama bilan birga bo’lishi kerak. Bunday sovg’alarga misol qilib ruchkalar, bloknotlar, kalit zanjirlari, papkalar va hokazolarni keltirish mumkin. Lekin ularda albatta sizning firmangiz belgisi va, imkoni bo’lsa, kontakt rekvizitlari bo’lishi kerak.

Milliy ruhdagi sovg’alar ham juda yaxshi esdalik bo’lishi mumkin, ammo ularni korxonaning ishlab chiqarish dasturi bilan bog’lash – biroz murakkabroq vazifa.

Oltinchi bosqich – ko’rgazmani o’tkazish davomida o’tkazilgan uchrashuvlar natijalarini umumiylashtirish. Stend yonida ishlash quyidagi qat’iy va o’zgarmas qoidaga asoslangan bo’lishi kerak: har bir uchrashuvdan ma’lum bir natija olinishi kerak! Ya’ni uchrashuvlar bo’yicha qaydlar shu zahotiyoy rasmiylashtirilishi va kun oxirida albatta umumlashtirilishi lozim. Qaydlarda, hech bo’limganda, kim kelganligi, uning qaerdanligi (tashkilotning nomi va telefonlari), ularning qiziqishlari, nimaga kelishib olingani, nimalar va’da qilingani kabi savollar aks ettirilishi lozim bo’ladi.

Ko'rgazma tugaganidan 3-5 kun o'tgandan keyin, ushbu qaydlar asosida va hali-hanuz yangi taassurotlar asosida ko'rgazma natijalari bo'yicha qisqacha tahliliy umumlashtirilgan ma'lumot tayyorlanishi talab qilinadi. Unda ko'rgazma natijalari (muvaqqiyatlar va yo'l qo'yilgan xatolar), ko'rgazma natijalaridan keyinchalik foydalanish va ishlarni davom ettirish bo'yicha tadbirlar rejasi aks ettiriladi. Esingizdan chiqarmang: ko'rgazmada qatnashish ko'p vaqt va katta chiqimlarni taqozo etadi! Faqat ko'rgazmadan oldin, ko'rgazma davomida va undan keyingi ishlarni to'g'ri tashkil qilish orqaligina Siz sarf qilingan harakat va mablag'laringizni oqlashingiz mumkin.



2014 yilning 28 oktabrdan 1 noyabrgacha Toshkent shahrida navbatdagi VIII Xalqaro sanoat yarmarkasi va kooperatsiya birjasi o'tkazildi.

XSYKBni o'tkazishdan maqsad - xo'jalik sub'ektlariga ishlab chiqarishni optimallashtirishda, tarmoq ichidagi va tarmoqlararo kooperatsiyani yanada mustahkamlash va rivojlantirishga ko'maklashish, respublikada ishlab chiqarilayotgan mahsulotlar haqida keng ma'lumot berish, korxonalarga hamkorlar topish va mahalliy ishlab chiqaruvchilar o'tasida, o'zi ishlab chiqargan mahsulotlarni sanoat kooperatsiyalari bo'yicha yetkazib berish shartnomalari shuningdek, eksport kontraktlarini imzolashga yordam ko'rsatishdan iboratdir.

Ushbu tadbir davomida 50 dan ortiq mamlakatlardan, 1200 dan ortiq xorijiy firma va kompaniya vakillari ishtirok etdilar. Namoyish maydonlarida 20 mingdan ortiq eksponatlar joylashtirilib, ularning orasida tayyor mahsulotni, qadoqlovchi ishlanmalar va materiallarni 2014-2016 yillarda mahalliylashtirish loyahasi asosida o'zlashtirilgan 600 dan ortiq yangi turlar joy egalladi.

Shu kunda 1700 dan ortiq respublikamizning korxona, kompaniya va tashkilotlari o'zlarining mahsulotlarini "O'zekspomarkaz"ning ochiq maydon va pavilionlarida namoyish etdilar.

Yarmarka ishini ikki bosqichda o'tkazish an'anaga aylandi: birinchi bosqichda sohaviy va mintaqaviy ko'rgazmalar va yarmarkalari bo'lib o'tdi, 2014 yilda ushbu yarmarkalar mart-iyun oylarida bo'lib o'tdi. Ikkinci bosqich-Xalqaro sanoat yarmarkasi va Kooperatsiya birjasidir. Shu maqsadda, Xalqaro sanoat yarmarkasi va Kooperatsiya birja ishini tashkillashtirishda O'zekspomarkaz milliy ko'rgazma majmuining barcha infratuzilmasi, 4 ta ko'rgazma zali, 2 ta atrium, ochiq maydonchalar va konferentsiya zallari jalb etilgan, o'n ming kvadratmetrli ko'rgazma maydonida yangi ishlanmalar, xalqaro standartlarga to'liq javob beruvchi sifatli, importga yo'naltirilgan mahsulotlar namoyish etiladi.

VIII Xalqaro sanoat yarmarkasi va Kooperatsiya birjasida mashinasozlik, avtomobilsozlik, elektrotexnika, qurilish, metallurgiya, kimyo, neftekimyo, farmatseftika, oziq-ovqat va yengil sanoat tarmog'i hamda boshqa ko'plab mahalliy ishlab chiqaruvchi sanoat tarmoqlari vakillar qatnashishdi.

Ta'kidlab o'tish joizki, Xalqaro sanoat yarmarkasi va Kooperatsiya birjasi ishtirokchi va qatnashchilari har kuni tarmoq va korxonalarning texnik va texnologik imkoniyatlari bilan yanada yaqinroq tanishish borasidagi 70 dan ortiq prezentatsiyalarida ishtirok etish imkoniyatiga ega bo'ldilar. Umuman olganda yarmarka tadbirlari, yangi tovar turlarini o'zlashtirish uchun koopertsiya aloqalarini rivojlantirish, ishlab chiqarish uchun kerak bo'lgan xom-ashyo va materiallar, qadoqlovchi va ishlab chiqaruvchi-texnikviy ishlanmalarni yetkazib berish yoki sotib olish, eksport uchun shartnomalar tuzishga yo'naltirilgandir.

Sanoat tarmoqlarining talablarini baholay turib, Koopratsion birja qatnashchi-korxonalari rivojlanish istiqbollarini oldindan belgilab olish, ishlab chiqarishni rejalashtirish va kelgusi yil uchun buyurtmalar portfelin shakllantirish imkoniga ega bo'ldilar. Birgina korxona doirasida ishlab chiqarish imkon mavjud bo'limgan yangi mahsulot, ishlab chiqarish resursi va texnologik imkoniyati mavjud bo'lgan boshqa korxonani jalb qilish hisobidan o'zlashtiriladi. Talab va taklifning rivojlanishi va o'zaro manfaatli yetkazib berish asnosida mahalliy ishlab chiqarilgan mahsulotlarni tashkillashtirishga imkoniyat tug'ildi.

Xalqaro sanoat yarmarkasi va Kooperatsiya birjasi doirasida mamlakatimizning barcha iste'molchilari mahalliy korxonalar tomonidan ishlab chiqariladigan asbob-

uskunalar, butlovchi buyumlar, qayta ishlangan xom-ashyo va materiallarni qo'shimcha tenderlar o'tkazmasdan, to'g'ridan-to'g'ri shartnomalar asosida sotib olish amalga oshiriladi.

Mahsulotni yetkazib berish borasidagi shartnomalar yarmarka direktsiyasi ro'yhatidan o'tadi va Davlar reestriga kiritiladi.

Kooperatsion birja qatnashchilariga respublikaning vazirlik va idoralari bank, sug'urta kompaniyalari, sertifikatlashtirish va standartlashtirish sohasiga ixtisoslashgan tashkilotlar mutaxasislari, tashqi iqtisodiy aloqalar va maxsus tashqi savdo kompaniyalari ekspertlarining "on-layn" ko'magi havola etiladi.

Xalqaro sanoat yarmarkasi va Kooperatsiya birjasi doirasida sanoat kooperatsiyasi bo'yicha 8,0 trillion so'mga yaqin mahsulot yetkazib berishga va eksportga 6,7 milliard dollarga shartnomalar tuzildi.

Sanoatni rivojlantirishning muhim sharti –ushbu tadbir birjasi uzoq muddatli xo'jalik aloqalarini shakllantirish va kengaytirish uchun bozor infratuzilmasini tashkil etish; korxonalarga zaruriy xom-ashyova kredit resurslaridan foydalanish, mahalliy xom-ashyo bazasi negizida butlovchi buyumlar va materiallar, tayyor mahsulotlar ishlab chiqarishda mahalliylashtirish dasturlari sanoat kooperatsiyasini rivojlanishiga xizmat qiladi.

O'tkazilayotgan 8-Xalqaro sanoat yarmarkasi va kooperatsion birjasi ishtiroychilar uchun 2014 yilning eng muhim voqealaridan biri bo'lgani shubhasizdir.

Qisqacha hulosalar:

Yarmarkalarning asosiy vazifasi ulgurji savdoni tashkil etish bo'lib, mamlakatimizda vujudga kelgan iqtisodiy vaziyatda yarmarkalarning ham asosiy vazifalari o'tkazilayotgan isloxtatlarga mos ravishda bo'lishi ko'zda tutilgan:

- Xalqaro, milliy, xududiy, mavzuviy, ko'rgazma-yarmarkalarni tashkil etish va o'tkazish;
- Xorijiy va maxalliy firmalarga mamlakat ichkarisida, xorijda hamkorlar izlab topish va ishchan aloqalar o'rnatish;

- Import-eksport kontraktlari imzolash va ijrosi yuzasidan konsalting, marketing, informatsiya, tashki savdo va boshqa xizmat turlarini ko'rsatish;
- Vatanimiz fani, sanoati, texnologiyasi eng yaxshi yutuqlarini informatsiya va reklama ta'minotini amalga oshirish;
- Mamlakatimiz tovar ishlab chiqaruvchilari va tadbirkorlarini xalqaro yarmarka va ko'rgazmalarda ishtirok etishini tashkil etish;
- Mijozlarga turli xildagi keng ko'lAMDAGI bojxona rasmiyatichiligi, transport-ekspeditsiya xizmati, sug'urtalash, bank operatsiyalari va boshqa xizmatlar ko'rsatish;

Boshqa qonun bilan taqiqlanmagan barcha hizmat turlarini ko'rsatishdir.

Respublikamizda xalqaro yarmarka savdosi markazi tashkil etish uchun quyidagi shart-sharoitlar mavjuddir:

- Ko'rgazmali - yarmarka savdo tizimining rivojlanmaganligi;
- mamlakatimiz xo'jalik sub'ektlarining xorijiy hamkorlari bilan markazlashtirilgan muntazam aloqalarini o'rnatilmaganligi;
- mavjud ko'rgazmali - yarmarka savdosi infratarkibi tomonidan ko'rsatilayotgan xizmat darajasining pastligi;
- mamlakatimiz xo'jalik sub'ektlarini tashqi iqtisodiy faoliyatlarini jadallashtirish zaruriyati;
- mamlakatimizga sanoat barcha tarmoqlarini rivojlantirish uchun xorijiy investitsiyalar, texnologiyalarni jalg etish zaruriyati;
- respublikamiz bozoriga turli xil zarur, o'zimizda yo'q mahsulotlarni keltirish uchun sharoit yaratish zaruriyati;
- mamlakatimiz sanoatining ba'zi tarmoqlarini eksportga yo'naltirilganlik darajasining pastligi va boshqalar.

Mamlaktimizda yarmarka va ko'rgazmali ulgurji savdo infratarkibini yanada rivojlantirish zaruriyatini kun tartibiga ko'ndalang qilib qo'ydi.

Yarmarka va boshqa ulgurji savdo majmulari, markazlariga bozor iqtisodiyoti sharoitida qo'yiladigan talablarni quyidagicha ifoda etish mumkin.

- Yarmarka - ko'rgazma infratarkibi, mijozlar bosh talablarini qoniqtiruvchi va o'z egasiga foyda keltiruvchi ob'ekt (mahsulot) bo'lishi kerak.

- infratarkib mamlakatimiz sanoat ishlab chiqaruvchisi va ularni xorijiy hamkorlari o'rtasidagi savdo - vositachiligi faoliyatida mintaqaviy ko'lAMDAGI O'Z O'RMINI TO'LA TO'LDIRISHI KERAK.
- infratarkib raqabotbardosh bo'lishi, o'z mijozlariga jahon andozalariga mos xizmatlar ko'rsatishni ta'minlashi kerak.
- inforatarkib tovar va xizmatlar taqchilligini bartaraf etishi va raqabotchilik muhitini vujudga keltirishi kerak.

Nazorat savollari:

1. Yarmarka savdosi tashkilotlari oldiga bozor iqtisodi sharoitida qanday vazifalar qo'yilgan?
2. Xalqaro yarmarka savdo markazi (kompleksi) ilgari ma'lum bolgan O'zbekiston SSR xalq xo'jaligi yutuqlari ko'gazmasidan nimalari bilan farq qiladi?
3. Nijniy Novgorod yarmarkasi qurilishiga qanday ahamiyat berildi?
4. Nijniy Novgorod yarmarkasi va uning Rossiya xalqlari xayotidagi roli nimalardan iborat bo'ldi?
5. Toshkentda xalqaro yarmarka savdo markazi tashkil etishning zaruriy shart-sharoitlari nimalardan iborat?
6. Xalqaro yarmarka savdo markazi infratuzilmasini tariflang
7. Xalqaro yarmarka savdo markazining mamlaktimiz iqtisodiy solihiyatining yuksalishidagi vazifalari nimalardan iborat bo'lishi kerak?
8. Xalqaro yarmarka savdo markazi tashki iqtisodiiy munosabatlarni rivojlantirishdagi ahamiyati nimalardan iborat?
9. Nijniy Novgorod yarmarkasida o'tkaziladigan tadbirlar harakterini tariflang.
10. Xalqaro, milliy, xududiy, mavzuviy, ko'rgazma-yarmarkalarni tashkil etish tamoyillarini ta'riflang.

Tavsiya etilgan adabiyotlar

1. O'zbekiston Respublikasining "Birja va birja faoliyati to'g'risida" gi qonuni (yangi taxrir). 2001 y. 3 qismi.

2. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining "O'zbekistonda birja va yarmarka savdosini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari haqida"gi qarori.
3. "Davlat xaridlari tizimini optimallashtirish va ularga kichik biznes sub'ektlarini jalb qilishni kengaytirish haqida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2011 yil 7 fevral 1474 – sonli qarori.
4. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 12.11.2007 yildagi PF-3937-sonli "Ichki tarmoq va tarmoqlararo sanoat kooperatsiyasini yanada kuchaytirish to'g'risida"gi farmoyishi
5. Каменева. Н. Г. Организация биржевой деятельности - М.: Банки и Биржи ЮНИТИ, 2002, стр. 313.
6. Дегтярева О.И. Биржевое дело - М.:МАГИСТР 2010, . 623 с.
7. Yunusov M.P. Birja va yarmarka faoliyatini boshqarish. Ma'ruzalar matni, T., TDIU, 2005. 24-2 betlar.
8. www.yarmarka.ru
9. www.uzex.uz
11. www.xarid.uz.
12. www.Exchage.com
13. www.cooper.uz

